Kirish. Ma’lumki, $\mathbb{R}^n$ fazoda m -o‘lchamli haqiqiy tekisliklar bilan kesimlarida subgarmoniklik xossasiga ega bo‘lgan funksiyalar sinfi zamonaviy qavariq geometriyaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda muhim natijalar R Harvi va B.Lauson, shuningdek, F.Forstnerich va boshqa matematik olimlar tomonidan olingan (6–11). Ushbu mualliflar ishlarida $\mathbb{R}^n$ Yevklid fazosidagi m -o‘lchamli haqiqiy tekisliklarda subgarmonik bo‘ladigan funksiyalar sinfi o‘rganilib, ular m -plyuri-

subgarmonik funksiyalar deb atalgan. Bu funksiyalar keyinchalik qavariq geometriyada, xususan geometrik jismlarning qavariq qobig‘ini tavsiflashda samarali qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, R.Harvi va B.Lausonlar tomonidan yanada umumiyroq hol φ-plyurisubgarmonik funksiyalar tushunchasi kiritilgan bo‘lib, ular M Riman ko‘pxilliklarida berilgan yopiq φ-forma yordamida aniqlanadi. Ushbu funksiyalar sinfi va ularning xossalari kalibrlangan geometriyada muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi paytlarda $\mathbb{C}^n$ ta kompleks fazoda m-subgarmonik funksiyalar nazariyasi ham jadal rivojlanmoqda. Bu funksiyalar m-o‘lchamli kompleks tekisliklarda subgarmoniklik xossasiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu borada D.Joyce [12], M.Verbitsky [13] hamda A.Sadullayev va B.Abdullayev [1-5] ishlarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Ushbu ishda m-plyurisubgarmonik funksiyalar sinfida maksimal funksiyalarni m-subgarmonik funksiyalar yordamida o‘rganiladi.

1. m-plyurisubgarmonik va m-subgarmonik funksiyalar. $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada aniqlangan yuqoridan yarim uzluksiz $u(x)$ funksiyani qaraylik. Agar bu funksiyaning $\mathbb{R}^n$ fazodagi ixtiyoriy Π tekislikka (bu yerda $\dim \Pi = m,\ (1 \le m \le n)$ qisqartmasi, ya’ni, $u|_{\Pi}$, $D \bigcap \Pi$ kesishmada subgarmonik funksiya bo‘lsa, u holda $u(x)$ ga m-plyurisubgarmonik funksiya deb ataladi.

Bunday funksiyalar sinfi, odatda, $m - psh(D)$ bilan belgilanadi. Qulaylik nuqtayi nazaridan, $u(x) \equiv -\infty$ funksiya ham ushbu sinfga kiritiladi.

Ma’lumki, m-plyurisubgarmonik funksiyalar sinfi, $m = 1$ bo‘lganda bu sinf qavariq funksiyalar sinfi bilan ustma-ust tushadi. Umuman olganda, quyidagi munosabatlar o‘rinli:

$$cv = 1 - psh \subset 2 - psh \subset \cdots \subset m - psh \subset \cdots \subset n - psh = sh,$$

ya’ni, o‘lcham ortishi bilan mos ravishda funksiyalar sinfi kengayib boradi va $m = n$ holatda subgarmonik funksiyalar sinfiga kelib taqaladi.

Shuningdek, agar $u(x) \not\equiv -\infty$ va $u \in m - psh(D)$ bo‘lsa, u holda bu funksiya muhim analitik xossalardan biriga ega, u lokal integrallanuvchidir, ya’ni $u \in L^1_{loc}(D)$.

Shunday qilib, m-plyurisubgarmonik funksiyalar tushunchasi klassik qavariq va subgarmonik funksiyalar nazariyasini umumlashtiradi hamda ko‘p o‘lchamli fazolarda geometrik va analitik masalalarni tadqiq qilishda samarali vosita hisoblanadi.

$\mathbb{R}^n$ fazoda m-plyurisubgarmonik funksiyalar $\mathbb{C}^n$ kompleks fazosidagi m-subgarmonik funksiyalarning haqiqiy analogi hisoblanadi. Eslatib o‘tamiz, *agar* $u(z)$ *funksiya* $D \subset \mathbb{C}^n$ *sohada aniqlangan bo‘lib, u yuqoridan yarim uzluksiz va har qanday* $\prod \subset \mathbb{R}^n$ *kompleks tekislik uchun* (*bu yerda* $\dim_{\mathbb{C}} \prod = m,\ 1 \le m \le n$) *uning* $u\big|_{\prod}$ *qisqartmasi* $D \bigcap \prod$ *da subgarmonik funksiya bo‘lsa, u holda* $u(z)$ *funksiya* D *sohada* m*-subgarmonik funksiya deyiladi.*

m-subgarmonik funksiya sinfi, odatda, $m - sh(D)$ bilan belgilanadi, ya’ni $u(z) \in m - sh(D),\ D \subset \mathbb{C}^n$.

Agar $u(z) \in m - sh(D) \bigcap C^2(D)$ bo‘lsa, $\lambda_1(z), ..., \lambda_n(z)$ sonlar $\left(\dfrac{\partial^2 u(z)}{\partial z_j \partial \overline{z}_k} \right)$ Ermit matritsasining xos qiymatlari bo‘lsa, u holda quyidagi tenglik o‘rinli:

$$dd^c u \wedge \left(dd^c |z|^2 \right)^{m-1} = \left(\frac{i}{2} \right)^m \sum_{1 \le j_1 < \ldots < j_m \le n} \left(\lambda_{j_1} + \ldots + \lambda_{j_m} \right) dz_{j_1} \wedge d\overline{z}_{j_1} \wedge \ldots \wedge dz_{j_m} \wedge d\overline{z}_{j_m}. \quad (1)$$

Koordinatali $\prod = \left\{ z_{j_1}, ..., z_{j_m} \right\}$ tekislik uchun $u\big|_{\prod}$ funksiyaning subgarmonikligidan $\lambda_{j_1} + \ldots + \lambda_{j_m} \ge 0,\ \ 1 \le j_1 < \ldots < j_m \le n$ kelib chiqadi. Bu esa shuni anglatadiki, quyidagi

$dd^c u \wedge \left(dd|z|^2\right)^{m-1}$ differensial forma $D \subset \mathbb{C}^n$ sohada musbat bo‘lishini bildiradi, ya’ni $dd^c u \wedge \left(dd|z|^2\right)^{m-1} \geq 0$. Bu yerda $dd^c u = \sum_{j,k} \frac{\partial^2 u}{\partial z_j \partial \overline{z}_k} dz_j \wedge d\overline{z}_k$, $d = \partial + \overline{\partial}$ va $d^c = \frac{\partial - \overline{\partial}}{4i}$.

Agar biz $|z|^2$ funksiyani olsak, u holda: $dd^c |z|^2 = \frac{i}{2} \sum_{j=1}^{n} dz_j \wedge d\overline{z}_j$. Bu ifodaning n-marta tashqi ko‘paytmasi: $\left(dd^c |z|^2\right)^n$ kompleks fazodagi hajm elementini beradi.

Ma’lumki, $psh = 1 - sh \subset ... \subset m - sh \subset ... \subset n - sh = sh$, ya’ni, plyurisubgarmonik funksiyalar sinfi bosqichma-bosqich m-subgarmonik funksiyalar sinflari orqali umumiy subgarmonik funksiyalar sinfiga kengayadi. Shundan kelib chiqadiki, agar $u(z) \in m - sh(D)$ bo‘lsa, u holda bu funksiya lokal integrallanuvchi bo‘ladi, ya’ni $u(z) \in L^1_{loc}(D)$. Natijada quyidagi oqim aniqlanadi:

$$dd^c u \wedge \beta^{m-1} \circ \omega = \int u \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega, \quad \omega \in F^{(n-m,n-m)}(D) \tag{2}$$

bu yerda $\beta = dd^c |z|^2$ – $\mathbb{C}^n$ dagi standart hajm formasi, $F^{(n-m,n-m)}(D)$ esa D sohada aniqlangan, cheksiz silliq va $(n-m, n-m)$ bidarajali differensial formalar oilasi (ya’ni finitar formalar).

Endi $u_j(z) = u \circ K_{1/j}(w - z) \downarrow u(z)$ standart approksimatsiyadan foydalansak, quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘ladi:

$$0 \geq dd^c u_j \wedge \beta^{m-1} \circ \omega = \int u \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega \to \int u_j \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega \to \int u \beta^{m-1} \wedge dd^c \omega \geq 0,$$

$$\forall \omega \in F^{(n-m,n-m)}(D),\ \omega \geq 0$$

Shunday qilib, ixtiyoriy $u(z) \in m - sh(D)$ uchun $dd^c u \wedge \beta^{m-1}$ oqimi musbat aniqlangan, aksincha. Agar yuqoridan yarim uzluksiz $u(z)$ funksiya uchun $dd^c u \wedge \beta^{m-1}$ differensial forma umumlashgan ma’noda musbat aniqlangan bo‘lsa, ya’ni $dd^c u \wedge \beta^{m-1} \geq 0$, u holda $u(z)$ funksiya albatta m-subgarmonik bo‘ladi.

Ma’lumki, m-plyurisubgarmonik funksiyalar $(m - psh)$ bilan kuchli m-subgarmonik funksiyalar $(m - sh)$ o‘rtasida juda muhim bog‘lanish mavjud. Bu bog‘lanishdan foydalanish orqali m-subgarmonik funksiyalarning xossalarini m-plyurisubgarmonik funksiyalarni o‘rganishda qo‘llash mumkin bo‘ladi. Shu maqsadda biz haqiqiy fazo $\mathbb{R}^n$ ni mos kompleks fazo $\mathbb{C}^n_z$ ga joylaymiz. Bu yerda kompleks fazo quyidagicha ifodalanadi: $\mathbb{C}^n = \mathbb{R}^n_x + i\mathbb{R}^n_y$, $z = x + iy$, ya’ni har bir kompleks nuqta z haqiqiy qism $x \in \mathbb{R}^n$ va mavhum qism $y \in \mathbb{R}^n$ dan tashkil topgan. Shunday qilib, haqiqiy fazo $\mathbb{R}^n$ kompleks fazoning qism fazosi sifatida qaraladi, ya’ni $\mathbb{R}^n_x \subset \mathbb{C}^n_z$, bu yerda $\mathbb{R}^n_x$ kompleks fazoning $y = 0$ bo‘lgan nuqtalar to‘plamidan iborat n-o‘lchamli haqiqiy qism fazosidir.

Quyida m-plyurisubgarmonik funksiya va m-subgarmonik funksiyalar orasidagi bog‘liqlik haqidagi teoremani keltiramiz

1-teorema. *$D \subset \mathbb{R}^n_x$ sohada yuqoridan yarim uzluksiz bo‘lgan $u(x)$ funksiya $m - psh(D)$ bo‘lishi uchun $u^c(z) = u^c(x + iy) = u(x)$ funksiya $y \in \mathbb{R}^n_y$ o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lmagan holda $D \times i\mathbb{R}^n_y$ sohada $m - sh$ funksiya bo‘lishi zarur va yetarli.*

Isbot. $D \subset \mathbb{R}_x^n$ sohada ikki marta silliq $u(x) \in C^2(D)$ funksiyalar uchun teoremaning isboti quyidagi munosabatdan kelib chiqadi:

$$\left(\frac{\partial^2 u^c(z)}{\partial z_j \partial \overline{z_k}} \right) = \frac{1}{4} \left(\frac{\partial^2 u(x)}{\partial x_j \partial x_k} \right)$$

Bu esa $\left(\frac{\partial^2 u(x)}{\partial x_j \partial x_k} \right)$ va $\left(\frac{\partial^2 u^c(z)}{\partial z_j \partial \overline{z_k}} \right)$ matritsalarining xos qiymatlari o‘zaro quyidagi munosabatda ekanligini bildiradi:

$$(\lambda_1(x),...,\lambda_n(x)) = 4^n (\lambda_1^c(z),...,\lambda_n^c(z)).$$

Shunday qilib, $u(x) \in C^2(D)$ funksiyasi $m - psh(D)$ bo‘lishi uchun $\lambda_{j_1}(x) + ... + \lambda_{j_m}(x) \geq 0,\ 1 \leq j_1 < ... < j_m \leq n$ sharti bajarilishi zarur va yetarli.

Agar $u(x)$ funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada yuqoridan yarim uzluksiz va $u^c(z) = u(\mathrm{Re}\, z) \in m - sh(D \times i\mathbb{R}_y^n)$ bo‘lsa, u holda $u_j^c(z) = u^c \circ K_{1/j}(w - z)$ standart approksimatsiyasi cheksiz silliq $m - sh$ funksiyani ifodalaydi. Chunki $u_j^c(z)$ funksiya $y \in \mathbb{R}_y^n$ o‘zgaruvchiga bog‘liq emas, ya’ni $u_j^c(z) = \left[u_j^c(z)\Big|_{y=0} \right]^c$. $u_j^c(z)$ funksiya ikki marta differensiallanuvchi bo‘lsa, u holda $u_j^c(z)\Big|_{y=0} \in m - psh(D)$ bo‘ladi. Bundan tashqari, $u_j^c(z)\Big|_{y=0} \downarrow u(x)$, bu esa $u(x)$ funksiyaning m-plyurisubgarmonik ekanligini bildiradi.

Aytaylik, $u(x)$ funksiya $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada yuqoridan yarim uzluksiz $m - psh$ funksiya bo‘lsin. $u_j(x) = u \circ K_{1/j}(t - x)$ standart approksimatsiya $D_j = \left\{ \rho(x, \partial D) > \frac{1}{j} \right\}$ sohada $C^\infty\left(D_j\right)$ sinfga tegishli $m - psh$ funksiya bo‘ladi. Binobarin, $u_j^c(z) = u_j(x) \in m - sh(D_j \times i\mathbb{R}_y^n)$ va $u_j^c(z) \downarrow u^c(z)$. Demak, $u^c(z) \in m - sh(D \times i\mathbb{R}_y^n)$. *Teorema isbotlandi.*

2-teorema. *Agar* $u(x) \in m - psh(D) \bigcap C^2(D)$ *bo‘lsa va* $\lambda_1(x),...,\lambda_n(x)$ - *simmetrik* $\left(\frac{\partial^2 u(x)}{\partial x_j \partial x_k} \right)$ *matritsaning xos qiymatlari bo‘lsa, u holda*

$$\lambda_{j_1}(x) + ... + \lambda_{j_m}(x) \geq 0, \quad 1 \leq j_1 < ... < j_m \leq n. \tag{3}$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi.

Teoremaning isboti 1-teoremadan hamda $u^c(z) \in m - sh(D \times i\mathbb{R}_y^n) \bigcap C^2(D \times i\mathbb{R}_y^n)$ funksiya uchun quyidagi differensial formaning

$$dd^c u \wedge \beta^{m-1} = \left(\frac{i}{2} \right)^m \sum_{1 \leq j_1 < ... < j_m \leq n} (\lambda_{j_1} + ... + \lambda_{j_m}) dz_{j_1} \wedge d\overline{z_{j_1}} \wedge ... \wedge dz_{j_m} \wedge d\overline{z_m}$$

musbat bo‘lishidan kelib chiqadi.

2. Maksimal $m - psh$ **funksiyalar.** Maksimal $m - psh$ funksiyalar $\mathbb{R}^n$ dagi garmonik funksiyalarning analogi hisoblanadi.

1-ta'rif. Agar $D \subset \mathbb{R}^n$ sohada $u(x) \in m - psh(D)$ funksiya berilgan bo'lib, shu funksiyalar sinfida maksimumlar prinsipi o'rinli bo'lsa, u holda $u(x)$ funksiya maksimal $m-$ plyurisubgarmonik funksiya deyiladi, ya'ni, agar $v(x) \in m - psh(D)$ funksiya uchun $\varliminf\limits_{x \to \partial D} \left(u(x) - v(x)\right) \geq 0$ bajarilsa, u holda $\forall x \in D$ da $u(x) \geq v(x)$ bo'ladi.

Maksimal funksiyalarni qulay ko'rinishlarda aniqlash imkonini beruvchi bitta oddiy tasdiqni keltiramiz.

3-teorema. Quyidagi tasdiqlar o'zaro ekvivalentdir:

1) $u(x) - D$ sohasida maksimal $m - psh$ funksiya;

2) har qanday $G \subset\subset D$ soha uchun va har qanday $v(x) \in m - psh(G)$ uchun $\varliminf\limits_{x \to \partial G} \left(u(x) - v(x)\right) \geq 0$ bo'lishidan $\forall x \in G, u(x) \geq v(x)$ bo'ladi;

3) har qanday $G \subset\subset D$ soha va $v(x) \in m - psh(D)$ uchun $u\big|_{\partial G} \geq v\big|_{\partial G}$ bo'lishidan $\forall x \in G$, $u(x) \geq v(x)$ bo'ladi.

Isbot. 3) $\Rightarrow$ 1). Maksimal m-plyurisubgarmonik funksiya ta'rifiga ko'ra $\varliminf\limits_{x \to \partial D} \left(u(x) - v(x)\right) \geq 0$, Demak, $\forall \varepsilon > 0,\ \exists \delta > 0$, agar $dist(x, \partial D) < \delta$ bo'lsa, u holda $\forall x \in D$ da $u(x) - v(x) \geq -\varepsilon$ bo'ladi. Endi $\delta > 0$ uchun $G \subset\subset D$ ixtiyoriy kompakt sohani shunday tanlaymizki, $\partial G \subset D \setminus D_\delta$, $D_\delta = \{x \in D :\ dist(x, \partial D) > \delta\}$ bo'lsin. Shuning uchun ∂G da $u(x) \geq v(x) - \varepsilon$ bo'ladi. $v(x) - \varepsilon$ funksiya $m - psh$ bo'lgani uchun 3-shartga ko'ra, $u(x)\big|_{\partial G} \geq \left(v(x) - \varepsilon\right)\big|_{\partial G}$ bajarilishidan, butun G da $u(x) \geq v(x) - \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'ladi. Bu yerda $\varepsilon \to 0$ da limitga o'tib, $\forall x \in G$ da $u(x) \geq v(x)$ tengsizlikni hosil qilamiz, $G \subset\subset D$ ixtiyoriy bo'lgani sababli $\forall x \in D,\ u(x) \geq v(x)$ bo'lishi kelib chiqadi.

$1) \Rightarrow 2)$ Faraz qilaylik $u(x)$ funksiya maksimal $m - psh(D)$ bo'lib, har qanday $G \subset\subset D$ soha uchun va har qanday $v(x) \in m - psh(G)$ uchun $\varliminf\limits_{x \to \partial G} \left(u(x) - v(x)\right) \geq 0$ bo'lsin. Quyidagi yordamchi funksiyani quramiz:

$$w(x) = \begin{cases} \max\{u(x), v(x)\}, & x \in G \\ u(x), & x \in D \setminus G \end{cases}.$$

Ma'lumki, $u(x) \in m - psh(G)$ va $v(x) \in m - psh(G)$ funksiyalar bo'lib, bu funksiyalarning maksimumi yana $w(x) \in m - psh(G)$ bo'ladi. Berilgan shartga ko'ra $\varliminf\limits_{x \to \partial G} \left(u(x) - w(x)\right) = 0$ bo'ladi. Demak, G da $u(x) \geq w(x)$. $w(x)$ ning aniqlanishiga ko'ra, $\forall x \in D$ da $u(x) \geq w(x)$ kelib chiqadi. Shuning uchun $\forall x \in G$ larda $u(x) \geq v(x)$ o'rinli bo'lishiga ega bo'lamiz;

$2) \Rightarrow 3)$. Faraz qilaylik $u\big|_{\partial G} \geq v\big|_{\partial G}$ bo'sin. U holda $\varliminf\limits_{x \to \partial G} \left(u(x) - v(x)\right) \geq 0$ bajariladi. 2)-shartdan $\forall x \in G$ da $u(x) \geq v(x)$ kelib chiqadi.

4-teorema. *Bizga $u(x) \in m - psh(D) \cap C^2(D)$ funksiya berilgan bo'lib, har bir $x^0 \in D$ nuqta uchun shunday $x^0 \in \prod,\ \dim \prod = m$ tekislik mavjud bo'lsaki, $u\big|_{\prod}$ funksiya $\prod \cap D$ kesishmasida garmonik bo'lsa, u holda $u(x)$ funksiya D da maksimal $m - psh$ funksiya bo'ladi.*

Isbot. Teskarisini faraz qilaylik, ya'ni $u(x)$ maksimal funksiya bo'lmasin. U holda shunday $G \subset\subset D$ soha va $v(x) \in m-psh(D)$ funksiya topiladiki, $u\big|_{\partial G} \geq v\big|_{\partial G}$ bo'lsa, biror $x^0 \in G$ nuqtada $u(x^0) < v(x^0)$ o'rinli bo'ladi. Teorema shartiga ko'ra x^0 nuqtadan o'tuvchi va $\dim \prod = m$ bo'lgan shunday $\prod$ tekisligi mavjud bo'lib, $u\big|_{\prod}$ funksiya $\prod \cap D$ da garmonik bo'lsin. $v \in m-psh(D)$ bo'lganligi sababli, $v\big|_{\prod}$ subgarmonik funksiya bo'lib, $v\big|_{\prod \cap \partial G} \leq u\big|_{\prod \cap \partial G}$ tengsizlik o'rinli. $u\big|_{\prod}$ ning garmonikligidan $\forall x \in \prod \bigcap G$ uchun $v\big|_{\prod \cap G} \leq u\big|_{\prod \cap G}$ tengsizlik bajariladi, xususan $u(x^0) \geq v(x^0)$ tengsizlikga ega bo'lamiz. Bundan ziddiyatga kelamiz. *Teorema isbotlandi.*

Misol. $\mathbb{R}^n$ ($n \geq 2$) fazoda ushbu

$$u(x) = \begin{cases} \ln|x|^2, m = 2 \\ -\dfrac{1}{|x|^{m-2}}, m > 2 \end{cases} \tag{4}$$

funksiya $m-psh$ bo'ladi, shu bilan birga u $\mathbb{R}^n \setminus \{0\}$ sohada maksimal $m-psh$ funksiyadir.

$u(x)$ funksiyasining $\mathbb{R}^n$ da yarim uzluksizligi ma'lum. Uning $m-psh$ ekanligini isbotlaymiz. Ixtiyoriy $x^0 = \left(x_1^0, x_2^0, ..., x_n^0\right) \in \mathbb{R}^n$ nuqtani tayinlaymiz va x^0 nuqtadan o'tuvchi ixtiyoriy $\prod$ tekisligini olamiz. Umumiylikka zarar yetkazmagan holda, $\prod = \left\{\left(x_1, x_2, ..., x_n\right) \in \mathbb{R}^n : x_{m+1} = x_{m+1}^0, ..., x_n = x_n^0\right\}$ deb faraz qilamiz. U holda:

$$u\big|_{\prod} = \begin{cases} \ln\left(x_1^2 + x_2^2 + (x_3^0)^2 + ... + (x_n^0)^2\right), m = 2 \\ -\dfrac{1}{\left|x_1^2 + ... + x_m^2 + (x_{m+1}^0)^2 + ... + (x_n^0)^2\right|^{\frac{m-2}{2}}}, m > 2 \end{cases}$$

ya'ni biz $\mathbb{R}^m$ fazoda funksiya hosil qilamiz. Quyidagi ko'rinishdagi funksiyalar:

$$\begin{cases} \ln\left(x_1^2 + x_2^2 + const\right), m = 2 \\ -\dfrac{1}{\left|x_1^2 + ... + x_m^2 + const\right|^{\frac{m-2}{2}}}, m > 2 \end{cases}$$

subgarmonik funksiyalar ekanligini tekshirish qiyin emas. Binobarin, $u\big|_{\prod}$ qisqartmalari subgarmonik funksiyalardir, bu esa $u(x)$ ning $\mathbb{R}^n$ da $m-$plurisubgarmonik ekanligini isbotlaydi.

Maksimallikni isbotlash uchun $0 \in \mathbb{R}^n$ nuqtadan o'tuvchi $\prod_0 = \left\{\left(x_1, x_2, ..., x_n\right) \in \mathbb{R}^n : x_{m+1} = 0, ..., x_n = 0\right\}$ tekisligini va uning qisqartmasini olamiz:

$$u\big|_{\prod_0} = \begin{cases} \ln\left(x_1^2 + x_2^2\right), m = 2 \\ -\dfrac{1}{\left|x_1^2 + ... + x_m^2\right|^{\frac{m-2}{2}}}, m > 2 \end{cases}$$

Ammo $\mathbb{R}^n$ fazosida aniqlangan ushbu funksiya Laplas operatorining fundamental yechimi hisoblanadi. Shuning uchun u $\prod \setminus \{0\}$ da subgarmonikdir.

Shuni ta'kidlab o'tamizki, $\mathbb{R}^n$ dagi ixtiyoriy $0 \in \prod$ bo'lgan $m-$o'lchovli $\prod$ tekisligi uchun, $\prod$ ni $\prod_0$ ko'rinishidagi tekislikka o'tkazuvchi $T : \mathbb{R}^n \to \mathbb{R}^n$ ortogonal almashtirishi mavjud. Ortogonal al-

mashtirish $\left|x_1^2+x_2^2+...+x_n^2\right|$ miqdorini o‘zgartirmaydi, ya’ni $\left|(Tx_1)^2+...+(Tx_n)^2\right|=\left|x_1^2+x_2^2+...+x_n^2\right|$. Bundan kelib chiqadiki, ixtiyoriy $0\in\prod,\dim\prod=m$ tekisligi uchun $u\big|_{\Pi}$ qisqartmasi $\prod\setminus\{0\}$ to‘plamda subgarmonik funksiya bo‘ladi. 4-teoremaga ko‘ra, $u(x)$ maksimal $m-psh$ funksiya hisoblanadi.

3. Xulosa. Ishda m -plyurisubgarmonik va m -subgarmonik funksiyalar sinflari har tomonlama o‘rganilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi va bundan foydalanib, maksimal m -plyurisubgarmonik funksiyalarning xossalari yoritildi. Ishda haqiqiy fazoni kompleks fazoga joylashtirish orqali $m-psh$ va $m-sh$ funksiyalar orasidagi muhim ekvivalentlik teoremasi isbotlangdi. Bu natija mazkur m-plyurisubgarmonik funksiyalarni o‘rganishda kompleks analiz usullaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, maksimal m -plyurisubgarmonik funksiyalar uchun maksimum prinsipiga tayangan holda muhim natijalar olindi. Maksimallikni ta’minlovchi yetarli shartlar keltirilib, nazariy olingan natijalar va shartlarni tushinishga yordam beruvchi aniq misol korsatilgan. Maqolada olingan natijalar m -plyurisubgarmonik funksiyalar nazariyasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ko‘p o‘lchamli analiz va qavariq geometriyada yuzaga keladigan masalalarni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Садуллаев А. Теория плюрипотенциала. Применения. Palmarium Akademic Publishing, 2012, 316 с.

(2). Абдуллаев Б.И., Шарипов Р.А., m −субгармонические функции во всем пространстве $\mathbb{C}^n$. Функции Грина. “Узбекский математический журнал”, Ташкент, 2013, № 3, с. 3 – 8.

(3). Abdullaev B.I., Imomkulov S.A., Sharipov R.A. Removable singular sets of *m*-subharmonic functions. Algebra, Complex Analysis, and Pluripotential Theory, Springer Proceedings in Mathematics&Statistics. V. 264, 2018, p. 1–11.

(4). Abdullayev B.I., Subharmonic functions on complex Hyperplanes of $\mathbb{C}^n$ .Journal of Siberian Federal University, Mathematics and Physics, Krasnoyarsk, 2013, № 6(4), p. 409–416.

(5). Sadullaev A. Further developments of the pluripotential theory (survey) // in Algebra, complex analysis, and pluripotential theory, Springer Proceedings in Mathematics & Statistics, 264(2018), p. 167–182.

(6). Drnovšek B., Forstnerič F. Minimal hulls of compact sets in $\mathbb{R}^3$ //Trans. Amer. Math. Soc., 368(2016), pp. 7477–7506.

(7). Harvey F.R. and Lawson H.B. Jr., An introduction to potential theory in calibrated geometry. Amer. J. Math. 131, 4(2009), pp. 893–944.

(8). Harvey F.R. and Lawson H.B Jr. Duality of positive currents and plurisubharmonic functions in calibrated geometry. Amer. J.Math. 131. 5(2009), pp. 1211–1240.

(9). Harvey F.R. and Lawson H.B. Jr., Geometric plurisubharmonicity and convexity – an introduction. Advances in Mathematics 230 (2012), pp. 2428–2456.

(10). Harvey F.R. and Lawson H.B. Jr., Plurisubharmonicity in a general geometric context. Geometry and Analysis, 1(2010), pp. 363–401.

(11). Harvey F.R. and Lawson H.B. Jr., Calibrated geometries. Acta Mathematica, 148(1982), pp. 47–157.

(12). Joyce D., Riemannian holonomy groups and calibrated geometry. Oxford University Press, USA, 2007, 318 p.

(13). Verbitsky M. Plurisubharmonic functions in calibrated geometry and q−convexity. Mathematische Zeitschrift, v. 264, 2010, №4, pp. 939–957.

Kamolov Xursandbek Qurolboyevich (V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Xorazm bo‘limi katta ilmiy xodimi; xkamolov@mail.ru),

Quchkarboyev Otaxon (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti)

BA’ZI OCHIQ RIMAN SIRTLARINI ALGEBRAIK VA XOS GOLOMORF JOYLASHTIRISH HAQIDA

Annotatsiya. *Mazkur ishda kompleks tordan chekli nuqta olib tashlash orqali hosil qilingan ochiq Riman sirtining $\mathbb{C}^3$ fazoga algebraik joylashtirilishi tadqiq etiladi. Veyershtrass $\wp$-funksiyasi yordamida aniq xos golomorf joylashtirish qurilib, uning obrazi affin algebraik egri chiziq ekani ko‘rsatiladi. Yarim davr holatida yuzaga keladigan maxsus holat alohida tahlil qilinib, uni bartaraf etuvchi konstruksiya taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ochiq Riman sirti, kompleks tor, Veyershtrass funksiyasi, xos golomorf joylashtirish, algebraik egrik chiziq.*

О СООТВЕТСТВУЮЩЕМ ГОЛОМОРФНОМ И АЛГЕБРАИЧЕСКОМ ВЛОЖЕНИИ ОТКРЫТОЙ РИМАНОВОЙ ПОВЕРХНОСТИ

Аннотация. *В данной работе исследуется алгебраическое вложение открытой римановой поверхности, полученной путем удаления конечного числа точек из комплексного тора, в пространство $\mathbb{C}^3$. С помощью $\wp$-функции Вейерштрасса строится явное собственное голоморфное вложение и показывается, что его образ является аффинной алгебраической кривой. Отдельно рассматривается специальный случай, возникающий в ситуации полупериодов, и предлагается конструкция, устраняющая возникающую вырожденность.*

Ключевые слова: *открытая риманова поверхность, комплексный тор, функция Вейерштрасса, собственное голоморфное вложение, алгебраическая кривая.*

ABOUT THE CORRESPONDING HOLOMORPHIC AND ALGEBRAIC EMBEDDING OF AN OPEN RIEMANN SURFACE

Annotation. *This paper investigates the algebraic embedding of an open Riemann surface, obtained by removing a finite number of points from a complex torus, into the space $\mathbb{C}^3$. Using the Weierstrass $\wp$-function, an explicit proper holomorphic embedding is constructed, and it is shown that its image is an affine algebraic curve. A special case arising in the half-period situation is considered separately, and a construction eliminating the resulting degeneracy is proposed.*

Keywords: *open Riemann surface, complex torus, Weierstrass function, proper holomorphic embedding, algebraic curve.*

Kirish. Ochiq Riman sirtlarini kompleks Yevklid fazolariga joylashtirish masalasi kompleks analiz va kompleks geometriyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bishop va Narasimhan natijalariga ko‘ra har qanday ochiq Riman sirti $\mathbb{C}^3$ fazoga xos golomorf joylashtiriladi. Ammo ochiq Riman sirtlarini algebraik joylashtirish (ya’ni obrazi algebraik egri chiziq bo‘ladigan xos golomorf joylashtirish) haligacha dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur ishda kompleks tordan chekli nuqtani chiqarib tashlash orqali hosil qilingan ochiq Riman sirtini algebraik joylashtirish quriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shteyn ko‘pxilliklarini $\mathbb{C}^N$ evklid fazosiga xos golomorf joylashtirish muhim hisoblanadi. Birinchi muhim natija 1956-yilda R.Remmert [12] tomonidan olingan bo‘lib, u har bir n-o‘lchamli X Shteyn ko‘pxilligi yetarlicha katta N uchun biror $\mathbb{C}^N$ fazoga xos golomorf joylashishini ko‘rsatdi. 1960–1961-yillarda E.Bishop va R.Narasimhan bir biridan mustaqil ravishda Remmert teoremasi $N = 2n + 1$ da ham o‘rinli bo‘lishini isbotladilar ([3], [11]). Keyinchalik, 1970-yilda O.Forster ushbu Bishop–Narasimhan natijasini yaxshilab, N ni $\left[\frac{5n}{3}\right] + 2$ ga tushirdi hamda N ni $\left[\frac{3n}{2}\right] + 1$ dan kichik qilish mumkin emas degan gipotezani ilgari surdi [6]. 1992-yilda Y.Eliashberg va M.Gromovlar bu gipotezani isbotladi.

Teorema (Eliashberg–Gromov [4]). Agar har qanday n-o‘lchamli X Shteyn ko‘pxilligi uchun $n \geq 2$ bo‘lsa, $\mathbb{C}^N$ fazoga xos golomorf tarzda joylashadi. Bu yerda $N = \left[\frac{3n}{2}\right] + 1$.

Yuqoridagi teorema $n = 1$ holatida, ya’ni, X ochiq bog‘lamli Riman sirti bo‘lganda Forster-Bell-Narasimhan gipotezasi quyidagicha bo‘ladi.

Gipoteza. Har qanday X ochiq bog‘lamli Riman sirti $\mathbb{C}^2$ fazoga xos golomorf joylashadimi?

Umumiy holda hozirgacha masala ochiq bo‘lib, ba’zi ochiq Riman sirtlari $\mathbb{C}^2$ ga xos golomorf joylashishga ega ekanligi ma’lum. Ba’zi ma’lum misollarni qaraylik, ya’ni, ochiq birlik disk (Kasahara–Nishino, 1970), $\mathbb{C}$ dagi teshikli tekislik (H.B.Laufer, 1973), teshilgan disk (H.Alexander, 1977, [1]). Keyinchalik J.Globevnik and B. Stensønes [9]da, agar X chegarasi silliq bo‘lgan va yakkalangan chegara nuqtalari bo‘lmagan har qanday chekli bog‘lamli tekis soha uchun gipoteza o‘rinli bo‘ladi. 2009-yilda F.Forstnerič va E.F.Wold eng yaxshi natijani isbotladilar [7], agar $\bar{X}$ – chegarasi silliq bo‘lgan Riman sirti bo‘lsa va X ning ichida $\mathbb{C}^2$ ga golomorf joylashtirish mavjud bo‘lsa, u holda X sirt $\mathbb{C}^2$ ga xos golomorf joylashadi.

Endi boshqa ma’lum muhim natijalarni sanab o‘tsak: ayrim Riman sirtlarini $\mathbb{C}^2$ ga interpolyatsiya bilan xos joylashtirish [10], Shteyn ko‘pxilliklar orasidagi uzluksiz akslantirishlarni deformatsiya qilish orqali joylashtirish [2], ba’zi shartlar bilan cheksiz bog‘lamli sohalarning $\mathbb{C}^2$ ga joylashtirilishi ko‘rsatilgan [8]. Bu masala kompakt Riman sirtlarini kompleks fazolarga golomorf joylashtirish hatto algebraik joylashtirish masalasi birinchilardan bo‘lib K.Kodaira ishlarida o‘rganilgan bo‘lib, ixtiyoriy X kompakt Riman sirti P_3 proyektiv fazoga joylashtiriladi [5;30-b.]. Demak, $n = 1$ uchun umumiy holda E.Bishop va R. Narasimhan natijasi quyidagicha.

Teorema (E.Bishop va R.Narasimhan). X ochiq Riman sirti bo‘lsin. U holda X sirt $\mathbb{C}^3$ ga xos golomorf joylashtiriladi.

Ushbu ishda biz $X = T\backslash\{p_1, p_2\}$ ochiq Riman sirtining $\mathbb{C}^3$ ga *algebraik* joylashtirilishini quramiz. Bu esa Bishop–Narasimhan teoremasining konstruktiv va algebraik versiyasi bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompakt Riman sirtlar ustida, odatda, meromorf funksiyalar qaraladi. Elliptik funksiyalar va kompleks torlarning algebraik modeli Veyershtrass $\wp$-funksiyasi orqali tavsiflanadi [5; 174-b.]. Aytaylik, $\omega_1, \omega_2 \in \mathbb{C}$ lar $\mathbb{R}$ maydonda chiziqli erkli $\left(\frac{\omega_1}{\omega_2} \notin \mathbb{R}\right)$ va ushbu

$$\Lambda = \{\omega \in \mathbb{C}: \omega = n\omega_1 + m\omega_2, n, m \in \mathbb{Z}\}$$

panjarani qaraylik. Biz $\mathbb{C}$ da ushbu

$$z_1, z_2 \in \mathbb{C}, z_1 - z_2 \in \Lambda \Leftrightarrow z_1 \sim z_2$$

ekvivalentlik munosabatini kiritib $T = \mathbb{C}/\Lambda$ faktor fazoga, ya’ni kompakt Riman sirti torga ega bo‘lamiz. Torda aniqlangan meromorf Veyershtrass $\wp$-funksiyasini qaraylik (5;13-b.):

$$\wp(z) = \frac{1}{z^2} + \sum_{\omega \neq 0}\left(\frac{1}{(z-\omega)^2} - \frac{1}{\omega^2}\right).$$

Bu funksiya T da ikkinchi tartibli qutbga ega va $\wp(z_1) = \wp(z_2)$ bo‘lishi uchun $z_1 \equiv \pm z_2 (\mathrm{mod}\Lambda)$ bo‘lishi zarur va yetarli. Shuningdek, Veyershtrass $\wp$-funksiyasi va uning hosilasi orasida quyidagi bog‘-lanish mavjud [5; 174-b.]

$$(\wp'(z))^2 = 4\wp(z)^3 - g_2\wp(z) - g_3 \quad (1)$$

Bu yerda, $g_2 = 60\sum_{(n,m)\neq(0,0)}\frac{1}{\omega^4}, g_3 = 140\sum_{(n,m)\neq(0,0)}\frac{1}{\omega^6}$.

E.F.Wold [13] quyidagi natijani isbotlagan: agar $2(p_1 - p_2) \in \mathbb{C}\backslash\Lambda$ bo‘lsa, u holda $\psi = (f_{p_1}, g_{p_2}): T\backslash\{p_1, p_2\} \to \mathbb{C}^2$ xos golomorf joylashtirish bo‘ladi. Bu yerda: $f_{p_1} = \wp(z-p_1)$ va $g_{p_2} = \wp(z-p_2)$.

Teorema. $X = T\backslash\{p_1, p_2\}$ ochiq Riman sirti berilgan bo‘lsin.

1. Agar $2(p_1 - p_2) \in \mathbb{C}\backslash\Lambda$ bo‘lsa, u holda

$$\Phi: X \to \mathbb{C}^3, \Phi(z) = \left(\wp(z), \wp'(z), \frac{1}{(\wp(z) - \wp(p_1))(\wp(z) - \wp(p_2))}\right)$$

akslantirish Xni $\mathbb{C}^3$ga xos golomorf joylashtiradi va uning obrazi affin algebraik egri chiziq bo‘ladi.

2. Agar $2(p_1 - p_2) \in \Lambda, p_1 \neq p_2$ bo‘lsa, u holda

$$\Phi: X \to \mathbb{C}^3, \Phi(z) = \left(\wp(z), \wp'(z), \frac{\wp'(z)}{(\wp(z) - \wp(p_1))^2}\right)$$

akslantirish X ni $\mathbb{C}^3$ga xos golomorf joylashtiradi va uning obrazi affin algebraik egri chiziq bo‘ladi.

Isbot. 1-hol. $2(p_1 - p_2) \in \mathbb{C}\backslash\Lambda$ bo‘lsin, unda Veyershtrass $\wp$-funksiyasi $\wp(p_1) \neq \wp(p_2)$ bo‘ladi. Ushbu akslantirishni qaraylik,

$$\Phi: X \to \mathbb{C}^3, \Phi(z) = \left(\wp(z), \wp'(z), \frac{1}{(\wp(z) - \wp(p_1))(\wp(z) - \wp(p_2))}\right). \quad (2)$$

Qulaylik uchun

$$f(z) = \frac{1}{(\wp(z) - \wp(p_1))(\wp(z) - \wp(p_2))}$$

deb belgilaymiz. $\wp(z)$ va $\wp'(z)$ funksiyalar T torda meromorf funksiyalar bo‘lib, ularning qutblari faqat panjara nuqtalari bo‘ladi. $p_1, p_2 \notin X$ bo‘lishidan $\wp(z), \wp'(z)$ funksiyalar X da golomorf bo‘ladi. Bundan tashqari, $f(z)$ funksiya faqat p_1 va p_2 nuqtalarda qutblarga ega. Bundan esa $f(z) \in \mathcal{O}(X)$ bo‘ladi. Demak,

$$\Phi: X \to \mathbb{C}^3$$

golomorf akslantirish bo‘ladi. Endi $\Phi: X \to \mathbb{C}^3$ni botiruvchi akslantirish ekanligini ko‘rsatmiz. Φ ning differensialini qaraylik, ya’ni

$$d\Phi(z) = (\wp'(z), \wp''(z), f'(z)).$$

Aytaylik, $d\Phi(z) = 0$ bo‘lsin, unda

$$\begin{cases}\wp'(z) = 0,\\ \wp''(z) = 0.\end{cases}$$

Ma’lumki, $\wp'(z) = 0$ tenglik faqat yarim davrlarda bajariladi. Bunday nuqtalarda esa $\wp''(z) \neq 0$. Haqiqatdan ham, (1) tenglikni differensiallab:

$$2\wp'(z)\wp''(z) = (12\wp(z)^2 - g_2)\wp'(z)$$

ega bo‘lamiz. Yarim davrlarda $\wp'(z) = 0$ bo‘lsa ham, $\wp''(z) = 0$ bo‘lishi mumkin emas, aks holda, $\wp'(z)$ ning noli karrali bo‘lib qoladi. Bundan esa elliptik egri chiziq singulyar bo‘lib qoladi. Demak, har bir $z \in X$ uchun $d\Phi(z) \neq 0$. Bundan Φ botiruvchi akslantirish bo‘ladi. Keyingi qadamda bu inektiv akslantirish bo‘lishini ko‘rsatamiz. $\forall z_1, z_2 \in X$ uchun

$$\Phi(z_1) = \Phi(z_2)$$

bo‘lsin. Undan esa

$$\wp(z_1) = \wp(z_2), \wp'(z_1) = \wp'(z_2).$$

$(\wp(z), \wp'(z))$ juftligi (1) ni qanoatlantiradi, ya’ni tor nuqtasini aniqlaydi. Bundan $z_1 - z_2 \in \Lambda$ hamda teorema 1)-shartidan $z_1 = z_2$ bo‘ladi. Bundan Φ inektiv
akslantirish. Endi Φ ning xos akslantirish ekanligini ko‘rsatamiz. Buning uchun $p_j (j = 1,2)$ nuqta atrofida Veyershtrass $\wp$-funksiyasi uchun

$$\wp(z) = \wp(p_j) + c(z - p_j)^2 + O((z - p_j)^4), c \neq 0 \ (j = 1,2).$$

chekli yoyilmaga egamiz. $\wp(p_1) \neq \wp(p_2)$ bo‘lgani uchun $p_j (j = 1,2)$ nuqtalar atrofida

$$f(z) \sim \frac{1}{c(\wp(p_1) - \wp(p_2))(z - p_j)^2}.$$

Shuning uchun $z \to p_1$ $(z \to p_2)$ da $\| \Phi(z) \| \to \infty$ bo‘ladi. T tor kompakt to‘plam bo‘lgani uchun, X fazodagi hech bir kompakt qism to‘plamda yotmaydigan har qanday ketma-ketlik qismiy ketma-ketligi p_1 yoki p_2 ga yaqinlashadi. Demak, har qanday $K \subset \mathbb{C}^3$ kompakt uchun $\Phi^{-1}(K)$ kompakt bo‘ladi. Shunday qilib, Φ xos golomorf akslantirish. Agar

$$u = \wp(z), v = \wp'(z), t = f(z)$$

deb olsak, unda (1) tenglik uchun

$$v^2 = 4u^3 - g_2 u - g_3,$$

hamda

$$t(u - \wp(p_1))(u - \wp(p_2)) = 1.$$

Demak, $\Phi(X)$ quyidagi algebraik tenglamalar bilan aniqlanadi:

$$\begin{cases} v^2 = 4u^3 - g_2 u - g_3, \\ t(u - \wp(p_1))(u - \wp(p_2)) = 1. \end{cases}$$

Shuning uchun $\Phi(X)$ xos golomorf akslantirish $\mathbb{C}^3$dagi affin algebraik egri chiziq bo‘ladi.

2-hol. Endi $2(p_1 - p_2) \in \Lambda, p_1 \neq p_2$ bo‘lsin, unda Veyershtrass $\wp$-funksiyasi
$\wp(p_1) = \wp(p_2) = a$ bo‘ladi. Ushbu akslantirishni qaraylik:

$$\Phi: X \to \mathbb{C}^3, \Phi(z) = \left(\wp(z), \wp'(z), \frac{\wp'(z)}{(\wp(z) - a)^2}\right). \quad (3)$$

Qulaylik uchun

$$g(z) = \frac{\wp'(z)}{(\wp(z) - a)^2}$$

deb belgilaymiz. Yuqoridagi kabi ko‘rsatish orqali (3) golomorf botiruvchi akslantirish bo‘ladi. (3) ning inektiv akslantirish bo‘lishini ko‘rsatamiz. $\forall z_1, z_2 \in X$ uchun $\Phi(z_1) = \Phi(z_2)$ bo‘lsin. Undan esa

$$\wp(z_1) = \wp(z_2), \wp'(z_1) = \wp'(z_2).$$

Yana (1) ga ko‘ra, $z_1 = z_2$ bo‘ladi. Bundan Φ inektiv akslantirish. Endi Φ ning xos akslantirish ekanligini ko‘rsatamiz. Buning uchun $p_j (j = 1,2)$ nuqtalar atrofida Veyershtrass $\wp$-funksiyasi va uning hosilasi uchun

$$\wp(z) = \wp(p_j) + c(z - p_j)^2 + O((z - p_j)^4),$$
$$\wp'(z) = 2c(z - p_j) + O((z - p_j)^3), c \neq 0 \ (j = 1,2).$$

Shuning uchun

$$g(z) \sim \frac{C}{(z - p_j)^3}, C = const, (j = 1,2)$$

Demak,

$$|g(z)| \to \infty \ z \to p_1 \ (z \to p_2).$$

Natijada $z \to p_1$ $(z \to p_2)$ da $\| \Phi(z) \| \to \infty$ bo‘ladi. Demak, har qanday $K \subset \mathbb{C}^3$ kompakt uchun $\Phi^{-1}(K)$ kompakt bo‘ladi. Shunday qilib, Φ xos golomorf akslantirish. Agar

$$u = \wp(z), v = \wp'(z), t = g(z)$$

deb olsak, unda (1) tenglik uchun

$$v^2 = 4u^3 - g_2 u - g_3,$$

hamda,

$$t(u-a)^2 = v.$$

Demak, $\Phi(X)$ quyidagi algebraik tenglamalar bilan aniqlanadi:

$$\begin{cases} v^2 = 4u^3 - g_2u - g_3, \\ t(u-a)^2 = v. \end{cases}$$

Bu yerda, $g_2 = 60\sum_{(n,m)\neq(0,0)}\frac{1}{\omega^4}, g_3 = 140\sum_{(n,m)\neq(0,0)}\frac{1}{\omega^6}$. Shunday qilib, $\Phi: X \to \mathbb{C}^3$ xos golomorf joylashtirish bo‘lib, uning obrazi affin algebraik egri chiziq bo‘ladi. *Teorema isbot bo‘ldi.*

Xulosa. Ishda ikki nuqta olib tashlangan kompleks torni $\mathbb{C}^3$ga algebraik joylashtirish qurildi. Ushbu natijani tordan chekli sondagi nuqtalarni chiqarib tashlangan ochiq Riman sirtlari uchun umumlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. H.Alexander, Explicit imbedding of the (punctured) disc into $\mathbb{C}^2$. Comment. Math. Helv., 52, p. 539–544, (1977).

[2]. R.Andrist, F.Forstnerič, T.Ritter, and E.F.Wold. Proper holomorphic embeddings into Stein manifolds with the density property. J.Anal. Math., 130 (2016), p. 135–150.

[3]. E.Bishop. Mappings of partially analytic spaces. Am. J. Math., 83, (1961), p. 209–242.

[4]. Y.Eliashberg, M.Gromov. Embeddings of Stein manifolds. Ann. Math., (2), 136, (1992), p. 123–135.

[5]. O Forster. Lectures on Riemann Surfaces. Springer-Verlag, 1999.

[6]. O.Forster. Plongements des vari´et´es de Stein. Comment. Math. Helv. 45, (1970), p. 170–184.

[7]. F.Forstnerič, E.F.Wold. Bordered Riemann Surfaces in $\mathbb{C}^2$, J. Math. Pures Appl. 91, (2009), p. 100–114.

[8]. F.Forstnerič, E.F.Wold. Embeddings of infinitely connected planar domains into $\mathbb{C}^2$. Anal. PDE 6 (2013), № 2, p. 499–514.

[9]. J.Globevnik, B.Stensønes. Holomorphic embeddings of planar domains into $\mathbb{C}^2$. Math. Ann., 303, (1995), 579–597.

[10]. F.Kutzschebauch, E.Løw, E.F.Wold. Embedding some Riemann surfaces into $\mathbb{C}^2$ with interpolation. Math. Z., 262 (2009), № 3, p. 603–611.

[11]. R.Narasimhan, Holomorphic mappings of complex spaces. Proc. Am. Math. Soc., 11, (1960), 800–804.

[12]. R.Remmert. Sur les espaces analytiques holomorphiquement s´eparables et holomorphiquement convexes. C.R.Acad. Sci. Paris 243, (1956), p. 211–121.

[13]. E.F.Wold. Embedding Riemann surfaces into $\mathbb{C}^2$. Internat. J.Math. 17: (2006), p. 963–974.

Atajonov Dilshod Ozodovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi; diwa_4848@mail.ru)

QO‘SHIMCHA HADLI KAMASSA-HOLM TENGLAMASINI INTEGRALLASH

Annotatsiya. *Ushbu ish qo‘shimcha hadli Kamassa-Holm tenglamasini davriy funksiyalar sinfida integrallashga bag‘ishlangan. Avvalo, boshlang‘ich shart sifatida berilgan funksiyani vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining koeffitsiyenti deb qarab, to‘g‘ri masala yechiladi va* $t = 0$ *da spektral berilganlarni hosil qilinadi. Keyin* $t > 0$ *da vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral berilganlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini ifodalovchi Dubrovin tenglamalari sistemasi hosil qilinadi va yechimning mavjudligi va yagona ekanligi isbotlanadi. Oxirida teskari spektral masala yechish algoritmidan foydalanib, hisoblangan spektral berilganlar asosida qo‘shimcha hadli Kamassa-Holm tenglamasining yechimini qayta tiklash algoritmi taqdim etiladi.*

Kalit so‘zlar: *vaznli Shturm-Liuvill tenglamasi, Kamassa-Holm tenglamasi, teskari masala, lakuna, izlar formulasi.*

Атаджонов Дилшод Озодович (Старший преподаватель Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни; diwa_4848@mail.ru)

ИНТЕГРИРОВАНИЕ УРАВНЕНИЯ КАМАССА–ХОЛМА С ДОПОЛНИТЕЛЬНЫМ ЧЛЕНОМ

Аннотация. *Данная работа посвящена интегрированию уравнения Камасса–Холма с дополнительным членом в классе периодических функций. Прежде всего, принимая заданную начальную функцию в качестве коэффициента уравнения Штурма-Лиувилля с весом, формулируется и решается правильно поставленная прямая задача, по результатам которой в момент* $t = 0$ *получаются спектральные данные. Затем при* $t > 0$ *выводится система уравнений Дубровина, описывающих динамику изменения спектральных данных во времени, и доказываются существование и единст-*

венность ее решения. В заключение, используя алгоритм решения обратной спектральной задачи, на основе вычисленных спектральных данных приводится алгоритм восстановления решения уравнения Камасса-Холма с дополнительным членом.

Ключевые слова: *уравнения Штурма-Лиувилля с весом, уравнение Камасса-Холма, обратная задача, лакуна, формула след.*

Atajonov Dilshod Ozodovich (Senior Lecturer at Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni; diwa_4848@mail.ru)

INTEGRATION OF THE CAMASSA-HOLM EQUATION WITH AN ADDITIONAL TERM

Annotation. *This work is devoted to integrating the Camassa-Holm equation with an additional term in the class of periodic functions. First, considering the given initial function as the coefficient of a weighted Sturm-Liouville equation, we formulate and solve the well-posed direct problem and obtain the spectral data at* $t=0$*. Then, for* $t>0$*, we derive the Dubrovin equations that describe the time evolution of the spectral data and prove the existence and uniqueness of their solution. Finally, using the inverse spectral problem algorithm, we present an algorithm for reconstructing the solution of the Camassa-Holm equation with an additional term based on the computed spectral data.*

Key words: *weighted Sturm-Liouville equation, Camassa-Holm equation, inverse problem, lacunas, trace formulas.*

Kirish. Kamassa–Holm tenglamasi $u_{xt}-u_{xxt}+2ku_x+3uu_x=uu_{xxx}+2u_xu_{xx}$ birinchi marta [1] ishda sayoz suv to‘lqinlarining tarqalishini tavsiflovchi matematik model sifatida keltirib chiqarilgan bo‘lib, bu yerda $u(x,t)$ gorizontal yo‘nalishdagi suyuqlik tezligini bildiradi, k esa kritik to‘lqin tezligiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas kattalikdir.

Ushbu ishda biz qo‘shimcha hadga ega bo‘lgan Kamassa-Holm tenglamasini o‘rganamiz, ya’ni quyidagi

$$u_{xt}-u_{xxt}=uu_{xxx}+2u_xu_{xx}-3uu_x+f(t)(u_x-u_{xxx}) \tag{1}$$

tenglamasining, ushbu

$$u(x,0)=u_0(x),\ x\in\mathbb{R} \tag{2}$$

boshlang‘ich shartini qanoatlantiruvchi va quyidagi

$$u\in C_x^3(t>0)\cap C_t^1(t>0)\cap C(t\geq 0) \tag{3}$$

sinfga tegishli bo‘lgan, x o‘zgaruvchi boyicha π davrli $u=u(x,t)$ haqiqiy yechimini mazkur

$$y''-\frac{1}{4}y=\lambda q(x,t)y,\ x\in\mathbb{R} \tag{4}$$

vaznli Shturm-Liuvill tenglamasi uchun qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalar usulidan foydalanib topish algoritmini bayon qilamiz. Boshlang‘ich shartdagi $u_0(x)\in C^3(\mathbb{R})$ funksiya oldindan berilgan π davrli funksiya bo‘lib, $f(t)$ – berilgan uzluksiz chegaralangan funksiya.

Ushbu ishning asosiy maqsadi (4) tenglama uchun to‘g‘ri va teskari masalalar usulidan foydalanib (1)-(4) masalani $u(x,t)$ yechimini topishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyidagi

$$y''-\frac{1}{4}y=\lambda q(x)y,\ x\in\mathbb{R} \tag{5}$$

vaznli Shturm-Liuvill tenglamasini qaraylik. Bu yerda $q(x)$ koeffitsiyent π davrli haqiqiy uzluksiz funksiya bo‘lib, $\lambda\in\mathbb{C}$ - kompleks parametr. (5) differensial tenglamaning

$$c(0,\lambda)=1,\ c'(0,\lambda)=0 \text{ va } s(0,\lambda)=0,\ s'(0,\lambda)=1$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlatiruvchi yechimlarini, mos ravishda, $c(x,\lambda)$ va $s(x,\lambda)$ orqali belgilaymiz.

[2,3] ishlarda (5) vaznli Shturm-Liuvill masalasining koeffitsiyenti π davrli va $q(x)<0$ bo‘lgan holda to‘g‘ri va teksari spektral masala o‘rganilgan. Bu holda (5) vaznli Shturm-Liuvill masalasi absolyut uzluksiz spektrga ega bo‘lib, uning quyidagi

$$E=\left\{\lambda\in R:-2\le\Delta(\lambda)\le 2\right\}=\left[\lambda_0,\lambda_1\right]\cup\left[\lambda_2,\lambda_3\right]\cup\ldots\cup\left[\lambda_{2n},\lambda_{2n+1}\right]\ldots$$

to‘plamdan iborat bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Ushbu $(-\infty,\lambda_0)$, $(\lambda_{2n-1},\lambda_{2n})$, n ≥ 1 intervallarga lakunalar deyiladi. Spektrning λ_k, $k=0,1,2,\ldots$ chetki nuqtalari $\Delta^2(\lambda)-4$ funksiyaning nollaridan iborat bo‘ladi va ular (1.1.1) tenglamaga qo‘yilgan davriy $\left(y(0)=y(\pi),\ y'(0)=y'(\pi)\right)$ va yarimdavriy $\left(y(0)=-y(\pi),\ y'(0)=-y'(\pi)\right)$ chegaraviy masalalarning xos qiymatlari bilan ustma-ust tushadi. Bu yerda $\Delta(\lambda)=c(\pi,\lambda)+s'(\pi,\lambda)$ bo‘lib, unga (5) tenglamaning Lyapunov funksiyasi deyiladi.

$s(\pi,\lambda)$ funksiyaning nollarini ξ_n, $n=1,2,\ldots$ orqali belgilaymiz va ular (5) tenglamaga qo‘yilgan $\left(y(0)=0,\ y(\pi)=0\right)$ Dirixle masalasining xos qiymatlari bilan ustma-ust tushadi.

Ushbu ξ_n, $n=1,2,\ldots$ sonlar ketma-ketligi va

$$\sigma_n\equiv sign\left\{s'(\pi,\xi_n)-c(\pi,\xi_n)\right\}=\pm 1,\quad n=1,2,\ldots$$

ishoralar ketma-ketligiga (5) vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral parametrlari deyiladi.

Spektrning chetki nuqtalari λ_n, $n=0,1,2,\ldots$ va spektral parametrlardan tashkil topgan ushbu

$$\left\{\lambda_{n-1},\ \xi_n,\ \sigma_n=\pm 1,\ n\ge 1\right\}$$

jamlanmaga (5) vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral berilganlari deyiladi.

Berilgan $q(x)$ koeffiysiyent bo‘yicha (5) vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral berilganlarini topish va uning xossalarini o‘rganishga to‘g‘ri spektral masala, aksincha, vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral berilganlari orqali $q(x)$ koeffitsiyentni tiklash masalasiga teskari spektral masala deyiladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu ishning asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat.

1-teorema. Agar $u(x,t)$ funksiya (1)-(4) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda:

1) (4) tenglamaga qo‘yilgan davriy va yarimdavriy chegaraviy masalaning $\lambda_n(t)$, $n=0,1,2,\ldots$ xos qiymatlari, ya’ni spektrning chetki nuqtalari t paramertga bog‘liq bo‘lmaydi;

2) $\xi_n=\xi_n(t)$, $\sigma_n=\sigma_n(t)$, $n\ge 1$ spektral parametrlari esa quyidagi differensial tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi:

$$\frac{d\xi_n(t)}{dt}=\left\{\frac{1}{2\xi_n}-\frac{1}{2}\sum_{j=1}^{\infty}\frac{1}{\xi_j}+\frac{1}{4}\sum_{k=0}^{\infty}\frac{1}{\lambda_k}\right\}h(\xi_n). \tag{6}$$

Bu yerda

$$h(\xi_n)=\frac{\xi_n\sigma_n\sqrt{\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_0}\right)\prod_{i=1}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i-1}}\right)\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i}}\right)}}{\prod_{\substack{j\ne n\\ j=1}}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\xi_j}\right)}$$

bo‘lib, quyidagi boshlang‘ich shartlar bajariladi:

$$\xi_n(t)\big|_{t=0}=\xi_n^0,\ \sigma_n(t)\big|_{t=0}=\sigma_n^0,\ n=1,2,\ldots$$

Bu yerda ξ_n^0, σ_n^0, $n=1,2,\ldots$lar koeffitsiyenti $q_0(x)=u(x,0)-u_{xx}(x,0)$ bo‘lgan vaznli Shturm-Liuvill tenglamasining spektral parametrlari bo‘lib, $\sigma_n(t)=\pm 1$ ishoralar $\xi_n(t)$ spektral parameter o‘zining $\left[\lambda_{2n-1},\lambda_{2n}\right]$ lakunasi chetiga kelganda qarama-qarshisiga o‘zgaradi.

Isbot. Faraz qilayliz, $u(x,t)$ funksiya (1) tenglamaning x bo‘yicha π davrli yechimi bo‘lsin. Ushbu

$$y_n'' - \frac{1}{4} y_n = \xi_n(t) q(x,t) y_n,\ n = 1,2,... \tag{7}$$

ayniyatni t o‘zgaruvchi bo‘yicha differensiallaymiz va quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz:

$$\dot{y}''_n - \frac{1}{4}\dot{y}_n = \dot{\xi}_n q(x,t) y_n + \xi_n q_t(x,t) y_n + \xi_n q(x,t)\dot{y}_n$$

Oxirgi tenglikni y_n ga, (7) tenglikni esa $\dot{y}_n$ ga ko‘paytiramiz:

$$\dot{y}''_n y_n - \frac{1}{4}\dot{y}_n y_n = \dot{\xi}_n q(x,t) y_n^2 + \xi_n q_t(x,t) y_n^2 + \xi_n q(x,t) y_n \dot{y}_n$$

$$y''_n \dot{y}_n - \frac{1}{4} y_n \dot{y}_n = \xi_n q(x,t) y_n \dot{y}_n$$

Oxirgi ikkita tengliklarni o‘zaro solishtirsak, quyidagi

$$\dot{\xi}_n q(x,t) y_n^2 = \dot{y}''_n y_n - y'' \dot{y}_n - \xi_n q_t(x,t) y_n^2 \tag{8}$$

tenglik kelib chiqadi. (8) tenglikni $(0,\pi)$ oraliqda integrallasak, u holda

$$\dot{\xi}_n \int_0^\pi q(x,t) y_n^2 dx = \int_0^\pi \left(\dot{y}'_n y_n - y_n \dot{y}'_n\right)' dx - \int_0^\pi \xi_n\, q_t(x,t) y_n^2 dx$$

$$\dot{\xi}_n \int_0^\pi q(x,t) y_n^2 dx = \left(\dot{y}' y_n - y'_n \dot{y}_n\right)\Big|_0^\pi - \int_0^\pi \xi_n\, q_t(x,t) y_n^2 dx$$

$$\dot{\xi}_n \int_0^\pi q(x,t) y_n^2 dx = -\int_0^\pi \xi_n\, q_t(x,t) y_n^2 dx \tag{9}$$

ayniyat hosil bo‘ladi. (9) tenglikda

$$\int_0^\pi y_n^2(x,t) q(x,t) dx = -1$$

ekanligini hisobga olsak,

$$\dot{\xi}_n = \int_0^\pi \xi_n\, q_t(x,t) y_n^2 dx \tag{10}$$

tenglik hosil bo‘ladi.

Endi (1) Kamassa-Holm tenglamasini ushbu

$$q_t = -uq_x - 2u_x q + f(t)(u_x - u_{xxx}) \tag{11}$$

ko‘rinishda yozib olamiz. Bunda $q = u - u_{xx}$. Agar (11) ifodani (10) tenglikka qo‘ysak, u holda

$$\dot{\xi}_n = -\int_0^\pi \xi_n\,(uq_x + 2u_x q) y_n^2 dx + \int_0^\pi \xi_n \gamma(t)(u_x - u_{xxx})\, y_n^2 dx \tag{12}$$

ayniyat hosil bo‘ladi. Bu ayniyatning o‘ng tomonidagi birinchi integralga bo‘laklab integrallash qoidasini qo‘llasak, quyidagi

$$I_1 = -\int_0^\pi \xi_n \left(uq_x + 2u_x q\right) y_n^2 dx = -\int_0^\pi \xi_n u q_x y_n^2 dx - 2\int_0^\pi \xi_n u_x q y_n^2 dx =$$

$$= -\int_0^\pi \xi_n u y_n^2 dq - 2\int_0^\pi \xi_n u_x q y_n^2 dx = 2\int_0^\pi \xi_n u y_n y_n' dq - \int_0^\pi \xi_n u_x q y_n^2 dx \tag{13}$$

tenglikni hosil qilamiz. Agar (13) tenglikda, ushbu

$$y_n'' = \frac{1}{4} y_n + \xi_n q(x,t) y_n$$

ayniyatdan foydalansak, quyidagi

$$I_1 = 2\int_0^\pi u\left(y_n'' - \frac{1}{4}y_n\right)y_n' dx - \int_0^\pi u_x\left(y_n'' - \frac{1}{4}y_n\right)y_n dx =$$

$$= 2\int_0^\pi uy_n' y_n'' dx - \frac{1}{2}\int_0^\pi uy_n y_n' dx - \int_0^\pi u_x y_n y_n'' dx + \frac{1}{4}\int_0^\pi u_x y_n^2 dx \qquad (14)$$

tenglik kelib chiqadi. (14) tenglikdagi uchinchi integralda ushbu

$$y_n y_n'' = \left(y_n y_n'\right)' - y_n'^2$$

tenglikdan foydalansak, quyidagi

$$I_1 = 2\int_0^\pi uy_n' dy_n' - \frac{1}{2}\int_0^\pi uy_n dy_n - \int_0^\pi u_x\left(y_n y_n'\right)' dx + \int_0^\pi u_x y_n'^2 dx + \frac{1}{4}\int_0^\pi u_x y_n^2 dx =$$

$$= uy_n'^2\Big|_0^\pi - \frac{1}{2}\int_0^\pi ud\left(y_n y_n'\right) + \frac{1}{2}\int_0^\pi u_x y_n^2 dx =$$

$$= uy_n'^2\Big|_0^\pi + \frac{1}{2}\int_0^\pi u_{xx} y_n y_n' dx + \frac{1}{2}\int_0^\pi u_x y_n^2 dx =$$

$$= uy_n'^2\Big|_0^\pi - \frac{1}{2}\int_0^\pi u_{xxx} y_n^2 dx + \frac{1}{2}\int_0^\pi u_x y_n^2 dx = uy_n'^2\Big|_0^\pi + \frac{1}{2}\int_0^\pi \left(u_x - u_{xxx}\right)y_n^2 dx =$$

$$= uy_n'^2\Big|_0^\pi + \frac{1}{2}\int_0^\pi q_x y_n^2 dx = uy_n'^2\Big|_0^\pi + \frac{1}{2}\int_0^\pi y_n^2 dq = uy_n'^2\Big|_0^\pi - \int_0^\pi qy_n y_n' dx \qquad (15)$$

tenglikka ega bo‘lamiz. (15) tenglikda $y_n'' = \frac{1}{4}y_n + \xi_n q\left(x,t\right)y_n$ ekanligini e’tiborga olsak, quyidagi

$$I_1 = uy_n'^2\Big|_0^\pi - \frac{1}{\xi_n}\int_0^\pi\left[y_n'' - \frac{1}{4}y_n\right]y_n' dx = uy_n'^2\Big|_0^\pi - \frac{1}{\xi_n}\int_0^\pi y_n'' y_n' dx + \frac{1}{4\xi_n}\int_0^\pi y_n y_n' dx =$$

$$= uy_n'^2\Big|_0^\pi - \frac{1}{\xi_n}\int_0^\pi y_n' dy_n' + \frac{1}{4\xi_n}\int_0^\pi y_n dy_n \qquad (16)$$

tenglikni hosil qilamiz. Endi $u\left(0,t\right) = u\left(\pi,t\right)$ tenglikdan foydalanib, (16) tenglikni ushbu

$$\dot{\xi}_n = \left(-\tfrac{1}{2\xi_n} + u(0,t)\right)\left[y'^2_n(\pi,t) - y'^2_n(0,t)\right] \qquad (17)$$

ko‘rinishda yozib olamiz.

Endi (11) tenglikning o‘ng tomonidagi ikkinchi integralni hisoblaymiz:

$$I_2 = \int_0^\pi \xi_n f(t)(u_x - u_{xxx})y_n^2 dx = f(t)\int_0^\pi \xi_n y_n^2 d(u - u_{xx}) =$$

$$= f(t)\left[\xi_n y_n^2(u - u_{xx})\,|_0^\pi - 2\int_0^\pi \xi_n(u - u_{xx})y_n y_n' dx\right] =$$

$$= -2f(t)\int_0^\pi\left(y_n'' - \frac{1}{4}y_n\right)y_n' dx = -f(t)[y_n'^2(\pi,t) - y_n'^2(0,t)]. \qquad (18)$$

(17) va (18) tengliklarni (12) tenglikka qo‘ysak, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\dot{\xi}_n = \left(-\frac{1}{2\xi_n} + u(x,t) - f(t) \right) [y_n'^2(\pi,t) - y_n'^2(0,t)]. \tag{17}$$

Quyidagi

$$y_n'^2(\pi,t) - y_n'^2(0,t) = -\frac{\sigma_n \sqrt{\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_0}\right)\prod_{i=1}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i-2}}\right)\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i}}\right)}}{\xi_n^{-1}\prod_{\substack{j\neq n\\ j=1}}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\xi_j}\right)}$$

[4] tenglikni (17) tenglikka qo‘yib, ushbu

$$\dot{\xi}_n = \left(\frac{1}{2\xi_n} - u(0,t) \right) \frac{\xi_n \sigma_n \sqrt{\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_0}\right)\prod_{i=1}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i-1}}\right)\left(1-\frac{\xi_n}{\lambda_{2i}}\right)}}{\prod_{\substack{j\neq n\\ j=1}}^{\infty}\left(1-\frac{\xi_n}{\xi_j}\right)} \tag{18}$$

differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Quyidagi izlar formulasidan foydalanib,

$$u(0,t) = \frac{1}{2}\sum_{k=1}^{\infty}\frac{1}{\xi_k} - \frac{1}{4}\sum_{k=1}^{\infty}\frac{1}{\lambda_k}$$

(18) tenglikni quyidagi

$$\dot{\xi}_n = \left\{ \frac{1}{2\xi_n} - \frac{1}{2}\sum_{j=1}^{\infty}\frac{1}{\xi_j} + \frac{1}{4}\sum_{k=0}^{\infty}\frac{1}{\lambda_k} \right\} h(\xi_n) \tag{19}$$

yopiq ko‘rinishda yozish mumkin. Bunda

Для того, чтобы определить значение параметров $\boldsymbol{\beta}$ и j, нужно выделить минимальное значение невязки. Нахождение минимальной невязки – это процесс определения наименьшей разности между решением системы уравнений и точным значением.

$\boldsymbol{\partial}\mathrm{I}(\beta, j) = \min$.

Находим невязку:

Невязка

$\boldsymbol{\partial}\mathrm{I} = \sum_{k=1}^{N} (I_k^{\text{пр}} - I_k^t)\text{^}2$

Для него будем вычислять частные производные этой функции.

Найдём частную производную:

$$\boldsymbol{\Delta} I_{\beta} = \frac{I(\beta+\Delta\beta) - I(\beta)}{\Delta\beta}$$

11

$$\boldsymbol{\Delta} I_{\gamma} = \frac{I(j+\Delta j) - I(j)}{\Delta j}$$

$$\boldsymbol{\Delta} I_{\beta} = \frac{-3I(\beta+2\Delta\beta) + 4I(\beta+\Delta\beta) - I(\beta)}{2\Delta\beta)}$$

$$\boldsymbol{\Delta} I_{\beta} = \frac{-3I(j+2\Delta j) + 4I(j+\Delta j) - I(j)}{2\Delta j)}$$

Минимальное значение невязки будем искать методом градиентного спуска. Для использования этого метода вычислим приближенное значение производных по формуле, задав величины $\Delta\beta$ и Δj примерно 2-5% от их значений.

При заданных значений $\boldsymbol{\beta}$ и $\boldsymbol{\gamma}$ параметров модели решение системы вычисляется однозначно. Значение параметров, наиболее адекватно описывающее модель, доставляет минимальное значение функции невязки. Значение $\boldsymbol{\beta}$= 0,0086, j= 0,00032

3. Численное моделирование и анализ результатов.

Для более глубокого анализа поведения SIR-модели было проведено численное моделирование с использованием метода Рунге–Кутты 4-го порядка. Этот метод позволяет получить устойчивое и достаточно точное приближение решения системы дифференциальных уравнений при заданных начальных условиях.

Численное моделирование показало, что динамика распространения инфекции существенно зависит от значений параметров $\boldsymbol{\beta}$ и $\boldsymbol{\gamma}$. При увеличении коэффициента заражения $\boldsymbol{\beta}$ наблюдается более резкий рост числа инфицированных, а пик эпидемии достигается быстрее. В то же время увеличение коэффициента выздоровления $\boldsymbol{\gamma}$ приводит к снижению максимального числа инфицированных и ускоряет затухание эпидемии.

Полученные результаты позволяют сделать следующие наблюдения:

- при $\boldsymbol{\beta} > \boldsymbol{\gamma}$ эпидемия развивается активно и охватывает значительную часть популяции;
- при $\boldsymbol{\beta} \approx \boldsymbol{\gamma}$ наблюдается умеренное распространение инфекции;
- при $\boldsymbol{\beta} < \boldsymbol{\gamma}$ эпидемия быстро затухает и не достигает значительных масштабов.

Особое значение имеет базовое репродуктивное число R_0, которое определяется как отношение $\boldsymbol{\beta}/\boldsymbol{\gamma}$. Если $R_0 > 1$, инфекция распространяется, если $R_0 < 1$ — эпидемия затухает. В проведённом исследовании значение R_0 оказалось больше единицы, что подтверждает возможность распространения заболевания.

Графический анализ результатов моделирования показывает характерную форму эпидемической кривой: быстрый рост числа инфицированных, достижение максимума и последующее снижение. При этом численность восприимчивых уменьшается, а число выздоровевших монотонно возрастает.

Практическое значение модели.

Модель SIR может быть использована для:

- прогнозирования распространения инфекционных заболеваний;
- оценки эффективности мер карантина и вакцинации;
- анализа различных сценариев развития эпидемии;
- принятия управленческих решений в области здравоохранения.

Несмотря на свою простоту, модель позволяет получить важные качественные выводы. Однако для более точного описания реальных процессов необходимо учитывать дополнительные факторы, такие как неоднородность населения, миграция, возрастные группы и социальные контакты.

Выводы. Для исследуемой модели получены данные о параметрах. Эти данные позволяют спрогнозировать количество заболевших на большой период времени. При наличии данных по другому заболеванию возможно получить искомые параметры. Предложенную методику можно применять к большому количеству данных о заболеваниях.

Список использованной литературы:

(1). Лосева А., Нездоймышапко М Моделирование эпидемий: SIR [электронный ресурс]. Режим доступа: https://polit.ru/article/2020/05/06/sir/. 06 мая 2020.

(2). Винницкий Э., Уайт Р. Введение в моделирование инфекционных заболеваний. Учебное пособие, Оксфорд, издательство Оксфордского университета, 2010, 369 с.

(3). Леоненко В.Н. Математическая эпидемиология. Учебно-методическое пособие по выполнению лабораторных работ. Университет ИТМО, Санкт-Петербург, 2018, 39 с.

(4). Абрамова В.В. Лекции по прикладным задачам системного анализа. Задачам биоматематики, 2024.

(5). Братусь А.С., Новожилов А.С., Платонов А.П. Динамические системы и модели биологии, 2011.

(6). Berezovskaya F.S., Novozhilov A.S., and Karev G.P. Traveling fronts, impulses and trains in some taxis models, Neural, Parallel and Scientific Computations. 15(4), 2007, p. 561–571.

(7). Карев Г.П., Березовская Ф.С. Дифференциальные уравнения в математических моделях. М., МИЭМ, 2000.

(8). Kermack W.O., McKendrick A.G. A contribution to the mathematical theory of epidemics. P.R.Soc. Lond. A. Conta, 1927, vol. 115, Iss. 772, p. 700 –721.

(9). Бейли Н. Математика в биологии и медицине. М., “Мир”, 1970, 327 с.

(10). Кудряшов Н.А., Чмыхов М.А. Приближенные решения SIR-модели для описания коронавируса. Вестник Национального исследовательского ядерного университета «МИФИ», 2020, 9(5), с. 404–11.

Urazbayev Gayrat Urazaliyevich (Professor, (DSc) of the Department of Mathematical Engineering Urgench State University; E-mail: gurazboev@gmail.com),
Babadjanova Aygul Komiljanovna (Senior Researcher, PhD Khorezm Branch of the V.I.Romanovskiy Institute of Mathematics, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan; E-mail: aygul.babadjanova1987@gmail.com),
Eshchanova Gulchexra Sheribbayevna (Director of the Abu Rayhan Beruni Specialized School of Physics, Mathematics and Computer Science; E-mail: gulchehra050989@gmail.com)

MATRIX-TRIPLET CONSTRUCTION OF EXPLICIT SOLUTIONS TO THE NEGATIVE-ORDER KORTEWEG-DE VRIES EQUATION ON THE HALF-LINE WITH RATIONAL REFLECTION COEFFICIENTS

Annotation. *This paper considers the negative-order Korteweg–de Vries system on the halfline* $u_t = v_x,\ v_{xxx} - 4uv_x - 2u_xv + u_x = 0,$ *and constructs explicit solutions by means of a matrix triplet method associated with the Marchenko integral equation. Starting from rational reflection coefficients and discrete spectral data, we construct a finite-dimensional triplet* $(A,\ B,\ C)$ *and derive a separable representation of the Marchenko kernel. This reduces the inverse problem to an algebraic matrix framework involving a matrix* $\Gamma(x;t)$. *Several explicit examples are presented, including purely continuous-spectrum solutions and solutions with discrete spectrum.*

Keywords: *negative-order KdV equation, half-line problem, inverse scattering transform, Marchenko equation, matrix triplet, explicit solutions.*

YARIM TO‘G‘RI CHIZIQDA RATSIONAL AKS ETTIRISH KOEFFITSIYENTLARIGA EGA MANFIY TARTIBLI KORTEVEG-DE FRIZ TENGLAMASINING ANIQ YECHIMLARINI MATRITSA-TRIPLETI KONSTRUKSIYASI ORQALI HOSIL QILISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yarim o‘qda berilgan manfiy tartibli Korteveg–de Friz sistemasi* $u_t = v_x,\ v_{xxx} - 4uv_x - 2u_xv + u_x = 0,$ *ko‘rib chiqilib, Marchenko integral tenglamasi bilan bog‘liq matritsaviy uchlik usuli yordamida aniq ye-chimlar quriladi. Ratsional akslanish koeffitsiyentlari va diskret spektral ma’lumotlardan boshlab, chekli o‘lchamli* $(A,\ B,\ C)$ *matritsaviy uchlik quriladi hamda Marchenko yadrosi* $\Gamma(x;t)$ *ning ajraluvchi ko‘rinishi hosil qilinadi. Natijada teskari masala matritsaviy tenglama ishtirokidagi algebraik matritsa sxemasiga keltiriladi. Maqolada uzluksiz spektrli ye-chimlar hamda diskret spektrga ega yechimlarni o‘z ichiga olgan bir nechta aniq misollar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *manfiy tartibli KdF tenglamasi, yarim o‘q masalasi, teskari sochilish usuli, Marchenko tenglamasi, uchlik matritsa, aniq yechimlar.*

ПОСТРОЕНИЕ ЯВНЫХ РЕШЕНИЙ ОТРИЦАТЕЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ КОРТЕВЕГА–ДЕ ФРИЗА НА ПОЛУПРЯМОЙ С РАЦИОНАЛЬНЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ ОТРАЖЕНИЯ МЕТОДОМ МАТРИЧНЫХ ТРИПЛЕТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается система Кортевега-де Фриза отрицательного порядка на полупрямой* $u_t = v_x,\ v_{xxx} - 4uv_x - 2u_xv + u_x = 0,$ *и строятся явные решения с помощью метода матричной тройки, связанного с интеграль-ным уравнением Марченко.Исходя из рациональных коэффициентов отражения и дискретных спектральных данных, строится ко-нечномерная матричная тройка* $(A,\ B,\ C)$ *и выводится сепа-рабельное представление ядра Марченко* $\Gamma(x;t)$ *Это позволяет свести обратную задачу к алгеб-раической матричной схеме, содержащей матричное уравнение. Приведены несколько явных примеров, включая решения с чисто непрерывным спектром и решения с дискретным спектром.*

Ключевые слова: *уравнение КдФ отрицательного порядка, задача на полупрямой, метод об-ратного рассеяния, уравнение Марченко, матричный триплет, явные решения.*

MSC 2020: *35Q53, 37K15, 35Q51*

1 Introduction. The Korteweg-de Vries (KdV) equation is one of the fundamental nonlinear integrable evolution equations and plays a central role in soliton theory, inverse scattering, and nonlinear

wave propagation [3–7]. Beyond its classical form, the KdV hierarchy includes both positive and negative flows generated by the associated recursion operator. In particular, the negative-order members of this hierarchy have attracted considerable attention due to their rich integrable structure, connections with nonlocal reductions, and the presence of nonstandard wave phenomena such as soliton and kink-type solutions [8, 10, 11, 13].

The inverse scattering transform (IST) provides a powerful analytical framework for studying integrable equations on unbounded domains. In the context of the matrix negative-order Korteweg–de Vries equation in the commutative case, the IST was developed in [12] on the whole line. In that work, the time evolution of the scattering data associated with a matrix Sturm–Liouville operator with a self-adjoint potential was derived, leading to a general procedure for constructing solutions.

On the other hand, explicit solution constructions for KdV-type equations have also been extensively investigated. In particular, explicit solutions to the KdV equation in the first quadrant of the x-t plane, expressed in terms of elementary functions and associated with rational reflection coefficients, were obtained in [3]. In the reflectionless case, these solutions reduce to pure N-soliton solutions.The novelty of the present paper lies in the construction of explicit matrix-triplet solutions for the scalar negative-order KdV equation on the half-line, in the derivation of the logarithmic determinant representation under the induced time evolution of the scattering data, and in the positivity analysis of the resulting matrix $\Gamma(x;t)$ in explicit examples.

We consider the negative-order KdV system

$$u_t = v_x,\ v_{xxx} - 4uv_x - 2u_xv + u_x = 0, \tag{1.1}$$

on the half-line $x \in [0,\ \infty)$ and for $t \geq 0$.

In a similar spirit to [3], we begin with an initial profile $u_0(x)$ defined for $x \geq 0$ and extend it to the whole line by setting

$$u(x,\ 0) = \begin{cases} u_0(x), & x \geq 0, \\ 0, & x < 0. \end{cases}$$

This extension is used only to define the associated scattering data and does not imply that the resulting solution satisfies homogeneous boundary conditions at $x = 0$ for $t > 0$. The function $u_0(x)$ introduced above serves as the initial profile for the reconstructed solution and is assumed to belong to the class of real-valued potentials associated with the one-dimensional half-line Schrödinger problem

$$-\psi_{xx} + u_0(x)\psi = k^2\psi, \tag{1.2}$$

subject to

$$\psi'(0) + ik\psi(0) = 0. \tag{1.3}$$

More precisely, we assume that

$$\int_0^\infty (1 + x)|u_0(x)|\, dx < \infty, \tag{1.4}$$

and that u_0 is sufficiently regular for the associated scattering data to exist.

In the present work, we further restrict to the case where the reflection coefficient is rational and the discrete spectrum is finite. For such scattering data, the corresponding potentials are smooth and exponentially decaying.

Under these assumptions, the associated scattering data

$$\left\{R(k),\ \{\kappa_j\}_{j=1}^N,\ \{c_j\}_{j=1}^N\right\}$$

are well defined and satisfy the usual analyticity, symmetry, and decay conditions, where $R(k)$ is the right reflection coefficient, $\kappa_j > 0$ are the discrete spectral parameters, and c_j are the associated norming constants. We refer to [1, 4–6, 9] for the standard reconstruction of such data from the half-line Schrödinger problem (1.2)–(1.3).

When the reflection coefficient is rational, as shown in [3], the Marchenko kernel admits a finite-dimensional separable representation and can be expressed in terms of a matrix triplet $(A,\ B,\ C)$:

$$\Omega(y;t)\ =\ Ce^{\frac{-tA^{-1}}{2}}\ e^{-yA}\mathrm{B}\,.$$

2 Construction of explicit solutions via matrix triplets. To construct explicit solutions, we describe the rational scattering data in a more explicit form. Let $\Pi R(k)$ denote the strictly proper rational part of the reflection coefficient corresponding to poles in the upper half-plane C^{+}. Because of the symmetry relation

$$R(-k^{*})\ =\ R(k)^{*},$$

the poles in C^{+} occur either on the imaginary axis or in pairs symmetric with respect to the imaginary axis. Accordingly, we use the partial fraction decomposition

$$\Pi R(k)=\ \sum_{j=1}^{n}\sum_{s=1}^{m_j}\left[\frac{(-i)^{s}\,(\epsilon_{js}\ +\ i\gamma_{js})}{(k\ -\ i\beta_{j}\ -\alpha_{j}\ )^{s}}+\frac{(-i)^{s}\ (\epsilon_{js}\ -\ i\gamma_{js})}{(k\ -\ i\beta_{j}\ +\alpha_{j}\ )^{s}}\ \right]+\sum_{j=2n+1}^{M}\sum_{s=1}^{mj}\frac{(-i)^{s}\ r_{js}}{(k\ -\ i\omega_{j}\ )^{s}}\quad(2.1)$$

Here n is the number of symmetric pairs of complex poles, $M-2n$ is the number of purely imaginary poles, mj denotes the multiplicity of the corresponding pole, and all coefficients ϵ_{js}, γ_{js}, and r_{js} are real.

Following [18], (2.1) can be represented via the triplet $(A,\ B,\ C)$ such that

$$\Pi R(k)\ =\ -i\ C\ (kI\ -\ iA)^{-1}$$

The dimension of A is

$$J\ =\ N\ +\ 2\sum_{j=1}^{n}m_{j}\ +\ \sum_{j=2n+1}^{M}m_{j}\quad,$$

and the matrix A is block diagonal, while B and C are built blockwise from the pole and norming data. More precisely, the blocks corresponding to the pairs $\pm\alpha_{j}\ +\ i\beta_{j}$ are built from the $2\ \times\ 2$ matrices

$$\Lambda_{j}\ =\ \begin{bmatrix}\beta_{j} & -\alpha_{j}\\ \alpha_{j} & \beta_{j}\end{bmatrix},$$

the purely imaginary poles $i\omega_{j}$ generate Jordan blocks with eigenvalue ω_{j}, and each discrete eigenvalue κ_{j} contributes a $1\ \times\ 1$ block.

In [17], the inverse scattering transform for the matrix negative-order Korteweg–de Vries equation in the commutative case was studied, and the time evolution of the scattering data was obtained as

$$\kappa_{j}\ (t)\ =\kappa_{j}\ ,$$

$$c_{j}\ (t)\ =\ e^{\frac{-t}{2\kappa_{j}}}\ c_{j}\ ,\ 1\ \le\ j\ \le\ N$$

$$R(k,\ t)\ =\ e^{\frac{-t}{2\kappa_{j}}}\ R(k),\quad k\in R\ \setminus\ \{0\}.\qquad(2.2)$$

In the scalar $(1\ \times\ 1)$ reduction, the commutative matrix equation coincides with (1.1); accordingly, we adopt the same evolution law in the scalar setting. The time-dependent Marchenko equation reads

$$K(x,\ y;t)\ +\ \Omega(x\ +\ y;t)\ +\ \int_{x}^{\infty}K(x,\ z;t)\Omega(y\ +\ z;t)\ dz\quad=\ 0,\quad y\ >\ x\ >\ 0\,.\qquad(2.3)$$

The function Ω is determined by the time-evolved scattering data (2.2) through

$$\Omega(y;t) = \frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{+\infty} R(k)e^{\frac{-t}{2\kappa}+iky}dk + \sum_{j=1}^{N} e^{\frac{-t}{2\kappa_j}-k_j y}. \tag{2.4}$$

Since $R(k)$ is rational, Ω can be written in separable form:

$$\Omega(y;t) = Ce^{\frac{-tA^{-1}}{2}} e^{-yA}B. \tag{2.5}$$

Hence

$$\Omega(x+y;t) = (Ce^{\frac{-tA^{-1}}{2}} e^{-xA})(e^{-yA}B). \tag{2.6}$$

Define

$$\Gamma(x;t) := I_J + \int_x^{\infty} e^{-zA}BC\, e^{-zA} e^{\frac{-tA^{-1}}{2}} dz \quad . \tag{2.7}$$

Since all eigenvalues of A satisfy $\Re\lambda > 0$, the matrix A is invertible. Moreover, the matrix exponential satisfies an estimate of the form

$$\| e^{-zA} \| \leq C(1 + z^m)e^{-cz},$$

for suitable constants C, $c > 0$ and some integer $m \geq 0$. This guarantees absolute convergence of the integral in (2.7) and justifies differentiation of $\Gamma(x;t)$ with respect to both x and t under the integral sign.

Lemma 1. Assume that $\Omega(y;t)$ is given by (2.5), and that $\Gamma(x;t)$ is invertible. Then a solution of (2.3) is

$$K(x, y;t) = -Ce^{\frac{-tA^{-1}}{2}} e^{-xA}\Gamma(x;t)^{-1} e^{-yA}B. \tag{2.8}$$

By the standard Marchenko reconstruction formula,

$$u(x, t) = -2\frac{\partial}{\partial x}K(x, x;t). \tag{2.9}$$

Hence

$$u(x, t) = 2\frac{\partial}{\partial x}\left[Ce^{\frac{-tA^{-1}}{2}} e^{-xA}\Gamma(x;t)^{-1} e^{-xA}B\right]. \tag{2.10}$$

Proposition 1. Assume that $\Gamma(x;t)$ is invertible. Then the potential (2.10) admits the representation

$$u(x, t) = -2\frac{\partial^2}{\partial x^2} log\ det\,\Gamma(x;t). \tag{2.11}$$

Proposition 2. Assume that

$$det\Gamma(x; 0) > 0,\ x \in [0,\infty),$$

and that

$$inf\ x \geq 0\ det\Gamma(x; 0) > 0.$$

Assume further that $\Gamma(x;t) \to \Gamma(x; 0)$ uniformly for $x \geq 0$ as $t \to 0$.

Then there exists $\tau > 0$ such that

$$det\Gamma(x;t) > 0,\ x \in [0,\infty),\ 0 \leq t < \tau.$$

Consequently, the corresponding solution is regular on $[0,\infty) \times [0,\tau)$.

3 Examples. In this section, we illustrate the construction with explicit choices of the triplet (A, B, C). Consider

$$\Pi R(k) = \frac{-2i\epsilon(k - i\beta) - 2\alpha\gamma}{(k - i\beta)^2 - \alpha^2}, \beta > 0, \tag{3.1}$$

with the associated matrices

$$A = \begin{bmatrix} \beta & -\alpha \\ \alpha & \beta \end{bmatrix}, B = \begin{bmatrix} 0 \\ 1 \end{bmatrix}, C = 2\begin{bmatrix} \gamma & \epsilon \end{bmatrix}. \tag{3.2}$$

The eigenvalues of A A are $\beta \pm i\alpha$, and therefore $\Re\lambda > 0$. A direct computation shows that

$$\begin{aligned} det\Gamma(x;t) &= 1 - \frac{\alpha^2}{4\beta^2(\alpha^2 + \beta^2)}(\epsilon^2 + \gamma^2)e^{-4\beta x - \frac{\beta}{\alpha^2+\beta^2}t} \\ &+ \frac{1}{\alpha^2 + \beta^2} e^{-2\beta x - \frac{\beta}{2(\alpha^2+\beta^2)}t}\left[(\alpha\epsilon - \beta\gamma)\sin\left(\frac{\alpha}{2(\alpha^2 + \beta^2)}t - 2\alpha x\right)\right] \\ &+ (\alpha\gamma + \beta\epsilon)\cos\left(\frac{\alpha}{2(\alpha^2 + \beta^2)}t - 2\alpha x\right) \end{aligned} \tag{3.3}$$

Lemma 2. If

$$\sqrt{\epsilon^2 + \gamma^2} < \frac{2\beta\sqrt{\alpha^2 + \beta^2}}{\sqrt{\alpha^2 + \beta^2} + \beta}, \tag{3.4}$$

then $det\Gamma(x;t) > 0$ for all $x \geq 0$ and $t \geq 0$.

Corollary 1. Under condition (3.4), the function $u(x, t) = -2\partial_x^2 log\ det\Gamma(x;t)$ defines a global regular solution of (1.1) on the quarter-plane.

Now let we consider

$$A = \begin{bmatrix} \beta & -\alpha & 0 \\ \alpha & \beta & 0 \\ 0 & 0 & \kappa \end{bmatrix}, \quad B = \begin{bmatrix} 0 \\ 1 \\ 1 \end{bmatrix}, \quad C = \begin{bmatrix} 2\gamma & 2\epsilon & c \end{bmatrix}, \tag{3.5}$$

where $\beta > 0$ and $\kappa > 0$. For example, choosing $\alpha = \frac{\sqrt{3}}{2}$, $\beta = \frac{1}{2}$, $\kappa = 2$, $\epsilon = \frac{1}{2}$, $\gamma = \frac{1}{2}$, $c = 3$, the profile of the resulting explicit regular solution can be visualized (Figure 1) in MATLAB.




Figure 1: Surface plot of the solution $\mathbf{u(x, t)}$ corresponding to one discrete eigenvalue.

The presence of the discrete eigenvalue κ produces a localized soliton-type contribution, while the continuous-spectrum component produces an oscillatory dispersive background. Numerical evaluation over a large computational domain indicates that $det\Gamma\left(x;t\right) > 0$ for the above parameter values, which suggests global regularity for this example.

4. Conclusion. We have developed a matrix-triplet construction for explicit solutions of the negative-order KdV system on the half-line. For rational reflection coefficients and finitely many discrete eigenvalues, the Marchenko kernel admits a separable representation, which reduces the inverse problem to a finite-dimensional matrix framework. This leads to an explicit logarithmic determinant formula for the potential and provides a practical mechanism for constructing exact solutions.

References:

[1]. Aktosun T. & Klaus M. (2001). Inverse theory: problem on the line. In: Pike, E.R. & Sabatier, P. C. (eds.) Scattering, pp. 770–785, London, Academic Press.

[2]. Aktosun T., Klaus M. & van der Mee, C. (1992). Explicit Wiener–Hopf factorization for certain nonrational matrix functions. Integral Equations and Operator Theory, 15, pp. 879–900.

[3]. Aktosun T. & van der Mee C. (2006). Explicit solutions to the Korteweg-de Vries equation on the half-line. Inverse Problems, 22, pp. 2165–2174.

[4]. Deift P. & Trubowitz E. (1979). Inverse scattering on the line. Communications on Pure and Applied Mathematics, 32, pp. 121–251.

[5]. Faddeev L.D. (1967). Properties of the S-matrix of the one-dimensional Schrödinger equation. American Mathematical Society Translations, 65, pp. 139–166.

[6]. Fokas A.S. (2002). Integrable nonlinear evolution equations on the half-line. Communications in Mathematical Physics, 230, pp. 1–39.

[7]. Gardner C S., Greene J.M., Kruskal M.D. & Miura R.M. (1967). Method for solving the Korteweg-de Vries equation. Physical Review Letters, 19, pp. 1095–1097.

[8]. Kriecherbauer T., Urazboev G.U. & Babadjanova A.K. (2025). On the matrix negative-order Korteweg-de Vries equation – the commutative case. Wave Motion, 138, 103562.

[9]. Marchenko V.A. (1986). Sturm–Liouville Operators and Applications. Basel: Birkhäuser.

[10]. Qiao Z. & Li J. (2011). Negative-order KdV equation with both solitons and kink wave solutions. Europhysics Letters, 94, 50003.

[11]. Qiao Z. & Fan E. (2012). Negative-order Korteweg-de Vries equations. Physical Review E, 86, 016601.

[12] Urazboev G.U., Baltaeva I.I. & Ismoilov O.B. (2023). Integration of the negative-order Korteweg-de Vries equation by the inverse scattering method. Vestnik Udmurtskogo Universiteta. Matematika, Mekhanika, Komp'yuternye Nauki, 33, pp. 523–533.

[13]. Verosky J.M. (1991). Negative powers of Olver recursion operators. Journal of Mathematical Physics, 32, pp. 1733–1736.

FALSAFA

Po‘latov Anvar Akmalovich (O‘zMU “Falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)

POSTMODERNIZM VA REALLIK DEKONSTRUKSIYASI

Annotatsiya. *Maqolada postmodernizmning inson tafakkuri, haqiqat tushunchasi va mafkuraviy transformatsiyalarga ta’siri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ppostmodern sharoitda realizm va reallik muammosi markaziy masalalardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. M.Fukoning tarixiy yondashuvi asosida epistemologik maydon hamda turli tarixiy epistemelar tushunchasi tahlil qilinadi. Fuko uchun asosiy masala reallik nima? degan savol emas, balki fan va bilimning imkoniyat shartlari tarixiy jihatdan qanday shakllangan? degan savol ekanligi ochib beriladi. Shu sababli reallik masalasi vaqtincha chetga surilib, asosiy e’tibor bilimning tarixiy va diskursiv shakllanish jarayoniga qaratiladi. Tadqiqotda postmodernizm insonning haqiqatni mustaqil ravishda belgilashga nafaqat aqlan qodir, balki bunga haqli ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari surishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, an’anaviy jamiyatlarda haqiqat avlodlar tomonidan umumiy qabul qilingan, qat’iy belgilangan va universallikka ega hodisa sifatida talqin qilinganligi falsafiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *postmodernizm, modernism,reallik, realizm, dekostruksiya.*

Пулатов Анвар Акмалович (Преподаватель кафедры философии НУУз; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)

ПОСТМОДЕРНИЗМ И ДЕКОНСТРУКЦИЯ РЕАЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье социально-философски анализируется влияние постмодернизма на человеческое мышление, понятие истины и трансформацию идеологий. В условиях постмодерна проблема реализма и реальности рассматривается как одна из центральных тем. На основе исторического подхода Мишеля Фуко анализируются понятия эпистемологического поля» и различных исторических эпистем. Для Фуко основным вопросом является не что такое реальность? А каким образом исторически сформировались условия возможности науки и знания? Поэтому проблема реальности временно отодвигается на второй план, а основное внимание сосредотачивается на историческом и дискурсивном процессе формирования знания. В исследовании анализируется идея постмодернизма о том, что человек не только интеллектуально способен самостоятельно определять истину, но и имеет на это право. Вместе с тем философски рассматривается то, что в традиционных обществах истина понималась как общепринятый и строго определённый феномен, передаваемый из поколения в поколение.*

Ключевые слова: *постмодернизм, модернизм ,реальность, реализм, деконструкция.*

Polatov Anvar Akmalovich (Lecturer at the Department of Philosophy, National University of Uzbekistan; e-mail: polatoffanvar@gmail.com)

POSTMODERNISM AND THE DECONSTRUCTION OF REALITY

Annotation. *The article socio-philosophically analyzes the influence of postmodernism on human thought, the concept of truth, and the transformation of ideologies. In the context of postmodernity, the problem of realism and reality is considered one of the central issues. Based on Michel Foucault’s historical approach, the concepts of the epistemological field and various historical epistemes are analyzed. For Foucault, the main question is not What is reality?, but rather “How have the conditions of possibility for science and knowledge been historically constructed?” Therefore, the question of reality is temporarily bracketed, while the main focus is directed toward the historical and discursive formation of knowledge. The study also examines the postmodernist idea that human beings are not only intellectually capable of determining truth independently, but also possess the right to do so. At the same time, it is philosophically emphasized that in traditional societies truth was understood as a universally accepted and strictly defined phenomenon transmitted across generations.*

Keywords: *Postmodernism, modernism, reality, realism, deconstruction.*

Kirish. Bugungi kunda postmodern dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarning sababiyatini va keltirib chiqaradigan oqibatlari haqida gap ketganda, avvalombor, tarixiy yondashuv orqali, eng avvalo, epistemologik maydonni, ya’ni, turli tarixiy jarayonlarni epistemologiyasini anglash zarur. Postmodern dunyoda mafkuralarning maqsadi bilimni referensiya, ratsional qiymat yoki obyektiv shakllar mezonidan mustaqil holda qanday tushunilganini ko‘rsatishdir. Shu sababli asosiy masala reallik nima? degan savol emas, balki fan va bilimning imkoniyat shartlari tarixiy jihatdan qanday qurilgan? degan savolga javob topsish zarurdir. Zamonaviy dunyoda reallik masalasi vaqtincha ontologik mohiyati chetga suriladi surila-

di, chunki asosiy e'tibor bilimning tarixiy shakllanishiga qaratiladi. Mazkur epistemologik loyihaning xavfi ham mavjud ya'ni; tarixiy va ijtimoiy omillarga haddan tashqari urg'u berish insonni skeptik tushkunlikka olib kelishi mumkin. Bunday holatda dunyoning real strukturalari til strukturalari ichida yo'qolib ketadi yoki inson ongining hamda ushbu ongni shakllantiruvchi sotsiologik va epistemologik sharoitlarning mahsuliga aylantiriladi. Agar postmodern holatni tavsiflovchi aniq tushuntirish mavjud bo'lsa, u shundan iboratki, tasavvuriy va simvolik, ayniqsa, lingvistik strukturalar shu qadar dominantlashadiki, ya'ni, barcha reallik til va diskurs bilan to'liq belgilansa, inson faqat mavjud tartibni buzish yoki unga qarshi chiqish orqali harakat qilishi mumkin bo'ladi. Shu sababli Lyotard metafizik neytrallik g'oyasini tanqid qiladi [1; 141-b.]. Chunki metafizikadan butunlay voz kechish yoki neytral qolishga urinish amalda yashirin metafizikani qabul qilishni anglatadi. Jan Pol Sartrga ko'ra, har qanday tartib qotib qolishi bilan darhol tanqid qilinishi va yangilanishi kerak. Biroq bundan ham muhimrog'i dunyoni qanday bo'lsa shunday, holatda qabul qilishdir. Shu sababli haqiqiy postmodern falsafa doimiy revolyutsiya, ya'ni realga uzluksiz qaytish harakati sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu qaytish hech qanday kafolat va yakuniy ishonch bermaydi. Sartrning yana bir mashxur iborasi eski dunyo o'lmoqda, yangi dunyo esa hali tug'ila olmayapti degan gapi ham diqqatga sazovordir va shu fikr orqali postmodern sharoitdagi realizm inqirozini ifodalaydi [2;95-b.]. Bunday vaziyatda reallikka yangi ma'nolar, yangi tushunchalar, yangi qoidalar va yangi iboralar zarur bo'ladi. Chunki real haqida gapirish imkonini beruvchi yangi kontekst va yangi tilni yaratish kerak. Shu sababli postmodernlikning tugallanmagan loyihasi modernlikning soyalariga shunchaki reaksiya bo'lmagan, balki haqiqiy postmodern realizm va realizm tilini yaratish bo'lib kelgan. Natijada postmodernizm va realismning birlashuvi shuni anglatadiki, inson faqat hozirgi zamon ichidagi murakkab va ziddiyatli reallik bilan og'ir kurash orqali yashashi mumkin. Tafakkur o'zining sof holatini anglagan holda, murakkab va chigal reallikni tushunishga urinib, doimiy skeptic harakat ichida qolad.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Reallikning dekonstruktiv talqini borasida Fridrix Nitshe til va metafora haqidagi tahlilini ilm-fan va sababiyat qonunlari masalasiga ham tatbiq etadi. Uning fikricha, fan tabiat qonunlarini mangu va mutlaq uyg'unlikka ega deb qabul qiladi [3;211-b.].Tabiat qonunlari go'yoki mantiq va ratsionallik qonunlari kabi zarur va mantiqli ko'rinadi. Nitshe uchun inson aqli doimo real dunyoning qattiq tartibidan qochishga moyil. Shu sababli ba'zan konseptual tuzilmalarning o'zi ham xaosga tashlanadi va taqiqlangan metaforalar hamda noodatiy kombinatsiyalar orqali yangi ma'nolar yaratiladi.

G.Deluzaning borliqning uiversalligi haqidagi qarashi uning falsafasida relativizm masalasini eng aniq shaklda yuzaga chiqaradi. Biroq bu relativizm lingvistik relativizm emas. Deluza tomonidan ilgari surilgan plyuralizm va monizm formulasi o'ziga xos giperempirizmni anglatadi. U metafizik loyiha sifatida barcha mumkin bo'lgan tajriba va konseptuallikning imkoniyat shartlarini tushuntira oladigan ontologiyani yaratishga urinadi. Deluza uchun reallik tugallanmagan va cheksiz ko'plikdan iboratdir [4;144-b.]. Shu sababli uni anglash va tajriba qilishning potensial ravishda cheksiz usullari mavjud. Ammo bu holat xato yoki illuziyalar mavjud emas degani emas. Aksincha, har qanday xato yoki illuziya empirik bo'ladimi yoki transsendental simulakrlar xaosi va muammolarning shakllanishi hamda yechilishida obyektiv asosga ega.

J.Derrida aynan shu Nitshe merosni davom ettiradi va dekonstruksiya metafizik tanlovlarning yolg'on alternativalaridan chiqish harakatidir deb tavsiflaydi. U reallikni til orqali mutlaq va shaffof tarzda ifodalash mumkin degan qarashni ham, tildan butunlay chiqib ketish mumkin degan qarashni ham rad etadi [5;72-b.]. Derrida uchun asosiy muammo haqiqat bor bo'lish metafizikasidir. G'arb falsafasi doimo mavjudlikni to'liq hozirlik, bevositalik va o'z-o'ziga shaffoflik sifatida tasavvur qilgan. Natijada mavjudlikning ochiqligi va differensiyasi ma'lum bir mavjudlik shakliga qisqartirilgan. Dekonstruksiya esa aynan ushbu reduksiyani tanqid qiladi. Shu sababli dekonstruksiya skeptitsizm yoki reallikning inkori emas. Aksincha, u reallikni tilning o'zga sifatida saqlab qolishga urinadi. Derrida insonning bilim va konseptual konstruksiyalari bilan insondan mustaqil mavjud reallik o'rtasidagi farqni saqlashga harakat qiladi. Dekonstruksiya reallikni til ichida mutlaq yo'qotmaydi aksincha, reallikni til bilan to'liq identifikatsiya qilishning oldini oladi. Shu ma'noda, dekonstruksiya irratsionalizm yoki relativizm emas, balki tilning dunyoni qanday murakkab va noaniq tarzda artikulyatsiya qilishini ochib beruvchi kritik loyiha sifatida namoyon bo'ladi. Derrida tilning paradoksal tabiatiga e'tibor qaratadi. Til bir vaqtning o'zida ham ma'no va haqiqatni yaratadi, ham ularni yemiradi. G'arb metafizikasining asosiy xatosi esa ma'noni yopiq va immanent tizim ichida to'liq ushlab qolish mumkin degan illuziyadir. Derrida uchun esa til har doim tashqi va differensial xarakterga ega bo'lib, interpretatsiya, tarqoqlik va noaniqlikni o'zida olib yuradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jarayoni dekonstruktiv metod, diskursiv tahlil, germenevtik metod, poststrukturalistik yondashuv kabi metodologik asoslar orqali amalga oshirildi. Shuningdek, simulyatsiya va media realligi kabi tanqidiy metodlardan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dekonstruksiya tushunchasi postmodernizmning eng mashhur va eng bahsli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakillanganligiu namoyom bo‘ldi. Ayniqsa u interkonektivlik, fragmentatsiya va giperrealik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilindi. Dekonstruksiya, ko‘pincha, ontologiya va metafizika diskurslariga qarshi chiqadigan, reallikni til va matn ichida eritib yuboradigan yondashuv sifatida tasvirlanadi. Shu sababli faylasuflar dekonstruksiyani antirealist yoki irrealist oqim sifatida talqin qilganlar. Derrida dekonstruksiyani skeptitsizm, relativizm yoki nigilizm bilan tenglashtirishni ham rad qiladi. Uning fikricha, agar dekonstruksiya haqiqat, ma’noni butunlay inkor etsa, unda u o‘z matnining to‘g‘ri o‘qilishini talab qila olmas edi [6;98-b.]. Demak, dekonstruksiya haqiqat tushunchasini yo‘q qilmaydi; u faqat uni kuchliroq va murakkabroq kontekstlar ichida qayta joylashtiradi. Shu ma’noda haqiqat va ma’no butunlay bekor qilinmaydi, balki ularning ishlash shakli qayta talqin qilinadi. Postmodernizm shunday davrki, unda odamlar haqiqat va reallikni endi aniq, universal va o‘zgarmas narsa deb ko‘ra olmay qoladi. M Fukoga ko‘ra, muhim savol reallik nima?emas, balki biz reallikni qanday tarixiy va diskursiv tizimlar orqali tushunyapmiz? degan savoldir [7;206-b.]. Ya’ni haqiqat ham tarix, til, hokimiyat va bilim tizimlari orqali quriladi. Lekin, bizning fikrimizcha, agar hamma narsani faqat til va diskursga bog‘lab yuborsak, unda real dunyo yo‘qolib ketadi. Natijada inson skeptitsizmga,nihilizmga yoki faqat “hamma narsani buzish” (dekonstruksiya) holatiga tushib qoladi. Shuning uchun, bizningcha, reallik mavjud, lekin uni eski modernistik usulda mutlaq, barqaror va universal shaklda tushunib bo‘lmaydi. Demak, klassik realizm yetarli emas, lekin to‘liq relativizm ham xavflidir. Postmodernizmning vazifasi faqat buzish emas, balki reallikni tushuntira oladigan yangi postmodern til va yangi realizm yaratishdir.

Derrida dekonstruksiya semantika, etika yoki siyosat nuqtai nazaridan relativizmga yoki indeterminizmga olib kelmasligi kerak. Bu esa dekonstruksiyani oddiy (hamma narsa nisbiy) degan postmodern qarashdan farqlaydi. Mazkur masalada Kristofer Norris dekonstruksiyani postmodern relativistik oqimning bir qismi sifatida emas, balki tilning imkoniyatlari va chegaralari haqidagi qat’iy va jiddiy tahlil sifatida talqin qiladi. Hatto u dekonstruksiyani kritik realizmning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rishga urinadi. Norrisning fikricha, dekonstruksiya realizmni rad etmaydi, balki realikni oddiy va bevosita mavjud deb tasavvur qilishga qarshi chiqadi. Ya’ni dekonstruksiya reallikni o‘z-o‘zidan ravshan, shaffof va to‘liq o‘zini namoyon qiluvchi narsa sifatida qabul qilmaydi. Shu sababli u har qanday transsendental mutlaq va yakuniy ma’no markazi g‘oyasini tanqid qiladi. Bu yondashuv postmodern realizmning murakkab shakliga olib keladi. Bunday realizm uchun reallik mavjud, biroq u hech qachon to‘liq va yakuniy tarzda taqdim etilmaydi. Reallik har doim til, tarix, interpretatsiya va differensiya orqali ochiladi. Shu sababli dekonstruksiya realizmni inkor etmaydi, u faqat modern metafizikaning qat’iy, markazlashgan va universalistik realizm shakllarini tanqid qiladi.

Xulosa va takliflar. Postmodernizm masalasi modernlikdan keyin nima keladi degan fundamental savol bilan boshlanadi. Agar modernlikning mohiyati doimiy ravishda yangini yaratish va taraqqiyot g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, unda yangidan keyingi holatni qanday tushunish mumkinligi postmodern tafakkurning asosiy muammolaridan biriga aylanadi. Zamonaviy inson postmodern sharoitda modern bo‘lish tajribasini qanday boshdan kechirishi masalasi ham aynan shu kontekstda talqin qilinadi. Fredrik Jameson postmodernizmni tarixiy davr va madaniy dominant sifatida tushuntirishga urinadi. Garchi bunday yondashuv tarixiy jarayonni sun’iy ravishda bir chiziqli makonga aylantirish xavfini tug‘dirsada, Jameson postmodernizmni o‘zaro zid tendensiyalar va qarama-qarshi madaniy shakllarning birgalikda mavjud bo‘lishiga imkon beruvchi umumiy madaniy mantiq sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv postmodern sharoitda reallik tushunchasining ham tubdan o‘zgarishini anglatadi. Endilikda reallik yagona, barqaror va universal haqiqat sifatida emas, balki til, media, diskurs va mafkuraviy konstruktsiyalar orqali shakllanuvchi nisbiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, J.Derridaning dekonstruksiya konsepsiyasi markaziy ahamiyat kasb etadi. Dekonstruksiya an’anaviy metafizik qarashlarni, xususan, “mutlaq markaz”, “barqaror ma’no” va “yakuniy haqiqat” haqidagi tasavvurlarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi. Natijada postmodernizm reallikni tayyor va o‘zgarmas mavjudlik sifatida emas, balki doimiy ravishda qayta talqin qilinuvchi va diskursiv tarzda quriluvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Shu tariqa, postmodern tafakkur haqiqat, identiklik va reallikning dekonstruksiya qilinishi orqali zamonaviy madaniyatning pluralistik va fragmentar xarakterini ochib beradi. Xulosa qilib aytganda, postmodernizm modernlikning universal haqiqat, progress va barqaror identiklik haqidagi tasavvurlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi. Postmodernizm kapitalizmning madaniy mantig‘i sifatida tarixiylikning parchalanishi, vaqt va makonning suyuqlashuvi hamda subyektning fragmentatsiyasi bilan xarakterlanadi. Natijada reallik endilikda yagona va obyektiv haqiqat sifatida emas, balki media, diskurs, simulyakr va intertekstual aloqalar orqali quriluvchi nisbiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. J.Derridaning dekonstruksiya konsepsiyasi esa “mutlaq markaz”, “barqaror ma’no” va “yakuniy

haqiqat” haqidagi metafizik qarashlarni rad etib, haqiqatning doimiy ravishda qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, postmodernizm modernlikning qat’iy va yaxlit tizimlariga qarshi plyuralizm, fragmentatsiya va diskursiv ko‘plikka asoslangan yangi madaniy-falsafiy tafakkurni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Lyotard J.F. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. Manchester, University Press. 1984, 141 p.

(2). Existentialism from Dostoyevsky to Sartre, ed. Walter Kaufman, Meridian Publishing Company, 1989, 95 p.

(3). Nietzsche F. On the Genealogy of Morality (trans. Carol Diethe). Cambridge, Cambridge University Press, 2006, 211 p.

(4). Deleuze G. and Parnet C. Dialogues II (trans. Hugh Tomlinson and Barbara Habberjam). New York, Columbia University Press. 2007, 144 p.

(5). Derrida J. Spurs: Nietzsche’s Styles. Chicago, University of Chicago Press, 1979, 72 p.

(6). Derrida J. Writing and Difference. London, Routledge & Kegan Paul, 1978, 98-bet.

(7). Foucault M. Madness and Civilisation. London, Routledge, 1967, 206 c.

G‘afurov Doniyor Orifovich (Buxoro Innovatsiyalar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); gafurovdoniyor@gmail.com)

MAXDUMI A’ZAM DAHBEDIY TA’LIMOTIDA OILA FAROVONLIGI VA NIKOHNING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Naqshbandiya silsilasining yetakchi nazariyotchisi Xojagiy Ahmad Kosoniy Maxdumi A’zam Dahbediy (1461–1542) intellektual merosidagi oilaviy farovonlik paradigmasi va nikoh fenomenining konseptual tahlili amalga oshirilgan. Globallashuv, raqamli mediatizatsiya va aksiologik pluralizm sharoitida Maxdumi A’zam meroshunosligining O‘zbekiston Respublikasi oila institutini mustahkamlash strategiyasidagi konseptual ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maxdumi A’zam Dahbediy, Naqshbandiya silsilasi, oilaviy farovonlik paradigmasi, “Asror un-nikoh” risolasi.*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ БЛАГОПОЛУЧИЯ СЕМЬИ И БРАКА В УЧЕНИИ МАХДУМИ АЗАМА ДАХБЕДИ

Аннотация. *В статье осуществлен концептуальный анализ парадигмы семейного благополучия и феномена брака в интеллектуальном наследии ведущего теоретика семьи Накшбандия Ходджаги Ахмада Косани Махдуми Аъзама Дахбеди (1461–1542). Обоснована концептуальная значимость наследия Махдуми Аъзама в стратегии укрепления института семьи Республики Узбекистан в условиях глобализации, цифровой медиатизации и аксиологического плюрализма.*

Ключевые слова: *Махдуми Аъзам Дахбеди, Накшбандия, парадигма семейного благополучия, трактат «Асрор ун-никах».*

SOCIO-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF FAMILY WELL-BEING AND MARRIAGE IN THE TEACHINGS OF MAKHDUMI A’ZAM DAHBEDI

Annotation. *The article provides a conceptual analysis of the paradigm of family well-being and the phenomenon of marriage in the intellectual heritage of the leading theoretician of the Naqshbandi chain Khojagi Ahmad Kosani Makhdumi Azam Dahbedi (1461–1542). The conceptual significance of Makhdumi Azam’s heritage in the strategy of strengthening the family institution of the Republic of Uzbekistan in the conditions of globalization, digital mediatization and axiological pluralism is substantiated.*

Key words: *Makhdumi Azam Dahbedi, Naqshbandi chain, family well-being paradigm, "Asror un-nikah" treatise.*

Kirish. Sayyid Ahmad ibn Sayyid Mavlono Jaloluddin Xojagiy Kosoniy Maxdumi A’zam Dahbediy (1461–1542) Naqshbandiya silsilasining XV–XVI asrlardagi yetakchi nazariyotchisi va ta’limotni tizimli rivojlantirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning “Maxdumi A’zam” nomi bilan mashhur bo‘lgan ilmiy maktabi Markaziy Osiyo tasavvuf tafakkurida muhim o‘rin egallab, silsilaning keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Mutafakkirning o‘ttizdan ortiq risolalaridan iborat merosida tasavvufiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va oilaviy masalalar chuqur tahlil qilingan bo‘lib, ular bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ushbu qo‘lyozmalar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Mazkur merosni zamonaviy oilashunoslik bilan uyg‘unlashtirish, ayniqsa oila institutini mustahkamlashga qaratil-

gan davlat siyosati doirasida, Maxdumi A’zamning oilaviy farovonlik haqidagi qarashlarini globallashuv va zamonaviy ijtimoiy muammolar sharoitida muhim metodologik manba sifatida o‘rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur mavzu doirasida adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Maxdumi A’zam Dahbediy merosi asosan tasavvufiy-falsafiy va axloqiy manbalar negizida o‘rganilgan bo‘lib, uning oila va nikoh masalalariga oid qarashlari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Tadqiqotlarda “Asror un-nikoh”, “Ganjnoma” va “Sharhi al-valadi sirru abiyhi” asarlari oilaviy munosabatlar, tarbiya va halol turmush masalalarini yorituvchi muhim manbalar sifatida baholanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa oila va nikohning ijtimoiy hamda axloqiy jihatlari keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, Maxdumi A’zam ta’limotini zamonaviy oilashunoslik bilan integratsiyalash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi kompleks va integrativ yondashuvga asoslanib, Maxdumi A’zam Dahbediy ta’limotida oila farovonligi va nikohning ijtimoiy-falsafiy talqinini chuqur tahlil qilishni nazarda tutadi. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik prinsiplari asosida asarlar evolutsiyasi o‘rganilib, hermenevtik usul orqali ularning mazmuni tahlil qilinadi. Komparativ, tizimli va aksiologik yondashuvlar yordamida tasavvufiy qarashlar zamonaviy nazariyalar bilan solishtiriladi hamda umumiy xulosalar shakllantiriladi.

Tahlil va natijalar. Xojagiy Ahmad Kosoniy intellektual merosi konseptual jihatdan to‘rtta asosiy yo‘nalishga ajraladi: tasavvufiy-falsafiy ta’limot, oilashunoslik va etopedagogika, gerontologik-aksiologik qarashlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy etika. Ushbu yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘un holda mutafakkirning yaxlit oilaviy farovonlik konsepsiyasini shakllantiradi. Ayniqsa, “Asror un-nikoh” risolasi oilashunoslik yo‘nalishining markaziy asari bo‘lib, unda nikoh va oila masalalari XVI asr ijtimoiy hayoti kontekstida tahlil qilinadi va mavjud qarashlardagi chalkashliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Shuningdek, “Battixiya”, “Ganjnoma”, “Guli Navro‘z” va “Sharhi al-valadi sirru abiyhi” kabi asarlar oilaviy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va insoniy munosabatlarni yoritib, o‘zaro bog‘liq konseptual tizimni hosil qiladi.

“Asror un-nikoh” risolasi tasavvufiy oilashunoslikning muhim manbalaridan biri bo‘lib, unda nikoh fenomeni ko‘p o‘lchamli ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin etiladi. Maxdumi A’zamga ko‘ra, nikoh faqat huquqiy bitim emas, balki ilohiy hikmatga asoslangan institut bo‘lib, u inson naslini davom ettirish, ijtimoiy tartibni saqlash, jamiyat farovonligini ta’minlash va dunyoviy hamda oxirat manfaatlarini uyg‘unlashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Muallif nikohni ma’naviy kamolotga xizmat qiluvchi zaruriy institut sifatida baholab, uni zohidlikka qarama-qarshi holda insonning ijtimoiy va ruhiy rivoji uchun muhim omil deb hisoblaydi. Shuningdek, nikoh tushunchasining etimologik tahlili orqali uning biologik, ijtimoiy va ma’naviy jihatlarini yagona tizim sifatida ochib beradi.

Muallifning falsafiy qarashlarida nikohning mohiyati “kullning juz’ga yetishishi” g‘oyasi orqali ifodalanib, u oilaviy ittifoqni umumiy borliqning kichik modeli sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, nikoh oddiy ijtimoiy kelishuv emas, balki insoniy hayotda ilohiy tartibning namoyon bo‘lishidir. Shu bilan birga, Maxdumi A’zam nikohni eng yuksak ahd sifatida baholab, uning asosiy vazifasi er-xotin o‘rtasida mehr-muhabbatni mustahkamlash hamda nasl davomiyligi va axloqiy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishdan iborat ekanini ta’kidlaydi.

Maxdumi A’zamning “Asror un-nikoh” risolasidagi konseptual yadro qismlardan biri juft tanlash aksiologik mezonlari masalasidir. Mutafakkir to‘rt asosiy kriteriyni ajratadi va ularning konkret falsafiy talqinini taqdim etadi.

Birinchi kriteriy – bo‘lajak hamsuhbatning dindiyonatliligi (axloqiy-aksiologik kompati-billik): mualliflning yondashuviga ko‘ra, diyonatli juftlik nikohning barcha boshqa parametrlari uchun kon-stitutiv shart-fundamentni tashkil etadi.

Ikkinchi kriteriy – chehra go‘zalligi (estetik-emotsional komponent): biroq mualliflning dialektik tezisiga muvofiq, go‘zallik diyonat va axloq bilan organik bog‘liqlikda bo‘lishi shart, aks holda, u potentsial destruktiv xavf-xatarlarga aylanishi mumkin.

Uchinchi kriteriy – nasl-nasab tabaqaviligi (ijtimoiy-genetik mosligi): o‘zbek milliy-madaniy traditsiyasidagi “yetti ajdod surishtirish” amaliyoti bu kriteriy doirasida konseptual asoslab beriladi. Mualliflning empirik kuzatuvchanligi shu jihatda ko‘rinadiki, u zamonaviy klinik genetika va epigenetika fanlari kashf etgan irsiy-genealogik determinatsiya prinsipini intuitiv-falsafiy darajada bashorat qiladi.

To‘rtinchi kriteriy – yaqin qarindoshlik bo‘lmasligi (genetik-biologik diversifikatsiya): mualliflning yondashuviga ko‘ra, juftlik tanlovida endogamiya (yaqin qarindoshlik nikohi) ham fizio-genetik (zamonaviy tibbiy ma’lumotlar tasdig‘idagi inbreeding effekti), ham psixoenergetik (“ehtiroslarning jo‘shqinligi notanishlikka bog‘liq”) jihatlardan kontrindikatsiyalanadi.

Mazkur yondashuv Maxdumi A'zamning juft tanlash haqidagi qarashlarini zamonaviy psixologiyadagi mating selection va matching theory konsepsiyalari bilan bog'laydi hamda R.Sternbergning muhabbat nazariyasidagi intimlik, ehtiros va mas'uliyat komponentlari bilan uyg'unlikni ko'rsatadi. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, juft tanlashda faqat bir mezonga (boylik, go'zallik yoki nasabga) tayanish nikoh barqarorligini buzuvchi xatodir, shu bois diyonat va axloqiy yetuklik asosiy ustuvor mezon bo'lishi kerak. Shuningdek, Maxdumi A'zam ta'limotida halol mehnat, halol rizq va halol farzand o'rtasidagi uzviy bog'liqlik oilaviy farovonlikning asosiy modeli sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv Naqshbandiya "Dast ba kor, dil ba yor" tamoyili bilan uyg'un bo'lib, mehnat va ma'naviyatning birligini ifodalaydi hamda oilaviy hayotda axloqiy poklik va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Maxdumi A'zamning shaxsiy hayoti va amaliy faoliyati uning halol luqma haqidagi ta'limotining hayotiy ifodasi bo'lib, dehqonchilik faoliyati va "Battixiya" risolasidagi mulohazalar nazariya va amaliyot birligini ko'rsatadi. U er-xotin munosabatlarini yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida talqin qilib, oilaviy hayotni nafaqat ijtimoiy, balki chuqur ruhiy hodisa darajasiga ko'taradi. "Farzand otasining siridir" g'oyasi va Hazrat Nuh (a.s.) haqidagi rivoyat orqali ota-bola munosabatlari biologik emas, balki ma'naviy uzluksizlik asosida izohlanadi. Muallifning juft tanlashdagi axloqiy mezonlari, halol turmush tamoyillari va "Dast ba kor, dil ba yor" g'oyasi zamonaviy sharoitda sog'lom oilaviy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, uning qarashlari gender munosabatlarini qayta talqin qilish, avlodlararo bog'liqlikni mustahkamlash va keksalar mavqeini yuksaltirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

(3). Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013, 464-bet.

(4). Mirzo Kenjabek. Termiz tazkirasi. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

(5). Uvatov U., Cho‘tmatov J. Hakim Termiziy. Toshkent, Shamsiddinxon Boboxonov, 2021, 104-bet.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Toshkent davlat Tibbiyot universiteti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI PLATFORMALAR SHAROITIDA MEHNAT SUBYEKTI TRANSFORMATSIYASI: KLASSIK MEHNAT NAZARIYALARINING CHEGARALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida mehnat faoliyatining yangi shakllari hamda mehnat subyektining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va masofaviy mehnat shakllarining kengayishi natijasida an’anaviy mehnat munosabatlari tubdan o‘zgarib borayotgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada klassik mehnat nazariyalari, xususan, Maks Veber va Emil Dyurkgeym qarashlari raqamli platforma iqtisodiyoti sharoitida qay darajada dolzarb ekani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli jamiyat, raqamli platformalar, mehnat subyekti, algoritmik boshqaruv, gig iqtisodiyoti, masofaviy mehnat, raqamli kapitalizm, mehnat transformatsiyasi.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ СУБЪЕКТА ТРУДА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ: ГРАНИЦЫ КЛАССИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ ТРУДА

Аннотация. *В данной статье анализируются новые формы трудовой деятельности и трансформация субъекта труда в цифровом обществе. В результате расширения цифровых платформ, алгоритмического управления и дистанционных форм работы показано, что традиционные трудовые отношения кардинально изменяются. В статье анализируется, насколько классические теории труда, в частности взгляды Макса Вебера и Эмиля Дюркгейма, актуальны в контексте экономики цифровых платформ.*

Ключевые слова: *цифровое общество, цифровые платформы, субъект труда, алгоритмическое управление, экономика свободного заработка, удаленная работа, цифровой капитализм, трансформация труда.*

TRANSFORMATION OF THE LABOR SUBJECT IN THE CONTEXT OF DIGITAL PLATFORMS: THE LIMITS OF CLASSICAL LABOR THEORIES

Annotation. *This article analyzes new forms of labor activity and the transformation of the labor subject in the digital society. As a result of the expansion of digital platforms, algorithmic management and remote work forms, it is shown that traditional labor relations are fundamentally changing. The article analyzes the extent to which classic labor theories, in particular Max Weber and Emile Durkheim's views, are relevant in the context of the digital platform economy.*

Key words: *digital society, digital platforms, labor subject, algorithmic management, gig economy, remote work, digital capitalism, labor transformation.*

Kirish. Klassik ijtimoiy-falsafiy nazariyalarda mehnat inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilingan. Raqamli platformalar iqtisodiyoti sharoitida ushbu g'oya ma'lum darajada yangi mazmun kasb etmoqda. Chunki platformalarda ishlovchi inson ko'pincha ishlab chiqarish jarayonining to'liq tizimini ko'rmaydi, u faqat algoritm tomonidan berilgan vazifani bajaradi. Bu holat mehnat jarayonining yanada fragmentatsiyalashuvi hamda insonning mehnat faoliyatidan begonalashuvining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Masalan, turli platformalarda faoliyat yurituvchi haydovchilar yoki onlayn xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar, ko'pincha, o'z ish beruvchisini ham aniq bilmaydi, ular uchun asosiy boshqaruv mexanizmi algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Shu sababli raqamli mehnatda nazoratning yangi shakli – algoritmik boshqaruv paydo bo'lmoqda.

Maqsad va tadqiqot vazifalari. Raqamli platformalar sharoitida mehnat subyektining mazmuniy va funksional o'zgarishlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonda klassik mehnat nazariyalarining tushuntirish imkoniyatlari qanchalik cheklanishini aniqlash hamda tadqiqot vazifalari sifatida platforma iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlarining yangi shakllarini ochib berish, mehnat subyektining maqomi, motivatsiyasi va identifikatsiyasidagi transformatsiyalarni tahlil qilish belgilangan. Shuningdek, klassik yondashuvlarning (masalan, sanoat davriga xos mehnat tushunchalarining) zamonaviy raqamli mehnatni izohlashdagi yetarli va zaif jihatlarini aniqlash ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Natijada raqamli jamiyat sharoitida mehnat subyektini yangicha konseptual asosda talqin etish zarurati asoslab beriladi.

Muhokama. Maks Veber mehnat faoliyatini ratsionalizatsiya jarayoni bilan bog'lab tushuntiradi. Uning fikricha, "modern jamiyatda iqtisodiy faoliyat tobora ratsional tashkil etilgan tizimga aylanadi va bu jarayon byurokratik boshqaruv shakllari orqali amalga oshiriladi" [1;27-b.]. Biroq raqamli platformalar sharoitida an'anaviy byurokratik boshqaruv tizimi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Raqamli platformalarda boshqaruv ko'pincha inson menejerlari orqali emas, balki avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa Veber ta'riflagan byurokratik nazoratning yangi texnologik shakliga o'tishini ko'rsatadi. Algoritmik boshqaruv tizimi ishchilarning faoliyatini real vaqt rejimida nazorat qilish, ularning samaradorligini baholash va mehnat jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday tizim ishchilarning mustaqilligini cheklashi ehtimoli ham mavjud bo'lib, qaror qabul qilish jarayonida inson omili tobora kamayib bormoqda.

Emil Dyurkgeym jamiyat taraqqiyotini mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan bog'lab izohlaydi. Uning fikriga ko'ra, "zamonaviy jamiyatlarda mehnat taqsimoti murakkablashib boradi va bu jarayon ijtimoiy hamkorlikning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Raqamli platformalar iqtisodiyoti ham mehnat taqsimotining yangi bosqichini ifodalaydi" [2;152-b.]. Chunki bugungi kunda turli mamlakatlarda yashovchi insonlar bitta raqamli platforma orqali hamkorlikda ishlashi mumkin. Bu esa mehnatning global xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, bunday jarayon ayrim ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Xususan, platforma iqtisodiyotida ishlovchi insonlar, ko'pincha, an'anaviy mehnat huquqi tizimlari bilan to'liq himoyalanmagan bo'ladi. Ular odatda mustaqil pudratchi sifatida qaraladi va bu holat ijtimoiy kafolatlarning yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib kelishi mumkin.

Raqamli platformalar asosida shakllanayotgan mehnat tizimi faqat iqtisodiy munosabatlarni emas, balki mehnat faoliyatining ontologik va ijtimoiy mazmunini ham o'zgartirmoqda. Industrial jamiyat sharoitida mehnat jarayoni odatda aniq ishlab chiqarish makoni, qat'iy ish vaqti va ierarxik boshqaruv tizimi bilan tavsiflangan. Bunday tizimda ishchi va ish beruvchi o'rtasidagi munosabatlar nisbatan barqaror va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan. Raqamli platformalar iqtisodiyotida esa mehnat jarayoni tobora fragmentatsiyalashgan va qisqa muddatli topshiriqlar asosida tashkil etilmoqda. Bu jarayonda inson ko'pincha mustaqil ijrochi sifatida namoyon bo'ladi, biroq uning faoliyati platforma algoritmlari orqali nazorat qilinadi. Shunday qilib, raqamli platforma iqtisodiyotida mehnat subyekti paradoksal holatda bo'ladi: bir tomondan u mustaqil faoliyat yurituvchi shaxs sifatida ko'rinadi, ikkinchi tomondan esa platforma texnologiyalariga yuqori darajada qaram bo'ladi. Raqamli platformalar mehnat faoliyatining

yangi shakli sifatida mehnat jarayonida ma’lumot va algoritmlarning rolini keskin oshirdi. Agar industrial iqtisodiyotda ishlab chiqarishning asosiy resurslari kapital va jismoniy mehnat bo‘lgan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyotda ma’lumot, axborot va tarmoqlar muhim strategik resursga aylanmoqda. Platformalar foydalanuvchilar faoliyati haqida katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘playdi va ushbu ma’lumotlar asosida mehnat jarayonini boshqaradi. Natijada mehnat samaradorligi real vaqt rejimida baholanadi, ishchilarning reyting tizimi shakllantiriladi hamda xizmatlar sifati algoritmik usullar orqali nazorat qilinadi. Bu jarayon mehnat nazoratining yangi turini – raqamli nazoratni shakllantirmoqda.

Bundan tashqari, raqamli platformalar mehnat bozorining global integratsiyasini kuchaytirmoqda. "Internet tarmoqlarining rivojlanishi natijasida turli mamlakatlarda yashovchi mutaxassislar bitta platforma orqali ishlashi mumkin bo‘ldi. Bu holat mehnat resurslarining xalqaro harakatchanligini oshirdi hamda global mehnat raqobatini kuchaytirdi. Masalan, dasturlash, dizayn, tarjima yoki marketing kabi ko‘plab kasblar bugungi kunda geografik chegaralarga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshirilmoqda. Bunday jarayon bir tomondan yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi, ikkinchi tomondan esa ishchilarning ijtimoiy himoyasi masalasini murakkablashtiradi. “Raqamli mehnat tizimining yana bir muhim xususiyati mehnat identifikatsiyasining o‘zgarishi bilan bog‘liq. Industrial jamiyatda inson ko‘pincha o‘zini ma’lum kasb yoki tashkilot bilan identifikatsiya qilgan”. [3. 328 b.] Masalan, u o‘zini zavod ishchisi, muhandis yoki davlat xizmatchisi sifatida tasavvur qilgan. Raqamli jamiyatda esa mehnat faoliyati tobora moslashuvchan va ko‘p funksiyali xarakter kasb etmoqda. Inson bir vaqtning o‘zida bir nechta kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishi yoki turli platformalarda parallel ishlashi mumkin. Natijada kasbiy identifikatsiya ancha moslashuvchan shaklga ega bo‘lmoqda.

Natijalar. Raqamli jamiyat sharoitida mehnat subyekti ham tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy industrial jamiyatda mehnat subyekti ko‘pincha ma’lum bir korxona yoki tashkilotga bog‘langan xodim sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda u ko‘proq moslashuvchan va ko‘p funksiyali faoliyat yurituvchi shaxsga aylanmoqda. Raqamli platformalar orqali ishlovchi inson bir vaqtning o‘zida bir nechta platformalarda faoliyat olib borishi mumkin. Bu esa mehnat bozorining moslashuvchanligini oshiradi, biroq shu bilan birga mehnat barqarorligining pasayishiga ham olib kelishi mumkin. Shuningdek, raqamli mehnat jarayonida vaqt va makon kategoriyalari ham o‘zgarib bormoqda. Masofaviy ish shakllarining kengayishi natijasida ish joyi tushunchasi tobora mavhumlashib bormoqda. Endilikda inson o‘z mehnat faoliyatini an’anaviy ofis muhitida emas, balki internetga ulangan istalgan joyda amalga oshirishi mumkin. Bu esa mehnat faoliyatining yangi ijtimoiy-madaniy formalarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, raqamli platformalar iqtisodiyoti mehnat munosabatlarining yangi turini – gig iqtisodiyotini shakllantirdi. “Gig iqtisodiyoti sharoitida ishchilar ko‘pincha qisqa muddatli topshiriqlarni bajarish orqali daromad topadi” [4. 59 b.]. Bu esa mehnat jarayonining yanada individuallashuvi va fragmentatsiyalashuviga olib keladi. Natijada mehnat subyekti tobora mustaqil, lekin ayni paytda platforma algoritmlariga qaram bo‘lgan shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu jarayon klassik mehnat nazariyalarini qayta talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Raqamli platformalar sharoitida mehnat faoliyati va mehnat subyekti tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy industrial jamiyatda mehnat ko‘proq barqaror ish o‘rinlari, qat’iy tashkilot tuzilmalari va aniq boshqaruv tizimlari bilan tavsiflangan bo‘lsa, raqamli jamiyatda mehnat faoliyati moslashuvchan, platformaga asoslangan hamda algoritmik boshqaruv orqali tartibga solinadigan jarayonga aylanmoqda. Klassik mehnat nazariyalari ushbu jarayonlarning ayrim jihatlarini tushuntirish imkonini bersa-da, raqamli iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni to‘liq izohlash uchun ularni zamonaviy nazariy yondashuvlar bilan boyitish zarur. Shu sababli raqamli mehnat fenomenini chuqur o‘rganish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Veber M. Protestant axloqi va kapitalizm ruhi. Moskva, “Progress”, 1990.

(2). Dyurkgeym E. Ijtimoiy mehnat taqsimoti to‘g‘risida. Moskva, “Nauka”, 1996.

(3). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 2010.

(4). Srnicek N. Platform Capitalism. Cambridge: Polity Press, 2017.

(5). Scholz T. Uberworked and Underpaid: How Workers Are Disrupting the Digital Economy. Cambridge, Polity Press, 2016.

Matniyozova Zilola Shamurod qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti)

MINTAQADA AHOLI TURMUSH DARAJASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mehnat bozori ko'rsatkichlari hamda ularning aholi turmush darajasi va daromadlari oshishiga ta'siri tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *aholi turmush darajasi, bandlik siyosati, innovatsion bandlik, mehnat bozori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, inson kapitali.*

ПОКАЗАТЕЛИ РЫНКА ТРУДА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация*. В данной статье проанализированы показатели рынка труда и их влия-ние на повышение уровня жизни и доходов населения, а также разработаны практические рекомендации, направленные на развитие цифровой экономики, поддержку малого бизнеса и предпринимательства и создание новых рабочих мест.*

Ключевые слова: *уровень жизни населения, политика занятости, инновационная занятость, рынок труда, социально-экономическое развитие, цифровая экономика, человеческий капитал.*

LABOR MARKET INDICATORS AND THEIR IMPACT ON THE STANDARD OF LIVING

Annotation. *This article analyzes labor market indicators and their impact on improving the standard of living and income of the population, and develops practical recommendations aimed at advancing the digital economy, supporting small businesses and entrepreneurship, and creating new jobs.*

Keywords: *Standard of living of the population, employment policy, innovative employment, labor market, socio-economic development, digital economy, human capital.*


Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida mehnat bozori iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Mehnat bozori ko'rsatkichlarining barqarorligi va samaradorligi aholi turmush darajasi hamda daromadlarining oshishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Shu bois bandlik siyosatini takomillashtirish, innovatsion bandlik shakllarini rivojlantirish va inson kapitalini mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning keskin rivojlanishi yangi kasb va malaka turlarini yuzaga keltirib, mehnat bozorida tarkibiy o'zgarishlarni keltirmoqda. Bu jarayonda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy ish o'rinlarini yaratish hamda aholining daromad manbalarini kengaytirish ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur masalalarni hududlar kesimida o'rganish katta ahamiyatga ega. Xususan, Xorazm viloyati misolida mehnat bozori ko'rsatkichlarining holati, bandlik darajasi, kichik biznes va tadbirkorlik rivojining sur'atlari hamda ularning aholi turmush darajasi va daromadlariga ta'sirini tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi. Abdurahmonov fikriga ko'ra [1] ehtiyojlarning hajmi va tarkibi doimiy ravishda kengayib boradi hamda ularning qondirilish darajasi bevosita aholi daromadlari miqdoriga bog'liq bo'ladi. Turmush darajasini aholining zarur moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlarga egalik qilishi va ularni iste'mol qilishi bilan tavsiflanadigan holat sifatida izohlagan. Zokirova esa [2] aholi daromadlarini barcha aholiga tegishli pul va natural tushumlar hamda bepul xizmatlar summasi deb ta'riflagan. U aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linishini, real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan ko'rsatkichi hisoblanishini ta'kidlagan. Hilolov [3] yoshlar innovatsion tadbirkorligining aholi daromadlarini oshirishdagi roli va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilgan. Yoshlar startaplarining bandlik, mehnat unumdorligi va oilaviy daromadlar o'sishiga ta'siri ilmiy asoslangan. Zokirova va Abdurahmonov [1;2] aholi daromadlarini barqaror oshirishning muhim vositasi sifatida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqgan. Gulmanov [4] kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi imkoniyatlari tadqiqot mavzusi bo'lib xizmat qilishini ta'kidlagan. Rahmanova [5] kichik tadbirkorlik, aholi turmush darajasi, ijtimoiy himoya, bandlik, innovatsion iqtisodiyot masalalarini keng yoritgan.

Metadologiya. Ushbu tadqiqotda bandlik va aholi turmush darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida murakkab ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini bandlik, mehnat bozori hamda aholi turmush darajasi muammolariga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari, zamonaviy iqtisodiy nazariyalar va konseptual qarashlar tashkil etadi.Tahlil jarayonida iqtisodiy tahlil, solishtirish, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullari keng qo‘llanildi. Xorazm viloyati misolida bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari, aholi daromadlari hamda turmush sharoitlariga oid statistik ma’lumotlar asosida kompleks tahlil olib borildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida metodologik yondashuv asosida bandlikni oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Bandlik iqtisodiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat aholi daromadini oshiradi, balki yalpi hududiy mahsulot o‘sishiga hissa qo‘shadi, ishsizlik darajasini kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Shu sababli bandlik viloyat iqtisodiyoti va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Bandlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri sanaladi. U aholining daromad manbalarini kengaytirish bilan birga, yalpi hududiy mahsulotning o‘sishiga xizmat qiladi, ishsizlik ko‘rsatkichini pasaytiradi. Shu bois bandlik darajasining yuqoriligi hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi turmush farovonligini oshirishda muhimdir.

1-diagramma [1]



Xorazm viloyatida band aholining katta qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. U yerda paxta, g‘alla va sabzavot yetishtirish, shuningdek, chorvachilik keng tarqalgan. Bundan tashqari, sanoat sohasida oziq-ovqat ishlab chiqarish, qurilish materiallari ishlab chiqarish va yengil sanoat tarmoqlari faoliyat yuritadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa savdo, transport, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi yo‘nalishlar aholiga ish o‘rinlari taqdim etadi. Hududdagi turizm, ayniqsa, Xiva shahrida, bandlikni oshirishga sezilarli hissa qo‘shadi. So‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va aholi o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatlari kengaymoqda.

Xorazm viloyatida iqtisodiy faol aholi soni ham o‘suvchi ko‘rsatkichda bo‘lib, yillar davomida bu tendensiya barqaror bo‘lib kelgan. Agar 2010-yilda bu ko‘rsatkich 642 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib u 831,4 ming kishigacha yetgan. Bu esa umumiy hisobda 189,4 ming kishilik o‘sishni anglatadi. O‘sish sur’atlarini yillar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, 2010–2015-yillar davomida iqtisodiy faol aholi soni har yili o‘rtacha 15–20 ming kishiga ortgan. Ayniqsa, 2013-yildan 2015-yilgacha bo‘lgan davrda o‘sish barqaror sur’atda kechgan (697,5 mingdan 735,5 minggacha). 2016–2018-yillarda sezilarli o‘sish qayd etilgan, bu davrda iqtisodiy faol aholi soni 754,7 mingdan 810 ming kishigacha yetgan. Bu hududda yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Jadvaldan ko‘rinib turbdiki, 2019-yilda iqtisodiy faol aholi soni 810 ming kishinini tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 804,5 ming kishini ko‘rsatgan. Bu esa 5,5 ming kishilik pasayishni anglatadi.

2020-yil Covid-19 pandemiyasi butun dunyo, shu jumladan O‘zbekiston iqtisodiyoti va mehnat bozori uchun ta’siri katta bo‘ldi. Pandemiya sharoitida ko‘plab korxonalar, xususan kichik biznes va xizmat

[1] Manba: www.xorazmstat.uz

ko‘rsatish sohalari faoliyatini vaqtincha to‘xtatganligi yoki qisqartirganligi bandlik darajasining pasayishiga olib kelgan. Ishchi migratsiyasining cheklanishi natijasida xorijga chiqib ishlayotgan fuqarolarning qaytishi yoki yangi ishchi kuchining tashqariga chiqmasligi sta-tistik jihatdan vaqtincha ish faoliyatidan to‘xtaganlar soni ko‘paygan. 2021-yildan keyin pande-miya bartaraf etilib, davlat orasidagi chegaralar ochilishi va iqtisodiyot yana jonlanganligi sababli to hanuzgacha iqtisodiy faol aholi soni yana o‘sishda davom etmoqda.


1-jadval

2024-yilda Xorazm viloyatida daromadli mehnat bilan ta’minlanganlar[1]

Bandlik shakli	Kishi soni (ming nafar)
Jami band qilinganlar	173,1
O‘zini o‘zi band qilish	57,7
Yakka tartibdagi tadbirkor (YTT)	6,2
Yangi korxonalar tashkil etish	3,4
Dehqon xo‘jaliklari orqali	14,0

Tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlariga 60 720 nafar jismoniy shaxslar murojaat qilgan. Shundan 36 313 nafariga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lib, 30 655 nafari doimiy ishga joylashtirilgan; 5 185 nafari jamoat ishlariga jalb etilgan. Qolgan 402 nafari ishsiz deb e’tirof etilgan hamda ularga ishsizlik nafaqasi tayinlangan. Shuningdek, Xorazm viloyatida ishsizlik darajasining kamayganligi, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida kambag‘allik darajasi 2023-yilda 14,1 foizdan 2024-yil 7,4 foizgacha tushganligi qayd etilgan.

2-diagramma[2]



Xorazm viloyatidagi ishsizlar sonini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2010-yildan 2017-yilgacha bo‘lgan davrda ishsizlar soni barqaror oshib borgan. Bu yillar oralig‘ida eng kam ishsizlik darajasi 2011-yili kuzatilgan va 34 ming 600 kishini tashkil etgan. 2018-yili ishsizlar soni keskin darajada, ya’ni avvalgi yilga nisbatan 30 ming 200 kishiga ortgan. Bunga sabab statistik ma’lumotlarni ochiq va shaffof holga keltirilganligini aytishimiz mumkin. Oradan 2 yil o‘tib, pendemiya davrida ishsizlar soni eng yuqori ko‘rsatkichni 88 ming 100 kishini tashkil etdi. Bunga tadbirkorlik faoliyati, ishlab chiqarish korxonalari vaqtinchalik to‘xtab turganligi hamda davlatlararo chegaralar yopiqligi muhim omillar hisoblanadi. Pandemiya sharoitidan so‘ng aholi asta sekin yana ish o‘rinlariga qayta boshladi. 2023-yilga kelib, Xorazm viloyatida ishsizlar soni 54 ming 900 kishini tashkil etdi. Hukumatimiz tomonidan amalaga oshirilayotgan bir qator chora-tadbirlar,yangi loyihalar orqali aholi ish bilan ta’minlanib kelmoqda.

Aholi turmush darajasini baholashda yana bir muhim ko‘rsatkich inflyatsiya hisoblanadi. Inflyatsiya darajasining oshishi aholi turmush darajasiga salbiy ta’sir qiladi chunki inflyatsiya oqibatida tovar va xizmatlar narxi oshadi, bu esa aholining real daromadlarini kamaytiradi. Agar ish haqi va pensiyalar inflyat-

[1] Manba: www.xorazmstat.uz
[2] Manba: www.xorazmstat.uz

siya sur’atiga mos ravishda oshmasa, odamlar kamroq mahsulot va xizmatlar sotib olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, oziq-ovqat, uy-joy va transport kabi asosiy ehtiyojlarga ta’sir qiladi. Inflyatsiya sharoitida nominal daromadlar, ya’ni pulda ifodalangan daromadlar oshgan taqdirda ham, inflyatsiya hisobiga olingan daromadlar kamayishi mumkin. Bu esa aholining turmush darajasini pasaytiradi. Bugungi kunda Respublikamizda inflyatsiya darajasi 9,8%ni tashkil qiladi. Xorazm viloyatida inflyatsiya darajasi biroz yuqori bo‘lib 2025-yil aprel oyida yillik inflyatsiya darajasi 13,4% ni tashkil etdi. Viloyatlar kesimida bu hudud 4-o‘rinni egallaydi. Xorazm viloyatida inflyatsiya darajasini kamaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni oshirish amalga oshirilmoqda. Buning natijasida mahalliy bozorlarda oziq-ovqat mahsulotlari narxining ko‘tarilishini oldini olish, ayniqsa mavsumdan tashqari davrlarda narx barqarorligini saqlab qolish nazarda tutilgan. Shu bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali importga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish va valyuta kursining inflyatsiyaga ta’sirini kamaytirish borasida ham ishlar amalga oshirilmoqda. Narxlar ustidan nazoratni kuchaytirish, transport va logistika sohalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar uchun subsidiyalar berish ham inflyatsiya darajasini kamaytirish uchun qilinayotgan sa’y harakatlardandir.

Aholi salomatligi turmush darajasining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi chunki inson sog‘lom bo‘lsa o‘qiydi, ishlaydi va turli iqtisodiy faoliyatlarni amalaga oshirishda ishtirok etadi. Shu sababli har bir mamalakatda sog‘liqni saqlash tizimiga alohida e’tibor qaratiladi. Agar sog‘liqni saqlash tizimi arzon va hamma uchun ochiq bo‘lsa, odamlar katta davolanish xarajatlaridan qutiladi va natijada daromadini boshqa zarur ehtiyojlarga sarflash imkonini beradi. O‘zbekistonda umr ko‘rish davomiyligi 2024-yilda 75,1 yoshni tashkil etgan, bu ko‘rsatkich 2023-yilda 74,7 yosh bo‘lgan. Ayollar uchun bu ko‘rsatkich 76,9 yil, erkaklar uchun esa 72,5 yilga teng. 2000-yildan 2021-yilgacha sog‘lom umr ko‘rish davomiyligi 54,7 yildan 63,4 yilgacha oshgan. Xorazm viloyati uchun bu ko‘rsatkich 72,7 yoshni tashkil etgan. Ayollar uchun 74,8 yosh, erkaklar uchun esa 70,6 yoshni tashkil etgan. Shahar va qishloq aholisi orasida bu ko‘rsatkich deyarli bir xil bo‘lib, 72,6 yoshni tashkil etgan. Bular esa mamlakatda sog‘liqni saqlashga, insonlar farovonligi ta’minlanishiga alohida e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Sog‘liqni saqlash sohasi shu qadar muhimki u bevosita ta’lim va ijtimoiy sohalarga ham bog‘liqdir. Sog‘liqni saqlash rivoji uchun qilingan sarf xarajatlar inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa va takliflar. Xorazm viloyatida iqtisodiy faol aholi soni barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etadi. Viloyat aholisining yildan-yilga ko‘payib borishi mehnat bozoriga yangi ishchi kuchi oqimini kuchaytirdi: 2023-yil 1-yanvar holatiga Xorazm viloyatining doimiy aholisi 1 958,2 ming kishini tashkil etgan [6]. Biroq yaratilayotgan ish o‘rinlari soni bu demografik bosimga mutanosib ravishda oshib bormadi, natijada mehnat bozorida tarkibiy nomuvofiqlik saqlanib qoldi.

Ishsizlar sonining nisbatan yuqori bo‘lib qolishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatdi. Viloyat iqtisodiyotining, asosan, qishloq xo‘jaligi va paxtachilikka yo‘naltirilganligi, sanoat tarmoqlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, shuningdek, norasmiy bandlikning keng tarqalganligi shular jumlasidandir. Xorazm viloyatida aholi daromadlarining katta qismi mustaqil ravishda band bo‘lishdan (39,2%) va yollanma mehnatdan (19,7%) olingan [7], bu esa rasmiy ish bilan bandlik darajasining cheklanganligini ko‘rsatadi. 2020–2021-yillarda COVID-19 pandemiyasi ta’sirida mehnat bozorida qo‘shimcha inqiroz kuzatilib, ishsizlar soni muayyan davrda sezilarli darajada ko‘paydi. Keyingi yillarda iqtisodiy islohotlar va investitsiyalar oqimi natijasida vaziyat qisman yaxshilandi, ammo muammo to‘liq hal etilmadi.

Umuman olganda, o‘rganilgan davr mobaynida Xorazm viloyatida iqtisodiy faol aholi va ishsizlar sonining o‘zaro nisbati mehnat bozorida tizimli muammolarning mavjudligini ko‘rsatib, bu sohadagi siyosatning yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.Yuqorida keltirilgan tahlil va xulosalardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida bandlikni oshirish va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi. Viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish zarur. Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini baholashga doir tadqiqotlar viloyatning sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi va investitsiya imkoniyatlari bo‘yicha raqobatbardoshligini oshirish uchun strategik yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi[8].

To‘qimachilik, oziq-ovqat ishlab chiqarish va tarixi-madaniy turizm kabi tarmoqlarni maqsadli rivojlantirish yangi va barqaror ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish lozim. 2010-yilga nisbatan 2020-yilda Xorazm viloyatida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 461,2 mlrd. so‘mga yetgan [9], bu xizmatlar sohasida bandlik imkoniyatlarining kengayganligini ko‘rsatadi. Soliq imtiyozlari, mikrokreditlar va mahalliy biznes inkubatorlari orqali bu tendensiyani yanada mustahkamlash mumkin.

Ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, agrotexnologiya, logistika va turizm menejmenti

yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kuchaytirish zarur. Yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilishi, masofaviy ish va qisman bandlik imkoniyatlari kengaytirilishi kerak. Raqamli iqtisodiyot va IT sohasini rivojlantirish orqali zamonaviy ish o‘rinlari yaratish maqsadga muvofiq. Buning uchun viloyatda texnoparklar va raqamli ko‘nikmalar markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Nihoyat, mehnat bozori monitoringini tizimli va uzluksiz olib borish talab etiladi – iqtisodiy faol aholi, bandlik va ishsizlik bo‘yicha ishonchli statistik ma’lumotlarni muntazam yangilab borish asosli iqtisodiy qarorlar qabul qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.Ushbu takliflarni izchil amalga oshirish Xorazm viloyatida ishsizlik darajasini pasaytirish, iqtisodiy faol aholining samarali bandligini ta’minlash va viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdurahmonov Q.X. (2018). Aholi statistikasi. O‘quv qo‘llanma Darsli, Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2021-yil.

(2). Zokirova N. (2022). Aholi daromadlari va davlatning ijtimoiy siyosati. Academic Research in Modern Science, 1, 158–161-betlar.

(3). Hilolov A. (2026). Yoshlar innovatsion tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash. Social Policy and Culture Journal, 4(1), 112–125-betlar.

(4). Gulmanov M. (2024). Aholi daromadlarini oshirishda kichik biznes. Journal of Economics and Technology, 3(4), 156–170-betlar.

(5). Rahmanova S. (2024). Aholi turmush darajasini oshirishda kichik tadbirkorlik. Pedagogs Journal, 5(2), 89–102-betlar.

(6). Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. "2023-yil boshiga Xorazm viloyati doimiy aholi soni 1 958, 2 ming kishini tashkil qilgan." www.xorazmstat.uz, 2023.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. "Xorazm viloyati aholi umumiy daromadlari tarkibi." – stat.uz, 2021.

(8). Narmetova D.A. "Xorazm viloyati iqtisodiy salohiyatini baholash va uning mintaqa raqobatdoshligiga ta’siri." – Innovations in Science and Technologies, Vol. 3, № 3, 2026, 96–103-betlar.

(9). O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. "Xorazm viloyatida xizmatlar hajmining o‘sish dinamikasi." stat.uz, 2021.

TILSHUNOSLIK

A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi (SamDCHTI tayanch doktoranti; azamovagulnoza549@gmail.com)

PRETSEDENT BIRLIKLARDA DENOTATIV VA KONNOTATIV MA'NO

Annotatsiya. *Zamonaviy hayotning shiddatli sur'ati o'quvchiga davriy nashrlarda chop etilgan barcha matnlar bilan to'liq tanishish imkonini bermaydi, shuning uchun u zarur yoki qiziqarli ma'lumotlarni qidirishda, birinchi navbatda, sarlavha va undan keyingi matn o'rtasida semantik bog'liqlik bor deb taxmin qilgan holda, sarlavhaga e'tibor qaratadi. Ushbu maqolada gazeta sarlavhalarida qo'llanilgan pretsedent birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *pretsedent birlik, denotativ va konnotativ ma'no, denotat, gazeta sarlavhalari.*

ДЕНОТАТИВНОЕ И КОННОТАТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ЕДИНИЦАХ

Аннотация. *Напряженный темп современной жизни не позволяет читателю в полной мере ознакомиться со всеми текстами, публикуемыми в периодических изданиях, поэтому, при поиске необходимой или интересной информации, он в первую очередь обращает внимание на заголовок, предполагая наличие семантической связи между заголовком и следующим за ним текстом. В данной статье исследуются денотативное и коннотативное значения предшествующих единиц, используемых в газетных заголовках.*

Ключевые слова: *предшествующая единица, денотативное и коннотативное значение, денотация, газетные заголовки.*

DENOTATIVE AND CONNOTATIVE MEANING IN PRECEDENT UNITS

Annotation. *The hectic pace of modern life does not allow the reader to fully familiarize himself with all the texts published in periodicals, therefore, when searching for necessary or interesting information, he first of all pays attention to the title, assuming that there is a semantic connection between the title and the text that follows it. This article studies the denotative and connotative meanings of precedent units used in newspaper headlines.*

Keywords: *precedent unit, denotative and connotative meaning, denotation, newspaper headlines.*

Kirish. Pretsedent birliklar – muayyan xalq, jamiyat vakillari uchun juda yaxshi tanish bo'lgan, milliy xotirada muhrlangan tayyor iboralar, maqollar, mashhur asarlardan iqtiboslar, tarixiy shaxslar yoki afsonaviy personajlarning nomlaridir. Gazeta sarlavhalarida ular o'quvchi e'tiborini darhol tortish va matnga hissiy-eksperessiv bo'yoq berish uchun qo'llanadi.

Pretsedent birliklar tahlilida denotativ ma'no faqat boshlang'ich nuqta ya'ni tarixiy yoki faktik asos vazifasini o'taydi. Asosiy kommunikativ va badiiy yuk esa konnotativ ma'noga tushadi. Aynan konnotatsiya orqali matnga emotsionallik, ixchamlik va chuqur milliy-madaniy ma'no singdiriladi. Tarjima jarayonida ham pretsedent birliklarning denotatini emas, balki ularning konnotativ ekvivalentini saqlab qolish eng murakkab vazifa hisoblanadi.

Lug'aviy birliklar uzual va konnotativ (okkozional) ma'nolariga ko'ra, til yoki nutq hodisalari sifatida farqlanadi. Uzual ma'nolar lug'aviy birliklarning umumtilda rasmiylashgan semantik qiymati bo'lib, shu ma'no asosida so'zlar til birliklari sanaladi. So'zlarning konnotativ (okkozional) ma'nolari esa nutqda individual tarzda vujudga keladi, umumxalq tilida ommaviy tarzda rasmiylashmaydi. Bunday ma'nolarga ko'ra, so'z, ya'ni lug'aviy birliklar nutq hodisasi sifatida tavsiflanadi [1;27-b.].

So'z ma'nosining o'ziga xos murakkab va serqirra mazmuniy qurilma ekanligi shundaki, u bir qator ichki unsurlardan tarkib topadi. So'zning grammatik, uslubiy va pragmatik ma'nolari ham shu qurilma tarkibida bo'ladi. Bu qurilma so'zning semantik strukturasi deyiladi. So'z semantik strukturasining markazida lug'aviy ma'no turadi. Lug'aviy ma'no vositasida obyektiv borliqning muayyan real yoxud noreal narsa-hodisalari, shu narsa-hodisalarning belgi xususiyatlari, ularning o'zaro munosabatlari va boshqalar anglashiladi. Lug'aviy ma'no, yuqorida ham aytilganidek, biror-bir denotatsiyaga asoslanadi. Denotatsiyaning asosini denotat tashkil qiladi. Denotat deyilganda, so'z ma'nosining nolisoniy asosi tushuniladi. Bu asos bizni qurshab turgan borliq narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlaridir. Masalan, chiroq so'zining denotati ma'lum bir kichik hududni yorituvchi predmetdir. Denotativ ma'noni referent ma'no deb ham yuritiladi. Chunki denotat va referent o'zaro dublet atamalardir. Lug'aviy ma'nolar yordamida obyektiv borliqning narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlari atalgani, nomlangani uchun, ular fanda nominativ ma'nolar sifatida ham rasmiylashgan [1;28-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pretsedent birliklarning gazeta sarlavhalarida ifodalanadigan denotativ va konnotativ ma'nolarini aniqlash maqsadida kompleks lingvistik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini semantika, pragmatika, lingvokulturologiya va intertekstuallik nazariyalari tashkil etdi [1;5;6].

Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv), semantik, kontekstual va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida pretsedent birliklarning strukturaviy xususiyatlari yoritildi. Semantik tahlil orqali ularning denotativ va konnotativ ma'nolari ajratib ko'rsatildi. Kontekstual tahlil asosida sarlavha va maqola mazmuni o'rtasidagi ma'no munosabatlari aniqlandi. Qiyosiy metod vositasida fransuz va o'zbek matbuotidagi pretsedent birliklarning qo'llanish usullari solishtirildi.

Empirik material sifatida 2025-yilda "Le Monde', Le Figaro, "Xalq so'zi" va "Yangi O'zbekiston" nashrlarida e'lon qilingan sarlavhalardan foydalanildi. Olingan natijalar induktiv va deduktiv tahlil asosida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. So'zning mazmun strukturasida denotativ ma'nodan tashqari, konnotativ ma'no ham mavjud bo'ladi. Konnotativ ma'no nominativ ma'noga "eshdosh" ustama ma'nodir. Konnotativ ma'no tufayli so'z emotsional-ekspressiv qiymatga ega bo'ladi. U emotsional-ekspressiv 29 bo'yoqdorlik ham deyiladi. Konnotativ ma'noga ko'ra, so'zlarning pragmatik-uslubiy vazifasi belgilanadi. Konnotativ ma'nolar tufayli vujudga keluvchi emotsionalekspressivlikning ijobiy va salbiy turlari mavjud. Ularni ijobiy bo'yoqdorlik yoxud salbiy bo'yoqdorlik deb ham ataladi. Konnotativ ma'nolarning ifodalanish usul va vositalari ham har xil. Lug'at tarkibining ayrim qatlam so'zlari yo salbiy, yo ijobiy xarakterdagi bo'yoqdorlikka ega bo'ladi [1;29-b.].

Tilshunoslikda so'z ma'nosining denotativ va konnotativ tomonlari o'rtasidagi nisbat haqida turli xil qarashlar mavjud. Qo'shimcha kontekstual semantika, qoida tariqasida, kattaroq axborot hajmiga ega bo'lishiga qaramay, konnotativ ma'nolar denotativ ma'nolarga nisbatan doimo ikkinchi darajali deb qabul qilinadi. Konnotativ ma'no so'zga ekspressiv, hissiy, baholovchi funksiyalarni beradi. Konnotatsiyalarga misollar: qorli kuchli shamolni anglatuvchi «metel» (bo'ron) so'zi quyidagi birikmalarda konnotatsiya bo'lib xizmat qilishi mumkin: «pux krujilsya metelyu» (parlar bo'ron kabi girdob soldi), «metel ognennix iskr vzvilas v nebo» (olovli uchqunlar bo'roni osmonga ko'tarildi); «la tortue» (toshbaqa) so'zi harakatning sustligi, sekinlik konnotatsiyalariga ega; «le coq» (xo'roz) – mag'rurlik, «le vent» (shamol) – beqarorlik, tezlik. «Konnotatsiya» tushunchasining dastlabki ta'rifiga zid ravishda, bu ma'no so'zni mustaqil ko'rib chiqqanda, kontekstdan tashqarida ham namoyon bo'lishi mumkin, u holda asosiy va ekspressiv ma'nolarning shunchalik kuchli qo'shilib ketishi haqida gap ketadiki, ularning ikkalasi ham ushbu til birligining ichki qobig'iga kiradi. Masalan: odam ma'nosidagi «tip» so'zida salbiy konnotatsiya leksik ma'no o'zagiga mahkam o'rnashgan va hozirgi bosqichda so'z ushbu bo'yoqsiz qo'llanilishi mumkin emas. Konnotativ axborot denotativ axborotga va denotativ axborot konnotativ axborotga o'tkazilishi mumkin. Biroq ushbu ta'kid universal emas, chunki diffuz (tarqoq) konnotativ ma'nolar, ko'pincha, to'g'ridan to'g'ri tavsif (denotatsiya) orqali berilishi mumkin, har qanday denotativ axborotni konnotativ darajaga o'tkazish esa shubhalidir" [10;3-b.].

Tor ixtisoslashgan terminning ma'nosini konnotativ tarzda ifodalashning deyarli imkoni yo'q. Konnotativ va denotativ axborotlarning ehtimoliy nisbatlari tipologiyasi ham qiziqarlidir. Masalan, til tizimida shunday nisbatlar mustahkamlangan: obyekt haqidagi ma'lumotlar denotativ tarzda uzatilganda, ushbu obyektni ko'rib chiqayotgan shaxs haqidagi axborot konnotativ tarzda xabar qilinadi; biror bir xabar denotativ tarzda uzatilganda esa kommunikatsiya (muloqot) akti haqidagi ma'lumotlar konnotativ tarzda aks ettiriladi. Bu yerda tilning stilistik (uslubiy) tizimi orqali uzatiladigan konnotativ ma'nolar haqida gap ketmoqda. Bu axborot uzatishning ikki kanali tilning turli ko'rinishlarida, ya'ni aniq kommunikatsiyalarda muvaffaqiyatli ishlashi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi masalasiga oydinlik kiritadi. Odamlarning barcha kommunikativ aktlari bir turdagi vaziyatlar to'plamidan iborat. Ularni lisoniy ko'rib chiqish muloqot komponentlariga bog'liq bo'lmagan, ammo muvaffaqiyatli muloqot uchun muhim bo'lgan belgilarni aniqlaydi. Ushbu belgilar xabarni qabul qilishga, uni baholashga va javob reaksiyasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadi. Aynan tilda mustahkamlangan ushbu xarakterli xususiyatlar stilistika tizimida konnotativ ma'no darajasida tasvirlanadi. Shunday qilib, konnotatsiya denotativ tarzda uzatilgan xabar u bilan birgalikda qabul qilinishi kerak bo'lgan minimal zarur axborotni aks ettiradi.

Denotatsiya va konnotatsiya haqli ravishda juftlikda, ko'pincha, antonimik juftlik a'zolari sifatida ko'rib chiqiladi, ammo «konnotatsiya» terminining talqin qilinishiga qarab, ikkinchi termin ham o'z ma'nosini o'zgartiradi. Denotatsiya va konnotatsiya ularning umumiy o'zagida aks etgan umumiy mazmunga ega. Nutqda denotativ tushuncha – ushbu tilning barcha sohiblari uchun umumiy, konnotatsiya esa har bir inson-

da individual bo‘lgan assotsiativ ma’nodir. Denotat tushunchani mantiq darajasida aks ettirishga xizmat qilsa, konnotat munosabatni baholash uchun xizmat qiladi”.

Pretsedent birliklar sarlavhalar tarkibida kelganda, ularning denotativ (asl) ma’nosi va maqolada ifodalanayotgan aktual (yangi) ma’nosi o‘rtasida o‘ziga xos ziddiyat yoki bog‘liqlik yuzaga keladi. Quyida 2025-yilgi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarni yoritgan sarlavhalar asosidagi tipik modellarni ko‘ramiz: *"Tempête à la Maison-Blanche: les alliés cherchent un abri"* [5].

Ushbu sarlavhaning denotativ ma’nosi: Oq uyda dovul (kuchli shamol) bo‘lmoqda, ittifoqchilar esa yashirinish uchun bino (boshpana) qidirishyapti deb ifodalansa, konnotativ ma’nosi: "tempête" (bo‘ron) – AQSH ma’muriyatidagi siyosiy keskinlik va kutilmagan qarorlar. "Abri" (boshpana) esa boshqa davlatlarning o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yangi diplomatik choralar izlayotganini anglatadi.

"La Lune: le nouveau Far West des géants de la tech".

Denotativ ma’nosi: Oy: texnologiya gigantlarining (ulkan kompaniyalarning) yangi Yovvoyi G‘arbi deb tarjima qilingan holda ifodalansa, konnotativ ma’nosi**:** Oy – shunchaki Yer yo‘ldoshi emas, u yangi biznes maydoni. Uni "Far West" (Yovvoyi G‘arb) deb atash orqali jurnalist Oyda hech qanday qonun-qoidalarsiz, tartibsiz ravishda boylik va hududlar uchun shafqatsiz kurash boshlanganini ifodalaydi.

"Un Waterloo électoral pour la gauche".

Denotativ ma’nosi: Chap qanot siyosiy partiyalari uchun Vaterloo qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan saylov deb ifodalansa, konnotativ ma’no**:** Siyosiy maydonda chap qanot partiyalarining to‘liq, qayta tiklab bo‘lmaydigan va sharmandali mag‘lubiyatga uchraganini anglatadi. "Waterloo" so‘zi fransuz ongida har qanday yirik halokat va mag‘lubiyatning ramzidir.

"Retraites: le gouvernement a ouvert la boîte de Pandore".

Denotativ ma’nosi: Pensiya tizimi masalasida hukumat Pandora ismli qahramonning jismoniy qutisini ochdi deb ifodalansa, fransuz hukumati pensiya islohotini boshlab, jamiyatda kutilmagan, nazorat qilib bo‘lmaydigan juda ko‘p muammolar, tartibsizliklar va noroziliklar zanjirini keltirib chiqarganini anglatishi konnotativ ma’nosidir.

O‘zbek matbuotida maqollar sarlavha sifatida juda faol qo‘llanadi: *“Yaxshi niyat– yarim davlat”* [7] (Masalan, 2025-yilda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash yoki yangi islohotlar boshlanishiga bag‘ishlangan tahliliy maqola). Insonning ichki ezgu niyati va maqsadlari moddiy boylik (davlat) kabi qimmatlidir, yaxshi niyat muvaffaqiyat garovidir. Maqolaning asl lug‘aviy (denotativ) ma’nosidan kelib chiqib, davlat tomonidan xalq uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar yaxshi samara berishiga ishora qilinadi.

“Bir yoqadan bosh chiqarib...” (Hududlarni obodonlashtirish yoki umumxalq hasharlariga doir sarlavha). To‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosi – kiyimning (to‘nning) bir yoqasidan birgalikda bosh chiqarish. Ko‘chma, turg‘un ma’nosi – hamjihatlikda, birlashib harakat qilish.

“Bugungi kunning ma’rifatparvar jadidlari”. XX asr boshlarida Turkistonda yashab o‘tgan, xalqni uyg‘otishga intilgan ijtimoiy-siyosiy harakat vakillari (Behbudiy, Fitrat va b.). Sarlavhada bu pretsedent nom orqali bugungi kun o‘qituvchilari yoki ilm-fan fidoyilariga nisbat beriladi. O‘quvchi ongida o‘sha davr fidoyilari haqidagi tayyor bilim uyg‘onadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, sarlavhadagi birlikning denotativ (lug‘aviy/asl) ma’nosi matndagi yangi voqelikka ko‘chirilib, nominativ ko‘rsatuvchilik va aniqlik prinsiplariga tayanadi. Bu esa qisqa sarlavha orqali butun bir maqolaning asosiy g‘oyasini o‘quvchiga lo‘nda va ta’sirchan qilib yetkazib berishga xizmat qiladi. Konnotativ ma’nosi orqali esa o‘quvchi e’tiborini jalb qilish, xarakterlash, baholash, madaniy-kontekstual aloqalar yaratish, emotsional ta’sir o‘tkazish vazifalari amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). A.Berdialiyev, I.Ermatov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «Turon-iqbol», 2021, 27–29-betlar.

(2). Бубнова Н.Д. (2006). Претседентне эдинитсй в современном обшчестве. Сотсиокулътурологический аспект. Москва, “Макс Пресс”, 216 с.

(3). Гудков Д.Б. (2003). Теория и практика мезҳкултурной коммуникатсии. Москва, ИТДГК “Гнозис”, 286 с.

(4). Kovshova M.L. Precedent text in a modern newspaper headline as intellectual entertainment. Logical analysis of language. Conceptual game fields. M., 2006, p. 421–428.

(5). Le Monde Archives. 2025. URL: https://www.lemonde.fr/archives-du-monde/20-12-2025/

(6). Tukliyeva G.N. (2023). The Role of Precedent Phenomena in Media Materials // International Journal of Studies in Advanced Education, 24 p.

(7). “Xalq so‘zi”, Archives 2025. UERL: https://press.natlib.uz/ru/publications/xalq-sozi

(8). Yakubova S.H. (2024). Pretsedent birlik va pretsedent nom, ularning o‘zbek lingvomadaniy jamiyatida qo‘llanilishi. Euroasian jounal of technology and innovaton. 81 p.

(9). Zemskaya E.A. Citation and types of its transformation in the headlines of modern newspapers. Poetics. Stylistics. Language and culture. M., 1996, 338 p.

(10). Абдуллаев Х.Б. К вопросу о значении понятий «денотация» и «коннотация». ДжГПИ, 2023, 3 с.

(11). Земская Е.А. Язык как деятельность. Морфема. Слово. Речь. М., “Языки славянской культуры”, 2004, 121 с.

(12). Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М., “Наука”, 1987, 216 с.

(13). Красных В.В., Гудков Д.Б., Захаренко И.В., Багаева Д.В. Когнитивная база и прецедентные феномены в системе других единиц и в коммуникации. “Вестник МГУ”, сер. Филология. 1997, № 3, 62 с.

(14). Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. М., “Litres”, 2017, 21 с.

(15). Наволоцкая О.В. Прецедентность в заголовках медиа: сопоставительный аспект. “Ученые записки Новгородского государственного университета”, 2022, № 6 (45), 685 с.

(16). Ревзина О.Г. О понятии коннотации. Языковая система и её развитие во времени и пространстве. Сборник научных статей, М., 2001, с. 436–446.

(17). Рождественский Ю.В. Введение в общую филологию. М., “Академия”, 2004, 343 с.

(18). Серпикова М.Б. Язык СМИ как объект лингвистического исследования. “Гуманитарные науки: научное сообщество студентов XXI столетия”, 2017, № 8 (56), с. 45–49.

(19). Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. М., “Academia”, 2000, 128 с.

(20). Фоменко Е.С. Американские культурные символы – прецедентные феномены в дискурсе современных СМИ. “Филологические науки”, Вопросы теории и практики. 2015, № 3-1 (45), с. 204–208.

Norova Farzona G‘ayrat qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi;
E-mail: farzona.norova@yandex.ru)

XITOY TILIDAGI AJRATILADIGAN SO‘ZLAR (离合词) MOHIYATINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xitoy tilidagi “ajratiladigan so‘zlar” (离合词líhécí) ontologik jihatdan o‘rganilib, ularning mohiyatini tasniflovchi nazariy qarashlar ko‘rib chiqildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, “ajratiladigan so‘zlar” mohiyati borasida xitoy tilshunosligi doiralarida to‘rtta nazariy qarash borligi aniqlandi va ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar*: ajratiladigan so‘z, xitoy tili, nazariy tahlil.*

Норова Фарзона Гайрат кизи (Ташкентский государственный университет востоковедения, преподаватель)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИРОДЫ РАЗДЕЛЯЕМЫХ СЛОВ (离合词) В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В данной статье исследуется онтология «разделяемых слов» (离合词líhécí) в китайском языке, а также вкратце рассматриваются теоретические взгляды, классифицирующие их сущность. Согласно результатам анализа, было установлено, что в кругах китайского языкознания существуют четыре теоретические точки зрения относительно сущности «разделяемых слов».*

Ключевые слова*: разделяемые слова, китайский язык, теоретический анализ.*

Norova Farzona Gairat kizi (Tashkent State University of Oriental Studies)

THEORETICAL ANALYSIS OF THE ESSENCE OF SEPARABLE WORDS (离合词) IN CHINESE

Annotation*. This article examines the ontological nature of “separable words” (离合词 líhécí) in Chinese and reviews and analyzes the theoretical perspectives that classify their essence. According to the results of the analysis, it was determined and examined that there are four theoretical viewpoints in Chinese linguistics regarding the nature of “separable words.”*

Key words*: separable words, Chinese, theoretical analysis.*

Kirish. Ajratiladigan so‘zlar (离合词líhécí) xitoy tili leksikasining muhim qismi bo‘lib, xitoy tilini o‘rganuvchilar o‘rganishi zarur bo‘lgan lingvistik birlik hisoblanadi. Ularning mohiyati noodatiy bo‘lib,

murakkab va xilma-xil shakllarga ega. Ajratiladigan so‘zlar qo‘shma va kengaytirilgan shakllarga ega bo‘lgan maxsus xitoy tili leksikasi bo‘lib, ikki morfemadan iborat. Ikki morfema birgalikda ishlatilganda, ajratiladigan so‘z mustaqil so‘zning xususiyatlarini saqlab qolib, to‘liq semantik ma’noga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, ikki morfema ajratilgan holda, ya’ni ularning orasiga boshqa komponentlar, jumladan, yordamchi so‘zlar kiritilishi mumkin. Bunday qo‘llanilganda ajratilgan so‘zlar so‘z birikmasi xususiyatlarini o‘zida aks etadi. Shuning uchun ajratiladigan so‘zlar mohiyati xitoy tilshunoslari o‘rtasida munozaraga sabab bo‘luvchi mavzulardan bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Tegishli adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali biz ajratiladigan so‘zlar bo‘yicha tadqiqotlarni xronologik nuqtayi nazardan, ikkita asosiy bosqichga bo‘linishini aniqladik:

Birinchi bosqich. 1940-yillarda xitoy olimlari ajratiladigan so‘zlarning mohiyatini o‘rganishni boshlaganlar. 1940-yilda janob Chen Vandao birinchi marta ajratiladigan so‘zlar tushunchasini o‘zining “Til harakatining sharhi va istiqboli” asarida tilga oldi. 1957-yilda janob Lu Djivey [8] ajratiladigan so‘zlarning birinchi chuqur tadqiqotini o‘tkazib, “ajratiladigan so‘zlar” nomini taklif qildi va to‘rtta turini bayon qildi. Keyinchalik, olimlar ajratiladigan so‘zlarning tabiati, ta’rifi, turlari va shakllarini turli nuqtai nazardan o‘rganishni boshladilar.

Ikkinchi bosqich. 1980-yillarda Xitoy islohotlar va ochiqlik siyosatidan so‘ng, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishni faol ravishda targ‘ib qildi. O‘sha davrda olimlar ajratiladigan so‘zlarning tuzilishi va qo‘llanilishi bo‘yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borishdi. Xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda ajratiladigan so‘zlarning o‘ziga xos tabiati va shakllari chet ellik o‘quvchilar uchun o‘rganishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun olimlar xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitish nuqtai nazaridan ajratiladigan so‘zlar bo‘yicha batafsil tadqiqotlar olib borishdi. Tadqiqot mavzulari, asosan, chet ellik o‘quvchilar tomonidan ajratiladigan so‘zlardan foydalanishda qilingan xatolar, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda ajratiladigan so‘zlarning o‘rgatilishi va darsliklarni tuzishda ajratiladigan so‘zlarga ahamiyat berish kabi mavzularni o‘z ichiga olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda biz ajratiladigan so‘zlarning o‘ziga xos mohiyati, ya’ni ularning mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasi borasida bajarilgan tadqiqotlarni ko‘rib chiqib, ularni o‘zaro qiyoslash orqali ajratiladigan so‘zlarning mohiyati haiqdagi nazariy qarashlarni tahlil qildik.

Natijalar va ularning tahlili. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish orqali biz xitoy olimlari ajratiladigan so‘zlarning xususiyatlariga oid quyidagi to‘rtta nuqtai nazarga ega ekanligini aniqladik:

Birinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar mustaqil so‘z sifatida tasniflanishi kerak. Bu qarashni qo‘llab-quvvatlovchi olimlar fikricha, ajratiladigan so‘zlardagi ikki morfema ajratilib qo‘llanilishi mumkin bo‘lsa ham, semantik ma’nosi to‘liq bo‘lgani sabab ularni maxsus fe’l sifatida aniqlash mumkin. Djao Yuanren [4] ajratiladigan so‘zlarni ajratilishi mumkin bo‘lgan qo‘shma fe’l sifatida tasniflaydi. Djan Jing [1] ham shu tasniflashni qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu qarashni qo‘llab-quvvatlovchi boshqa olimlar qatoriga Syan Syaotsin [11] va Djao Jinmin [3] kiradi.

Ikkinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar so‘z birikmasi sifatida tasniflanishi kerak. Bu qarash tarafdorlari nazarida, ajratiladigan so‘zlarning qo‘shib yozilgan shakli mustaqil so‘zning xususiyatlarini aks ettirishiga qaramay, ajratiladigan so‘zning ikki morfemasi orasiga fe’l to‘ldiruvchisi (补语), yordamchi so‘zlar va boshqalar kiritilishi mumkinligi mustaqil so‘zlardan farq qiladi va so‘z birikmalarning xususiyatlarini kuchliroq aks ettiradi. Ushbu qarashga ega olimlar qatoriga Djon Tsin [5], Van Bin [14] va boshqalar kiradi. Ularning fikricha, ajratiladigan so‘zdagi ikki morfemaning ajratib yozilishi mustaqil so‘z va so‘z birikmasini farqlash mezoni hisoblanadi. Ajratiladigan so‘zlarning birgalikda va ajratib qo‘llanilish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, ularni fe’l emas, balki fe’l va ot birkmasidan iborat so‘z birikma sifatida tasniflash kerak. Bundan tashqari, Lyuy Shusyan [9] o‘z ishida ta’kidlaganidek, agar lingvistik birlik morfemalari orasiga boshqa komponentlar qo‘shilsa va uning gap ichidagi o‘rnini o‘zgartirsa, bunday lingvistik birliklar so‘z birikma xususiyatlarini namoyon qiladi va so‘z birikma sifatida tasniflanishi kerak.

Uchinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar birgalikda qo‘llanilganda fe’l sifatida, ajratib qo‘llanilganda esa so‘z birikma sifatida ishlatilishi kerak, bu qarash “ikki tomonlama identifikatsiya” nazariyasi sifatida ham tanilgan. Ajratiladigan so‘zlar semantik yaxlitlikka ega bo‘lgani sabab mustaqil so‘z talablariga javob beradi, ammo ularni ajratish mumkinligi tuzilish jihatidan ko‘proq so‘z birikmasi xususiyatlarini namoyish etadi. Shuning uchun ba’zi olimlar bu lingvistik hodisaning “ikki tomonlama identifikatsiya”ni aksi deb hisoblashadi. Lu Djivey [8] birinchi bo‘lib bu qarashni ilgari surgan. Uning ta’kidlashicha, “fe’l-to‘ldiruvchi” tuzilishidagi qo‘shma fe’l ajratib qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan holatda, birgalikda qo‘llanilgan shakli bir mustaqil so‘z, ikki morfema orasiga boshqa gap qismlari qo‘shilib qo‘llanilgan shakli esa so‘z birikmasini

aks ettiradi. Dju Desi [7] ajratiladigan so‘lar birgalikda ishlatilganda mustaqil so‘z sifatida tasniflanishi mumkinligini, ularning ajratilgan shakli so‘z birikmasi tabiatiga ko‘proq mos kelishini ta’kidlagan. Djan Shoukan [2], Syin Fuyi [13] kabi olimlar ham ajratilgan so‘zlarning ajratilganda so‘z birikmasi, qo‘shma holda mustaqil so‘z kabi tasniflanishini targ‘ib qilganlar. Bu qarash ajratiladigan so‘zlarning ikki shaklini, ya’ni birgalikda va ajratilgan holda qo‘llaniladigan shaklini aniq aks ettiradi.

To‘rtinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar fe’l va so‘z birikma orasidagi til birligi, ya’ni “oraliq holat” nazariyasi ham mavjud. Ushbu qarashga ega olimlar ajratiladigan so‘zlar mustaqil so‘z va so‘z birikmasi xususiyatlariga ega bo‘lgan oraliq holatdagi birlik deb hisoblashadi. Ularning fikricha, ajratiladigan so‘zlarni mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasining biriga tehishli deb emas, balki ikkisining o‘rtasida joylashgan lingvistik hodisa sifatida ko‘rish kerak. Ushbu qarashni targ‘ib qiluvchi olimlar orasida Djou Zhishang [6], Ren Fengqin [10] va Syao Yan [12] bor.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ajratiladigan so‘zlarni ontologik o‘rganish nuqtai nazaridan, mustaqil so‘z, ya’ni fe’l yoki so‘z birikmasi sifatida tasniflanishi keng tarqalgan ikki qarashdir. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tili darsliklarida “ajratiladigan so‘z” deb berilib, odatda aynan fe’l yoki so‘z birikmasi deb belgilanmaydi, ularning ajratilgan shakliga yaxshi tushuntirish berilmagani bois, ko‘p o‘quvchilar mazkur birliklarni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tilida keng qo‘llanilgani sabab, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning mohiyatini to‘g‘ri belgilash, fe’l yoki so‘z birikmasi deb o‘rgatishga aniqlik kiritish o‘qituvchilarning o‘qitish jarayoni hamda o‘quvchilarning mazkur birlikni puxta egallashi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). 张静.汉语语法问题[M].北京：中国社会科学出版社,1987.
(2). 张寿康.关于汉语构词法[M].人民出版社,1956.
(3). 赵金铭.能扩展的“动+名”格式的讨论[J].语言教学与研究, 1984(02):4-23.
(4). 赵元任.汉语口语语法[M].北京：商务印书馆,1979
(5). 钟锃.谈怎样分别词和语[J].中国语文,1954(12).
(6). 周上之.离合词是不是词？[J].暨南大学华文学院学报,2001(04):41-46.
(7). 朱德熙.语法讲义[M].北京:商务印书馆,2003.
(8). 陆志韦.汉语的构词法[M].北京：科学出版社,1957.
(9). 吕叔湘.汉语语法分析问题[M].北京:商务印书馆,1979.
(10). 任凤琴.论离合词与词组的区分[J].语文学刊,2005(4):114-117.
(11). 向小清.对离合词性质界定的看法[J].齐齐哈尔师范高等专科学校学报. 2008(03):40-41.
(12). 肖燕.基于问卷调查的日语事实性条件句习得研究[J]. 语言与文化研究,2013(01):69-74.
(13). 刑福义.汉语语法学[M].长春：东北师范出版社，1996.
(14). 王彬.由扩展法看“离合词”[J].铜仁师范高等专科学校学报(综合版),2006(05):21-34.

Sa’dullayeva Mohira Sobirovna (f.f.f.d. (PhD), Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi, DSc mustaqil izlanuvchisi; E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID 0009-0004-5071-7066)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA DIALEKTAL BIRLIKLARNI LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimli yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini aniqlash, ularni milliy konseptlar, qadriyatlar va kommunikativ stereotiplar bilan bog‘liq holda talqin qilishga xizmat qiladigan integrativ nazariy modelni asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida lingvokulturologik tahlil, semantik-prototipik yondashuv, konseptual tahlil, etnolingvistik izoh, diskursiv-pragmatik kuzatuv hamda dialektografik ma’lumotlarni korpuslash tamoyillari uyg‘unlashtirildi. Ilmiy yangilik dialektal birliklarni faqat hududiy farqlanish natijasi sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida talqin etishning mezonlari ishlab chiqilganida, shuningdek, dialektizmning lingvokulturologik tavsifi uchun minimal parametrlar to‘plami taklif etilganidadir. Natijalar dialekt birliklarini madaniy indekslar sifatida qayd etish o‘zbek leksikografiyasi va ta’lim amaliyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *dialektal birlik, lingvokulturologiya, konsept, madaniy semantika, etnolingvistika, dialektografiya, pragmatika.*

Саъдуллаева Мохира Собировна (доктор философии (PhD) по филологическим наукам, преподаватель Навоийского государственного университета, независимый соискатель степени DSc; E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID: 0009-0004-5071-7066)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ДИАЛЕКТНЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В статье системно раскрываются теоретические основания лингвокультурологического изучения диалектных единиц в узбекском языкознании. Цель исследования состоит в обосновании интегративной модели интерпретации диалектных единиц, выявляющей их культурные смыслы и связи с национальными концептами, ценностями и коммуникативными стереотипами. Методология включает лингвокультурологический анализ, семантико-прототипический подход, концептуальный анализ, этнолингвистическое толкование, дискурсивно-прагматическое наблюдение, а также принципы корпусирования диалектографических данных. Научная новизна заключается в разработке критериев трактовки диалектных единиц не только как результата территориальной вариативности, но и как кодов культурной памяти и социального опыта; предложен минимальный набор параметров для лингвокультурологического описания диалектизмов. Полученные результаты демонстрируют, что фиксация диалектных единиц как культурных индексов расширяет возможности узбекской лексикографии и образовательной практики.*

Ключевые слова*: диалектная единица, лингвокультурология, концепт, культурная семантика, этнолингвистика, диалектография, прагматика.*

Sadullaeva Mokhira Sobirovna, PhD in Philological Sciences, Lecturer at Navoi State University, Independent Researcher (DSc); E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID: 0009-0004-5071-7066)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUOCULTURAL STUDY OF DIALECTAL UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article outlines the theoretical foundations for a linguoculturological study of dialectal units in Uzbek linguistics. The aim is to justify an integrative model that interprets dialect items by uncovering their cultural meanings and their relations to national concepts, value systems, and communicative stereotypes. The methodology combines linguoculturological analysis, a semantic-prototypical approach, conceptual analysis, ethnolinguistic interpretation, discourse-pragmatic observation, and principles for corpus-based organization of dialectographic data. The scientific novelty lies in formulating criteria for treating dialectal units not merely as outcomes of territorial variation but as codes of cultural memory and social experience, and in proposing a minimal set of parameters for linguoculturological description of dialectisms. The results indicate that documenting dialectal units as cultural indices can significantly enhance Uzbek lexicography and contribute to more culturally informed language education and research design.*

Keywords: *dialectal unit, linguoculturology, concept, cultural semantics, ethnolinguistics, dialectgraphy, pragmatics.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida dialektal birliklar, ko‘pincha, hududiy variantlar, tarixiy qatlamlar yoki adabiy til me’yoriga nisbatan chetlanishlar sifatida tasvirlab kelingan. Biroq so‘nggi yillarda gumanitar fanlarda “til va madaniyat” tutashuv nuqtalarini markazga chiqaradigan paradigmal siljish dialekt materialiga ham boshqacha ko‘z bilan qarashni taqozo etmoqda: dialektizm nafaqat lokal fonetik yoki leksik o‘ziga xoslik, balki muayyan jamoaning tajribasi, kundalik amaliyoti, qadriyatlar tizimi va ramziy tasavvurlarini tashuvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli dialektal birliklarni lingvokulturologik talqin qilish, bir tomondan, milliy madaniyatning ichki ko‘pqatlamliligini ko‘rsatish, ikkinchi tomondan, adabiy til markazida qolib ketayotgan madaniy ma’nolarni qayta tiklash imkonini beradi. Bu yo‘nalishning dolzarbligi shundaki, dialektlar bo‘yicha klassik dialektografik ishlar ko‘p bo‘lsa-da, ulardagi birliklarning madaniy semantikasi, konseptual yuklamasi va diskursiv vazifalari izchil nazariy mezonlar asosida yetarli darajada umumlashtirilmagan. O‘zbek dialektologiyasi an’analarida boy empirik baza yaratilgani e’tirof etilgan holda, ushbu bazani lingvokulturologik tahlil uchun qayta “o‘qish” zarurati mavjud [1;2-b.]. Xalqaro tilshunoslikda esa lingvokulturologiya va etnolingvistika yo‘nalishlari konsept, madaniy skript, indeksikal ma’no, ramziy kapital kabi tushunchalar orqali til birliklarining madaniyatga bog‘liqligini talqin qilishda sezilarli metodologik tajriba to‘pladi [5;6-b.]. Shunga qaramay, ushbu yondashuvlarning o‘zbek dialektal materialiga moslashtirilgan nazariy modeli, ayniqsa, “dialektal birlik”ning lingvokulturologik maqomini belgilaydigan minimal parametrlar majmuasi hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslarini tizimlashtirish, dialektizmni madaniy semantika tashuvchisi sifatida talqin qi-

lish mezonlarini belgilash hamda integrativ nazariy modelni taklif etishdan iborat. Mazkur maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar qo‘yildi: birinchidan, dialektal birlikni lingvokulturologik obyekt sifatida ajratishning nazariy shartlarini aniqlash; ikkinchidan, dialektizmning madaniy ma’nosini ochuvchi parametrlar to‘plamini asoslash; uchinchidan, dialekt materialini tahlil qilishda konseptual, etnolingvistik va pragmatik yondashuvlarning uyg‘unlashuv mexanizmini ko‘rsatish. Ilmiy yangilik dialektal birliklarni “hududiy variant” chegarasida emas, “madaniy indeks” doirasida izohlashga xizmat qiladigan mezonlar tizimini taklif etish, shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi ma’lumotlarini lingvokulturologik ma’lumot bilan boyitish imkonini beradigan nazariy ramkani ishlab chiqish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyat dialektal birliklarni izohli va etimologik lug‘atlar, o‘quv adabiyotlari hamda elektron korpuslarda madaniy belgilari bilan qayd etish tamoyillarini takomillashtirishga borib taqaladi [3;4].

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning materiallar bazasi sifatida o‘zbek dialektologiyasida to‘plangan leksik va frazeologik birliklar, dialektal matnlar (og‘zaki nutq namunalarining yozuvga ko‘chirilgan shakllari), shuningdek, ayrim hududiy atamalar va nomlash modellarini aks ettiruvchi dialektografik manbalar konseptual-metodologik qayta tavsiflandi. Empirik misollarni statistik jihatdan ko‘paytirishdan ko‘ra, nazariy mezonlarni aniqlash maqsadi ko‘zlanganligi uchun material “namuna-korpus” tamoyili asosida saralandi: turmush marosimlari, qarindoshlik, mehnat qurollari, taom nomlari, iqlim va landshaftga oid nomlashlar hamda baholovchi birliklar kabi madaniy semantika zich bo‘lgan sohalar ustuvor tanlandi. Metodologik yondashuvlar integratsiyasi uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda lingvokulturologik tahlil dialektal birlikning madaniy presuppozitsiyasi, ya’ni, birlikni tushunish uchun zarur bo‘lgan “orqa fon bilimlari”ni tiklashga qaratildi. Ikkinchi bosqichda semantik-prototipik yondashuv yordamida dialektal ma’noning yadro va periferik komponentlari ajratildi, bu esa dialektizmning adabiy tilga nisbatan farqini faqat “sinonimiya” darajasida emas, balki konseptual tuzilish farqi sifatida ko‘rsatish imkonini berdi. Uchinchi bosqichda diskursiv-pragmatik kuzatuv dialektal birlikning ijtimoiy indeksikal vazifalarini, ya’ni “kim gapiryapti”, “qaysi vaziyatda” va “qanday munosabatni bildiradi” kabi omillarni tahlilga kiritdi; bunday yondashuv sotsiolingvistik konsepsiyalar bilan metodologik uyg‘unlikda asoslandi [6]. Metodlar tanlovi lingvokulturologiyada konsept va madaniy semantika, etnolingvistikada esa til orqali an’anaviy bilimlar tizimini rekonstruksiya qilish tamoyillari bilan ilmiy jihatdan asoslandi [5]. Natijalarni umumlashtirishda analitik-sintez, tasniflash va modellash usullari qo‘llanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida dialektal birliklarni lingvokulturologik o‘rganish uchun nazariy ramka sifatida “dialektizmning madaniy indeksliligi” konsepsiyasi taklif etildi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, dialektal birlik kamida uch qatlamli mazmunga ega bo‘ladi: nominativ qatlam (denotativ ko‘rsatish), konseptual qatlam (lokal tajriba asosida shakllangan tasnif va prototiplar), hamda ijtimoiy-pragmatik qatlam (identifikatsiya, baholash, yaqinlik yoki masofa yaratish). Shunga mos ravishda dialektal birlikning lingvokulturologik tavsifi uchun minimal parametrlar to‘plami ishlab chiqildi: birinchidan, madaniy domeni (masalan, marosim, xo‘jalik, qarindoshlik, taom, landshaft); ikkinchidan, konseptual motivatsiyasi (nomlashning asosiy belgisi va prototipi); uchinchidan, aksial qadriyat yo‘nalishi (ijobiy, neytral, salbiy baholashning madaniy modeli); to‘rtinchidan, diskursiv rejalashuv (qaysi nutq janrlarida va qanday vaziyatlarda faol); beshinchidan, intergeneratsion barqarorlik darajasi (faol, chekinayotgan, arxaiklashgan); oltinchidan, ekvivalentlilik turi (adabiy tilda to‘liq, qisman yoki ekvivalentizatsiyalanmaydigan birlik). Ushbu parametrlar dialektizmni oddiy “variant” sifatida qayd etishdan ko‘ra, uning madaniy-ma’no xaritasini chizishga xizmat qiladi.

Natijalardan yana biri shundaki, dialektal birliklarning madaniy semantikasi ko‘pincha “siqilgan” shaklda namoyon bo‘lib, ularni izohlashda minimal kontekst yetarli bo‘lmaydi; shu bois dialektizmni lingvokulturologik qayd etish kontekst paketini talab qiladi. Kontekst paketi tarkibiga tipik kollokatsiyalar, pragmatik yorliqlar (hazil, erkalash, kinoya, odobiy cheklov) hamda etnografik izohning qisqa ko‘rinishi kiradi. Shuningdek, dialektal birliklar ko‘pincha ikkilamchi nomlash orqali, ya’ni, metafora va metonimiya mexanizmlari bilan madaniy tajribani tilga ko‘chiradi; bu holat dialektizmning “obyekt nomi”dan “tajriba modeli”ga o‘tishini ko‘rsatadi. Taklif etilgan model doirasida dialektal birliklarni konseptlararo bog‘lanishlar tarmog‘ida tasvirlash imkoniyati ochildi: masalan, mehnatga oid birliklar faqat predmetlarni emas, mehnat etikasi, hamkorlik, mavsumiylik kabi tushunchalarni ham indekslaydi. Natijalar dialektal birliklarning lingvokulturologik tasnifi uchun nazariy jihatdan izchil, amaliy jihatdan lug‘at va korpusga tatbiq etiladigan parametrlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar o‘zbek dialektologiyasi an’anaviy tavsifiy yo‘nalishidan metodologik jihatdan farq qiladi: klassik yondashuvda dialekt birliklari asosan fonetik, grammatik va leksik farqlar ko‘rinishida sistemalashtirilgan bo‘lsa, taklif etilgan model dialektizmning madaniy-semiotik vazifasini mar-

kazga qo‘yadi. Bu farq dialekt materialini adabiy tilga “mos” yoki “nomos” ekvivalentlar orqali qisqartirib izohlash amaliyotining cheklanganligini ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim dialektizmlar adabiy tilda semantik jihatdan yaqin birlik bilan almashtirilganda nominativ ma’no saqlangandek ko‘rinsa-da, konseptual motivatsiya va baholovchi komponent yo‘qoladi, bu esa madaniy ma’no yo‘qotishiga olib keladi. Shu ma’noda, dialektizmning ekvivalentlilik turini (to‘liq, qisman, ekvivalentizatsiyalanmaydigan) parametr sifatida kiritish lingvokulturologik tavsifning zarur sharti bo‘lib chiqadi.

Natijalar xalqaro lingvokulturologik va etnolingvistik qarashlar bilan hamohangdir: til birliklarini madaniy bilimlar tizimi va identitet ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab talqin qilish yondashuvi konseptual tahlil hamda indeksikal ma’no nazariyalarida muhim o‘rin tutadi [5;6]. Biroq o‘zbek til materiali uchun muhim jihat shundaki, dialektlar o‘rtasidagi farqlanish ko‘pincha nafaqat “lokal obyektlar” bilan, balki umumturmush birliklarining turlicha konseptualizatsiyasi bilan ham izohlanadi; demak, lingvokulturologik tahlil “etnografik ekzotika”ni qidirish bilan cheklanmasligi, balki oddiy leksik qatlamda ham madaniy kodlarni aniqlashi kerak. Bu yondashuv o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha mavjud manbalarni qayta talqin etishga undaydi va dialektografik qaydlarda madaniy-metama’lumotni tizimli berish zaruratini kuchaytiradi [1;2]. Shu bilan birga, amaliyotga tatbiq nuqtayi nazaridan, dialektal birliklarni lug‘atlarda belgilashning yagona standartlari hali shakllanmaganligi sababli, taklif etilgan parametrlar majmuasi leksikografik normalashtirish uchun tayanch bo‘lishi mumkin [4].

Xulosa. Maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimlashtirildi va dialektizmni madaniy indeks sifatida talqin qiluvchi integrativ model taklif etildi. Dialektal birlikning nominativ, konseptual hamda ijtimoiy-pragmatik qatlamlardan tarkib topishi asoslab berildi va lingvokulturologik tavsif uchun minimal parametrlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu parametrlar dialektizmning madaniy domeni, konseptual motivatsiyasi, qadriyat yo‘nalishi, diskursiv faolligi, avlodlararo barqarorligi hamda ekvivalentlilik turini izchil qayd etish imkonini beradi. Natijada dialekt materialini faqat hududiy farq sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida qayta o‘qish zarurligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek dialektologiyasi, leksikografiya va ta’lim amaliyotida dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini to‘liqroq aks ettirishga metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Polivanov E.D. O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan”, 1968. 214-bet.

(2). Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978, 256-bet.

(3). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati muammolari. Toshkent, “Fan”, 1983, 192-bet.

(4). Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 168-bet.

(5). Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. New York, Oxford University Press, 1992, 512 p.

(6). Silverstein M. Indexical order and the dialectics of sociolinguistic life. Language and Communication. Amsterdam, Elsevier, 2003, vol. 23, № 3–4, p. 193–229.

(7). Sa’dullayeva M.S. O‘zbek shevalarida polisemiya (o‘g‘uz lahjasi misolida). (f.f.f.d. PhD) dissertatsiyasi). Jizzax, 2025, 170-bet.

Turobova Nargiza Arolovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; nargizaralovna@gmail.com)

ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK DOIRASIDA BADIIY MATN PRAGMATIKASI: NAZARIYA VA TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalingvistika nuqtayi nazaridan badiiy matn tahlili yoritilgan. Xususan, yozuvchi Ulug‘bek Hamdam asarlari misolida qahramonlar nutqidagi yashirin ma’nolar, nutqiy aktlar, presuppozitsiya va implikaturalar tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy diskursning kommunikativ va ta’sirchanlik xususiyatlari, muallif intensiyasi hamda o‘quvchi persepsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, pragmatik kontekst, imlikatura, muallif intensiyasi, nutqiy strategiya, presuppozitsiya, morfopragmatika*

ПРАГМАТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В РАМКАХ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ТЕОРИЯ И АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье рассматривается анализ литературных текстов с точки зрения прагмалингвистики, одного из современных направлений лингвистики. В частности, на при-*

мере произведений писателя Улугбека Хамдама анализируются скрытые смыслы, речевые акты, пресуппозиции и импликатуры в речи персонажей. Также раскрываются коммуникативные и аффективные свойства литературного дискурса, взаимосвязь между авторским замыслом и восприятием читателя.

Ключевые слова: *дискурс, прагматический контекст, импликатура, авторский замысел, речевая стратегия, пресуппозиция, морфопрагматика.*

PRAGMATICS OF A LITERARY TEXT IN THE FRAMEWORK OF ANTHROPOCENTRIC LINGUISTICS: THEORY AND ANALYSIS

Annotation*. This article discusses the analysis of literary texts from the perspective of pragmalinguistics, one of the modern directions of linguistics. In particular, on the example of the works of the writer Ulughbek Khamdam, hidden meanings, speech acts, presuppositions and implicatures in the speech of the characters are analyzed. Also, the communicative and affective properties of literary discourse, the relationship between the author's intention and the reader's perception are revealed.*

Keywords*: discourse, pragmatic context, implicature, author's intention, speech strategy, presupposition, morphopragmatics*

Kirish. Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan boshlab pragmalingvistika mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanib, rivojlana boshladi. Pragmatikaning semantika tarkibidan ajralib chiqishi til birliklarining nutqiy jarayondagi ta’sirchanligi va kommunikativ samaradorligini chuqurroq tadqiq etishga imkon yaratdi. Buning natijasida matn semantikasidan tashqari qo‘shimcha ma’no qatlamlarini ham o‘rganish uchun asos paydo bo‘ldi. Natijada matnning kommunikativ jihatlarini tahlil qilish, tilning boy ifoda vositalari hamda keng tasvir imkoniyatlarini aks ettiruvchi badiiy matnlarni idrok etish jarayonida pragmalingvistik yondashuv muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Bugungi kunda dunyo tilshunosligida pragmalingvistika antropotsentrik yondashuvning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, keng rivojlanayotgan soha sifatida e’tirof etiladi. Ushbu yo‘nalishda muloqot jarayoni, uning nutqiy vaziyat hamda inson omili bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, nutqiy akt nazariyasiga doir masalalar chuqur tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, matn implikaturasi, presuppozitsiya, tagma’no va baho kategoriyalariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon va o‘zbek tilshunosligida pragmalingvistika masalalarini yoritishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Yevropa tilshunosligida T.Van Deyk, J.Serl, J.Ostin, rus tilshunosligida esa N.Arutyunova hamda A.Maslova tomonidan pragmalingvistikaning nazariy masalalari yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Hakimov, D.Lutfullayeva, M. Qurbonova, U.Rahimov, M.Umrzoqova, A.Pardayevning ilmiy izlanishlari ushbu sohaning taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy tilshunoslikda matnga shunchaki lisoniy birliklar yig‘indisi emas, balki jonli muloqot jarayoni – diskurs sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, badiiy diskurs tahlilida pragmalingvistik aspektning tatbiq etilishi matnning ichki qatlamlariga yashiringan muallif niyati (intensiyasi) va ushbu niyatning o‘quvchi tomonidan idrok etilishi (persepstiyasi) o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishga xizmat qiladi. Jahon tilshunosligida mazkur yo‘nalishning nazariy poydevori J.Ostin va J.Serl tomonidan tadqiq etilgan nutqiy aktlar nazariyasiga borib taqaladi [2.1962]. Ularning qarashlariga ko‘ra, badiiy matndagi har bir nutqiy birlik muayyan lisoniy harakat bo‘lib, u nafaqat axborot beradi, balki o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish (illokutiv maqsad) vazifasini ham bajaradi. J.Serlning ilmiy izlanishlari bugungi kunda ham ifodaning semantik imkoniyati va pragmatik tuzilishi, nutqiy aktlar tasnifi borasida muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda [8.1969]. Shuningdek, J.Lichning “Xushmuomalalik tamoyillari” va J. Yulning pragmatik kontekst haqidagi nazariyalari badiiy matndagi muallif va kitobxon munosabatlarini lisoniy hamkorlik tamoyillari asosida tahlil qilish imkonini beradi [13.1996]. Muloqot jarayonining pragmalingvistik xususiyatlari, asosiy pragmatik kategoriyalar, diskurs, nutqiy strategiya, badiiy kontekst, nutqiy akt tuzilishi bo‘yicha T.Van Deykning izlanishlarida o‘z aksini topgan. Olim “Язык. Познание. Коммуникация” (“Til. Bilim. Muloqot”) asarida pragmatik kontekst va uning interpretatsiyasi, diskursning kognitiv va pragmatik tamoyillarini ilmiy tahlil qiladi [11.2000]. Uning o‘z tadqiqotlari davomida matnda gaplar shunchaki axborot berish vazifasini bajarmaydi, balki nutqiy aktlar qahramonlarning muloqot jarayonida ma’lum bir intensiyani ifodalaydi degan fikrni ilgari suradi, matnning pragmatik xususiyatlari, nutqiy akt, presuppozitsiya masalariga jiddiy yondashadi [12.1978]. Rus tilshunosligida A.Maslova antropotsentrik paradigmaga xos yo‘nalishlar: kognitiv tilshunoslik, madaniyatlararo aloqa, nutqiy ta’sir nazariyasiga oid ishlari bilan alohida o‘ringa ega. Olima paradigmaning tilshunoslikning bugungi taraqqiyotidagi ahamiyati, nutqiy aktlar tuzilishi va tasnifi, bilvosita nutqiy akt, pragmalingvistik tahlilning o‘ziga xos jihatlari, mu-

loqot turlari va tamoyillari, badiiy matnlardan olingan misollar bilan dalillaydi, pragmalingvistikaning tub mohiyatini va fanlar tizimidagi o‘rnini asoslab beradi [5.2010].

O‘zbek tilshunosligida pragmalingvistik tadqiqotlar antropotsentrik paradigmaning shakllanishi bilan yangi bosqichni boshlab berdi. Xususan, olim Sh.Safarovning pragmalingvistik yondashuvlari badiiy matnni muloqot tizimi sifatida o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [9.2008]. Badiiy diskursning o‘ziga xos xususiyatlari uning yashirin ma’nolarini o‘rganishda yetarlicha samara beradi. Ularni idrok etish, tushunish uchun lisoniy qobiliyat bilan birga, ongdagi umumiy bilimlar majmuyi ham birga harakatga keladi. N.Arutyunovaning qarashlariga ko‘ra, ayrim hollarda nutqiy vaziyat bilan bo‘g‘liq hollarda ochiqchasiga gapirish noqulay vaziyatga olib kelishi mumkin [1.1985]. M.Hakimov implikatsiya tushunchasini ifodalar ekan “umumyashirin” terminini qo‘llaydi va yashirin ma’nolarning barchasini qamrab olishini ta’kidlaydi [3.2013].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). Pragmatik tahlil qahramonlar ruhiyati va muloqot jarayoni, til birlikning pragmatik imkoniyatlari, tasvirlanayotgan zamon va makon, voqelikka muallif munosabatining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, ifodaga birlamchi va ikkilamchi ma’nolar, nutqiy qo‘llanishlarning shaxs, nutqiy vaziyat, pragmatik kontekst kabi omillar bilan bog‘liqligi masalalarni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir nutqiy ifoda nima uchun, qanday maqsadda reallashganini aniqlash talab etiladi. Shunga muvofiq, badiiy matn pragmatikasi termini ostida muallif va asar qahramonlari nutqidagi turli xil vositalari yordamida ifoda etiladigan, o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan va o‘quvchi tomonidan bu til vositalarining keng talqin etilishiga mo‘ljallangan muallif maqsadlarining jamlanmasi tushuniladi [6.1980]. *“*Sabo va Samandar” asaridan olingan ushbu parchani kontekst va vaziyat nuqtayi nazaridan tahlil qilsak: *Mundoq o‘ylab qarasam, Bakir, Saboning o‘z tengiga turmushga chiqayotgani to‘g‘riga o‘xshaydi. Teng tengi bilan degan gap bor-ku. Axir, o‘zing o‘ylab ko‘r, men unga o‘zimdan boshqa nimani ham taklif qila olardim. Toshkentda na uyim bo‘lsa, na serdaromad ishim… Uning qanday sharoitda yashashini yaxshi bilasan-ku! Faqat she’r yozish bilan oilani boqib bo‘lmasa kerak-a, Bakir o‘zing ayt!..* (Ulug‘bek Hamdam). Mazkur parchada *“Teng tengi bilan”* iborasi pragmatik jihatdan kontekstda ijtimoiy tengsizlikni yuzaga chiqaradi, ya’ni Saboning ijtimoiy mavqeyi Samandarnikidan balandroq ekani anglashiladi. Ibora matn diskursida baholash aktini ifodalaydi, yashirin ma’no esa *“Men unga munosib emasman”* mazmunida namoyon bo‘ladi. U o‘zining moddiy yetishmovchiligini Saboning ketishiga asosiy sabab qilib ko‘rsatadi. Bunda Samandar o‘z aybini ijtimoiy sharoitga yuklaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Badiiy matnda tasvirlangan qahramonlar va ularning nutqiy muloqoti, o‘zaro munosabatlarning lisoniy ifodasi, ijtimoiy munosabati, ruhiy jihatlarning nutq tuzilmasiga ta’siri masalalari diskursiv tahlilda alohida o‘ringa ega bo‘ladi. Birgina shaxsning nutqiy holati fe’l, kayfiyat, ijtimoiy mavqe kabi ko‘rinishlardan iborat bo‘lib, ularning har biri lisoniy birliklar, xususan, grammatik shakllarning nutqiy voqealanishiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ulug‘bek Hamdam nasrida qahramonlar nutqi ortiga yashiringan implikatura va muallifning maxsus niyatlari (intensiyalari) mavjud bo‘ladi. Ba’zan qahramonlar muloqotida nutqiy strategiyalar qo‘llaniladi. *Namuncha o‘zingizni qiynamasangiz? Arziydimi* ***o‘sha qiz… o‘sha ayol… o‘sha…*** *Sabo deganingiz sizning bir kun chekkan azobingizga, a, arziydimi?..–Farhod kelasolib Samandarning qo‘lidagi kattakon belkurakni olib naryoqqa uloqtirdi. – Qanaqa odamsiz o‘zi?! Joningiz savilmi?* (Ulug‘bek Hamdam). Kontekstdagi Samandar, ya’ni “qaysar oshiq” obraziga Farhod nutqidagi ***“Arziydimi o‘sha qiz… o‘sha ayol… o‘sha… Sabo deganingiz”*** jumlasi achinish nutqiy aktini yuzaga chiqarmoqda. Yuklamalar yordamchi so‘z turkumlari orasida pragmatik imkoniyatining kengligi bilan alohida o‘ringa ega. Bu yuklamalarning mustaqil so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no berishi va presuppozitsiya ifodalashi bilan bog‘liq. Yuklamalar adresantning gap yoki uning biror bo‘lagi anglatayotgan ma’noga qo‘shimcha munosabatni bildiradi – modal ma’no ifodalovchi sifatida maxsuslashadi [10.1996]. Aynan shu xususiyati bilan yuklamalar morfopragmatik vosita hisoblanadi. Oddiygina bitta bog‘lovchi yoki yuklama matnning ifodaviy maqsadini, adresant adresatga yetkazishini ko‘zlovchi ma’lumotni batamom o‘zgartirishi mumkin [7.2013]. *Taraddud ila Samandarga qarab turgan Farhod hafsalasi pir bo‘lganidan jahllangancha o‘z joyiga yo‘naldi, uzoqlab borarkan, o‘zini tutolmay yana qichqirdi:* ***“Kim u? Osmondagi oymi? Farishta – malakmi? Kim u o‘zi?..”*** (Ulug‘bek Hamdam). Farhodning Samandarga aytgan gapidagi qo‘llanilgan yuklama vositasida savol nutqiy akti ifodalangan. Presuppozitsiyon implitsitlik esa *“Sabo oddiy odam”* ma’nosida anglashiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy matnni pragmalingvistik yondashuv asosida tahlil qilish uning chuqur semantik ma’nolarini ochishga imkon beradi. Ulug‘bek Hamdam asarlarida muloqot ishtirokchilarining nutqi nafaqat axborot yetkazish, balki o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatish, muayyan hissiy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqiy aktlar, presuppozit-

siya va implikaturalar orqali yashirin ma’nolar yuzaga chiqadi. Qolaversa, yuklamalar va boshqa morfop-ragmatik vositalar muallif niyatini nozik ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Арутюнова Н.Д. Истоки, проблемы и категории прагматики. Лингвистическая прагматика. М., “Прогресс”, 1985, вып. 16, с. 23–39.

(2). Austin J.L. How to do Things with Words. Oxford, Oxford University Press, 1962, 166 p.

(3). Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. T., “Akademnashr”, 2013, 176-bet.

(4). Leech G. Principles of pragmatics. London, New York, 1983, 251–253 p.

(5). Маслова А. Введение в прагмалингвистику. Москва, “Флинта”, 2010, с. 40.

(6). Почепцов Г. Прагматика текста. Калинин, 1980, с. 7, 25.

(7). Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Тошкент, “Фан”, 2013, 129-бет.

(8). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1969, 202–204 p.

(9). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 286-bet.

(10). Турдибоев Т. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фан. номз. дис., Тошкент, 1996, 53-бет.

(11). Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. Москва, БКМ им. И.А.Бодуэн де Куртенэ, 2000, 309 с.

(12). Ван Дейк. Т. Вопросы прагматики текста. Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. Москва, “Прогресс”, 1978, с. 258–335.

(13). Yule G. Pragmatics. Oxford University Press, 1996, 138–140 p.

Eskalieva Shiyrin Asenbay qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;
E-mail: shirineskalieva@gmail.com)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISH YURITISHGA OID QO‘SHMA TERMINLARNING YUZAGA KELISH TIPLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek va ingliz tillarida ish yuritishga oid qo‘shma terminlarning yuzaga kelish tiplarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda terminlarning sintaktik usulda hosil bo‘lish jarayoni, ularning struktura modellari va semantik xususiyatlari o‘rganiladi. Birikma tarzidagi terminlar muayyan yangi tushunchani ifodalab, ularni tashkil etuvchi qismlarning abstraktlik xususiyati zaiflashishi va ma’no aniqlik tomon siljishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, umumiy ma’noni ifodalovchi terminlar birikma shaklida qo‘llanganda, u ifodalaydigan tushuncha ma’no jihatdan torayishi kabi jihatlari yoritib berildi.*

Kalit so‘zlar: *termin, o‘zbek tili, ingliz tili, ish yuritish, sintaktik aloqa, birikma termin, ma’no torayishi, predtermin.*

Ескалиева Ширин Асенбаевна (Нукусский государственный педагогический институт)

ТИПЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОСТАВНЫХ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕЛОПРОИЗВОДСТВОМ, В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Данная статья посвящена сравнительному анализу типов образования сложных делопроизводственных терминов в узбекском и английском языках. В ней изучается процесс синтаксического образования терминов, их структурные модели и семантические особенности. Термины в виде сочетаний выражают определенное новое понятие и характеризуются ослаблением абстрактности составляющих их частей и сдвигом значения в сторону точности. Также были освещены такие аспекты, как смысловое сужение понятия, которое оно выражает, когда термины, выражающие общее значение, используются в форме сочетания.*

Ключевые слова: *термин, узбекский язык, английский язык, делопроизводство, синтаксическая связь, составной термин, сужение значения, предтермин.*

Eskalieva Shiyrin Asenbaevna (Nukus state pedagigacal institute)

TYPES OF COMPOSITE TERMS RELATED TO CASE PROCEEDINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation. *This article is dedicated to the comparative analysis of the types of formation of complex administrative terms in the Uzbek and English languages. It examines the process of syntactic formation of terms, their structural patterns, and semantic features. Terms in the form of compounds express a certain new concept and are characterized by the weakening of the abstractness of their constituent parts and the*

shifting of meaning toward precision. Aspects such as the semantic narrowing of the concept it expresses when terms expressing a general meaning are used in the form of a combination were also highlighted.

Keywords: *term, Uzbek language, English language, documentation, syntactic connection, compound term, narrowing of meaning, pre-term.*

Kirish. Til leksik tarkibning boyish imkoniyati masalasi zamonaviy tilshunoslikning ilmiy qiziqish obyekti bo‘lib, yuzaga kelishi turli manbaga ega bo‘lgan yangi birliklar muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Deyarli barcha tillarda lug‘aviy birliklarni hosil qilishning ikkita asosiy usuli mavjud, ya’ni tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida so‘z yasovchi modellar (affiksal, sintaktik va semantik) orqali yangi so‘z va qo‘shma so‘zlar hosil qilish hamda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishdir. Mazkur jarayon asosida tilning lug‘at boyligi rivojlanib, bu, o‘z navbatida, mazkur tilning terminologik tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Aytish joizki, deyarli barcha tillar terminologik tizimlarida qo‘shma (birikma) terminlarning yasalish usuli sintaktik usul deb atalib kelinmoqda. Jumladan, o‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologik tizimida ham ilmiy tushunchani ifodalovchi qo‘shma terminlar salmoqli o‘rin egallaydi. Tilshunoslikda so‘z yasalish sohasida har bir tilning ichki qonuniyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, so‘zning yasalishi muayyan bir tilda avvaldan turg‘unlashgan yoki yangi asosning ajralishi va affiksal elementlarning qo‘llanishi bilan hamda so‘z yasash tizimining rivojlanishi bilan bog‘liq holda yangi paydo bo‘layotgan modellar va so‘z yasash tiplari bo‘yicha tilda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Terminologik tizimlarda yangi terminlarning vujudga kelishi avvaldan mavjud bo‘lgan qo‘shma so‘z yoki birikmalar asosida yuzaga kelishi barchamizga ma’lum hodisadir. Demak, terminga asos hodisa – bu so‘zdir, qo‘shma terminlar umumadabiy tildagi qo‘shma so‘zlarga qiyosan shakllanadi. Buning isboti sifatida terminolog G.O.Vinokur “…har qanday so‘z, u qanchalik trivial bo‘lmasin, termin vazifasida kela oladi”, deb qayd etadi. Ammo shuni ta’kidlash lozimki, so‘z va termin farqli tushunchalar, ikkalasida ham nominativlik xususiyat mavjud, biroq termin definitivlik jihati bilan so‘zdan farqlanadi. Terminning ushbu jihatlarini A.Reformatskiy ilmiy jihatdan asoslab bergan [15;320-b.]. Demak, qo‘shma termin yasalishi o‘z tabiatiga ko‘ra, qo‘shma so‘z yasalishiga qiyosan o‘rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’kidlash lozimki, qo‘shma terminlarning ayrim xususiyatlari, ya’ni, ot so‘z turkumi doirasida amal qilishi, uning tarkibidagi qo‘shma sifatlar birikma terminning aniqlovchi qismi sifatida qaralishi bilan qo‘shma so‘zlardan farq qiladi. Ayrim tilshunoslar “qo‘shma soz” termini o‘rniga “kompozit” terminini taklif qiladi [9;15–16-b.]. Jumaladan, “kompozit” va “so‘z birikmasi”ni farqlash maqsadida A.G.Sodiqova “kompozit”ning maqomiga oid mezonlarning kompleks to‘plami keltiriladi. Unga ko‘ra, qo‘shma so‘zlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: “1) semantik yaxlitlik; 2) nominativ yaxlitlik; 3) birinchi va ikkinchi komponentlarni erkin almashtirishning mumkin emasligi; 4) morfologik jihatdan yaxlit rasmiylashtirilgan bo‘lishi; 5) urg‘u (aksent) jihatidan yaxlit bo‘lishi; 6) murakkab so‘zning komponentlarini ajratib bo‘lmasligi; 7) murakkab so‘z komponentlari orasidagi ma’no munosabatlarining xususiyati: atributiv (belgilovchi), predikativ (xabar beruvchi), holli (vaziyatga oid), obyektli; 8) ma’lum bir so‘z turkumiga mansubligi; 9) muayyan struktur-semantik modellarga ko‘ra yaratilish imkoniyati; 10) murakkab so‘zlar yaratish uchun asos bo‘la olish qobiliyati” [6;71–72-b.]. Ta’kidlash kerakki, “qo‘shma so‘z” termini yuqorida olimlar qayd etgan “kompozit” terminining barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladi, shu sababli bu kabi tushunchani nomlashda “qo‘shma so‘z” termini qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday ekan, tilshunoslikdagi “qo‘shma so‘z” terminiga qiyosan terminolgik tizimlardagi xuddi shu tipdagi ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan lug‘aviy birligiga ham “qo‘shma termin” terminini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Umuman, tilshunoslikda so‘z yasalishida sintaktik va kompozitsion usullar yordamida qo‘shma so‘zlar yasalishi barchamizga ma’lum va bu usullar esa faqat qo‘shma terminlar tabiatiga mos keladi. Shuni aytish lozimki, terminologik tizimlarda birikma tarzidagi terminlar ham uchraydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, avvalo, termin so‘z sanaladi, uning so‘zdan farqli jihatlari mavjud bo‘lib, uning malum bir xususiyati “so‘z va so‘z birikmasi” va “termin va birikma termin” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatda namoyon bo‘ladi. N.U.Sadinova mazkur holatni shunday izohlaydi: “So‘z birikmasi adabiy til doirasida so‘z tushunchasiga teng bo‘lolmaydi, lekin birikma terminlar (so‘z birikmasiga teng bo‘lgan holatda) terminga tengdir, ya’ni termin so‘z birikmasiga tengdir. Ayni paytda terminlar yasalishi til qonun-qoidalarga bo‘ysunadi” [5;67-b.]. Aytish kerakki, mustaqillikdan keyin ish yuritishga oid hujjatlarning to‘liq o‘zbek tilida olib borilishiga ahamiyat berila boshladi, natijada xorijiy tillardan kirib kelga baynalmilal terminlar tarjima qilina boshlangandan keyin tilimizda birikma terminlar salmog‘i orta boshladi. Bu holatni esa tilimizga kirib kelgan yangi tushunchani bitta so‘z bilan ifodalash imkoniyati yo‘qligi bilan izohlash mumkin.

O‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologiyasida so‘z birikmasiga teng bo‘lgan terminlar hamda so‘zga teng terminelementlarlarining yasalishida sintaktik usulning ishtiroki katta. Bu kabi terminlar orasida sintaktik aloqa saqanib, yaxlit tushunchani ifodalaydi. Deyarli barcha tillar terminologik tizimlarida birikma tipidagi terminlar miqdor jihatdan salmoqli o‘rin egallaydi. Mazkur holat esa terminologiyaga oid izlanishlar ham isbotlaydi [4;15-b.]. Ish yuritishga oid terminlar terminologik tizimi uchun ikki asosiy tendensiya mavjud, ya’ni, birikma terminlardan foydalanish va terminlarning qisqartma shakllarini keng qo‘llash. Bu ikki xususiyat, bir-biriga zid bo‘lsa ham soha terminologik tizimida mavjud bo‘lgan muayyan qonuniyatlarni aks ettiruvchi qarama-qarshiliklarning birligini tashkil etadi. Bunday ziddiyat birikma terminlar orqali nomlanadigan tushunchalarning murakkabligi bilan hamda ushbu tushunchalarni ifodalash uchun til elementlarini qisqartirish orqali kommunikatsiya jarayonini tezlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan izohlash mumkin. O‘zbek va ingliz tillari ish yuritish terminologik tizimidagi bu kabi qo‘shma (birikma) terminlarning yuzaga kelishini quyidagi ikki tipda tavsiflash mumkin.

Qo‘shma terminlarning yuzaga kelish tiplari. Birikma tarzidagi terminlar muayyan yangi tushunchani ifodalab, ushbu birikmani tashkil etgan qismlarining abstraktlik xususisyati zaiflashadi va qismlar ma’nosi aniqlik tomon siljiydi.

O‘zbek tili	Ingliz tili
lavozim yo‘riqnomasi, marketing tizimi, virtual qabulxona, matbuot byurosi, mehnat haqining eng kam miqdori, muddati kechiktrilgan to‘lov, nazorat qiluvchi organlar, nominal ish haqi, notarial harakatlar, omonat jamg‘armasi, onlayn to‘lov, onlayn so‘rov, qimmatbaho qog‘ozlar bozori, raqamli axborot, soliq deklaratsiyasi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, taftish dalolatnomasi, tashqi iqtisodiy faoliyat, tashkiliy hujjatlar, ta’tillar grafigi	*job instruction, marketing system, virtual office, press bureau, minimum wage, delayed payment, regulatory authorities, nominal salary, notarial acts, savings fund, online payment, online request, securities market, digital data, tax declaration, taxpayer identification number, audit report, foreign economic activity, organizational documents, vacation schedule*

• Umumiy ma’noni ifodalaydigan terminlar birikma tarzda qo‘llanganda, u ifodalaydigan tushuncha ma’no torayishiga uchraydi.

hujjat – *me’yoriy-huquqiy hujjat, trafaret hujjatlar, vaqtincha saqlanadigan hujjat, xususiy hujjat, veb-hujjat*;	document – *normative legal document, standardized documents, temporarily stored document, private document, web document*;
bayonnoma – *majlis bayonnomasi, sud majlisi bayonnomasi, to‘liq majlis bayonnomasi;*	protocol – *meeting protocol, court session protocol, full meeting protocol*;
valuta tizimi – *milly valuta tizimi;*	currency system – *national currency system*;
soliq– *aromad solig‘i, mol-mul solig‘i;*	tax – *income tax, property tax*;
shartnoma – *mualliflik shartnomasi, mehnat shartnomasi, oldi-sotdi shartnomasi, pudrat shartnomasi, sug‘urta shartnomasi, xalqaro shartnoma;*	contract – *copyright agreement, employment contract, sale and purchase agreement, sales contract, construction contract, insurance contract, international agreement*;
hisobot – *raqamli hisobot;*	report – *digital report*;
xat – *rasmiy xat, so‘rov xat, tushuntirish xati, shikoyat xati, da’vo xati;*	letter – *official letter, request letter, explanation letter, complaint letter, claim letter*;
guvohnoma – *tug‘ilganlik haqida guvohnoma, xizmat safari guvohnomasi, xizmat guvohnomasi, vafot etganlik haqida guvohnoma.*	certificate – *birth certificate, business trip certificate, employee ID, death certificate.*

Tadqiqotchilar ingliz tilidagi qo‘shma so‘z (termin)larni yasalishida quyidagi uchta asosiy tip mavjud ekanligi ta’kidlaydi [2]. **Endosentrik qo‘shma so‘zlar (Endocentric compound)** – bu turdagi qo‘shma so‘zlarda umumiy ma’no asosiy komponent(lar)ga tayanadi. Ya’ni, qo‘shma so‘zning o‘zi shu komponentlardan biri bilan almashtirilganda ham ma’no saqlanib qoladi (*toothbrush* (tish cho‘tkasi) – bu “brush”ning bir turi). **Ekzosentrik qo‘shma so‘zlar (Exocentric compound)** – bunday qoshma so‘zlarda umumiy ma’no tarkibiy qismlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydi, ya’ni ma’no komponentlar doirasidan tashqarida bo‘ladi (*pickpocket* (o‘g‘ri) – bu so‘z “pick” va “pocket” so‘zlaridan yasalgan, lekin butun so‘z yangi, alohida ma’noni bildiradi). **Kopulativ qo‘shma so‘zlar (Copulative compound)** – bu turdagi murakkab so‘zlarda ikkala komponent ham teng huquqli va birgalikda bitta tushunchani bildiradi (*bitter-sweet* (achchiq-shirin), *deaf-mute* (kar-soqov) va h.

I**sh yuritish** sohasiga oid qo‘shma terminlarning ham **endosentrik, ekzosentrik** va **kopulyativ** turlari asosida yasalgan **ingliz tilidagi terminlar mavjudligi aniqlandi. Ular quyidagicha:**

1. Endosentrik qo‘shma terminlar (Endocentric compounds)

Termin	Yasalishi	Ma’nosi
file folder	folder (aniqlanmish) + file (aniqlovchi)	fayllar uchun papka
office manager	manager (aniqlanmish) + office (aniqlovchi)	ofis boshlig‘i
data entry	entry (aniqlanmish) + data (aniqlovchi)	ma’lumot kiritish
record book	book + record	qaydlar kitobi
meeting room	room + meeting	yig‘ilish xonasi
signature line	line + signature	imzo uchun chiziq

2. Ekzosentrik qo‘shma terminlar (Exocentric compounds)

Termin	Yasalishi	Ma’nosi
undersecretary	under + secretary	kotib yordamchisi / ikkinchi darajali kotib
overseer	over + seer	nazoratchi / boshqaruvchi
paper-pusher (informal)	paper + pusher	hujjatlar bilan ishlovchi byurokrat (salbiy ma’no)
white-collar	white + collar	ofis xodimi (ish joyini emas, kasb turini bildiradi)
deadline	dead + line	topshirish muddati (real “dead” yoki “line” emas)

3. **Kopulyativ qo‘shma terminlar** (Copulative compounds)

Termin	Yasalishi	Ma’nosi
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Э.Бегматов. Мустақиллик ва топонимия. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, Тошкент, 2009, 5-сон, 10-бет.

(2). Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент, “Фан”, 1985, 104-бет.

(3). Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. Автореф. дисс. … канд. филол. наук, Ташкент, 1968, 24 с.

(4). Бўриев С. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили, Филол. фан. номз. ... дисс. автореф., Тошкент, 2010, 13–14-бетлар.

(5). U.Turdimorodov. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Filol.fan.b. fals. dok. …diss., Samarqand, 2023, 65-bet.

Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li (Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, filologiya fandari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

KOMIK FOLKLOR JANRLARI O‘RGANILISHINING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada komik folklor janrlari, xususan, askiya va latifalarning o‘rganilish tarixi hamda ularning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda jahon va o‘zbek folklorshunosligida kulgi fenomeniga berilgan ta’riflar, V.Y.Propp, M.M.Baxtin kabi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, askiya janrining o‘ziga xos tabiati va uning xalq estetik ehtiyojlarini qondirishdagi o‘rni yoritilgan. Maqola yakunida komik janrlarning genezisi va taraqqiyot bosqichlari bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *folklor, kulgi, askiya, latifa, komizm, nazariya, genezis, estetika.*

Холбутаев Гайратбек Ойбекович (Доцент Андижанского филиала Кокандского университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам; gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ КОМИЧЕСКИХ ЖАНРОВ ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. *В статье анализируется история изучения комических жанров фольклора, в частности аскии и латифы, а также их теоретические основы. В исследовании сравниваются определения феномена смеха в мировой и узбекской фольклористике, рассматриваются концепции таких ученых, как В.Я.Пропп и М.М.Бахтин. Освещается специфика жанра аския и его роль в удовлетворении эстетических потребностей народа. В завершении статьи представлены научные выводы о генезисе и этапах развития комических жанров.*

Ключевые слова: *фольклор, смех, аския, латифа, комизм, теория, генезис, эстетика.*

Kholbutaev Gayratbek (Associate Professor, Andijan Branch of Kokand University Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor; gayratbek19912705@gmail.com; ORCID ID: 0000-0001-5925-8071)

HISTORICAL AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF COMIC FOLKLORE GENRES

Annotation. *This article analyzes the history of the study of comic folklore genres, particularly askiya and latifa, as well as their theoretical foundations. The study compares definitions of laughter in global and Uzbek folklore studies, examining the concepts of scholars such as V. Ya. Propp and M. M. Bakhtin. The specific features of the askiya genre and its role in satisfying the aesthetic needs of the people are highlighted. The article concludes with scientific conclusions on the genesis and stages of development of comic genres.*

Key words: *folklore, laughter, askiya, latifa, comedy, theory, genesis, aesthetics.*

Kirish (Introduction). Jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida xalq og‘zaki ijodi insonlarning ruhiy kechinmalari, turmush tarzi, hayotiy qiyinchiliklari, orzu-umidlari, quvonch va tashvishlari, armon hamda intilishlarini badiiy ifodalashning muhim vositasi bo‘lib kelgan. Xalq o‘z eposida orzu qilgan qahramon, jasur yigit va qizlar obrazini yaratgani kabi, ertaklar, og‘zaki nasriy va lirik asarlarida ham ideal inson timsolini gavdalantirgan. Og‘zaki drama namunalari, ayniqsa kulgi va yumor bilan sug‘orilgan asarlarda ham ushbu an’ana davom ettirilib, dono, zukko, hozirjavob, topqir va mug‘ombir kishilar obrazini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xalqning estetik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan badiiy intilishlar hayotdagi turli muammo va kamchiliklarni kulgi vositasida tanqid qilish, shu bilan birga, inson ruhiyatini yengillashtirish va kayfiyatini ko‘tarish vazifasini ham bajargan. Mazkur ezgu maqsad og‘zaki adabiyotning rivojlanishi va poetik taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Natijada xalq orasida zukko va hozirjavob kishilar timsolini ifodalovchi latifalar, shingil hazillar hamda askiya kabi kulgili janrlar shakllangan.

Askiyaning paydo bo‘lishi latifaga nisbatan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Buning sababi shundaki, qadimgi ajdodlarimiz, dastlab, yakka ijroga asoslangan og‘zaki ijod namunalarini yaratgan va ijro etgan. Keyinchalik esa ijrochilar sonining ortishi, ijro jarayonining musobaqa shaklida tashkil etilishi natijasida askiyaga xos ijro uslubi shakllangan.

Umuman olganda, yumor va kulgiga asoslangan og‘zaki ijod namunalarining asosiy g‘oyasi tinglovchini kuldirish, uning ruhiy holatini yengillashtirish, turmush mashaqqatlari va hayot tashvishlarini, hech

bo‘lmaganda, ma’lum muddat unutishga yordam berishdan iboratdir. Bunday asarlar insonni ruhiy jihatdan tetiklashtirish, ijtimoiy hayotdagi muammolarga yengilroq nazar bilan qarash imkonini yaratgan.

Og‘zaki ijod tarkibidagi kulgi bilan bog‘liq janrlarni o‘rganish, ularning badiiy-estetik imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish masalasi asosan o‘tgan asr boshlaridan boshlab olimlar e’tiborini torta boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xalq kulgisi faqat folklorshunoslik doirasidagina emas, balki ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangani kuzatiladi. Yangi davr ilmiy izlanishlarida xalq kulgisining falsafiy, ijtimoiy, psixologik, estetik va madaniy jihatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi.

Xususan, kulgining ijtimoiy mohiyati A.V.Dmitriyev tadqiqotlarida, psixologik tabiati L.S. Vigotskiy, A.N.Luk, P.V.Simonov, P.M.Yershov ishlarida, estetik ahamiyati esa Yu.B.Borev, A.Z.Vulis, A.F. Losev, M.T.Ryumina, L.N.Stolovich, V.P.Shestakov kabi olimlarning izlanishlarida yoritildi. Kulgining falsafiy qimmati L.V.Karasev, siyosiy mazmuni V.V.Razuvayev, lingvistik xususiyatlari V.Z. Sannikov va X.X.Do‘smatov tomonidan tahlil qilingan.

Shuningdek, badiiy adabiyotda kulgining tutgan o‘rni P.N.Berkov, V.I.Demin, A.Y.Kunilskiy, A.P. Moskovskiy, D.P.Nikolayev, L.A.Spiridonova, Y.V.Stennik, M.N.Chernyavskiy kabi tadqiqotchilar ishlarida o‘rganilgan. Kulgi madaniyat tarixining ajralmas qismi sifatida S.S.Averinsev, D.S.Lixachev, A.M. Panchenko, N.V.Ponirko ilmiy merosida tahlil qilingan. Bundan tashqari, komediyaga N.M.Fed va V.N. Yarxo, satiraga V.I.Adrianova-Perets va L.A.Plotkin, parodiyaga V.L.Novikov, Y.M.Tinyanov, O.M. Freydenberg, latifa janriga esa Y.Y.Kurganov, V.P.Rudnev, Y.Y.Shmeleva, A.D.Shmelev kabi tadqiqotchilar alohida e’tibor qaratganlar [8].

Mazkur tadqiqotlarda kulgining ijtimoiy vazifalari, inson ruhiyatiga ta’siri, aql va tafakkur mahsuli sifatidagi mohiyati, kulgi madaniyatining jamiyat hayotidagi o‘rni asoslab berishga intilish kuzatiladi. Shu jihatdan xalq kulgisi nafaqat estetik hodisa, balki ijtimoiy ong, madaniy xotira va xalq tafakkurining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kulgi muammolari va kulgi madaniyati A.S.Axiyezer, Y.M.Boroday, P.Vayl, A.Genis, A.Y. Gurevich, S.S.Gusev, G.L.Tulchinskiy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham turli ilmiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology). 1916-yilda tatar olimi va ma’rifatparvari G. Ibrohimov “Adabiyot darslari” nomli risolasida mazak-mazax janrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr bildirgan. Olim mazax janrini og‘zaki ijod tarkibidagi alohida adabiy hodisa sifatida izohlab, adabiyot ixlosmandlariga uning mohiyatini qisqacha tushuntirib bergan. U adabiy asarlarni ichki sifatlari, ya’ni, mazmuni va mundarijasiga ko‘ra, yetti turga ajratadi. Ushbu tasnifda baytlar, qo‘shiqlar, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, chastushkalar va hazillar kabi janrlar qayd etiladi [11].

Tatar folklorshunosligida dastlabki nazariy qarash sifatida ilgari surilgan bu fikrlar oradan qariyb o‘ttiz yil o‘tgach, 1960-yillarda hazilga asoslangan folklor janrlarining tabiati haqida maxsus ilmiy mulohazalar yuritilishiga zamin yaratdi. G.Bashirovning “To‘qson to‘qqiz mazax” nomli to‘plamiga kiritilgan “Mazax qanday paydo bo‘lgan” maqolasida mazaxning janriy belgilari, kelib chiqishi va g‘oyaviy-estetik ahamiyati haqida muhim fikrlar bildirilgan [5]. Keyinchalik, uning “Ming bir mazax” nomli hazillar to‘plami ham nashr etildi [4].

1929-yilda G.Rahim va M.Vasilyev tomonidan yaratilgan “Folklor va xalq adabiyotini to‘plash bo‘yicha qo‘llanma”da hazil birinchi bor folklorning mustaqil janri sifatida baholangan. Ular kulgili xarakterdagi qisqa hikoyalarni latifa deb nomlaganlar [6].

Yoqut folklorini o‘rgangan S.V.Yastremskiyning qayd etishicha, qadimgi yoqutlar dafn marosimlarida ham kulgidan foydalanganlar. Ular kulgini ilohiy tushuncha, ruhlar olami bilan aloqa o‘rnatish vositalaridan biri sifatida talqin qilganlar [20]. S.V.Yastremskiy kulgini ikki ko‘rinishda izohlaydi: birinchisi – kundalik hayotdagi holat va hodisalarga nisbatan yuzaga keladigan yengil kulgi; ikkinchisi – insonni ruhlar olami bilan bog‘lovchi ilohiy kulgi.

XX asr boshlarida tatar olimi Ahmad Sodat Xo‘ja Nasriddin haqidagi mazaxlarni ommalashtirish va ularni ilmiy jihatdan o‘rganish bilan shug‘ullangan [9]. Asr oxirlarida esa F.Xatipov va A.Yaxin tomonidan hazilga asoslangan mazax janri nazariy jihatdan tadqiq etildi. F.Xatipov “Epik janrlar” nomli monografiyasida “Mazax janri xususida” deb nomlangan alohida bob ajratib, mazax janrining o‘ziga xosligi, hayotiy voqealarning yumor asosida talqin qilinishi haqida ilmiy mulohazalar bildirgan. Shuningdek, asarning “Novella. Rasskaz” bobida novella va xalq hazili o‘rtasidagi janrlararo munosabatlar ham tekshirilgan [18].

A.G.Yaxin va M.X.Bakirov tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda A.G.Yaxin mazaxlarni alohida folklor janri sifatida tahlil qilgan. Olim mazax janridagi asarlarda bir so‘zning bir necha ma’noda qo‘lla-

nishi, aynan shu semantik ikkiyoqlamalik kulgi hosil qilishda muhim omil ekanini asosli tarzda ko‘rsatgan [21].

A.Yaxin “Tatar folklori tizimi” nomli monografiyasida latifa janriga alohida e’tibor qaratgan va shu janrga mansub og‘zaki asarlar tahliliga bag‘ishlangan bir necha maqolalar e’lon qilgan [22].

Etnografik yo‘nalishda askiya o‘zbek xalq teatrining ajralmas qismi sifatida A.L.Troitskaya tomonidan tadqiq etilgan [17]. Olima o‘zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala materiallari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomonidan ijro etilgani, uning ayrim turlari mavjudligi haqida fikr bildirgan. U tutol askiya shaklini yo‘qolib ketgan ko‘rinish sifatida talqin qilgan. Biroq R.Muhammadiyev A.L. Troitskayaning bu qarashlariga e’tiroz bildirib, tutol unutilmaganini, aksincha, askiyaning murakkab shakllaridan biri ekanini qayd etgan [13].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XX asr ilm-fanida kulgining ijtimoiy mohiyati va hayotdagi o‘rni masalasi bo‘yicha turli yo‘nalishdagi tadqiqotlar yuzaga keldi. Jumladan, kulgi nazariyasi doirasida ikki asosiy ilmiy an’ana shakllandi. Birinchi an’ana hukmron mafkura ta’sirida Marks va F. Engels ta’limotiga tayangan holda, kulgining ijtimoiy muhitni baholashdagi satirik-tanqidiy kuchini izohlashga qaratilgan edi. Ushbu fundamental an’anaga V.A.Alekseyev, A.S.Bushmin, A.V.Lunacharskiy, D.P. Nikolayev, Y.Y.Elsberg, R.Muhammadiyev kabi olimlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

M.M.Baxtin, V.Y.Propp, O.M.Freydenberg kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida esa kulgining tub asoslari, uning badiiy tafakkurga ta’siri va madaniy-estetik vazifalari tahlil qilindi [1].

R.Muhammadiyev o‘zbek folklorshunosligida komik folklor janrlaridan biri bo‘lgan askiyani maxsus tadqiq etishga kirishgan olimlardan biridir. Uning nomzodlik dissertatsiyasi hukmron mafkura ta’sirida yozilgan bo‘lsa-da, o‘zbek folklorida askiyaning mustaqil janr sifatidagi maqomini asoslashga qaratilgan birinchi tadqiqotlardan biri sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi askiyaning janr tabiati, askiya ijrochilari, uning ichki guruhlari va ijro xususiyatlari haqida nazariy xulosalar bergan.

XX asr o‘rtalarida, xususan 1975-yildan boshlab F.Yo‘ldoshevaning latifalarga bag‘ishlangan tadqiqotlari yuzaga keldi. Olima “Xalq qahramoni Nasriddin afandi obrazini tipiklashtirish muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur ishda o‘sha davr mafkuraviy-nazariy muammolaridan biri bo‘lgan Nasriddin afandi obrazining tarixiy asosi, uning tipiklashtirilishi va xalq qahramoni sifatida shakllanishi masalalari yoritilgan.

Amerikalik folklorshunos Alan Dundes komik folklorni psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan o‘rgangan. U hazil, latifa, parodiya, karikatura kabi komik folklor shakllarini tahlil qilgan. Dundesning fikricha, kulgi va hazil orqali jamiyat o‘z-o‘zini tanqid qiladi, ijtimoiy me’yorlarni tasdiqlaydi yoki ularni masxara obyektiga aylantiradi [7].

Jahon folklorshunosligida komik folklor janrlarini o‘rganishda psixoanalitik metod tarafdorlari ham ko‘paydi. Ushbu yo‘nalish vakillari A.Dundes va Zigmund Freyd nazariyalariga tayanib ish olib bordilar. Freyd psixoanalitik olim bo‘lishiga qaramay, uning hazil va latifaga oid tadqiqotlari folklorshunoslik uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qildi. Uning “Jokes and Their Relation to the Unconscious” asarida kulgi va hazil orqali inson psixikasidagi ijtimoiy hamda shaxsiy tabu, noqulay va yashirin mavzularni aniqlash imkoniyati ko‘rsatiladi. Bu yondashuv komik folklor janrlarini tahlil qilishda muhim ilmiy asoslardan biri sifatida qaraladi.

M.M.Baxtin universal xalq kulgi madaniyati nazariyasini ishlab chiqqan. U polifonizm, kulgi madaniyati, xronotop, karnavalizatsiya, menippeya, “ruhiy yuqori” va “tana quyi” kabi tushunchalarni ilmiy muomalaga faol kiritgan hamda ularning badiiy tafakkurdagi ahamiyatini asoslagan [3].

2004-yilda A.A.Sichev kulgi muammosiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Faylasuf olimning ta’kidlashicha, kulgi ijtimoiy hodisa bo‘lib, muhim falsafiy mazmunga ega. Kulgi inson kayfiyatini ko‘tarish bilangina cheklanmaydi, balki muayyan muammolar va hayotiy qiyinchiliklarning yechimini topishda ham o‘ziga xos vazifa bajaradi [16]. Kulgida ijtimoiy muammolarning tanqid ostiga olinishi ularni yengil shaklda anglash va hal etish imkonini beradi.

Taniqli folklorshunos V.Y.Propp 1976-yilda e’lon qilingan “Komizm va kulgi muammolari”ga bag‘ishlangan monografiyasida adabiy asardagi komik holatni tahlil qilishda kulgining o‘rnini aniqlash zarurligini alohida ta’kidlagan. Olimning fikricha, folklor asarlarida badiiy ifodalangan kulgi komik obrazlarning yaratilishiga, keyinchalik yozma adabiyotda satirik va yumoristik asarlarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan [15].

V.Y.Proppning qayd etishicha, G‘arb nazariyotchilari, xususan nemis olimlari komizmni estetik va noestetik guruhlarga ajratishga intilganlar. Bunday yondashuv kulgini folklor materiallari asosida maxsus

ilmiy tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Propp kulgining ichki tiplarga ajratilishi masalasini ham ilgari suradi va uni quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

1) yoqimli kulgi;
2) qahrli kulgi;
3) jirkanch kulgi;
4) quvnoq kulgi;
5) ritual kulgi;
6) e’tiborsiz kulgi.

Olim kulgini hosil bo‘lish o‘rni va ifoda shakliga ko‘ra, psixologik nuqtai nazardan tasniflaydi hamda ularning farqli tomonlarini ochib beradi. V.Y.Propp tomonidan ajratilgan kulgi turlari folklorning turli janrlarida uchraydi. Uning ta’kidlashicha, tadqiqot uchun kulgining bevosita yoki bilvosita komik muammolar bilan bog‘liq turlarini aniqlash muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, olim masxaraga asoslangan kulgini alohada ahamiyatga ega shakl sifatida ko‘rsatadi [15].

Darhaqiqat, masxaraga asoslangan kulgi komizm bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kulgining estetik shakllaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu kulgi turi og‘zaki adabiyotda komizm, yumor va satiraning yuzaga kelishiga, ularning muayyan adabiy-estetik xarakter kasb etishiga asos bo‘lgan.

Ozarbayjon folklorshunosi Muxtor Kazim o‘g‘lining tadqiqotlarida kulgining mifologik mohiyati alohida ta’kidlanadi. Olimning fikricha, kulgi uch olam – ko‘k, zamin va yer osti olami birligida, o‘rta olamda sodir bo‘ladigan hodisa sifatida talqin qilinadi. Kulgi orqali inson g‘ayb olamiga sayohat qilishi mumkinligi haqidagi tasavvurlar ham mazkur qarashlarda o‘z ifodasini topadi. Tadqiqotchi komizmning tarixiy ildizlari qadimiy e’tiqodiy qarashlarga borib taqalishini, epik talqinda kulgi qahramonning g‘alaba qozonishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini ham qayd etadi [14].

Ozarbayjon olimining ushbu qarashlari yoqut folklorshunosligida ilgari surilgan kulgining ilohiy qudrati haqidagi nazariy qarashlar bilan ma’lum darajada uyg‘unlik kasb etadi.

2017-yilda Muxtor Kazim o‘g‘lining “Ozarbayjon folklorida kulgining genezisi va poetikasi” mavzusidagi monografiyasi nashr etilgan [14]. Mazkur monografiyada ozarbayjon folklorida kulgining uchrashi, turli janrlarda kulgi bilan bog‘liq motivlar, kulgining mifologik va magik mohiyati, marosim bilan aloqadorligi, badiiy-estetik vazifalari, kulgili og‘zaki hikoyalar va latifalar poetikasi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Olimning qayd etishicha, ozarbayjonlarda ham o‘zbek xalqida bo‘lgani kabi Navro‘z bayrami kunlarida maydon teatrlari, kulgili suhbatlar va xalq tomoshalari ijro etiladi [14]. U Gasan og‘aga murojaat bilan boshlanadigan dialogik kulgili nutqni kulgili suhbat sifatida tavsiflaydi. To‘g‘ri, ozarbayjon kulgili suhbatlari o‘zbek askiyalaridek tagma’noli so‘zlardan tashkil topmagan. Biroq ularning dialogik nutq shaklida qurilishi askiyaning ayrim xususiyatlarini eslatadi. Shuningdek, kulgili suhbatlarning ijro joyi ham askiyaning ijro muhiti bilan ma’lum darajada mushtaraklikka ega.

Navro‘z bayrami kunlarida sayilgohlarda askiyabozlar, muqallidlar va masxarabozlarning chiqish qilishi o‘zbek xalqida qadimdan mavjud bo‘lgan an’analardan biridir. Taniqli o‘zbek folklorshunosi professor M.Jo‘rayev ham xalqning bayramona kayfiyatini ko‘tarishda folklor san’atining o‘rni beqiyos ekanini alohida qayd etadi [10].

Turkman olimi professor B.A.Karriyevning yozishicha, turkman folklorida “yomak” – masxaralashga asoslangan janr, “shorta soz” – latifa mazmunidagi anekdot kabi janrlar mavjud. Ushbu janrlar xalqning kulgi va yumorga asoslangan dunyoqarashini badiiy-estetik shaklda ifodalashi bilan muhim ahamiyatga ega [12]. Biroq B.A.Karriyev tadqiqotida “yomak”ning ijro muhiti va uslubi haqida batafsil ma’lumot berilmagani sababli uni o‘zbek folkloridagi qaysi komik janrga yaqinlashtirish mumkinligini aniq belgilash qiyin. Shunga qaramay, janrning “draznilka” sifatida izohlanishi uni bolalar folkloridagi chandishlarga yaqin bo‘lishi mumkin degan ehtimolni yuzaga keltiradi.

O‘zbek folklorida komik janrdagi matnlarning shakllanishida masxaraga asoslangan kulgi muhim o‘rin tutadi. Ushbu kulgi turi qahramonlarning ma’lum narsa yoki hodisalarga qiyoslanishi orqali komik manzara yaratadi va kulgining yuzaga kelishiga imkon beradi. Irma Estrupning ta’kidlashicha, qadimgi folklor matnlarida qo‘pol jargon so‘zlarning qo‘llanishi ularning qadimiyligini ko‘rsatuvchi belgilaridan biridir [19]. Demak, o‘zbek askiyasida tagma’noda qo‘llanuvchi so‘zlar, shuningdek, yashirin erotik mazmunning mavjudligi ushbu janrning qadimiy ildizlarga ega ekanidan dalolat beradi.

Irma Estrupning nazariy qarashlariga tayanilganda, askiya janrining tarixiy asoslari juda qadimgi davrlarga borib taqalishini taxmin qilish mumkin. Biroq askiya janrining genezisini aniqlash alohida fundamental tadqiqotni talab etadi. Shu sababli ushbu tadqiqot doirasida askiyaning tarixiy asoslarini batafsil yoritish asosiy maqsad sifatida belgilanmagan.

V.Y.Propp nazariyasiga tayanilganda, kulgiga asoslangan har qanday folklor janrining ildizlari qadimgi mifologik tasavvurlarga, aniqrog‘i, ajdodlarimizning kulgi magiyasiga borib taqaladi. Propp kulgini ilohiy ne’mat sifatida baholab, “Xudo dunyoni kulish orqali yaratgan yoki Xudoning kulgisi dunyoni yaratgan”, degan qarashni ilgari suradi [15].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘zbek va rus komik folklor janrlarining o‘rganilish tarixi XX asr boshlaridan shakllana boshlagan. XX asrning dastlabki yillarida xalq ijodiyoti namunalarini to‘plash va ommalashtirishga bo‘lgan intilishlar komik folklor janrlarini poetik hodisa sifatida filologik jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Natijada Rossiyada XX asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab komik folklor janrlariga oid asosiy tadqiqotlar e’lon qilina boshlagan bo‘lsa, O‘zbekistonda 1930-yillardan e’tiboran komik folklor namunalarini to‘plash va o‘rganishga alohida e’tibor berildi.

O‘zbek folklorshunosligida komik folklor janrlariga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlarning boshlanishi 1961-yilda R.Muhammadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi bilan bog‘liq. Keyinchalik, XX asrning 70-yillarida F.Yo‘ldosheva tomonidan latifalar poetikasiga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. XXI asr boshlaridan esa askiya poetikasi, latifalar tipologiyasi, lof janrining folklor tizimidagi o‘rni kabi masalalar yangi avlod tadqiqotchilari tomonidan yangicha nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Алексеев ВЛ. Оружием политической сатиры. Москва, 1979; Буишин А.С. М.Е.Салтыков-Щедрин. Ленинград, 1970; Луначарский А.В. О смехе. Советский фельетон. Москва, 1959, с. 439 – 442. Николаев Д.П. Смех – оружие сатиры. Москва, 1962; Эльсберг Я.Е. Вопросы теории сатиры. Москва, 1957; Мухаммадиев Р. Аския (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри). Филол.фан.номз. дисс., Тошкент, 1961; Бахтин Л.А. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. Москва, 1990; Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. Москва, 1999; Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. Москва, 1997.

(2). Ахиезер А.С. Россия: критика исторического опыта. В 3 т., т.3. Москва, 1991; Бородай Ю.М. Эротика-смерть-табу: трагедия человеческого сознания. Москва, 1996; Вайль П., Генис А. 60-е: мир советского человека. Москва, 2001; Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры. Москва., 1981; Гусев С.С., Тульчинский Г.Л. Проблема понимания в философии. Москва, 1985; Терц А. Путешествие на Черную речку. Москва, 1999.

(3). Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Походаев В.С. Москва, “Искусство”, 1986, с. 258.

(4). Бәширов Г. Мең дә бер мәзәк. Казан, 1963. 380-бет

(5). Бәширов Г. Туксан тугыз мәзәк. Казан, 1960, с. 74.

(6). Васильев М., Рахим Г. Руководство по собиранию фольклора и народной литературы. Казань.1929, 68 с.

(7). Дандес Алан. Фольклор: семиотика или психоанализ. Сб. ст. Москва, “Вост. лит”, 2003, 278 с.

(8). Дмитриев А.В. Социология юмора. Москва, 1996; Выготский Л.С. Психология искусства. СПб., 2000; Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. Москва, 1977; Симонов П.В., Ершов П.М. Темперамент, характер, личность. Москва, 1984; Борее Ю.Б. Комическое. Москва, 1970; Вулис А.З. Метаморфозы комического. Москва, 1976; Лосев Л.Ф., Шестаков В.П. История эстетических категорий. Москва, 1965; Рюмина М.Л. Тайна смеха, или Эстетика комического. Москва, 1998; Рюмина М.Л. Эстетика смеха. Смех как виртуальная реальность. Москва, 2003; Столович Л.Н. Философия. Эстетика. Смех. СПб., Тарту, 1999; Карасев Л.В. Философия смеха. Москва, 1996; Разуваев В.В. Политический смех в современной России. Москва, 2002; Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. Москва, 2002; Дўсматов ХХ. Аския матнининг лингвостилистикаси. Филол.фан бўй.фалсафа.докт. (PhD) дисс. автореф., Фарғона, 2018; Берков П.Н. История русской комедии XVIII в. Л., 1977; Демин В.П. Многоцветие смеха: Комическое в мордовской литературе. Саранск, 1998; Кунильский А.Е. Смех в мире Достоевского. Петрозаводск, 1994; Московский А.П. Сатира и юмор в русской литературе. Иркутск, 1993; Николаев Д.П. Сатира Гоголя. Москва, 1984; Спиридонова Л. Бессмертие смеха. Москва, 1999; Стенник Ю.В. Русская сатира XVIII века. Л., 1985; Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха. Аристофан. Москва, 1956, с. 81–108; Аверинцев С.С. Поэтика ранневизантийской литературы. Москва, 1977; Лихачев Д.С., Панченко А.М., Понырко Н.В. Смех в Древней Руси. Л., 1984; Смех: истоки и функции. СПб., 2002; Федь Н.М. Искусство комедии. Москва, 1978.

(9). Әхмәт Солдат. Хуҗа Насретдин мәзәкләре. “Совет әдәбияты” 1943, № 8, 77–79-бетлар.

(10). Жўраев М. Наврўз байрами. Тошкент, “Фан”. 2009, 107-бет.

(11). Ибраһимов Г. Әдәбият дәресләре. Казан, 1916, 64-бет.

(12). Каррыев Б.А. Эпосы, легенды и сказания. Туркменский юмор// http://gundogar-news.com/index.php

(13). Мухаммадиев Р. (Ўзбек халқ ижодиётининг жанри). Филол.фан.номз. дисс., Тошкент, 1961, 7-бет.

(14). Мухтар Казымоглы. Генезис и поэтика смеха в азербайджанском фольклоре. Баку, “Элм ве техсил”, 2017, 360 с.

(15). Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – Москва: Искусство, 1976.

(16). Сычев А.А. Смех как социокультурный феномен. Автореф.докт философ. наук, Саранск, 2004.
(17). Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане. Восточный сборник. Л., 1990, вып. 4, с. 144–151.
(18). Хатипов Ф. Эпик жанрлар. Казан, Татар. кит. нәшр., 1973, 49-бет.
(19). Эструп И. Исследование о «1001 ночи», ее составе, возникновении и развитии, пер. с дат., – Москва, 1904, с. 26.
(20). Ястремский С.В. Образцы народной литературы якутов. Якутской АССР, т. 7, Л., 1929, с. 34.
(21). Яхин А.Г., Бакиров М.Х. Фольклор жанрларын система итеп тикшерү тәҗрибәсе (Мәзәкләр, бәетләр), Казан, 1979.
(22). Яхин А.Г. Система татарского фольклора. Казань, 1984, 120 с.

Muxammedova Nilufar (PhD, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti)

ZAMONAVIY AQSH ADABIYOTIDA MO‘JIZAVIY REALIZM: INDIVIDUAL YONDASHUV

Annotatsiya*. Ko‘p millatli Amerika adabiyotida mo‘jizaviy realizm turli yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Bunday yondashuvlarda etnik guruhlarning tarixi va madaniyati ifodalanmoqda. Shu bilan birga, Amerika yozuvchilari mo‘jizaviy realizmga individual tarzda yondashgan holda uning o‘zgacha ifodalarini va shakllarini yaratmoqdalar. Mazkur maqola zamonaviy AQSH adabiyotida shakllangan mo‘jizaviy realizm elementlarini o‘ziga xos individual yondashuvda asarlarida aks ettira olgan adib Jonatan Kerol ijodi haqida so‘z yuritadi.*

Kalit so‘zlar: *realizm, mo‘jiza, shakl, roman, hayot, obraz, sujet.*

Мухаммедова Нилуфар (PhD, доцент, Узбекский государственный университет мировых языков)

МАГИЧЕСКИЙ РЕАЛИЗМ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ США: ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД

Аннотация*. В многокультурной американской литературе магический реализм развивается на основе различных подходов. В этих подходах находят выражение история и культура этнических групп. Вместе с тем американские писатели, индивидуально подходя к магическому реализму, создают его своеобразные выражения и формы. В данной статье рассматривается творчество писателя Джонатана Кэрролла, который сумел отразить в своих произведениях элементы магического реализма своим особенным индивидуальным подходом.*

Ключевые слова*: реализм, магический, форма, роман, образ, сюжет*

Mukhammedova Nilufar (PhD, Associate professor Uzbekistan State World Languages University)

MAGICAL REALISM IN US CONTEMPORARY LITERATURE: INDIVIDUAL APPROACH

Annotation*. In multicultural American literature, magical realism is demonstrating various individual approaches. Within these approaches, the history and culture of different ethnic groups are being expressed. At the same time, American writers, by approaching magical realism in an individual way, are creating its unique expressions and forms. This article analyzes selected novels of Jonathan Carroll, who has been able to show elements of magical realism using a distinctive individual approach.*

Key words*: realism, magical, form, novel, life, plot.*

Kirish. Zamonaviy AQSH adabiyoti turli millatga mansub yozuvchilarning asarlari bilan boyib bormoqda. Bu esa adabiyotda har bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan afsonalari, rivoyatlari va ertaklarida aks etgan millylikni aks ettirmoqda. Jahon adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan badiiy asarlarda yozuvchilarning millat tarixiga, o‘tmishiga murojaat qilish va ularni qayta aks ettirish uchramoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bunday yondashuvni biz afro-amerika, Amerika hindu adiblari asarlarida keng uchramoqda. Shu bilan birga, mo‘jizaviy realizmning yangi xususiytalari o‘zgacha tarzda ham aks etmoqda. Har bir yozuvchining estetik qarashlari va individual tajribasiga asoslangan holda asarga noyob shakl va mazmun baxsh etmoqda. Afroamerika va amerika hindu ijodkorlaridan farqli ravishda, Jonatan Kerol (1949-yil tug‘ilgan), Lusius Shepard (1943–2014) va Sara Eddison Allen ijodida mo‘jizaviy realizmning turfa qirralari ko‘zga tashlanadi. Jonatan Kerol asarlarida real hayot bilan fantastik haqiqat o‘rtasidagi nozik chegara psixologik va his-tuyg‘u orqali beriladi. Lusius Shepard esa mo‘jizaviylikni ekzotik joylar, mahalliy afsonalar va kosmik haqiqatlar bilan uyg‘unlashtirib, ko‘proq falsafiy va metafizik ohangga urg‘u beradi. Eddison Allen esa kundalik hayotni o‘ziga xos lirik sehr bilan boyitadi, unda mo‘jiza ayol tajribasi, oilaviy xotiralar va ijtimoiy muhit bilan bog‘lanadi. Ushbu yozuvchilar asarlarida mo‘jizaviy realizmning har xil individual yondashuvlari ko‘zga tashlanadi, bu esa badiiy uslubning moslashuvchanligini va ko‘p qirraliligini namoyon etadi.

Jonatan Kerol (Jonathan Carroll, 1949-yilda tavallud topgan) – zamonaviy Amerika adabiyotining o‘zining individual badiiy uslubiga ega yozuvchilardan biri bo‘lib, uning asarlarida biz mo‘jizaning oddiy hayotga mohirona uyg‘unlashganiga guvoh bo‘lamiz. Uning ijodida mo‘jizaviy realizmning asosiy xususiyatlari namoyon etadi, bu esa AQSH adabiyotshunosi Uendi Feris taklif etgan mo‘jizaviy realizm nazariyasini aks ettiradi. J.Kerolning badiiy uslubi markazida mo‘jiza elementlari, ya’ni gapiruvchi hayvonlar, kelajakdan darak beruvchi tushlar, kundalik hayot yoki romantik kontekstda qo‘llanilishi turadi. Bu motivlar shunchaki bezak emas, balki qayg‘u, sevgi, yo‘qotish va o‘zgarish kabi chuqur ruhiy holatlarni o‘rganishga xizmat qiluvchi vositalardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Jonatan Kerolning romanlarida voqealar oddiy shahar muhitida, kitobxonga tanish bo‘lgan joylarda, ya’ni zamonaviy qulay uylarda, insoniy munosabatlarda, shahar kafelarida boshlanadi. Biroq voqea rivojlanar ekan, qahramonlar hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘la boshlaydi va ular orqali g‘ayrioddiy, mo‘jizaviy elementlar ko‘z ilg‘amas tarzda kirib keladi. Qahramonlarning dunyosi sezilmas darajada, ammo qaytarib bo‘lmaydigan tarzda mo‘jizaviy unsurlar aralashuvi orqali o‘zgarib boradi. Bu jarayon emotsional va psixologik o‘zgarishni aks ettiradi, qahramonlar ko‘pincha roman boshida kundalik hayot yoki ma’lum ruhiy holatga bog‘langan bo‘lishadi, biroq voqealar ularni o‘z-o‘zini anglash yoki ma’naviy yuzlashuv sari undaydigan g‘ayrioddiy sayohatga olib kiradi. Jumladan, “Kulgu makoni” *(The Land of Laughs,* 1980) asarida yozuvchi Tomas Abbey ismli qahramonni tasvirlaydi. U taniqli bolalar yozuvchisining biografiyasini yozish maqsadida kichik shaharchaga yo‘l oladi. Biroq u bu yerda marhum yozuvchi yaratgan mo‘jizaviy olam bilan uyg‘unlashgan hayot mavjudligini kashf eta boshlaydi. Dastlabki voqealar realistik tusda bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan Tomas mantiqqa zid hodisalar va personajlar bilan to‘qnashadi. U gapiruvchi itlar, o‘zligini o‘zgartira olgan shaxslarga duch keladi va xayoliy olam bilan real hayot ajralmas darajada qorishib ketganligini his qiladi. Tomas uchun bu an’anaviy hayot emas, bu yerda mo‘jiza hayotning tabiiy qismidek tasvirlanadi, bu holat esa mo‘jizaviy realizm tamoyillariga mos keladi. Adibning o‘zgargan hayotni tasvirlashi Tomasning ichki ruhiy holatini va ijodiy o‘zligini anglash jarayoni uchun metaforaga aylanadi. Tomas bunday mo‘jizaviy olam orqali shaxsiy yo‘qotish va o‘zini anglash yo‘lini bosib o‘tadi. Jonatan Kerolning “It muzeyi tashqarisida” (Outside the Dog Museum, 1991) romani metafizik va psixologik jihatdan chuqur roman hisoblanadi. Asar mashhur me’mor Garri Redkliffning hayoti haqida hikoya qiladi. U hayoti muammolarga to‘la bo‘lishiga qaramay, Yaqin Sharqdagi hukmdor uchun saroy loyihasini yaratish bo‘yicha nufuzli tanlovda g‘olib chiqadi. Ammo me’morning Yaqin Sharga safari ma’naviy, ruhiy va g‘ayritabiiy sayohatga aylanadi.

Roman voqealari davomida Garri tushunib bo‘lmaydigan hodisalarga duch keladi. Unga gapiradigan itlar donishmandlik qiladilar va maslahat beradilar, binolar unga xotiralardan so‘zlaydi, vaqt esa odatdagi tartibdan chiqib ketadi, o‘tmish va hozirgi vaqt o‘zaro aralashgan holatda tasvirlanadi. Bu hodisalar uning o‘zini anglashiga, ichki, ruhiy o‘zgarishlariga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Romanda yozuvchi realizm va mo‘jizaviy elementlarni mohirona uyg‘unlashtiradi, kitobxonni real hayot va xayol orasidagi nozik chegaraga yetaklaydi. Asarda ijod, xalos bo‘lish, ma’naviy o‘sish kabi mavzular ko‘tarilgan. Mazkur asar hayot, san’at va insonning o‘zini anglash yo‘lini tasvirlaydi va taassurotga boy sayohatlar tashqarida emas, ichkarida, ya’ni qalbda bo‘lishini ta’kidlaydi.

Roman sarlavhasi ramziy va metaforik ma’noga ega. Asardagi asosiy mavzular inson idrokini, haqiqatni anglashini va o‘zgarishini ifodalaydi. Roman sarlavhasida adib so‘z o‘yinidan samarali foydalanadi. Bir o‘qishda “it muzeyi” iborasi g‘alatidek tuyuladi. Biroq iboraning mazmunini tahlil qiladigan bo‘lsak, u chekkadagi bema’ni joyni anglatadi. Sarlavhadagi “tashqarida” bo‘lish esa an’anaviy qarashlardan chetga chiqish ma’nosini, ya’ni o‘zgacha ruhiy olamga kirishni ifodalaydi. Roman qahramoni Garri Redklif o‘z ruhiy, ma’naviy olamiga kiradi va kimligini anglab yetadi. Sarlavhadagi “musey” so‘zi esa o‘tmishni, xotiralarni anglatadi. “Muzeydan tashqarida” bo‘lish esa o‘z-o‘zini yangidan kashfa etish, o‘sish va yangilanishga qadam qo‘yish ma’nosini ifodalaydi. Romanda arxitektor Garri Redklifning Uzoq Sharqga safari bilan birga ichki uyg‘onishi ham tasvirlanadi. “It muzeyidan tashqarida” esa hayotdagi yuzaki haqiqatlarga chalg‘imasdan, odatiylikdan chiqib, inson ruhiy olamida hikmatni, ma’noni izlash lozimligini anglatadi. Romanda haqiqat gohida g‘ayritabiiy va aql bovar qilmas voqealar orqali ochiladi. Shu bois, sarlavha roman ruhiga mos, u oddiy fikrlashdan voz kechib, mo‘jizaviylik va metafizik ma’nolar sari yo‘l ochadi.

Amerikalik tadqiqotchi Uendi Ferisning taklif qilgan mo‘jizaviy realizm xususiyatlari Jonatan Kerolning asarlari, aynan “It museyi tashqarisida” romanida o‘z ifodasini topgan. Uendi Feris mo‘jizaviy realizm beshta asosiy elementni o‘z ichiga oladi deydi va quyidagilarni sanab o‘tadi [1;136–1148-b.]:

1) real hayotda tushuntirib bo‘lmaydigan mo‘jiza (irreducible magic);
2) ruhiy va moddiy olamning uyg‘unligi (merging of realms);

3) vaqt va makonning buzilishi (disruptions of time and space);
4) turli shakllar birlashuvi (hybridity);
5) qahramonlar xabardorligi (metafictional awareness).

Jonatan Kerrolning “It museyi tashqarisida” romani ana shu elementlarni lirik, g‘ayrioddiy va chuqur psixologik voqealar orqali namoyon etadi. Quyida ushbu roman asosida mo‘jizaviy realizmga oid beshta xususiaytni tahlilga tortamiz. Birinchi xususiyat bu romandagi gapira oladigan itlar. Ular Garri Redklif uchun yo‘lboshch vazifasini o‘taydi. Romanda Garri Redklif bilan do‘stlashgan va so‘zlashganda falsafiy iboralardan samarali foydalana oladigan it real voqealarning bir qismiga aylanadi. Bu hodisa na tush, na galusinatsiya sifatida izohlanadi. Uendi Feris bu kabi tushuntirib bo‘lmaydigan hodisalarni “tushuntirib bo‘lmaydigan, ammo badiiy adabiyotda qabul qilingan” deya izohlaydi. It Redklifning ichki dunyosiga yo‘l ko‘rsatib, ma’naviy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. *“It menga dono ko‘zlari bilan qaradi va dedi: ‘Sen yetarlicha diqqat bilan tinglamayapsan, Garri. Yaxshiroq tingla – kerakli narsani eshitasan.” – “The dog looked at me with old eyes and said, ‘You’re not listening hard enough, Harry. Listen better and you’ll hear what you need”* [2;45–46-b.]. Asar parchasidan ko‘rinib turibdiki, it qahramon hayolida gapirmayapti. U Garrining doimiy hamrohi, it hayvon va inson o‘rtasidagi chegarani buzgan holda, Garriga maslahat beradi. Gapiradigan it atrofdagilarni hayratga solmaydi, u jamiyatning a’zosi sifatida qaralgan. Bu it real hayotda atrofimizda mo‘jizaning doimiy mavjudligini va uning sehr kuchini ifodalaydi. Romanda mo‘jizaviy realismning keyingisi bu jonsiz narsalarning ma’lum bir his-tuyg‘yni aks ettirishidir. Redklif yaratayotgan bino muhandislikka asoslanmaydi, bino arxitekturasi qahramonning ruhiy ilhomi natijasidir. Bino qurilish fizika qonunlariga asoslanmaydi, g‘ishtlar, toshlar ancha og‘irroq ko‘rinadi, makon esa go‘yoki tirik jonzotday harakatlanadi. Bino insom ichki olamining moddiy shakli bo‘lib, u Redklifning ruhiyatini metaforik tarzda aks ettiradi. *“Qo‘limdagi toshlardan ovoz eshitilardi. Devorga faqat qurilgan deb qarab bo‘lmaydi, uning xotirasi bor, devorlar ham nimanidir eslab qoladi. Ular insonni yorug‘likdan yoki sovuq-dan qanday asrasa, shunday his-tug‘uni ko‘rsatadi”. –“The stones hummed under my hand. The wall wasn’t just built – it remembered. It had emotion in the way it held light”* [1;25–26-b.]. Garri qurgan bino oddiy emas, u nafas oladi, his qiladi va his-tuyg‘u orqali insonni ogohlantira oladi. Bunda Redklifning aqliy va jismoniy olami birlashuvi kuzatiladi. Bino arxitekturasi inson ma’naviyatining ifodasi vazifasini otaydi.

Romandagi eng hayratlanarli darajada go‘zal va sirli joylardan biri bu bog‘dir. Bog‘da unutilgan xotiralar moddiy shaklda, ya’ni flora yoki narsalar ko‘rinishida paydo bo‘ladi. Redklif bog‘da sayr qilar ekan, u o‘z hayoti haqidagi xotiralarni – bolalikdagi qo‘rquvlarini, quvonchlarini, hatto o‘zining yangi, noma’lum bo‘lgan shakllarini ko‘radi. Bu shakllar orqali u atrofdagilarning o‘zi haqidagi fikrlarini, munosabatlarini anglagandek bo‘ladi. Bog‘ning bunday namoyishiga Redklif hurmat bilan qaraydi, axir ularning har biri u uchun psixologik ahamiyatga ega. Asarda bog‘allegorik vosita vazifasini o‘tamaydi, u xotiralarni moddiy shaklda Redklifga namoyish etadi. Bunda o‘tmish hozirgi zamon bilan moddiy tarzda birlashadi. Ruhiy va jismoniy makonning birlashuvi chegaralarni buzadi va Uendi Feris ta’kidlagan mo‘jizaviy realizmning xususiyati hizoblangan vaqt va malon buzilishini ifodalaydi. Jumladan, vaqtning buzilishi quyidagi parchada shunday aks ettiriladi: *“U hali tug‘ilmaganligini aytdi, lekin hamma narsani tepadan kuzatdi. U men qilmagan ishimni bilar edi, lekin qilishimni va men bunga e’tibor berishim kerakligini aytdi, chunki u endi kelmasligi mumkin ekanligini ta’kidladi”. –“He said he wasn’t born yet but had watched everything from the other side. He knew things I hadn’t done but would, and said I should pay attention because he might not come again*” [2;55–56-b.]. Parchadagi bu bola Redklifning hayotini bashorat qiladi, uni ogohlantiradi va ishontira oladi ham. Yozuvchining bunday uslubi Uendi Feris ta’kidlagan xronologik chegaralarni buzadi va asar g‘oyasini metaforik tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Romanda mo‘jizaviy realizmga xos bo‘lgan keyin xususiyat ruhoy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan bo‘rondir. Romandagi bo‘ron nafaqat ob-havoni, balki odamlarning ruhiyatini ham o‘zgartiradi. Ayrimlar noma’lum tilda so‘zlasha boshlaydi, boshqalar esa tushunarsiz motamga botadi. Bu ijtimoiy ongda sodir bo‘layotgan mo‘jizaviy elementlar ifodasi bo‘lib, shahar aholisining ma’naviy manzarasini butunlay o‘zgartiradi. *“Bo‘ron kelganda daraxtlarni emas, fikrlarni sindirdi. Odamlar o‘zgardi, eski sirlar suvda ilonlar kabi sirtga chiqdi. Shahar hech qanday sababsiz yig‘-lab yubordi. Biz bir-birimizni so‘zlarsiz tushundik”* [3;125–126-b.]. Bunday tabiiy hodisa ma’naviy va ruhiy jihatlar o‘zaro uyg‘unlashganini namoyon etadi. J.Kerol bo‘ronni ko‘rinmas o‘zgarishlarni – travma, shaxs inqirozini dramatic tarzda tasvirlash uchun badiiy uslub sifatida ishlatadi. Qahramonlarning bo‘ron oqibatlarini jiddiy qabul qilishlari mo‘jizaviy realizm ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Roman so‘ngida Redklif kelajakda tug‘iladigan arxitektor ruhining moddiy shakli bo‘lgan bola bilan uchrashadi. Bola hali mavjud bo‘lmagan arxitektura trendlari haqida gapiradi va hodisalarni oldindan aytadi. Bu hodisa vaqtning doiraviyligini ifodalaydi va Kerol ijodini Uendi Feris nazariyasiga kora asoslab beradi [4;112–113-b.]. Bola

badiiy tasavvurning ramzi sifatida ham namoyon bo‘ladi. U davrlarni bog‘laydigan ijodiy kuch. Uning mavjudligi yuqorida Uendi Feris ta’kidlagan mo‘jizaviy realizmning beshinchi xususiyatini aks ettiradi. Bola asar metafizik manzarasini tasvirlaydi, unda qahramonlarning o‘zaro ta’siri natijasida, Redklifning qobiliyati, ishonchi yanada kuchayadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, J.Kerol mazkur romanida mo‘jizaviy realizm elementlaridan samarali foydalanadi, uni badiiy uslubiga aylantiradi. Adib mo‘jizaviy realizmdan insonning murakkab holatlarini o‘rganish uchun qanday foydalanishini ko‘rsatadi. "Gapiradigan it" va "xotira bog‘i"-lar orqali J.Kerol haqiqatning yashirin qatlamlariga kirib boradi va ichki dunyoni tasvirlaydi. Asardagi mo‘-jizalar o‘quvchilarni hayratga solmaydi, aksincha, voqealar ularni real, abiiy ko‘rinadigan dunyoga olib kiradi. J.Kerolning mo‘jizaviy realizmi g‘ayrioddiy fikrlash har doim ham tashqarida emas, balki ko‘pincha ichkarida ekanligini tan olishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Faris W.B. Ordinary Enchantments. Magical Realism and the Remystification of Narrative. Nashville Vanderbilt. University Press. 2004, 480 p.

(2). Carroll J. The Land of Laughts. Orb Books. 1980, 272 p.

(3). Carroll J. Outside of Dog Museum. Ace Books. 1991, 256 p.

(4). Bowers M.A. Magical Realism. The New Critical Idiom. London, N.Y., 2004,150 p.

Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Roman-german tillari tarjimashunosligi“ kafedrasi dotsenti, f.f.n.)

KRISTINE LAVANT IJODIDA EKZISTENSIALIZM, DINIY MOTIVLAR VA INSON RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr Avstriya adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Kristine Lavant hayoti hamda ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoiraning murakkab hayot yo‘li, jismoniy va ruhiy azoblari uning poetik tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatgani yoritiladi. Tadqiqotda Lavant lirikasidagi diniy izlanishlar, ekzistensial iztiroblar, insonning ichki ruhiy kechinmalari, yolg‘izlik, qashshoqlik va jamiyatdan chetlatilish kabi mavzular tahlil etiladi. Shuningdek, uning she’riy tilidagi ramziy obrazlar, metaforik birliklar va modernistik poetika xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Lavant ijodi inson va ilohiyot o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi badiiy fenomen sifatida baholanadi. Ushbu maqola shoira poetikasining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kristine Lavant, Avstriya adabiyoti, modernizm, ekzistensializm, diniy lirika, poetik obraz, inson ruhiyati, metafora, modern she’riyat, mistitsizm, poetika, ichki kechinma.*

ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМ, РЕЛИГИОЗНЫЕ МОТИВЫ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ КРИСТИНЫ ЛАВАНТ

Аннотация. *В данной статье анализируются жизнь и творческое наследие Кристины Лавант – одной из ярких представительниц австрийской литературы XX века. Освещается влияние сложного жизненного пути поэтессы, а также её физических и духовных страданий на её поэтическое мышление. В исследовании рассматриваются такие темы, как религиозные поиски, экзистенциальные страдания, внутренние душевные переживания, одиночество, бедность и социальная изоляция в лирике Лавант. Также анализируются символические образы, метафорические единицы и особенности модернистской поэтики её поэтического языка. Творчество Лавант оценивается как художественный феномен, выражающий сложные отношения между человеком и божественным началом. Данная статья направлена на раскрытие своеобразия поэтики поэтессы.*

Ключевые слова: *Кристина Лавант, австрийская литература, модернизм, экзистенциализм, религиозная лирика, поэтический образ, человеческая психика, метафора, современная поэзия, мистицизм, поэтика, внутренние переживания.*

EXISTENTIALISM, RELIGIOUS MOTIFS, AND THE INTERPRETATION OF THE HUMAN PSYCHE IN THE WORKS OF KRISTINE LAVANT

Annotation. *This article analyzes the life and creative legacy of Kristine Lavant, one of the prominent representatives of 20th-century Austrian literature. It highlights how the poet’s complex life path, as well as her physical and psychological suffering, influenced her poetic thinking. The study examines themes such as religious exploration, existential anguish, inner emotional experiences, loneliness, poverty, and social exclusion in Lavant’s lyric poetry. It also considers the symbolic imagery, metaphorical units, and features of modernist poetics in her poetic language. Lavant’s creativity is evaluated as an artistic*

phenomenon expressing the complex relationship between the human being and the divine. This article aims to reveal the distinctive aspects of the poet's poetics.

Keywords: *Kristine Lavant, Austrian literature, modernism, existentialism, religious lyric poetry, poetic image, human psyche, metaphor, modern poetry, mysticism, poetics, inner experience.*

Kirish. Avstriya adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Kristine Lavant ijodi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Kristine Lavant she’riyati o‘zining chuqur falsafiyligi bilan ajralib turadi. Shoiraning murakkab hayot yo‘li, ijtimoiy qiyinchiliklar bilan kechgan taqdiri uning badiiy dunyoqarashi shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Natijada uning lirikasida insonning ichki kechinmalari o‘ziga xos badiiy ifodasini topadi. Kristine Lavant hayoti va ijodi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning badiiy tafakkuri bevosita boshidan kechirgan og‘ir sinovlar ta’sirida shakllangan. 1915-yilda Avstriyaning Karintiya hududidagi Lavant vodiysida kambag‘al oilada dunyoga kelgan shoira bolaligidan boshlab og‘ir moddiy sharoit va turli xastaliklar bilan yuzma-yuz bo‘ladi. Skrofuloz kasalligi tufayli uning ko‘rish va eshitish qobiliyatiga zarar yetishi, keyinchalik, o‘pka sili bilan kasallanishi hamda og‘ir davolash jarayonlari uning nafaqat jismoniy, balki ruhiy dunyosida ham chuqur iz qoldirgan. Bu holatlar uning she’riyatida tez-tez uchraydigan iztirob, yolg‘izlik va umidsizlik motivlarining shakllanishiga asos bo‘lgan.

Mazkur hayotiy tajribalar Kristine Lavant ijodining mazmun-mohiyatini belgilab, uning asarlarida ekzistensial iztiroblar, diniy izlanishlar hamda inson ruhiyatining murakkab kechinmalari markaziy o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi. Shu bois ushbu maqolada shoira ijodida ekzistensializm, diniy motivlar va inson ruhiyati talqini kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Lavant poetikasining o‘ziga xos jihatlari, uning she’riy tilidagi ramziy va metaforik ifodalar hamda badiiy tafakkurining asosiy yo‘nalishlari yoritib beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Adabiyotlarda shoira ijodining asosiy motivi sifatida Bibliya, xristian mistiklari, xususan, Mayster Ekxart ta’limoti, shuningdek, Sharqona meditatsiya an’analari alohida ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi shoirlarning ta’siri Lavant poetikasining shakllanishida muhim o‘rin tutgani qayd etiladi. Tadqiqotchilar uning ilk to‘plami “Die unvollendete Liebe”da Rilke uslubiga xos poetik ohanglar sezilishini, biroq keyingi asarlarida shoiraning mustaqil badiiy ovozi shakllanganini e’tirof etadilar. Xususan, “Die Bettlerschale” to‘plami Lavant ijodining yetuk bosqichi sifatida baholanib, unda insoniy azob-uqubatlar, yolg‘izlik va mavjudlik muammolari markaziy o‘ringa chiqishi ta’kidlanadi. “Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus” kabi nasriy asarlari esa psixologik realizm va avtobiografik unsurlar uyg‘unligi orqali inson ruhiyati talqinining muhim namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Kristine Lavant ijodini o‘rganishda bir qator zamonaviy adabiyotshunoslik metodlaridan foydalanildi. Avvalo, biografik metod asosida shoira hayoti va uning ijodiga ta’sir ko‘rsatgan omillar tahlil qilindi. Bu yondashuv Lavant asarlaridagi ekzistensial iztiroblar, ruhiy kechinmalar va diniy izlanishlarning manbalarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, uning she’riy va nasriy matnlari mazmunan talqin etilib, undagi ramziy obrazlar, metaforik birliklar va diniy motivlarning ma’nosi ochib berildi. Tadqiqot doirasida qiyosiy-tahliliy metod ham qo‘llanilib, Lavant ijodi Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi zamondosh shoirlar merosi bilan solishtirildi. Bu esa uning poetikasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yordam berdi. Bundan tashqari, struktur-semantik yondashuv asosida Lavant she’riyatining poetik tizimi, obrazlar va motivlar tizimi tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-adabiy kontekst ham inobatga olinib, shoira ijodining XX asr Yevropa adabiy jarayonidagi o‘rni belgilab berildi.

Tahlil va natijalar. Kristine Lavant (asl familiyasi Tonhauzer) 1915-yil 4-iyulda Avstriyaning Karintiya Lavant vodiysida, konchi va tikuvchi oilasida to‘qqizinchi farzand bo‘lib dunyoga kelgan.[1] Uning bolaligi nihoyatda og‘ir moddiy sharoitda va xastaliklar iskanjasida o‘tadi. Lavant skrofuloz (bezgakning bir turi) bilan og‘rigan bo‘lib, bu dard uning ko‘rish va eshitish qobiliyatiga jiddiy zarar yetkazgan. 1948-yildan boshlab u o‘zi tug‘ilgan vodiy nomiga nisbat berib “Lavant” taxallusini qo‘llay boshlagan. Shoira hayotida shifokor Adolf Purtscher va uning rafiqasi Paula alohida o‘rin tutadi. Ular 1924-yilda nafaqat qizaloqning ko‘z nurini saqlab qolishdi, balki uning adabiy iste’dodini birinchi bo‘lib payqab, ijodiy yo‘lini qo‘llab-quvvatlashdi. Lavant o‘zining “Das Kind” (“Bola”, 1948) hikoyasida ushbu mehribon shifokor xotirasini abadiylashtirgan. 1927-yilda, ya’ni o‘n ikki yoshida shoira o‘pka siliga chalinadi. Shifokorlar unga bir yillik umr qolganini aytishgan bo‘lsa-da, tajriba tariqasida o‘tkazilgan kuchli rentgen muolajasi kutilmagan natija berib, u tuzalib ketadi. Biroq bu muolaja asoratsiz qolmaydi: shoiraning yuzi va bo‘ynida ku-

[1] https://www.geschichtewiki.wien.gv.at/Christine_Lavant

yish izlari qoladi hamda bosh qismida kuchli sezuvchanlik paydo bo‘ladi. Shu sababli u umrining oxirigacha boshiga ro‘mol o‘rab yurishga majbur bo‘lgan. Salomatligi yomonligi bois u o‘rta maktabda o‘qiy olmadi, boshlang‘ich ta’limni ham rasmiy diplom olmasdan yakunladi. Oila kambag‘alligi va jismoniy zaifligi sababli Lavant biror kasb-hunarni egallash yoki muntazam ishlash imkoniyatidan mahrum edi.[1] 1930–1931-yillarda u uy xo‘jaligi maktabida o‘qishga urinib ko‘radi, biroq u yerdagi qat’iy diniy tartib-qoidalarga ko‘nikolmasdan, o‘qishni tark etadi. Ushbu hayotiy kechinmalar va ruhiy isyon uning “Maria Katharina” hikoyasida o‘z badiiy ifodasini topgan. Keyinchalik u ota-onasining tor uyiga qaytib, onasidan to‘qish hunarini o‘rganadi. Shoira ko‘p mutolaa qiladi va katta ishtiyoq bilan ijodga kirishadi. Uning ilk she’rlari 1933 va 1935-yillarda mahalliy gazetada chop etiladi. Biroq Gratsdagi nashriyot uning avtobiografik romanini nashr etishdan bosh tortgach, Lavant qattiq tushkunlikka tushib, qo‘lyozmani yo‘q qilib yuboradi.

1935-yilda ruhiy inqiroz sababli o‘z joniga qasd qilishga urinadi va Klagenfurtdagi ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanadi. Ushbu og‘riqli tajriba, keyinchalik, uning mashhur “Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus” (“Ruhiy kasallar shifoxonasidan qaydlar”, 1946) asariga asos bo‘ladi. 1939-yilda u o‘zidan 36 yosh katta rassom Jozef Benedikt Habernigga turmushga chiqadi. Turmush o‘rtog‘i unga ma’naviy tayanch bo‘lsa-da, qishloq ahli shoirani “g‘alati”, hatto “telba” deb hisoblab, undan o‘zini olib qochadi. Natsistlar hukmronligi davrida amalga oshirilgan “evtanaziya” (ruhiy va jismoniy xastalarni yo‘q qilish) siyosati Lavantni qattiq qo‘rqitadi. Xavfni his qilgan shoira barcha qo‘lyozmalarini yo‘q qilib, yozishdan butunlay to‘xtaydi va faqat to‘qish bilan shug‘ullanadi. U urush yillarini “ichki sukutga mahkumlik” davri deb ta’riflagan.[2] Lavant ijodga faqat 1945-yil oxirida qaytadi. Uning 1700 dan ortiq she’r va 1200 sahifalik nasrdan iborat ulkan merosi, asosan, 1946-yildan 1950-yillar oxirigacha bo‘lgan qisqa, ammo nihoyatda samarali davrda yaratilgan. Qiziqarlisi shundaki, bu asarlarning yarmi shoira hayotligida nashr ko‘rmagan. Bugungi kunda uning to‘liq merosi to‘rt jildli izohli asarlar to‘plami holida dunyo yuzini ko‘rgan.[3] Kristine Lavantning she’riyati XX asr nemis adabiyotidagi eng o‘ziga xos va yuksak cho‘qqilardan biri hisoblanadi. Uning nasriy asarlari hali keng kitobxonlar ommasi tomonidan to‘liq kashf etilmagan bo‘lsa-da, mazmunan nihoyatda boy. Lavant o‘z ijodida o‘zi yaqindan bilgan og‘riqli mavzularni, jarohatlangan bolalar va ayollar ruhiyati, qashshoqlik, xastalik, jamiyatdan chetlatilish hamda zo‘ravonlikni mahorat bilan tasvirlaydi. Shu bilan birga, u sevgi va tasavvur kuchining insonni ozod etuvchi qudratiga ham urg‘u beradi. Ijodiy salohiyati bo‘yicha Ingeborg Baxman va Ilse Ayxinger kabi mashhur zamondoshlari bilan bir qatorda turadigan shoira 1973-yil 7-iyunda vafot etgan.[4] Lavant ijodining markazida inson hayotining cheklanganligi hamda Xudodan najot kutish va bunga bo‘lgan shubhaning o‘zaro keskin to‘qnashuvi yotadi. Uning lirikasi, asosan, “men” tilidan so‘zlanib, unda an’anaviy din (xususan, katoliklik)ning inqirozi intellektual tahlil emas, balki kuchli hissiy kechinmalar orqali ifodalanadi. Shoira tabiat hodisalarini mifologik tarzda talqin qilib, ulardan inson o‘zligini anglash ko‘zgusi sifatida foydalanadi. Shoira dunyoqarashiga quyidagi manbalar kuchli ta’sir ko‘rsatgan:

a) Muqaddas kitoblar (Bibliya);
b) Xristian mistiklari (masalan, Mayster Ekxart);
e) Sharqona meditatsiya ta’limotlari;
f) Rayner Mariya Rilke va Georg Trakl kabi shoirlarning ijodiy merosi.

Bu unsurlar uyg‘unligi Lavant she’riyatini ham diniy, ham dunyoviy azoblar iskanjasidagi inson qalbining betakror nolasi sifatida namoyon etadi.[5]

1949-yilda nashr etilgan “Die unvollendete Liebe” (“Tugallanmagan sevgi”) nomli ilk she’riy to‘plamida Kristine Lavant an’anaviy tabiat tasvirlarini o‘zining kelgusi ijodiga xos bo‘lgan vahiyga o‘xshash ohanglar bilan uyg‘unlashtiradi. Garchi bu davrda Rilke uslubining ta’siri sezilsa-da, shoiraning o‘ziga xosligi keskin sub’ektivlik, ong osti kechinmalariga yaqinlik hamda tabiatni sehrli va tahlika ostida tasvirlashida namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda Xudoga bo‘lgan ishonch hali yemirilayotgan dunyoni saqlab qoluvchi kuch sifatida ko‘riladi.[6] Shoiraning haqiqiy poetik ovozi 1956-yilda chop etilgan “Die Bettlerschale”

[1] Carola Leitner: Das verstummelte Leben, orf.at, 04.07.2015 [Biographischer Essay über Christine Lavant]
[2] Doris Moser: „Wenn nicht Himmel dann ordentlich Hölle“. Christine Lavants Leben als Dichterin. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Gedichte (Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 1), 2014, s. 649–677.
[3] Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]
[4] https://www.geschichtewiki.wien.gv.at/Christine_Lavant
[5] Inge Glaser: Christine Lavant. Eine Spurensuche. Wien: Verlag Edition Praesens, 2005.
[6] Klaus Amann: Nachwort. In: Christine Lavant: Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus. Neu hg. und mit einem Nachwort versehen von Klaus Amann. Göttingen: Wallstein 2016, s. 97–136

(“Tilanchi kosasi”) to‘plamida to‘liq shakllanadi. 156 ta she’rni o‘z ichiga olgan ushbu kitobda insoniy azob-uqubatlar markaziy mavzu bo‘lib, tilanchi obrazi dunyoda yolg‘iz qolgan inson mavjudligining ramzi sifatida gavdalanadi. To‘plam mantiqiy ravishda uch qismga bo‘linadi:

1. “Die Feuerprobe”–yolg‘izlik va mehr-muhabbatga tashnalikni ifodalaydi.
2. “Im zornigen Brunnen”–xuddi muqaddas kitoblardagi Ayub payg‘ambar kabi azoblar iskanjasida imon uchun kurashishni ko‘rsatadi.
3. “Das Auferlegte”–ruhiy ziddiyatlarning Xudo irodasiga taslim bo‘lish va sabr bilan yakunlanishini tasvirlaydi.[1]

Lavant she’riyatining shakliy xususiyatlari va o‘ziga xos tili shundaki, asosan, to‘rt misrali qofiyali bandlardan foydalangan, biroq erkin vazndagi uzun matnlar ham uchraydi. Xudoga yaqinlashish yo‘lida o‘z-o‘zini ayblash, qalbidagi borini butunlay oshkora ayta olish ustunlik qiladi, hatto o‘zining ramzlarga boy olamini yaratishda kutilmagan so‘z birikmalarini yasaydi. Jumladan, “Apfelstern” (Olma-yulduz), “Sonnenbaum” (Quyosh daraxti), “Mondrad” (Oy g‘ildiragi). Bu yangi so‘zlar shunchaki bezak emas, balki shoiraning yashirin ma’nolar va sirli obrazlar bilan yo‘g‘rilgan poetik olamini ochib beruvchi kalitlardir. Dinga ishonch tobora muammoli tus olgan sari Kristine Lavant ijodidagi ifoda ohangi ham o‘zgarib boradi, u tantanavor ruhdan tortib, parodiya va hatto shakkoklik darajasigacha yetadi. To‘plamning so‘nggi she’rlarida esa o‘limga intilish motivi markaziy o‘ringa chiqadi. Pietizm an’anasiga ko‘ra, bu o‘lim insonni Xudo tomonidan yuklangan azobli hayotdan ozod qiluvchi yagona kuch sifatida talqin etiladi. 1959-yilda chop etilgan “Spindel im Mond” (“Oy ichidagi ip yigirgich”) to‘plami avvalgi asarlar mavzusini davom ettirsada, unda visioner (vahiyga o‘xshash) va e’tirof ohangi yanada kuchayadi. Bu she’rlarda surrealistik tush manzaralari yaratilib, Oy ong osti, irratsionallik (aqlga sig‘maslik) va inson taqdirini belgilovchi noma’lum kuchlarning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Endi dinga ishonch ham insonni bu g‘ayritabiiy dunyoning arxaik kuchlaridan himoya qila olmaydigan darajaga keladi. 1960-yilda nashr etilgan “Sonnenvogel” (“Quyosh qushi”) to‘plamida avvalgi asarlarga xos bo‘lgan qorong‘i tabiat metaforalari biroz yorqinlashadi. Bu o‘zgarish shoiraning so‘nggi yirik asari “Der Pfauenschrei” (“Tovus qichqirig‘i”, 1962) to‘plamiga o‘tish davri bo‘ldi. Mazkur to‘plamda mistik obrazlar o‘rnini asta-sekin realistik tabiat tasviri egallaydi. Tabiat endi barcha shubha va azoblar bilan parchalanib ketgan inson mavjudligi uchun yagona va so‘nggi boshpana sifatida gavdalanadi.[2] 1960-yillarning oxiriga kelib, surunkali jismoniy xastaliklar va tobora kuchayib borayotgan ruhiy tushkunlik Kristine Lavantni o‘z ijodidan uzoqlashtiradi, natijada u butunlay sukutga cho‘madi. Lavant o‘zining she’riy faoliyatini hech qachon estetik yutuq yoki muvaffaqiyat deb hisoblamagan. U 1962-yilda yozgan maktublaridan birida she’r yozishni “sharmandali ish” deb ataydi va agar sog‘lom bo‘lganida, oilasi uchun mehnat qilishni haqiqiy hayot deb bilishini ta’kidlaydi. Uning nazdida, san’at – bu ojiz hayot va ruhiyatga qarshi gunoh edi. Shu sababli shoira o‘z she’rlarini o‘zini ayblashning yashirin bir ko‘rinishi sifatida qabul qilgan.[3]

Lavant lirikasining asosini Xudo masalasi tashkil etadi. Unda sodda diniy e’tiqod va kutilmaganda yuz beruvchi imon yo‘qolishi xavfi o‘rtasidagi ziddiyatli holat tasvirlanadi. Lavantning keskin shaxsparastligi, ijtimoiy-tarixiy mavzulardan deyarli voz kechishi hamda tasavvurlarining haddan tashqari kuchli xarakteri uni nemis tilidagi poeziya tarixida mutlaqo alohida hodisaga aylantiradi.[4] Shunga qaramay, uning she’riyati chuqur ekzistensial jiddiylik bilan ajralib turadi. Bu ijod insonning tobora murakkablashib va tushunarsiz bo‘lib borayotgan dunyoda yashayotganini anglashidan kelib chiqadi va hayotning so‘nggi ma’nosini izlashga intiladi. Shu jihatdan, Lavant o‘zining betakrorligiga qaramay, modern adabiyot an’analari bilan bog‘lanadi. Bu an’ana inson haqidagi yaxlit va butun tasavvurlarning yemirilishi muammosini asosiy mavzu qilib belgilagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Kristine Lavant ijodi XX asr nemis tilidagi adabiyotning muhim va o‘ziga xos hodisalaridan biri hisoblanadi. Shoiraning og‘ir hayotiy tajribasi, jismoniy va ruhiy iztiroblari uning poetik dunyoqarashini shakllantirgan. Lavant she’riyatida insonning ichki kechinmalari, yolg‘izlik, azob, e’tiqod va umidsizlik o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlar chuqur badiiy ifoda topgan. Uning

[1] Klaus Amann, Fabjan Hafner, Doris Moser [Hg.]: Drehe die Herzspindel weiter für mich. Christine Lavant zum 100.Göttingen: Wallstein, 2015

[2] Klaus Amann: Nachwort. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Erzählungen (Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 2) 2015, s. 788–797

[3] Wieland Schmied: Einleitung. Die Welt der Christine Lavant. In: Christine Lavant: Wirf ab den Lehm. Eingeleitet und ausgewählt von Wieland Schmied. Graz: Stiasny, 1961 (Stiasny-Bücherei, 91), s. 5–19.

[4] Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]

asarlarida diniy motivlar, ekzistensial izlanishlar va ramziy obrazlar uyg‘unlashib, inson ruhiyatining nozik qatlamlarini ochib beradi. Shoira tabiat, mistik tasvirlar va metaforalardan foydalanib, hayotning ma’nosi, inson qismati va Xudo bilan bog‘liq savollarga poetik javob izlaydi. Shu jihatdan, Lavant ijodi nafaqat shaxsiy iztiroblar ifodasi, balki insoniyatning umumiy ruhiy tajribasini aks ettiruvchi adabiy hodisa sifatida qadrlanadi.

Kristine Lavant poetikasi modern adabiyotda individual ruhiyatni, ichki kurashni va ma’naviy izlanishni ifodalovchi noyob uslub sifatida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodi bugungi kunda ham adabiyotshunoslikda chuqur tadqiq etilayotgan, falsafiy va estetik qiymatga ega badiiy meros sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanildan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Doris Moser: „Wenn nicht Himmel dann ordentlich Hölle“. Christine Lavants Leben als Dichterin. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Gedichte (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 1), 2014, s. 649–677

(2). Inge Glaser: Christine Lavant. Eine Spurensuche. Wien: Verlag Edition Praesens, 2005

(3). Klaus Amann: Nachwort. In: Christine Lavant: Aufzeichnungen aus dem Irrenhaus. Neu hg. und mit einem Nachwort versehen von Klaus Amann. Göttingen: Wallstein 2016, s. 97–136.

(4). Klaus Amann, Fabjan Hafner, Doris Moser [Hg.]: Drehe die Herzspindel weiter für mich. Christine Lavant zum 100.Göttingen: Wallstein 2015.

(5). Klaus Amann: Nachwort. In: Zu Lebzeiten veröffentlichte Erzählungen (= Christine Lavant: Werke in vier Bänden, Bd. 2), 2015, s. 788–797

(6). Wieland Schmied: Einleitung. Die Welt der Christine Lavant. In: Christine Lavant, Wirf ab den Lehm. Eingeleitet und ausgewählt von Wieland Schmied. Graz: Stiasny 1961 (= Stiasny-Bücherei, 91), s. 5–19.

(7). Wolfgang Wiesmüller: Christine Lavant. In: Kritisches Lexikon zur deutschsprachigen Gegenwartsliteratur [Stand: 01.01.2001]

Saidova Dildora Farhod qizi (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti; Scorpionlady03@gmail.ru)

ROBERT BYORNS SHE’RIYATIDA LIRIK QAHRAMON TIMSOLINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Robert Byorns she’riyatida lirik qahramon timsolining badiiy ifodalanishi “My Heart’s in the Highlands” she’ri misolida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda lirik qahramon “men”ining vatan sog‘inchi, tabiat bilan uyg‘unligi va erkinlikka intilishi asosiy poetik kategoriyalar sifatida o‘rganiladi. Qolaversa, lirik qahramon tushunchasining she’riyatga kirib kelishi, uninhg nazariy asoslari tadqiq etiladi. Shuningdek, Byorns poetikasining romantizm bilan bog‘liqligi ilmiy asosda yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *lirik qahramon, romantizm, vatan sog‘inchi, tabiat poetikasi, individualism, elegik, milliy o‘zlik, identiklik, dualizm.*

Саидова Дилдора Фарход кизи (докторантка Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека)

ВОПЛОЩЕНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ В ПОЭЗИИ РОБЕРТА БЕРНСА

Аннотация. *В данной статье проводится углубленный анализ художественного выражения образа лирического героя в поэзии Роберта Бернса на примере стихотворения «My heart’s in the highlands». В нем рассматривается лирическое «я» через тоску по родине, гармонию с природой и стремление к свободе как основные поэтические категории. Кроме того, проводится исследование введение концепции лирического героя в поэзию, а также связь поэтики Бернса с романтизмом.*

Ключевые слова: *лирический герой, романтизм, тоска по родине, поэтика природы, индивидуализм, элегия, национальная идентичность, дуализм.*

Saidova Dildora Farhod qizi (PhD student at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek)

THE EXPRESSION OF THE LYRICAL HERO IN THE POETRY OF ROBERT BURNS

Annotation. *This article deeply analyzes the artistic expression of the image of the lyrical hero in the poetry of Robert Burns using the example of the poem “My Heart’s in the Highlands”. The research studies the lyrical “I” as a longing for the homeland, harmony with nature, and the desire for freedom as the main poetic categories. In addition, the introduction of the concept of the lyrical hero into poetry is studied. Also, the connection of Burns’ poetics with romanticism is scientifically highlighted.*

Keywords: *lyrical hero, romanticism, homesickness, poetics of nature, individualism, elegiac, national identity, identity, dualism.*

Kirish. XVIII asr oxiri ingliz ma’rifatchilik davri adabiyotida Shotlandiyalik Robert Byorns va uning ijodi alohida o‘rin egallaydi. Uning she’riyati romantizm va xalqona poetikaning uyg‘unligi bilan ajralib

turadi. Shoir ijodida individual his-tuyg‘ular, insonning ichki dunyosi va tabiat bilan ruhiy bog‘liqlik muhim badiiy kategoriyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Byorns o‘z davri uchun xos bo‘lgan klassitsistik me’yorlardan chekinib, insoniy kechinmalarni sodda va samimiy shaklda ifodalashga intiladi. Shu jihatdan, u romantizmning shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Shoir ijodida turli mavzular, shotland xalqi an’analari, tabiati, o‘sha davr jamiyatidagi voqeliklar, vatan mahorat bilan she’rga solingan. Xususan, uning “My Heart’s in the Highlands” she’ri shoir ijodida vatanparvarlik va sog‘inch motivlarini ifodalovchi muhim asarlardan biri hisoblanadi [7;126-b.]. Mazkur she’rda lirik qahramonning ruhiy holati markaziy o‘ringa chiqadi va uning ichki kechinmalari poetik vositalar orqali ifodalanadi. Qahramon o‘z yurti – Shotlandiya tog‘lariga bo‘lgan cheksiz mehrini izhor etar ekan, uning tasvirida nafaqat shaxsiy sog‘inch, balki milliy ong va madaniy xotira ham aks etadi. Bu esa she’rni oddiy lirik ifodadan yuqori darajaga ko‘tarib, uni umumxalq hissiyotlarini ifodalovchi poetik matnga aylantiradi.

Shuningdek, ushbu asarda lirik “men”ning ikki qatlamli tabiati kuzatiladi, bir tomondan, u individual shaxs sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u umumlashgan milliy obraz sifatida talqin qilinadi. Bu holat Byorns poetikasining o‘ziga xos jihati bo‘lib, unda shaxsiy kechinmalar ijtimoiy va milliy mazmun bilan boyitiladi[3]. Ayniqsa, tabiat tasvirlari orqali qahramonning ichki dunyosi ochib berilishi romantik adabiyotning asosiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – “My Heart’s in the Highlands” she’rida lirik qahramon timsolining qanday badiiy vositalar orqali ifodalanganini aniqlash, uning ruhiy va poetik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqot Burns she’riyatida lirik qahramonning umumlashgan obraz sifatida shakllanish mexanizmlarini ham ochib berishga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda lirik qahramon masalasi hanuz muhim nazariy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, romantizm davri she’riyatida bu obrazning shakllanishi va funksional ahamiyatini o‘rganish muhim ilmiy natijalarga olib keladi. Byorns ijodi esa bu borada boy material beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Robert Byorns ning *“My Heart’s in the Highlands”* she’ri romantik lirika, milliy identitet va lirik subyektivlik nuqtai nazaridan ko‘plab adabiy-tanqidiy tadqiqotlarda muhim obyekt sifatida ko‘rib chiqilgan. Ushbu bo‘limda mazkur asar va undagi lirik qahramon timsoliga oid mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtiriladi.

Avvalo, an’anaviy adabiyotshunoslikda lirik qahramon masalasi M.H.Abrams tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar asosida talqin qilinadi. Unga ko‘ra, lirik she’rdagi “speaker” yoki “qahramon” — bu muallifning to‘g‘ridan to‘g‘ri nusxasi emas, balki badiiy konstruksiya hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Byorns she’ridagi lirik “men” ham individual shaxsdan ko‘ra, umumlashgan hissiy tajriba ifodachisi sifatida qaraladi [1;354–356-b.].

Keyinchalik, xususan, romantizm nazariyasi doirasida, she’riyatda lirik qahramonning ichki dunyosi va subyektivligi markaziy o‘rin egallaydi. T.Eagleton fikriga ko‘ra, romantik she’riyatda tashqi voqelikdan ko‘ra, subyektning ichki kechinmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi [6;50-b]. Bu yondashuv Byorns she’riga ham tatbiq etilib, undagi “Highlands” obrazi real makon emas, balki qahramon ongida qayta qurilgan ideal makon sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, makon va identitet o‘rtasidagi bog‘liqlik H.Bhabha tomonidan ilgari surilgan nazariy konsepsiyalar orqali izohlanganligini ko‘rish mumkin. Bhabha makonni madaniy identitet shakllanishining muhim elementi sifatida ko‘radi [2;20-b.]. Shu asosda, Byorns she’ridagi Highlands obrazi qahramonning milliy o‘zligini belgilovchi asosiy topos sifatida tahlil qilinadi.

Adabiy tahlillarda yana bir muhim yo‘nalish – bu elegik diskurs masalasidir. Ingliz adabiyotshunosi va leksikografi J.A.Cuddon o‘zining adabiy terminoligiyaga bag‘ishlangan lug‘atida elegiyani yo‘qotish, sog‘inch va vidolashuv bilan bog‘liq janr sifatida ta’riflaydi [4;250-b.]. Byorns she’rida “farewell” birliklarining takroriy qo‘llanishi aynan shu elegik ohangni kuchaytiradi va lirik qahramonni nostalgik subyekt sifatida shakllantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa ushbu she’r, ko‘pincha, “spiritual exile” (ruhiy surgun) konsepsiyasi orqali tahlil qilinadi. Bu yondashuvga ko‘ra, lirik qahramon jismonan bir makonda bo‘lsa-da, ruhiy jihatdan boshqa makonga–o‘z vataniga bog‘langan holda yashaydi. Natijada uning shaxsiyati ichki ziddiyat asosida shakllanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, *“My Heart’s in the Highlands”* she’ridagi lirik qahramon individual va kollektiv hissiyotlarni uyg‘unlashtiruvchi subyekt, madaniy o‘zlik ifodachisi, elegik kayfiyatdagi romantik obraz, makon va xotira o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi timsol

sifatida talqin qilinadi. Shu bois mazkur she'rni o'rganish nafaqat romantik lirika xususiyatlarini, balki lirik qahramonning murakkab psixologik va madaniy tabiatini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot Metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Robert Byorns she'riyatida lirik qahramon timsolining ifodalanishini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, unda adabiyotshunoslikning bir nechta samarali metodlari kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi.

Birinchidan, **matn tahlili (textual analysis)** metodi asosiy tadqiqot vositasi sifatida qo'llanildi. Ushbu metod orqali "My Heart's in the Highlands" she'rining poetik tuzilishi, kompozitsion yaxlitligi, ritmik qurilishi hamda stilistik xususiyatlari batafsil o'rganildi. Xususan, lirik "men"ning ifodalanishi, takror (repetition), metafora va obrazlilik kabi badiiy vositalarning funksional ahamiyati tahlil qilindi. Matn ichidagi semantik qatlamlar ochib berilib, lirik qahramonning ichki kechinmalari bilan poetik shakl o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, **komparativ (qiyosiy) metod** yordamida Byorns poetikasi romantizm nazariyasi bilan solishtirildi. Bu jarayonda romantizmga xos asosiy kategoriyalar – individualizm, tabiatga yaqinlik, hissiyot ustuvorligi va ideal makon konsepsiyasi – Byorns she'riyati bilan qiyosiy tahlil qilindi. Natijada shoirning lirik qahramoni romantik adabiyotdagi umumiy tipologik belgilar bilan qanchalik mos kelishi yoki farqlanishi aniqlab berildi.

Uchinchidan, tematik tahlil (thematic analysis) metodi asosida she'rda yetakchi motivlar tizimi ajratib olindi. Xususan, vatan sog'inchi, tabiat obrazlari va erkinlik g'oyalari alohida tematik bloklar sifatida o'rganildi. Har bir motivning lirik qahramon ruhiyatini shakllantirishdagi o'rni va o'zaro aloqadorligi aniqlashtirilib, bu yondashuv orqali asarning mazmuniy yadrosi va g'oyaviy yo'nalishi tizimli ravishda ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kontekstual tahlil elementi ham qo'llanildi. Ya'ni, she'r shotland xalqi tarixiy-madaniy muhiti asosida tahlil etildi. Bu yondashuv Byorns ijodida milliy o'zlik va vatanparvarlik g'oyalarining shakllanishiga yordam berishi aniqlandi.

Bundan tashqari, interpretativ (talqin) yondashuv orqali lirik qahramonning ichki dunyosi, uning subyektiv hissiyotlari va ruhiy holati chuqurroq izohlandi. Bu metod she'rni faqat tashqi struktura emas, balki ichki ma'no qatlamlari orqali ham o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqot materiali sifatida "My Heart's in the Highlands" she'ri hamda Byorns ijodiga oid asosiy ilmiy manbalar tanlab olindi. Xususan, shoirning to'liq she'riy to'plamlari, biografik tadqiqotlar va adabiyotshunoslikka oid nazariy asarlar asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, lirik qahramon timsolini ko'p qirrali va tizimli ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Robert Byorns ijodida Vatan, tabiat va inson qalbi o'rtasidagi uyg'unlik muhim o'rin egallaydi. "My Heart's in the Highlands" she'rida esa ushbu g'oya lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali ochib beriladi. She'rda u jismonan boshqa joyda bo'lsa-da, qalban o'z yurtida – tog'lar bag'rida ekanini ta'kidlaydi. Ushbu she'r romantik lirikaning yorqin namunasi bo'lib, unda lirik qahramonning Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbati va undan ajralish iztirobi ifodalanganligini ko'rish mumkin. Asarda muallif Shotlandiya tog'lari manzarasi orqali inson qalbidagi sog'inch va nostalgik kechinmalarni badiiy tasvirlaydi.

Farewell to the Highlands, farewell to the north,

The birth-place of Valour, the country of Worth [11].

Avvalo, she'rning "Farewell to the Highlands, farewell to the north" satri bilan boshlanishi lirik nutqning asosiy kommunikativ yo'nalishini belgilaydi. "Farewell" birliklarining takroriy qo'llanilishi matnda anaforik parallelizmni yuzaga keltirib, vidolashuv aktini kuchaytiradi. Ushbu stilistik vosita orqali qahramonning psixologik holati – ajralish, yo'qotish va ichki iztirob tuyg'ulari ochib berilib, intensivlashtiriladi. Natijada, lirik qahramon elegik diskurs egasi [1;4;355–251-b.] sifatida shakllanadi, uning nutqi esa nostalgik-retrospektiv xarakter ya'ni o'tmishni eslab, u davrni sog'inish va bo'lib o'tkan voqealarni qayta eslash kabi tuyg'ularni ilgari suradi.

Keyingi satr – "The birth-place of Valour, the country of Worth" – Highlands obrazining semantik transformatsiyasini ochib beradi. Bu yerda makon oddiy geografik hudud sifatida emas, balki qahramonlik (valour) va axloqiy mukammallik (worth) timsoli sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, tepaliklar (Highlands) idealizatsiyalashgan vatan toposiga aylanadi. Lirik qahramonning mazkur makonga nisbatan munosabati uning milliy-madaniy o'zlikni belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Wherever I wander, wherever I rove,

The hills of the Highlands for ever I love [11].

Uchinchi satr – “Wherever I wander, wherever I rove” – harakat semantikasi orqali qahramonning jismoniy holatini ifodalaydi. “Wander” va “rove” fe’llari maqsadsiz, erkin harakatni anglatib, subyektning barqaror makondan uzilganini bildiradi. Bu esa lirik qahramonning makoniy beqarorligini va muayyan darajada ekzistensial izlanish holatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu harakat tashqi bo‘lib, ichki barqarorlik bilan ziddiyat hosil qiladi.

So‘nggi satr – “The hills of the Highlands for ever I love” – semantik jihatdan yakunlovchi va umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi. “For ever” ya’ni, “umrbod” so‘zi orqali hissiy bog‘lanishning abadiyligi ta’kidlanadi. Bu esa qahramonning jismoniy ajralishiga qaramay, uning ruhiy va emotsional markazi o‘zgarmasligini anglatadi. Natijada lirik qahramon sadoqatli va hissiy jihatdan barqaror subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur bandda lirik qahramonni vidolashuv holatidagi elegik ong egasi, vatanni idealizatsiya qiluvchi romantik subyekt, jismoniy jihatdan beqaror, ammo ruhiy jihatdan barqaror individ va kuchli emotsional sadoqatga ega shaxs sifatida shakllanganligini ko‘rish mumkin.

Shu bois, ushbu lirik qahramon timsoli romantik poetikaga xos bo‘lgan ajralish va sadoqat o‘rtasidagi ichki dialektik ziddiyatni o‘zida mujassamlashtirgan kompleks obraz sifatida baholanadi.

My heart’s in the Highlands, my heart is not here.
My heart’s in the Highlands, a-chasing the deer.
A-chasing the wild-deer and following the roe,
My heart’s in the Highlands, wherever I go [11].

R.Byorns she’rining semantik va diskursiv tahlili lirik qahramon ongida murakkab ontologik dualizm mavjudligini ham yanada chuqurroq tasdiqlaydi. “My heart’s in the Highlands, my heart is not here” satri nafaqat oddiy qarama-qarshilik, balki ko‘p qatlamli identitet bo‘linishini ifodalaydi.

Birinchidan, mazkur konstruktsiyada “heart” (yurak) va “here” (bu yer) birliklari o‘zaro semantik oppozitsiyaga kirishadi. “Heart” metaforik jihatdan hissiy markaz, xotira va identitet manbai, ruhiy mavjudlik yadrosi sifatida talqin qilinadi. Aksincha, “here” birlik, jismoniy mavjudlik, majburiy makon, begonalashgan hudud ma’nolarini anglatadi. Natijada qahramon o‘zini jismonan bir makonga “joylashtirilgan” ammo ruhiy jihatdan boshqa makonga “tegishli” subyekt sifatida idrok etadi. Bu holat adabiy-nazariy nuqtayi nazardan dislokatsiyalashgan ong (dislocated consciousness) fenomeni sifatida baholanadi.

Ikkinchidan, ushbu dualizm faqat makoniy emas, balki psixologik va ekzistensial xarakterga ega. Qahramon uchun “Highlands” (Tepaliklar) o‘tmish xotiralari, shaxsiy tajriba, madaniy ildizlar bilan bog‘liq bo‘lsa, “here” hozirgi zamon, majburiy ajralish, ichki begonalashuv holatini ifodalaydi. Shunday qilib, vaqt (past vs present) va makon (home vs exile) o‘rtasida ham kesishgan dual struktura yuzaga keladi.

Uchinchidan, mazkur ikkilik struktura lirik qahramon nutqining butun diskursiga tarqaladi. Xususan, doimiy vidolashuv (“Farewell”) harakatdagi yurak (“a-chasing the deer”) kabi obrazlar ushbu ichki bo‘linishning dinamik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ya’ni, qahramonning jismoniy harakati emas, balki ruhiy ko‘chishi asosiy semantik markazga aylanadi.

To‘rtinchidan, bu holat romantik poetikaga xos bo‘lgan subyektivlikning ustuvorligini real makonda emas balki his-tuyg‘ular orqali idrok etilgan va xotira orqali qayta qurilgan makon sifatida ko‘rsatadi. Shu bois, Highlands real geografik hududdan ko‘ra, ichki psixologik makon (inner landscape) sifatida namoyon bo‘lganligini sezish mumkin. Shunday qilib, ushbu she’rda lirik qahramon makoniy, vaqtli va psixologik jihatdan bo‘lingan ammo ichki va tashqi borliq o‘rtasida uzilish holatida turgan, o‘z identitetini yo‘qotmagan, ammo uni masofadan turib anglayotgan murakkab dislokatsiyalashgan subyekt sifatida shakllanganligini ko‘rish mumkin. Shu orqali mazkur obraz romantik lirika uchun xos bo‘lgan “spiritual exile” (ruhiy surgun) modelining nafaqat mavjudligini, balki uning chuqur psixologik va semantik asosga ega ekanini ham isbotlaydi.

Farewell to the mountains high-cover’d with snow.
Farewell to the straths and green vallies below.
Farewell to the forests and wild-hanging woods.
Farewell to the torrents and loud-pouring floods [11].

Berilgan parchada lirik qahramonning nutqi va ruhiy holati chuqur nostalgik-retrospektiv xarakterga ega bo‘lib, u o‘z ona yurti bilan xayrlashish jarayonida ichki kechinmalarini ifodalaydi. Matn kompozitsion jihatdan takror (anafora) asosida qurilgan: har bir misra “*Farewell to…*” (Xayr bo‘lsin…) iborasi bilan boshlanadi. Bu usul lirik qahramonning hissiy zo‘riqishini kuchaytiradi va xayrlashuv jarayonining izchil,

bosqichma-bosqich kechayotganini ko‘rsatadi. Takror orqali uning ichki iztirobi, ajralish og‘rig‘i yanada ta’sirchan ifodalanadi.

Ushbu parchada lirik qahramon obrazi bu tabiat bilan uzviy bog‘langan, o‘z yurti va makoniga chuqur mehr qo‘ygan shaxsdir. U “tog‘lar”, “vodiylar”, “o‘rmonlar”, “daryolar” kabi tabiiy unsurlarni sanab o‘tadi. Bu yerda tabiat detallarining ko‘pligi shuni anglatadiki, qahramon uchun Vatan faqat geografik makon emas, balki hissiy va ruhiy qadriyatdir. Tabiat obrazlari orqali uning ichki dunyosi ochiladi, shoir o‘z yurtining har qanday tabiat hodisasini ya’ni vodiylari, qor bilan qoplangan tog‘lari, yovvoyi o‘rmonlariyu jo‘shqin daryolarigacha qadrlashini sezishimiz mumkin.

Semantik jihatdan nutq retrospektiv yo‘nalgan, ya’ni qahramon ayni damda ketayotgan bo‘lsa-da, uning ongida o‘tmish manzaralari jonlanadi. Har bir tasvir bu faqat hozirgi manzara emas, balki xotiralar bilan sug‘orilgan timsollardir. Shu bois nutqda nostalgiya (sog‘inch) yetakchi motiv sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, lirik qahramonning holati dramatik-lirik xarakterga ega: tashqi tomondan u shunchaki xayrlashmoqda, ammo ichki qatlamda–bu ruhiy iztirob, ajralish fojiasi. U tabiat bilan xayrlashar ekan, aslida, o‘zining o‘tmishi, xotiralari va ehtimol, o‘z “men”ining bir qismi bilan vidolashayotkandek tuyuladi. Xulosa qilib aytganda, ushbu parchada lirik qahramon o‘z yurti bilan chuqur hissiy bog‘langan, o‘tmishga sog‘inch bilan qaraydigan (nostalgik), voqealarni xotira orqali qayta idrok etuvchi (retrospektiv), ajralish iztirobini boshdan kechirayotgan obraz sifatida gavdalanadi. Bu esa matnga kuchli emotsional va falsafiy mazmun bag‘ishlaydi.

Xulosa. Robert Byornsning *“My Heart’s in the Highlands”* she’rining birinchi bandi asosida olib borilgan tahlil natijalari orqali lirik qahramon timsolining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot jarayonida mazkur obraz romantik poetikaga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlarni – subyektivlikning ustuvorligi, makonning idealizatsiyasi va hissiy tajribaning markaziyligini o‘zida mujassamlashtirganligi aniqlandi.

Xususan, lirik qahramon vidolashuv akti orqali elegik kayfiyatdagi subyekt sifatida shakllanib, uning nutqi yurtini tark etib, uni sog‘ingan va o‘tmishni eslab gapirayotgan inson sifatida tasvirlanadi.Highlands obrazi esa real geografik makondan yuqoriga ko‘tarilib, qahramonning milliy-madaniy identitetini ifodalovchi ideal makon sifatida talqin qilindi. Shu bilan birga, qahramonning jismoniy harakati va ruhiy sadoqati o‘rtasidagi qarama-qarshilik uning ichki murakkabligini ochib berdi. She’r tahlilida lirik qahramon bir vaqtning o‘zida ajralish holatidagi elegik ong egasi, vatanni ideallashtiruvchi romantik subyekt, makoniy jihatdan beqaror, ammo hissiy jihatdan barqaror individ sifatida namoyon bo‘lganligi aniqlandi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, mazkur she’rda yaratilgan lirik qahramon timsoli romantik adabiyot uchun xarakterli bo‘lgan ichki ziddiyat (ajralish va sadoqat), emotsional chuqurlik va makoniy idealizatsiyaning sintezlashgan modelini ifodalaydi. Bu esa asarning nafaqat individual tajribani, balki umumlashgan insoniy kechinmalarni ham aks ettirishini ta’minlaydi.

Natijada ushbu lirik qahramon obrazi o‘quvchi bilan kuchli o‘zlikni anglash imkonini yaratib, she’rning estetik va semantik ta’sir doirasini kengaytiradi hamda uni romantik lirikaning muhim namunasiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abrams M.H., Harpham G.G. A glossary of literary terms. Boston: Cengage Learning, 2015, 350–365 p.

(2). Bhabha H.K. The location of culture. London, Routledge, 1994m 1–25 p.

(3). Robert Burns. The complete poems and songs of Robert Burns. Edinburgh, Canongate Classics, 2009, 512–514 p.

(4). Cuddon J.A. The Penguin dictionary of literary terms and literary theory. London, Penguin Books, 2013, 248–252 p.

(5). Daiches D. Robert Burns. London, Thames and Hudson, 1950, 89–105 p.

(6). Eagleton T. Literary theory: An introduction. Minneapolis, University of Minnesota Press, 2008, 45–60 p.

(7). Leask N. Robert Burns and pastoral: poetry and improvement in late eighteenth-century Scotland. Oxford, Oxford University Press, 2010, 120–135 p.

(8). McGuirk C. (ed.). The Cambridge companion to Robert Burns. Cambridge, Cambridge University Press, 2014, 70–85 p.

(9). Crawford R. Burns and Scottish identity. Studies in Scottish Literature. 1998, №1 (30-jild). 45–60-betlar.

(10). McIlvanney L. Robert Burns and the politics of identity. Journal of British Studies. 2000, №2 (39-jild), 203–222-betlar.

(11). https://www.panmacmillan.com/blogs/literary/robert-burns-poems-scottish-auld-lang-syne

Zaripova Shukurjon Otajon qizi (UrIU "O‘zbek va xorijiy filologiya" kafedrasi stajyor o‘qituvchisi, UrDU 2-bosqich doktoranti; shukurjonzaripova2@gmail.com)

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEVNING "KASOFAT RAQAMLAR" ROMANIDA FOLKLORIZM TALQINI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshevning "Kasofat raqamlar" romanida folklorizm hodisasi tahlil qilinadi. Asarda raqamlar bilan bog‘liq mifologik qarashlar, xalqona tasavvurlar va irim sirimlar badiiy talqini orqali ochib beriladi. Muallif tomonidan qo‘llanilgan folklor unsurlarining obraz yaratishdagi, sujet rivojidagi hamda asarning umumiy g‘oyaviy-badiiy tizimidagi o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, roman matnida raqamlarning ramziy ma'nolari va ularning zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashuvi masalalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida folklorizmning asar badiiyatini boyituvchi muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *folklorizm, qarg‘ish, ramziylik, raqamlar talqini, badiiy asar, obraz, syujet, xalq og‘zaki ijodi, olqish, zamonaviy nasr.*

Зарипова Шукуржон Отаджон кизи (стажер-преподаватель кафедры «Узбекская и зарубежная филология» Уральского государственного университета, Аспирант 2-го года обучения Уральского государственного университета; shukurjonzaripova2@gmail.com)

МИФ ЗА ЧИСЛАМИ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФОЛЬКЛОРА В «КАСОФАТСКОЙ НУМЕРОЛОГИИ»

Аннотация. *В данной статье анализируется феномен фольклора в романе Абдукаюма Юлдошева «Касофатская нумерология». Произведение раскрывает мифологические представления, народные фантазии и тайны, связанные с числами, посредством художественной интерпретации. Изучается роль фольклорных элементов, используемых автором при создании образа, развитии сюжета и общей идеологической и художественной системы произведения. Также анализируются символические значения чисел в тексте романа и их соответствие современному мышлению. В результате исследования установлено, что фольклор является важным фактором, обогащающим художественное качество произведения.*

Ключевые слова: *фольклор, миф, символизм, толкование чисел, произведение искусства, образ, сюжет, народная устная литература, тайна, современная проза.*

Zaripova Shukurjon Otajon qizi (Trainee-teacher of the Department of "Uzbek and Foreign Philology" of the Ural State University, 2nd year doctoral student of the Ural State University; shukurjonzaripova2@gmail.com)

THE MYTH BEHIND THE NUMBERS: INTERPRETATION OF FOLKLORISM IN "KASOFAT NUMEROLOGY"

Annotation. *This article analyzes the phenomenon of folklorism in Abdukayum Yuldoshev's novel "Kasofat numerology". The work reveals mythological views, folk imaginations and secrets related to numbers through artistic interpretation. The role of folklore elements used by the author in creating the image, plot development and the general ideological and artistic system of the work is studied. Also, the symbolic meanings of numbers in the text of the novel and their compatibility with modern thinking are analyzed. As a result of the research, it is substantiated that folklorism is an important factor enriching the artistic quality of the work.*

Keywords: *folklore, myth, symbolism, interpretation of numbers, work of art, image, plot, folk oral literature, mystery, modern prose.*

Kirish (Introduction). Badiiy adabiyotda folklor unsurlarining qo‘llanilishi milliy tafakkur, tarixiy xotira va xalqona dunyoqarashning ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy nasrda folklorizm an'anaviy shaklda emas, balki yangicha talqin va badiiy izlanishlar orqali namoyon bo‘layotgani kuzatiladi. Mazkur maqolada "Kasofat raqamlar" romanidagi folklorizm hodisasi, xususan, raqamlar bilan bog‘liq mifologik qatlam va uning badiiy ifodadagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, folklor unsurlarining asar sujeti, obrazlar tizimi hamda umumiy g‘oyaviy yo‘nalish bilan uzviy aloqasi yoritiladi. Ushbu masalalarni o‘rganish orqali zamonaviy o‘zbek nasrida folklorizmning yangi talqinlari yuzaga chiqayotganini ko‘rsatish maqsad qilib olinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O‘tgan asrning 50–60-yillaridan e'tiboran, yozma adabiyotning folklordan foydalanishi, ta'sirlanishi "folklorizm" degan nazariy termin bilan atala boshlangan. O‘zbek adabiyotshunosligida yozma adabiyotdagi folklorizmning badiiy-poetik xususiyatlari, tasnifi, tipologiyasi masalalari ulkan adabiyotshunos olim B.Sarimsoqovning qator ilmiy-nazariy maqolalarida yoritilgan [1;34–35-b.].

Olim folklorizmlarni poetik tabiyatiga ko‘ra, oddiy va murakkab turlarga ajratdi hamda murakkab folklorizmlarni analitek, sintezlashgan va stilizatsiya xarakteridagi ko‘rinishlarga bo‘ladi. Xususan, olimning bu sohadagi izlanishlarini shogirdi I.Yormatov davom ettirib, folklorizmlarning tipologik xususiyatlari va stilizatsiya xarakteridagi ko‘rinishlarini izohlaydi [2;55–58-b.]. L.Sharipova esa yozma adabiyotda “folklor an’analari” emas, aynan folklorizmlar mavjud bo‘lishini, ya’ni folklordan yozma adabiyotga ko‘chgan janr, motiv,obraz, ritm va ifoda shakllari adabiy matn tarkibidagi qayta estetiklashgan holda yashashini ta’kidlaydi. U stilizatsion folkorizmlarni janr, motiv, obraz va ritm stilizatsiyasiga ajratadi [3;18-b.]

Abduqayum Yo‘ldoshev ijodi bo‘yicha ilmiy kuzatishlarda ham aynan shu jihat alohida ko‘zga tashlanadi. Adib hikoyalarida oddiy folklorizm, qayta ishlangan oddiy folklorizm, analitik folklorizm, murakkab folklorizm, motiv, obraz, janr va ritm stilizatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy-etnografik folklorizmlar atroflicha ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotlar silsilasi shuni ko‘rsatadiki, adib nasrini folklorizmlar masalasidan chetda turib o‘qish mumkin emas. Mazkur maqolaning maqsadi Abduqayum Yo‘ldoshev ijodida folklorizmlarning faqat mavjudligini qayd etish emas, balki ularning badiiy vazifasini ko‘rsatishdir. Chunki folklorizmni oddiy sitata yoki bezak deb tushunish katta xato bo‘ladi. Haqiqiy folklorizm yozuvchi tafakkuri orqali qayta ishlanib, badiiy matnning ichki qonuniyatiga singganida poetik hodisaga aylanadi. Abduqayum Yo‘ldoshevda folklorizm aynan mana shunday ichki, organik shaklda namoyon bo‘ladi. Uning nasrida xalqona hikoya qilish ritmi, maqol va matallar, duo va olqishlar, qahramon nutqining tabiiyligi, ertakona va afsonaviy motivlarning zamonaviy voqelikka moslab talqin qilinishi milliy ruhni chuqurlashtiradi, lekin matnni arxaiklashtirib qo‘ymaydi. Bu adib mahoratining eng nozik nuqtasidir.

“Kasofat raqamlar” bu oddiy adabiy asar emas, ogohlantiruvchi badiiy-falsafiy manifestdir. Abduqayum Yo‘ldoshev o‘quvchini zamonaviy raqamli dunyoda o‘zligini yo‘qotmaslikka, insoniy qadriyatlarni asrashga chaqiradi. Asarda “raqamlar” ramziy ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, ular zamonaviy ja-miyatda insoniyat hayotni boshqarayotgan, lekin asta-sekin insoniylikni so‘ndirayotgan kuch sifatida talqin etiladi. Ra-qamlar – bu texnologiya, sun’iy ong, foyda va moddiylikni ifodalaydi. Muallif ana shu “raqamlar dunyosi” da insoniy tuyg‘ular, halollik vijdon, mehr kabi qadriyatlarning qadrsizlanib borishini fosh etadi. Asarda istalgan turdagi raqamlarni noodatiy usulda oldindan ko‘ra oladigan Akbar ismli yosh yigitning g‘ayritabiiy bu qobiliyatini maktabdagi kimyo fani o‘qituvchisi Nazokat opa tomonidan favqulodda kashf etilishi bilan boshlanadi. Uning bu qobiliyatidan Nazokat opaning o‘zi ham, bir vaqtlar mashhur akrobat-sirkchi bo‘lgan, hozir esa ichkilikka ruju’ qo‘ygan ukasi Jonuzoq (Jon Zak) ham maqsadlari yovlida foydalanib ko‘rishadi. Tobora bu “noyob qobiliyat”dan o‘z oldiga qing‘ir yo‘llar bilan pul topishni maqsad qilgan qabih niyatli kimsalar ham xabar topishadi.

Muvaffaqiyat uchun alohida xususiyat kerakmi yo mehnatning o‘zi birlamchi vosita hisoblanadimi? Ya’ni favqulodda iste’dod baxt, rohat-farog‘atga to‘la hayot kaliti bo‘la oladimi? Umuman odam g‘ayritabiiy imkoniyatkaridan foydalanishi lozim: faqat o‘zi uchunmi boshqalar bilan birgalikdami? Ushbi romanda o‘zgacha xislatli yigitning dolg‘ali kechmishlari orqali shu tarzdagi murakkab savollarning javoblari izlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda adabiyotshunoslikning zamonaviy yondashuvlari asosida tahlil olib borildi. Xususan, asarni o‘rganishda komplieks yondashuv tamoyiliga tayangan holda analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, biagrafik, structural tahlil kabi ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalarida uchraydigan folklorizmlarning birinchi va eng ko‘p ko‘rinadigan qatlami oddiy folklorizmlardir. Bular, asosan, maqol, matal, xalqona ibora, idiomatik ifoda, duo, olqish va qarg‘ishlarning matnga tabiiy singdirilishi orqali yuzaga keladi. “Kasofat raqamlar” romanida *“bir tuki qilt etmay o‘tiraveradi..”, “enasi ko‘pning bolasi ko‘p deyishadi”, tilini tishlab qoldi”, “gadoning dushmani, gado bo‘ladi”, “tirnoqqa zor”, “tagini ho‘llab qo‘ygan boladay”, “qora kunlar”,“jinning bandisiga aylandi, qoldi”, “qisir sigir”,“qiyomat qoyim qo‘pdi”, yeyishga chidasang to‘y qil, o‘lishiga chidasang qo‘y qil, qarziga chidasang magazin qil-da”, “onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatish”, “holiga maymunlar yig‘lamoq”, “osmon qo‘lingizda bo‘lsa, tashlab yuboring”, “suvga olib borib, suvsiz qaytarmoq”* kabi folklorizmlar roman kontekstida kata mahorat bilan ishlatilib, ular yozuvchining niyatini, qahramon ruhiyatini, milliy koloritini maishiy hayotiy lavhalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Adib ijodidagi ikkinchi muhim qatlam analitik folklorizmlardir. O‘zbek adabiyotshunosligida bu turga, odatda, duo, olqish, qarg‘ish, fotiha kabi xalq og‘zaki ijodining kichik, ammo semantik jihatdan juda quvvatli shakllari kiritiladi.

Asar matnida "– *Ur!-m deydi o‘shqirib – qo‘lingdan kelsa ur! San ham erkakmisan, hajiqiz!* [4;31-b.] so‘kishi Jonuzoq nutqida uchraydi. U ichib olib, magazinchi Ergash akani quruq tuhmatga tortib tashlagan paytiaytilgan. Qarg‘ishlar odatda, kishi qattiq ranjiganda, biron narsadan norozi bo‘lib, isyonini ifodalash paytida, olqish-duolar esa otaxonlar, onaxonlar nutqida ishlatilsa, so‘kishlar erkak repertuariga xos ijro jarayoni hisoblanadi. So‘kishlar, asosan, kishining jahli chiqqanida aytiladi.Bundan tashqari romanda *"padaringa ming la'nat","ablah, Rayim oqsoqol","onamning arvohi ursin","qismatiga la'natlar o‘qimoq", "nokas! Xotin emas, yuho", "xumparlar"* kabi so‘kish va qarg‘ishlar mavjud.

Adibning mahorati shundaki, u folklorizmlarni sun'iy ravishda joylashtirmaydi. Folklorizmlar matnning ichki ehtiyojidan kelib chiqadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Abduqayum Yo‘ldoshev ijodida folklorizmlar adib poetikasining markaziy unsurlaridan biridir. Ularni faqat xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilish deb emas, balki milliy tafakkur shakllarini zamonaviy nasr strukturasiga singdirish usuli deb tushunish kerak. "Kasofat raqamlar" romanida folklorizm hodisasi, xususan oddiy va murakkab folklor unsurlarining badiiy talqini tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asarda folklorizmlar nafaqat bezak elementi sifatida, balki muhim g‘oyaviy-badiiy vazifani bajaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida folklorizm hodisasini yanada kengroq qamrovda o‘rganish, turli yozuvchilar ijodi misolida qiyosiy tahlillar olib boorish maqsadga muvofiq.

Adabiyotshunosliktadqiqotlarida raqamlar ramziyligi va mifologik tafakkur masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'lim jarayonida zamonaviy asarlar misolida folklorizmni tahlil qilishga oid amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологиясига доир. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1980, 34–35-betlar.

[2]. Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 1982, 2-con, 55–58-betlar;

[3]. Шарипова Л. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар. Тошкент, "Фан", 2011, 18-bet..

[4]. Yo‘ldoshev A. Kasofat raqamlar. "Yangi asr avlodi", 2023, 31-bet.

Atadjanova Sevara Bekmuratovna (Toshkent davlat Transport universiteti;
E-mail: sevaraatadjanova89@gmail.com)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA SAYOHATNOMA JANRINING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek adabiyotida sayohatnoma janrining shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy omillar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi mustamlakachilik siyosati, milliy uyg‘onish va ma'rifatparvarlik g‘oyalari janrning badiiy-estetik qiyofasini belgilagan asosiy omillar sifatida yoritiladi. Muqimiy, Zavqiy, Hayratiy, Ahmad Donish, jadid adiblari hamda sovet va mustaqillik davri yozuvchilarining sayohat asarlari qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganildi. Tadqiqotda sayohatnoma o‘zbek adabiyotida safar tasvirigina emas, balki milliy identitet, ijtimoiy tanqid va madaniy xotirani ifodalovchi muhim badiiy shakl ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sayohatnoma, travelog, milliy identitet, tanqidiy realizm, ma'rifatparvarlik, jadid adabiyoti, badiiy publitsistika, mustamlaka davri, madaniy xotira, safar motivi, adabiy janr.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖАНРА ПУТЕВЫХ ЗАМЕТОК В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. *В статье анализируются становление и развитие жанра путевых заметок в узбекской литературе в связи с историческими, общественно-политическими и литературными факторами. Колониальная политика, национальное пробуждение и просветительские идеи конца XIX – начала XX века рассматриваются как основные факторы, определившие художественно-эстетический облик жанра. На сравнительно-аналитической основе исследованы путевые произведения Мукими, Завки, Хайратий, Ахмада Дониша, представителей джадидской литературы, а также писателей советского периода и периода независимости. В исследовании обосновывается, что жанр путевых заметок в узбекской литературе является не только описанием путешествий, но и важной художественной формой выражения национальной идентичности, социальной критики и культурной памяти.*

Ключевые слова: *путевые записки, travelogue, национальная идентичность, критический реализм, просветительство, джадидская литература, художественная публицистика, колониальный период, культурная память, мотив путешествия, литературный жанр.*

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF THE TRAVELOGUE GENRE IN UZBEK LITERATURE

Progressiv darajalar metodi (Level-Based Learning). Progressiv darajalar metodi o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Bu metod kompyuter o‘yinlaridagi darajalar tizimiga asoslanadi. Har bir daraja muayyan bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi hamda keyingi bosqichga o‘tish uchun oldingi topshiriqlar muvaffaqiyatli bajarilishi zarur. Masalan:

1-daraja: Kompyuterning asosiy qurilmalari;

2-daraja: Operatsion tizim va fayllar bilan ishlash;

3-daraja: Algoritmlar va blok-sxemalar;

4-daraja: Dasturlash asoslari;

5-daraja: Loyihaviy ishlar.

Ushbu metod o‘quvchilarda maqsadga intilish, o‘z ustida ishlash va natijaga erishish motivatsiyasini shakllantiradi. Darajalar tizimi orqali har bir o‘quvchining individual rivojlanish sur’atini hisobga olish imkoniyati yaratiladi.

Reyting va mukofotlash tizimi. Gamifikatsiyaning muhim elementlaridan biri reyting va mukofotlash tizimidir. Ballar, badge (nishonlar), sertifikatlar va liderlar jadvali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Ushbu tizim sog‘lom raqobat muhitini yaratib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Misol uchun, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajargan o‘quvchilarga ball berish; eng faol o‘quvchilarga “Eng yaxshi dasturchi” nominatsiyasini taqdim etish; chorak yakunida rag‘batlantiruvchi sertifikatlar berish.

2.1. Platformalar. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan platformalar informatika fanini samarali o‘qitishda innovatsion vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday platformalar interaktiv darslar yaratish, o‘quvchilarning bilimini baholash, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Quyida informatika faniga mos bo‘lgan zamonaviy gamifikatsiya platformalari keltiriladi.

Articulate Storyline platformasi informatika fanida ssenariy asosidagi topshiriqlarni yaratishda keng imkoniyatlarga ega. Ushbu platforma yordamida interaktiv darslar, shartli o‘tishlar, ball va daraja tizimlarini joriy etish mumkin. Storyline dasturi o‘quvchilarning qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, informatika darsida o‘quvchilar “Dasturchi” yoki “Tizim administratori” rolida berilgan muammolarni hal etishlari mumkin. Bu esa ularning qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, platforma SCORM va xAPI standartlarini qo‘llab-quvvatlagani sababli, masofaviy ta’lim tizimlari bilan integratsiya qilinadi.

H5P platformasi interaktiv kontent yaratish uchun qulay vosita bo‘lib, u informatika darslarida video asosidagi topshiriqlar, testlar va muammoli vaziyatlarni tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, branching scenario funksiyasi yordamida o‘quvchilarning tanlovlariga bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonini yaratish mumkin. Ayniqsa, Branching Scenario funksiyasi orqali o‘quvchilarning tanlovlariga bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonini yaratish mumkin. Bu funksiyada har bir qaror turli natijalarga olib keladi. Masalan, “Kompyuter nosozligini aniqlash” yoki “Tarmoq xavfsizligini ta’minlash” kabi topshiriqlarni interaktiv tarzda ishlab chiqish mumkin. Natijada o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Deck.Toys platformasi o‘quv jarayonini o‘yin xaritasi ko‘rinishida tashkil etish imkonini beradi. Ushbu platforma orqali o‘quvchilar bosqichma-bosqich vazifalarni bajarib, keyingi darajalarga o‘tadilar.

Bu yondashuv informatika fanida mavzular ketma-ketligini mantiqiy asosda tashkil etishga yordam beradi. Masalan, informatika darsida “Algoritmlar olamiga sayohat” nomli o‘yin tashkil etilib, o‘quvchilar har bir bosqichda muayyan vazifalarni bajaradilar. Vazifalar muvaffaqiyatli bajarilgach, ular keyingi darajaga o‘tadilar. Bu esa mavzular ketma-ketligini mantiqiy asosda o‘zlashtirishga yordam beradi.

1-jadval

Platforma	**Asosiy yo‘nalishi**	**Afzalligi**
Articulate Storyline	Ssenariy asosidagi interaktiv kurslar	Professional va funksional
H5P	Interaktiv kontent yaratish	Bepul va moslashuvchan
Deck.Toys	O‘yin xaritasi asosidagi darslar	Qiziqarli va motivatsion

2.2.Dars modeli. Gamifikatsiyalangan informatika darsini tashkil etishda darsning barcha bosqichlari oldindan rejalashtirilishi lozim. Dars kirish qismida o‘quvchilarga umumiy ssenariy va maqsad tushuntiriladi. Asosiy qismda esa darajalar asosida tashkil etilgan amaliy topshiriqlar bajariladi.

Masalan, “Algoritmlarni tuzish” mavzusida tashkil etilgan darsda o‘quvchilar ketma-ket vazifalarni bajarish orqali virtual loyihani yakunlashga harakat qiladilar. Har bir muvaffaqiyatli bajarilgan topshiriq uchun ball beriladi va o‘quvchi keyingi darajaga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Dars yakunida o‘quvchilarning faoliyati tahlil qilinib, ularning erishgan natijalari muhokama qilinadi. Bu jarayon o‘quvchilarda refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3. Results (Natijalar). Informatika fanida gamifikatsiya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. O‘yin elementlari bilan boyitilgan topshiriqlar o‘quvchilarda darsga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirib, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Natijada o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliy vazifalar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Gamifikatsiyalangan muhitda o‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va yechim topish jarayonida faol ishtirok etadilar. Bu esa informatika fanida muhim bo‘lgan algoritmik va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gamifikatsiya asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Ball, daraja va ssenariy asosidagi vazifalar o‘quvchilarda maqsadga intilish hissini shakllantirib, bilim olish jarayonini qiziqarli faoliyatga aylantiradi. Ayniqsa, informatika fanida xatolar orqali o‘rganish mexanizmi o‘quvchilarning xato qilishdan qo‘rqmasdan, tajriba qilishiga imkon yaratadi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi oshib, ularning mavzuni tushunish va amaliy qo‘llash qobiliyatlari rivojlanadi. Gamifikatsiya dars mazmunini soddalashtirmasdan, balki uni tushunarli va qiziqarli shaklda taqdim etishga xizmat qiladi.

Muhokama (discussion). Gamifikatsiya texnologiyalari o‘qituvchiga dars jarayonini moslashuvchan tashkil etish imkonini beradi. Raqamli platformalar yordamida o‘quvchilarning individual rivojlanish darajasini kuzatish, ularning yutuqlarini baholash va zarur hollarda qo‘shimcha topshiriqlar berish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, gamifikatsiyalangan darslar o‘quvchilarda jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini asoslab berish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa informatika fanini o‘qitishda nafaqat bilim berish, balki shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, informatika fanini o‘qitishda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining muhim va istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, ularning bilimlarni chuqur va ongli ravishda o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Gamifikatsiya elementlari – ball tizimi, darajalar, ssenariy asosidagi vazifalar va mukofotlash mexanizmlari orqali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi hamda ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Mazkur maqolada gamifikatsiya asosidagi innovatsion metodlar, jumladan ssenariy asosidagi o‘qitish, darajalar tizimi va reyting mexanizmlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli platformalar orqali dars jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy

etish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi va ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, gamifikatsiya nafaqat ta’lim jarayonini qiziqarli qilish vositasi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijodkorligi va mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik texnologiyadir. Shu sababli informatika fanini o‘qitishda gamifikatsiya elementlaridan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification”. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011, p. 9–15.

(2). Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction. Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. – San Francisco: Pfeiffer, 2012, p. 336.

(3). Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies // Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences. 2014, p. 3025–3034.

(4). Zichermann G., Cunningham C. Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. Sebastopol, O‘Reilly Media, 2011, p. 208.

(5). Gee J.P. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. New York, Palgrave Macmillan, 2007, p. 256.

(6). Prensky M. Digital Game-Based Learning. New York, McGraw-Hill, 200, p. 442.

(7). Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. Philadelphia, Wharton Digital Press, 2012, p. 148.

(8). Seaborn K., Fels D.I. Gamification in theory and action: A survey. International Journal of Human-Computer Studies. 2015, vol. 74, p. 14–31.

(9). Domínguez A. va boshq. Gamifying learning experiences. Practical implications and outcomes. Computers & Education. 2013, vol. 63, p. 380–392.

(10). Xu Y. Literature review on web application gamification and analytics. Hawaii International Conference. – 2012.

(11). Uralov Sh., Xasanov A. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Fan”, 2020, 150-bet.

(12). Yuldashev O‘., Xodjayev B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2019, 180-bet.

(13). Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. Toshkent, “Fan”, 2018, 200-bet.

(14). Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2017, 160-bet.

(15). Abduqodirov A.A. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2021, 180-bet.

(16). ScienceDirect elektron kutubxonasi. URL: https://www.sciencedirect.com

(17). ResearchGate ilmiy platformasi. URL: https://www.researchgate.net

(18). Google Scholar ilmiy qidiruv tizimi. URL: https://scholar.google.com

(19). Edutopia ta’lim platformasi. URL: https://www.edutopia.org

Davletov Mayliboy Yusupovich (Urganch davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi)

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI TARIXI VA ULARNING TALABALARDA KASBIY-MA’NAVIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq cholg‘ularining shakllanish tarixi, ularning o‘tmish allomalari asarlarida tutgan o‘rni va tarixiy taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, XX asrda cholg‘ularni takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlar, xususan, urma, damli va tilchali cholg‘ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari va talabalarda milliy cholg‘u ijrochiligi orqali kasbiy-ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalq cholg‘ulari, musiqa ta’limi, pedagogik texnologiya, kompetensiya, urma cholg‘ular, damli cholg‘ular, Alisher Navoiy, organologiya, milliy qadriyatlar.*

Давлетов Майлибой Юсупович (Независимый исследователь Ургенчского государственного педагогического института)

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ДУХОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье освещается история формирования узбекских народных инструментов, их роль в произведениях великих мыслителей прошлого и этапы исторического развития. Анализируются научно-практические работы по совершенствованию инструментов в XX ве-*

ке, в частности, специфические особенности ударных, духовых и язычковых инструментов. В статье обосновано педагогическое значение формирования профессионально-духовных компетенций у будущих учителей музыки и студентов посредством национального инструментального исполнительства.

Ключевые слова: *узбекские народные инструменты, музыкальное образование, педагогические технологии, компетенция, ударные инструменты, духовые инструменты, Алишер Навои, органология, национальные ценности.*

Davletov Mayliboy Yusupovich (Independent researcher at Urgench State Pedagogical Institute; mayliboydavletov@gmail.com)

HISTORY OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THEIR PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL AND SPIRITUAL COMPETENCES IN STUDENTS

Annotation. *This article highlights the history of the formation of Uzbek folk instruments, their role in the works of great scholars of the past, and the stages of historical development. Scientific and practical work carried out in the 20th century to improve instruments, particularly the specific features of percussion, wind, and reed instruments, are analyzed. The article substantiates the pedagogical significance of forming professional and spiritual competencies in future music teachers and students through national instrumental performance.*

Keywords: *Uzbek folk instruments, music education, pedagogical technologies, competence, percusssion instruments, wind instruments, Alisher Navoi, organology, national values.*

Kirish. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy madaniy merosi ichida milliy cholg‘u ijrochiligi san’ati alohida o‘rin tutadi. Tarixiy taraqqiyot davomida o‘zbek xalq cholg‘ulari nafaqat musiqiy tovush taratuvchi vosita, balki xalqning ma’naviy olami, estetik qarashlari va milliy o‘zligini ifodalovchi muhim omil bo‘lib xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda jahon sivilizatsiyasi integratsiyalashgan bir davrda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yosh avlodga yetkazishda musiqa ta’limining roli beqiyosdir.

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishga davlat darajasida katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda nafaqat ijrochilik mahoratini, balki ularning nazariy va tarixiy bilimlarini boyitish ham muhim vazifa hisoblanadi. Talabalarda milliy cholg‘ular tarixi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish orqali kasbiy-ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirish, ularda vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini kamol toptirish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, o‘ziga xos shakllangan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos cholg‘u asboblari shakllanib, arslar osha rivojlanib kelgan. O‘tmish allomalari Al-Forobiy (IX) o‘zining «Katta musiqa kitobi»da, Safiuddin Urmaviy (XII) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iy (XIV) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI) «musiqa risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg‘ularning o‘rganib tadqiq etish masalalarining turli tomonlariga to‘xtalib, o‘z davrlarining musiqiy cholg‘ulari tasnifotini bayon etganlar [1;305-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek milliy cholg‘ulari rivojini o‘rganishda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida tarixiy-qiyosiy tahlil, manbalarni o‘rganishda organologik va manbashunoslik metodlari, shuningdek, cholg‘ularning ta’lim tizimidagi o‘rnini belgilashda pedagogik kuzatuv va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘tmishning zabardast shoirlari o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, o‘z ijodi bilan ma’rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg‘u berib o‘tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin.

XX asrga kelib, Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyaev kabi olimlar musiqiy cholg‘ularni o‘rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar [2;117-b.].

Talabalarda xalq cholg‘u ijrochiligi tarixini o‘rgatish orqali kasb ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy jihatlari, shaxsning individual o‘ziga xosliklari, xalq cholg‘ulari orqali talabalarda musiqiy ijodkorlikni shakllantirish muammosiga tarixiy yondashuvlarida musiqa cholg‘ulari so‘nggi paleolit davrida (mil.avv.40–12-ming y.) paydo bo‘lgani qayd etilgan [3;12-b.].

Qadimgi doirasimon cholg‘u vositalari diniy marosimlarda muhim o‘rin tutganligi, torli damli chol-g‘ulari ham maishiy ehtiyojdan kelib chiqqanligi, torli asboblarning kelib chiqishini esa olimlar ov quroli bilan bog‘lashlari kabi qator ma’lumotlar dalillar bilan keltirilgan [4].

XIX asr oxiri va XX asrning o‘zida o‘zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste’molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini sezilarli darajada boyitdi. Afg‘on rubobi hamda kurd sozlari ham o‘ziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib o‘rin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bog‘liq holda bir qator chang, rubob, dutor, g‘ijjak kabi xalq cholg‘ularining oilaviy namu-nalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jarayonga kelib, musiqiy cholg‘ularning turli yo‘nalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda an’anaviy, qayta ishlangan, takomillashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qo‘llanilmoqda [5;20-b.].

O‘zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg‘ularining 30 ta-dan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg‘ular XX asrning 40-yillaridan keyin profes-sor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassis va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtiril-gan musiqiy cholg‘ular bo‘lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, orkestr va ko‘p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo‘ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo‘lgan milliy musiqiy cholg‘ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko‘rinishga keltirish asosida yaratilgan bo‘lib, o‘sha cholg‘u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g‘ijjak chol-g‘ularining oilasi dunyoga keldi [6;18-b.].

Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida tarqalgan urma musiqa cholg‘ularidan biridir. Bir-biriga urilib cha-linadigan asboblardan – qayroq, yog‘och qoshiq, qo‘ng‘iroqchalarni (raqsga tushganda qo‘l va oyoqlarga kiyiladi) eslatib o‘tish mumkin.

Qayroq suv bo‘ylaridan topiladigan silliq va yupqa tosh qayroqchalardir. Raqqos va raqqosalar o‘ng va chap qo‘llariga juft-juft qayroqlarni ushlab, musiqa usullarinichertib, o‘z raqslarini bezatib, jilo beradi-lar. Qayroqda ijro etishning qulayligi uchun qayroq jufti yupqa temirlardan bo‘ladi. Shunda qayroqlar raq-qoslarning qo‘llaridan tushib ketmaydi.

O‘zbekiston, Tojikiston va Xitoyda keng tarqalgan shiqildoq tuzilishidagi urma cholg‘u asbob. Safo-yil ikki bo‘lak qattiq yog‘och kaltakchasidan iborat. Bu kaltakchaga ikkita temir aylanaga mayda temir hal-qachalar o‘rnashtirilgan. Safoyilni silkitib, yelkaga urib, shovqinli, turli murakkab tovush chiqariladi. Bu cholg‘u Qashqar va G‘uljadan O‘zbekistonga kirib kelgan.

Safoyil uyg‘ur xalqining milliy cholg‘ularidan bo‘lib, raqsga tushganda erkak raqqoslar qo‘lida yelkaga urib chalinadi. Ijro etilayotgan musiqa usuliga moslaydi. Safoyil ko‘proq raqslarda qo‘llaniladi.

Uyg‘ur xalqining sho‘x qo‘shiqlari, raqslaridan xabardormiz. Shu raqs turlaridan biri yigit va qiz raq-sidir. Raqs duetida albatta yigit qo‘lida safoyil bo‘ladi va uni zo‘r joziba bilan ishga soladi. O‘zbekistonlik uyg‘ur sozandalar ansambllaridan safoyil cholg‘usi mustahkam o‘rin olgan.

Cholg‘ularning vana bir turi ikki lab orasiga qo‘yilib, o‘ng qo‘l barmoqlari bilan chalinadigan chol-g‘u. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig‘iga po‘lat til o‘rnatilgan bo‘ladi, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirilib to‘lqinlantiriladi. Og‘iz bo‘shlig‘i tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va ok-tava hajmi oralig‘ida tovush beradi.

Changqovuz metalldan tayyorlangan juda sodda cholg‘u bo‘lib, sozandadan yuksak ijro mahoratini talab qilmaydi. Bundan tashqari, changqovuzda kuy ijro etish imkoniyati ham nihoyatda chegaralangan. Bu azaldan ayollar cholg‘usi hisoblanib kelgan.

XX asrning 1960-yillariga qadar O‘zbekistonning deyarli ko‘p joylarida changqovuz ayollarning eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘usi bo‘lgan. Changqovuz turkiy qabila xalqlarining barchalarida, shuning-dek, slavyanlarda, hatto roman-german xalqlarida ham uchraydi. Qadimda changqovuzlar tuya suyagidan ham yasalgan, degan ma’lumotlar bor. Hozirda changqovuzning eng mohir erkak ijrochisi surxondaryolik Juma Abrayqulov hisoblanadi (Changqobiz Buyuk Kushoniylar imperiyasi davridan keyin mavjud bo‘l-gan).

Urib chalinadigan o‘zbek xalq cholg‘ularidan. Nog‘ora sopoldan yasalib, ustiga echki yoki kiyik te-risi qoplanadi. Nog‘oraning, ko‘pincha, ikkitasi chalinadi; hajmi jihatidan birinchisi ikkinchisiga nisbatan kichikroq bo‘ladi. Nog‘oralardan birinchisi (kichigi) – bak, ya’ni, baland, ikkinchisi – bum, ya’ni past to-vush beradi.

Nog‘ora olov yoki oftobda qizdirilib, tovushi balandlashtiriladi. Turli bayram, sayil va ko‘pchilik to‘plangan yig‘ilishlarda katta nog‘ora ishlatiladi. Buni *ko‘s* nog‘ora deb atashadi. Nog‘ora tuvaklarining teri tortilgan qismiga maxsus cho‘plar bilan urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi.

Nog‘oraning sadosi juda kuchliligi uchun ham undan faqat ochiq havoda ijro etiladigan karnay-surnay, doyra cholg‘ulari bilan birgalikdagi ansambl tarkibida foydalanishadi. Nog‘orada, asosan, ikkita tovush (bak va bum) bo‘lgani uchun ham uning notalari bir chiziqda yoziladi**.**

O‘zbek, tojik va uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg‘u asbobdir. Diametri taxminan 400 mm, gardishi ilgarilari uzum zangidan qilingan, so‘nggi vaqtlarda yog‘ochni egib yoki kichik yog‘och bo‘lakchalarini bir-biriga ulab yasalmoqda. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi qirqdan ortiq halqachalar taqilib, bular doyrani chalganda qo‘shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past “bum” (Xorazmda “gup”), ikkinchisi baland “bak” (Xorazmda “toq”) deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita qisqa tovush “bakko” yoki “bachka” (“tak-tak”) yoki “baka” (“taka”) deb yuritiladi. Doyra keng tarqalgan cholg‘ulardan bo‘lib, unda turli ansambl*,* orkestr va yakka holda ijro qilinadi. Doira jo‘rligidagi raqslar o‘zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan.

Doyra tovushlari notada bir chiziqqa yoziladi. Doyra–o‘zbek musiqiy ijrochiligida usul beruvchi eng asosiy cholg‘u hisoblanadi, nafaqat ansambl yoki orkestr ijrosini, hatto ko‘pgina yakka cholg‘uchilar ijrosini ham doyra jo‘rligisiz tinglash qiyin. Bundan tashqari, doyra O‘zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg‘ulardan biridir. Uni xalq ichida keng ommalashuvida Usta Olim Komilov, G‘ofir Azimov, Qahramon Dadayev, aka-uka Islomovlar, Odil Kamolxo‘jayev, Ilhom Ikromov kabi qator doyrachilarning xizmatlari katta.

Sibizg‘a yoki sibiziq juda qadimiy musiqiy cholg‘ulardan biri ekanligi ma’lum bo‘lib, u chorvachilik rivojlangan hududlarda paydo bo‘lgan, deb taxmin qilinadi. Sibizg‘a g‘arov qamish bo‘lagidan tayyorlanadi va qat’iy o‘lchamlari belgilanmagan bo‘ladi.

Har bir ijrochi o‘z ixtiyoriga ko‘ra xohlagan hajmda tayyorlab, 5 tagacha teshiklar ochishi mumkin. Keyingi paytlarda unutila boshlagan bu cholg‘uning qayta jonlantirilishi surxondaryolik Nodir bobo va uning farzandlari Abdurashid bobolarning ijrochilik an’analarini davom ettirishga katta yordam berdi.

Bugungi kunda katta bayram tantanalari va folklor jamoalari chiqishlarining sibizg‘a tovushini yangrashi bilan boshlanishi odat tusiga aylanib bormoqda.

Sibizg‘a cholg‘usining takomillashtirilgan va ikki donasini birgalikda qo‘shib chalinishidan hosil bo‘lgan musiqiy cholg‘u *qo‘shnaydir*. Qo‘shnay tayyorlanadigan qamishlar biroz yo‘g‘onroq va qalinroq bo‘ladi. Har ikkala qamish bo‘laklari xuddi sibizg‘adagi singari til ochiladi va har bir bo‘lakning uzunligi va yo‘g‘onligi bir xil bo‘lishi talab qilinadi. Kerakli tovushlarni hosil qilish uchun esa har ikkala bo‘lakda ham bir xil masofada 7 donadan teshiklar ochiladi.

Qo‘shnay cholg‘usi Xorazmda kengroq qo‘llaniladi. Uning sadolanishida “g‘izillashga” o‘xshagan tebranish seziladi. Qo‘shnayda ijro etish uslubida ikkita naychaga barobar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi *re* dan ikkinchi oktavadagi *sol*ga qadar, ayrim qo‘shnaychilar ikkinchi oktavadagi *lya, si,* hatto bundan yuqori tovushlarni ham hosil qiladilar.

Qo‘shnayda o‘zbek musiqasi uchun xos bo‘lgan melizmlarni ijro etish juda qulaydir.

Bulamon (balabon) surnaydan ko‘ra birmuncha kichikroq, qattiq yog‘och tanasidan ishlangan cholg‘u bo‘lib, tovush hosil qilinadigan qismi surnaynikidan farq qiladi. Bulamanda “nay pachoq” o‘rnida sibizg‘asimon til ochilgan qamish bo‘lagidan foydalaniladi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ularning yettitasi ustki tomonda va bittasi pastki tomonda bo‘ladi. Bulamanning tovush tembri (kuchi) surnaynikidan pastroq bo‘ladi. Shuning uchun ham bu cholg‘uni ansambl tarkibiga kiritib, qo‘shiq ijrochilariga jo‘r bo‘lishda foydalanish mumkin. Bu cholg‘u Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli ishlatilmaydi.

Karnay – o‘zbek damli musiqiy cholg‘ularining eng kattasi (2 metrdan oshiqroq) va eng kuchli tovush tembriga ega desak, xato bo‘lmaydi. Uning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, og‘ir bo‘lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo‘lakni bir-biriga qo‘shib kiydirish orqali yig‘iladigan ko‘rinishda tayyorlanadi. Bu cholg‘udan surnay, doyra, nog‘ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo‘lgan ansambllarda foydalaniladi.

Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda, surnay, nog‘ora va doyraga qo‘shib chalinadi. Karnay ijrosida asosiy tovushdan sof kvinta yoki kichik septima intervali eshitiladi.

Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an’anasi, qadriyatlari o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Musiqiycholg‘ularda ijrochilik san’ati insoniyat ma’naviyatini tarannum etuvchi vosita, ya’ni, xalq ijodiyoti masuli bo‘lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz

ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Bular barchasi yaratilajak cholg‘ularning shakliga va milliylik mezoniga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarix davomida doimo musiqiy cholg‘ularga bo‘lgan e’tibor katta bo‘lish bilan birga tarbiyaviy tomonlari ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib kelgan.Xalq cholg‘ulari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki eng qadimgi mehnat qo‘shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Undan keyin shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi, ijrochilar qarsak chalib ritmni ta’kidlagan, shovqinli cholg‘ular ta’sirini ko‘paytirganlar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarni, tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproqqal’a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog‘ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg‘ularining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘ular ham takomillashdi [7;69–74-b.].

Kasbiy-ma’naviy kompetensiyalar musiqa pedagogikasi amaliyotining o‘ziga xos tomonlarini va ma’naviy mohiyatini aks ettiradi. Ularning shakllanishi musiqiy ta’limning zamonaviy tizimiga xos dolzarb masalalardan biri bo‘lib, musiqa o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining va uning bolalar bilan tarbiyaviy ishining samaradorligini belgilovchi majburiy sharti hisoblanadi. Tanlangan repertuar yuqori badiiy sifati va sodaligi bilan farqlanib turishi lozim. O‘quv repertuar o‘zbek klassik musiqasi, xalq musiqasi hamda zamonaviy bastakorlarning asarlaridan iborat bo‘lishi lozim.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bugungi zamon musiqa rahbari sezgir pedagog sifatida o‘tmishdagi yirik olimlarning asosiy nazariy qarashlari, xalq pedagogikasi tajribasi, bastakorlarning folklor materiallari asosida yaratilgan hamda jahon amaliyotida aprobatsiyadan o‘tgan, bugungi kunda samarali qo‘llanilib kelayotgan pedagogik texnologiyalar, shuningdek, o‘zbek xalq musiqa asboblarini chalish yordamida bolalarda ma’naviyat hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha shaxsiy tajribasiga tayangan holda o‘zining yangi shaxsiy texnologiyalarini yaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bola shaxsini axloqiy shakllantirish. Ped. fan. dok. ... diss., T., O‘zDJTU, 2000, 305-bet.

[2]. Quronov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. T., “Fan”, 1995, 117-bet.

[3]. Rejimetova N.I. O‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish metodikasi. Ped. fan. fals. dok. …diss. avtoref., Toshkent, 2019, 12-bet.

[4]. https://cuberleninka.ru.

[6]. Baxtiyorov S.Q. O‘zbek xalq cholg‘u asboblarining shakllanish tarixi. Scence and education journal. 2023, 20-bet.

[7]. Azimov B., Azimova S. Cholg‘ularning tarixiy taraqqiyoti. International Scentific – onleine conference. Italiya, 2023, 69 – 74-betlar.

Abdullayeva Muxtasar Akmaljon qizi (Farg‘ona davlat Texnika universiteti, pedagogika f.b.f.d. PhD; abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com)

“TEXNIKA” FANLARNI O‘QITISHDA BILIM GRAVITATSIYASI FENOMENI ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnika fanlarini o‘qitishda “Bilim gravitatsiyasi fenomeni” asosida o‘quv jarayonini tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda texnik fanlarni o‘qitishda adaptiv pedagogika, kognitiv yuklama nazariyasi, multimodal ta’lim, interfaol vizual modellashtirish hamda sun’iy intellekt elementlarini integratsiyalash masalalari tahlil qilingan. Bilim gravitatsiyasi modeli asosida tayanch bilimlardan kasbiy kompetensiyalargacha bo‘lgan uzviy bog‘lanishlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, texnik jarayonlarni bosqichma-bosqich o‘qitish orqali talabalarning texnik tafakkuri, amaliy ko‘nikmalari va murakkab tizimlarni anglash darajasini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *bilim gravitatsiyasi, texnik ta’lim, adaptiv pedagogika, multimodal ta’lim, kognitiv yuklama, sun’iy intellekt, texnik tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv, vizual modellashtirish, interfaol ta’lim.*

Абдуллаева Мухтасархон Акмалжон кизи (Ферганский государственный технический университет, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам; abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com)

РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН НА ОСНОВЕ ФЕНОМЕНА «ГРАВИТАЦИИ ЗНАНИЙ»

Аннотация. *В данной статье разработана методика организации учебного процесса при преподавании технических дисциплин на основе феномена «гравитации знаний». В исследовании проанализированы вопросы интеграции адаптивной педагогики, теории когнитивной нагрузки, мультимодального обучения, интерактивного визуального моделирования и элементов искусственного интеллекта в преподавание технических дисциплин. На основе модели гравитации знаний раскрыты педагогические механизмы формирования взаимосвязи между базовыми знаниями и профессиональными компетенциями. Также обоснованы возможности поэтапного обучения техническим процессам для развития технического мышления, практических навыков и понимания сложных систем у студентов.*

Ключевые слова: *гравитация знаний, техническое образование, адаптивная педагогика, мультимодальное обучение, когнитивная нагрузка, искусственный интеллект, техническое мышление, компетентностный подход, визуальное моделирование, интерактивное обучение.*

Abdullayeva Muxtasarxon Akmaljon qizi (Fergana State Technical University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; abdullayevamuxtasarxon91@gmail.com)

DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS IN TEACHING TECHNICAL DISCIPLINES BASED ON THE “KNOWLEDGE GRAVITY PHENOMENON”

Annotation. *This article develops a methodology for organizing the educational process in teaching technical disciplines based on the “Knowledge Gravity Phenomenon.” The study analyzes the integration of adaptive pedagogy, cognitive load theory, multimodal learning, interactive visual modeling, and artificial intelligence elements in technical education. Based on the knowledge gravity model, the pedagogical mechanisms for establishing the relationship between fundamental knowledge and professional competencies are described. The paper also substantiates the possibilities of step-by-step teaching of technical processes to improve students’ technical thinking, practical skills, and understanding of complex systems.*

Keywords: *knowledge gravity, technical education, adaptive pedagogy, multimodal learning, cognitive load, artificial intelligence, technical thinking, competency-based approach, visual modeling, interactive learning.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimida texnik yo‘nalishdagi fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanib, ayniqsa, energetika, elektrotexnika, elektronika, avtomatika, axborot texnologiyalari va yangi raqamli texnologiyalar kabi texnika fanlarini o‘zlashtirish jarayonida talabalarning murakkab nazariy tushunchalarni anglash, ularni amaliy jarayonlar bilan bog‘lash hamda bilimlarni uzoq muddat saqlab qolish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ishlab chiqarish va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida texnik mutaxassislarga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi esa ta’lim jarayonini yanada adaptiv, integrativ va kognitiv jihatdan samarali tashkil etishni talab qilmoqda.

Texnik fanlarni o‘qitishda an’anaviy metodlar ko‘pincha talabalarning individual bilim darajasi, tafakkur tezligi hamda axborotni qabul qilish xususiyatlarini to‘liq hisobga olmaydi. Natijada murakkab formulalar, texnologik sxemalar, fizik jarayonlar va texnik tizimlarning ishlash mexanizmlari yuzasidan bilimlar parchalanib qoladi yoki barqaror o‘zlashtirilmaydi. Bu esa bilimlarning uzviy bog‘lanishini susaytirib, talabaning keyingi mavzularni qabul qilish jarayonida “kognitiv uzilish” holatini yuzaga keltiradi. Shu sababli texnik ta’limda bilimlarni o‘zaro tortuvchi, bir-birini mustahkamlovchi hamda markazlashgan bilim yadrosi asosida shakllantiruvchi innovatsion pedagogik yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Bu borada aniq yo‘nalish va manzilni belgilay oladigan darajada bilim-tushunchalarni yetkazib berish ta’limda o‘qitishning yangi yondoshuvlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Aynan texnika fanlarini o‘qitish uchun bilimlarning uzilmas zanjirini hosil qilish bilan, talabalarda amalda bilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu borada har bir texnika yo‘nalishi uchun bilim garvitatsiyasi fenomeni asosida ta’lim berish natijadorlikni oshirishga xizmat qila oladi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda bilish, qabul qilish, qayta ishlash bo‘yicha ongni boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, ularda, asosan, talabaning ta’lim olishdagi imkoniyatlarini baholash nazarda tutilgan. Masalan, amerikalik olim John Sveller tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yuklama nazariyasida murakkab fanlarni o‘qitishda axborotni bosqichma-bosqich va tizimli uzatish zarurligi ilmiy asoslab berilgan [1;145–167-b.]. Olimning fikriga ko‘ra, o‘quv materialining ortiqcha murakkabligi talabaning bilimni o‘zlashtirish samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli texnika fanlarini adaptiv va vizual asosda tashkil etish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Lev Vigotsky tomonidan ishlab chiqilgan “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida talabaning mavjud bilimidan murakkab kompetensiyalarga bosqichli o‘tish jarayoni yoritilgan [2;159-b.]. Ushbu yondashuv texnik fanlarni o‘qitishda tayanch bilimlardan kasbiy kompetensiyagacha bo‘lgan uzviy bog‘liqlikni tashkil etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Multimedia va multimodal ta’lim bo‘yicha Richard Mayerning ilmiy tadqiqotlarida vizual modellashtirish, grafik interfeyslar va interfaol texnologiyalar yordamida texnik jarayonlarni tushuntirish talabalarning murakkab tizimlarni anglash darajasini sezilarli oshirishi ko‘rsatib o‘tilgan [3;304-b.]. Olim multimedia asosidagi o‘qitish metodlari nazariy bilimlarni uzoq muddatli xotirada samarali saqlashga xizmat qilishini ta’kidlagan.

Sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim texnologiyalari bo‘yicha John Anderson hamda Benedikt du Boulaylarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi [4;352-b.]. Tadqiqotlarda AI elementlari yordamida talabaning bilim darajasiga mos individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirish orqali texnik fanlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

MDH davlatlarida texnik ta’lim metodologiyasi va kompetensiyaviy yondashuv bo‘yicha V.P. Bespalko hamda M.N.Skatkinlarning ilmiy ishlari alohida o‘rin tutadi [5;372-b.]. Ular texnik fanlarni tizimli integratsiya asosida o‘qitish, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta’kidlaganlar.

O‘zbekistonlik olimlardan N.A.Muslimov, R.H.Djurayev va U.N.Nishonaliyevlarning ilmiy tadqiqotlarida kasbiy ta’lim, texnik tafakkur va kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassis tayyorlash masalalari keng yoritilgan [6;286-b.]. Mazkur ilmiy qarashlar texnik fanlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan ilmiy ishlar natijalarida bilishdan texnik tafakkurgacha boshqarish nazarda tutilganu, lekin bilimlarni doimiy integratsiyasi alohida nazarda tutilmagan. Shuning uchun ham texnika fanlarini o‘qitishda bilim gravitatsiyasi fenomenini ishlab chiqish va pedagogik model sifatida foydalanish lozimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bilim gravitatsiyasi fenomeniga asoslangan metodika texnik fan-larni o‘qitishda adaptiv pedagogika, kognitiv yuklama muhandisligi, multimodal ta’lim, sun’iy intellekt elementlari va interfaol vizual modellashtirish texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda qaraladi. Natijada talabalarning murakkab texnik jarayonlarni tushunish darajasi oshadi, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalari rivojlanadi hamda o‘quv jarayonining samaradorligi ortadi. Ayniqsa, texnik tizimlar, elektr qurilmalar, energetik jarayonlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini o‘qitishda bilimlararo bog‘lanishlarni markazlashtirilgan holda tashkil etish muhim pedagogik natijalarni yuzaga keltiradi.

“Bilim gravitatsiyasi fenomeni”–bu pedagogikada yangi konseptual yondashuv bo‘lib, bilimlarning inson tafakkurida o‘zaro “tortishish”, bir-birini faollashtirish va markazlashgan holda tizim hosil qilish jarayonini anglatadi. Ushbu tushuncha fizikadagi gravitatsiya hodisasiga analogik tarzda qo‘llanadi. Fizikada katta massa kichik jismlarni o‘ziga tortgani kabi, ta’lim jarayonida ham asosiy tayanch bilimlar yangi bilimlarni o‘ziga bog‘lab, ularning mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Chunki “gravitatsiya” so‘zi lotincha *gravitas*–“og‘irlik”, “tortishish” degan ma’noni anglatadi. Fizikada gravitatsiya – jismlarning bir-birini o‘ziga tortish kuchidir. Ya’ni yerning odamlarni, oy va sayyoralarni o‘ziga tortib turishi gravitatsiya hodisasidir. Pedagogikada esa “bilim gravitatsiyasi” iborasi ramziy ma’noda ishlatiladi. Ya’ni, ayrim kuchli tayanch bilimlar boshqa bilimlarni “o‘ziga tortadi”, ular bilan bog‘lanadi va yagona bilim tizimini hosil qiladi degan ma’noni beradi.

Masalan, texnika fanlarida “elektr toki”, “kuchlanish”, “qarshilik” kabi fundamental tushunchalar markaziy bilim yadrosi hisoblanadi. Keyinchalik o‘rganiladigan elektr mashinalari, rele himoyasi, avtomatika yoki Smart Grid tizimlari aynan shu tayanch bilimlar atrofiga “orbita” hosil qilib joylashadi. Agar tayanch bilim kuchli bo‘lsa, yangi mavzularni qabul qilish ham osonlashadi. Aksincha, asosiy bilim yetarlicha shakllanmagan bo‘lsa, keyingi bilimlar parchalanib ketadi va kognitiv uzilish yuzaga keladi.

Shu nuqtai nazardan, bilim gravitatsiyasi fenomeni quyidagi pedagogik holatlarni ifodalaydi:

– bilimlararo mantiqiy bog‘lanishlarning kuchayishi;

– avvalgi bilimlarning yangi bilimlarni o‘zlashtirishga ta’siri;
– tayanch tushunchalarning markaziy rol o‘ynashi;
– bilimlarning tizimli va uzviy shakllanishi;
– talabaning tafakkurida “bilim orbitasi” hosil bo‘lishi.

Bu fenomen asosida o‘qitishda mavzular oddiy ketma-ketlikda emas, balki bir-birini tortuvchi bilim markazlari asosida tashkil etiladi. Natijada talaba murakkab texnik jarayonlarni alohida-alohida emas, balki yagona tizim sifatida anglay boshlaydi.

Pedagogik jihatdan bilim gravitatsiyasi fenomeni adaptiv ta’lim, kognitiv yuklama muhandisligi, konstruktivistik yondashuv va multimodal o‘qitish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Bu yondashuv texnik fanlarni chuqurroq anglash, bilimlarni uzoq muddat saqlash va amaliy muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Texnika fanlarini o‘qitishda talabalarda bilimlarni uzoq muddat eslab qolish, amaliy ko‘nikmalarni sifatli shakllantirish hamda murakkab texnologik jarayonlarni tizimli anglash ko‘p jihatdan bilimlar o‘rtasidagi uzviy bog‘lanish darajasiga bog‘liq hisoblanadi. Agar o‘quv jarayonida mavzular parchalanib, bir-biridan ajratilgan holda o‘qitilsa, talabaning tafakkurida yaxlit texnik tasavvur shakllanmaydi. Natijada bilimlar qisqa muddatli xotirada saqlanib qoladi yoki keyingi murakkab fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababli texnik ta’limda bilimlarni o‘zaro tortuvchi va markazlashtiruvchi “bilim gravitatsiyasi” muhitini shakllantirish muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Taxlil va natijalar. Bilim gravitatsiyasi fenomenining asosiy mohiyati shundaki, avvalo fan yuzasidan fundamental tayanch tushunchalar talaba ongiga chuqur va to‘liq yetkazilishi zarur. Chunki aynan shu asosiy tushunchalar keyingi bilimlar uchun “gravitatsion markaz” vazifasini bajaradi. Masalan, elektr toki, kuchlanish, qarshilik, energiya, quvvat, magnit maydon yoki boshqaruv signali kabi boshlang‘ich tushunchalar texnik fanlarning tayanch yadrosi hisoblanadi. Ushbu tayanch bilimlar yetarli shakllangandan keyingina ularning atrofida texnologik jarayonlar, qurilmalar ishlash prinsipi, avtomatlashtirish tizimlari, energetik jarayonlar hamda amaliy hisoblashlarga oid bilimlarni bosqichma-bosqich integratsiyalash mumkin bo‘ladi.

Ayniqsa, texnika fanlarida bilim gravitatsiyasini hosil qilish uchun o‘quv jarayonini birinchi bosqichdanoq tizimli tashkil etish talab etiladi. Bunda “Mutaxassislikka kirish” fani markaziy boshlang‘ich platforma vazifasini bajarishi lozim. Chunki ushbu fan talabalarda kelajakdagi kasbiy faoliyatga oid umumiy tasavvur, texnik tafakkur va fundamental bilim orbitasini shakllantiruvchi birlamchi bosqich hisoblanadi. Agar aynan shu bosqichda fanlararo bog‘lanishlar, texnologik jarayonlarning umumiy mantiqi va texnik tizimlarning ishlash asoslari zanjirsimon tarzda shakllantirilsa, keyingi kurslardagi barcha mutaxassislik fanlari bir-biri bilan tabiiy ravishda integratsiyalashadi. Shu jihatdan qaralganda, texnik ta’limda bilim gravitatsiyasini hosil qilish “Mutaxassislikka kirish” fanidan boshlanuvchi uzviy bilimlar zanjirini yaratishni talab etadi. Mazkur zanjir orqali har bir keyingi fan avvalgi bilimlarni faollashtiradi, mustahkamlaydi va yangi bilimlarni o‘ziga bog‘laydi. Natijada talabalarda texnik tafakkur, amaliy muammolarni yechish ko‘nikmalari hamda kasbiy kompetensiyalar yanada barqaror shakllanadi.

Texnika yo‘nalishidagi ta’lim jarayonida bilim gravitatsiyasi fenomenini shakllantirish uchun o‘quv fanlarini oddiy ketma-ketlikda emas, balki bir-birini tortuvchi va mustahkamlovchi pedagogik zanjir asosida tashkil etish muhim hisoblanadi. Quyidagi [1-rasm] piramidasimon model texnik ta’limda “bilim gravitatsiyasi”ning bosqichma-bosqich shakllanish algoritmini ifodalaydi.


Mazkur modelning pedagogik mohiyati shundan iboratki, o‘quv jarayoni avvalo talabaning texnik tafakkurini shakllantirishdan boshlanadi. “Mutaxassislikka kirish” bosqichida talaba sohaga oid umumiy tushunchalar, texnologik jarayonlar va kasbiy yo‘nalish bilan tanishtiriladi. Aynan shu bosqichda bilim gravitatsiyasining boshlang‘ich yadrosi hosil bo‘ladi.

Keyingi bosqichda fundamental texnik tushunchalar shakllantiriladi. Ushbu bilimlar keyingi mutaxassislik fanlarini o‘ziga “tortuvchi markaz” vazifasini bajaradi. Masalan, elektr toki va kuchlanish tushunchasi keyinchalik elektr tarmoqlari, rele himoyasi, avtomatika va Smart Grid tizimlarini tushunishga asos bo‘ladi.

Mutaxassislik fanlari bosqichida esa bilimlar o‘zaro integratsiyalashib, gravitatsion bog‘lanish kuchayadi. Talaba bir fandagi bilimni boshqa fan bilan bog‘lay boshlaydi. Bu holat texnik tafakkurning tizimli shakllanishiga olib keladi.

Amaliy integratsiya bosqichida laboratoriya ishlari, loyiha faoliyati, dual ta’lim va ishlab chiqarish bilan bog‘liq mashg‘ulotlar orqali nazariy bilimlar real jarayonlarga ulanadi. Natijada bilimlar abstrakt ma’lumot emas, balki foydali amaliy ko‘nikmaga aylanadi.

Piramidaning eng yuqori qismida “foydali bilim” shakllanadi. Bu bosqichda talaba mustaqil fikrlash, muammolarni texnik tahlil qilish, innovatsion yechim ishlab chiqish hamda kasbiy kompetensiyalarni amaliy qo‘llash darajasiga yetadi. Shu tariqa, texnik ta’limda bilim gravitatsiyasi fenomeni orqali o‘quv jarayoni oddiy axborot uzatish tizimidan integrallashgan muhandislik tafakkuri modeliga aylantiriladi.



1-rasm. Bilim gravitatsiyasi fenomeniga asoslangan pedagogik model piramidasi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda texnika va texnologiyalar rivoji tobora raqamlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘lanib bormoqda. Zamonaviy energetik tizimlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari, mikroprotsessorli qurilmalar, sensor texnologiyalari hamda Smart Grid tizimlarining asosini yarimo‘tkazgichli elementlar tashkil etadi. Tranzistor, diod, integral mikrosxema va turli raqamli modullar barcha zamonaviy qurilmalarning funksional yadrosi hisoblanadi. Shu sababli texnika yo‘nalishida tahsil olayotgan talaba nafaqat qurilmalardan foydalanishni, balki ularning fizik ishlash mexanizmlarini ham chuqur tushunishi zarur.

Mazkur jarayonni “Bilim gravitatsiyasi” konsepsiyasi orqali tushuntirish mumkin. Texnika yo‘nalishlarida bilim gravitatsiyasining muhim bosqichlaridan biri yarimo‘tkazgichlar fizikasini tushunish deb olsak, yadro–yarimo‘tkazgich materiallarning fizik xususiyatlari bo‘ladi. Chunki zamonaviy raqamli qurilmalar fizik asoslarini tushunish uchun elektronlarning harakati, elektr o‘tkazuvchanlik, p–n o‘tish, signal hosil bo‘lishi va zaryad tashuvchilar mexanizmlarini bilish zarur bo‘ladi. Yarimo‘tkazgichlar fizikasi talabada elektronika va mikroprotsessor texnologiyalarini anglash uchun fundamental tayanch hosil qiladi.

Bilim gravitatsiyasi zanjiri asosida talaba dastlab fundamental fizik tushunchalarni egallaydi, keyinchalik, yarimo‘tkazgichlar fizikasi orqali elektron qurilmalarning ichki ishlash mexanizmini anglaydi. Shundan so‘ng mikroprotsessor texnologiyalari, avtomatika, energetik tizimlar va raqamli boshqaruv vositalarini o‘zlashtirish jarayoni ancha samarali kechadi. Natijada talaba tayyor texnikadan foydalanuvchi emas, balki uning ishlash mohiyatini tushunuvchi va innovatsion yechim ishlab chiqishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassisga aylanadi.

Demak, bilim gravitatsiyasi texnika ta’limida fundamental bilimlardan amaliy innovatsiyagacha bo‘lgan uzviy bog‘liqlikni ifodalovchi muhim pedagogik model bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Sweller J. Cognitive Load Theory and Instructional Design. Educational Psychology Review. 2011, vol. 23, № 2, p. 145–167.

(2). Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, Harvard University Press, 1978, 159 p.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Maqolada jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini pedagogik, metodik, kommunikativ, innovatsion, raqamli va refleksiv komponentlar asosida rivojlantirish zarurligi asoslangan. Shuningdek, transformatsion ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligi, kreativ yondashuvi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish kompetensiyasi hamda ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim transformatsiyasi, kasbiy kompetentlik, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, kompetensiyaviy yondashuv, transformatsion ta’lim muhiti, raqamli pedagogika, innovatsion texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, refleksiv kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kreativ yondashuv, sog‘lom turmush tarzi, pedagogik kompetensiya.*

Матвапаев Азизбек Гаибназар Оглы (Доцент кафедры «Одиночный бой» Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруния, кандидат педагогических наук)

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В КОНТЕКСТЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье анализируются специфические аспекты формирования и развития профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры в контексте образовательной трансформации. Статья основана на необходимости развития профессиональной компетентности учителя физической культуры на основе педагогических, методических, коммуникативных, инновационных, цифровых и рефлексивных компонентов.Также освещается профессиональная гибкость будущих специалистов в условиях трансформационной образовательной среды, их творческий подход, их компетентность в пропаганде здорового образа жизни и возможности использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *трансформация образования, профессиональная компетентность, будущий учитель физического воспитания, компетентностный подход, трансформационная учебная среда, цифровая педагогика, инновационные технологии, профессиональная подготовка, рефлексивная компетентность, коммуникативная компетентность, личностно-ориентированное образование, творческий подход, здоровый образ жизни, педагогическая компетентность.*

Matvapayev Azizbek Gaibnazar ugli (Associate Professor of the Department of "Single Combat", Candidate of Pedagogical Sciences, Urgench State University named after Abu Raykhon Beruniy)

SPECIFIC FEATURES OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Annotation. *This article analyzes the specific aspects of the formation and development of professional competence of future physical education teachers in the context of educational transformation. The article is based on the need to develop the professional competence of a physical education teacher based on pedagogical, methodological, communicative, innovative, digital and reflexive components. It also highlights the professional flexibility of future specialists in a transformational educational environment, their creative approach, their competence in promoting a healthy lifestyle, and the possibilities of using innovative pedagogical technologies in the educational process.*

Keywords: *Educational transformation, professional competence, future physical education teacher, competency-based approach, transformational learning environment, digital pedagogy, innovative technologies, professional training, reflexive competence, communicative competence, person-centered education, creative approach, healthy lifestyle, pedagogical competence.*

Kirish (Introduction). XXI asrda jahon ta’lim tizimida kechayotgan tub o‘zgarishlar pedagogik faoliyat mazmuni, kasbiy tayyorgarlik modeli hamda mutaxassis kompetentligiga qo‘yiladigan talablarning yangilanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, oliy pedagogik ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorlik kasb etishi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mazmunini transformatsiyalash zaruratini yuzaga keltirdi. Mazkur jarayon jismoniy tarbiya ta’limi tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantirmoqda.

Ta’lim transformatsiyasi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ta’lim mazmuni, metodlari, texnologiyalari hamda boshqaruv tizimining zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda sifat jihatdan yangilanishi sifatida izohlanadi. Ushbu jarayon faqat ta’lim shaklining o‘zgarishi bilan emas, balki pedagogning kasbiy funksiyalarining kengayishi, innovatsion faoliyatining kuchayishi hamda refleksiv qobiliyatlarining rivojlanishi bilan ham tavsiflanadi [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining faoliyati an’anaviy sport mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan chegaralanmay, sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, ta’lim oluvchilarning jismoniy va psixologik holatini monitoring qilish, raqamli vositalardan foydalanish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishni ham qamrab olmoqda. Shu sababli bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlikning tarkibiy komponentlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

J.Raven kompetentlikni shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, tajriba va individual sifatlar majmui sifatida izohlaydi [2]. Olim fikriga ko‘ra, kompetentlik nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini ham ifodalaydi. Mazkur yondashuv jismoniy tarbiya pedagoglari tayyorlash tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi. A.K. Markova esa pedagog kasbiy kompetentligini pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beruvchi psixologik, metodik va shaxsiy sifatlar integratsiyasi sifatida talqin qiladi [3]. Tadqiqot nuqtayi nazaridan ushbu qarash bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining metodik, kommunikativ va refleksiv tayyorgarligini bir butun tizim sifatida baholash imkonini beradi.

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

–tizimli yondashuv;

– kompetensiyaviy yondashuv;

–shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv;

–faoliyatli yondashuv;

–refleksiv yondashuv;

–aksiologik yondashuv.

Tizimli yondashuv kasbiy kompetentlikni alohida elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit pedagogik tizim sifatida qarash imkonini beradi. Mazkur tizim motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat, kommunikativ va refleksiv komponentlardan iboratdir.

Kompetensiyaviy yondashuv natijaga yo‘naltirilgan ta’limni nazarda tutib, bo‘lajak o‘qituvchilarning real pedagogik vaziyatlarda mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4]. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiya va pedagogik refleksiyani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta’lim transformatsiyasi jarayonida jismoniy tarbiya pedagogiga qo‘yilayotgan talablar ham tubdan o‘zgarmoqda. Hozirgi bosqichda pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

1) metodik kompetensiya;

2) sog‘lom turmush kompetensiyasi;

3) innovatsion kompetensiya;

4) kommunikativ kompetensiya;

5) raqamli kompetensiya;

6) refleksiv kompetensiya;

7) loyihaviy kompetensiya.

Ayniqsa, raqamli ta’lim vositalarining jadal rivojlanishi jismoniy tarbiya ta’limida videoanaliz, biometrik monitoring, LMS platformalari, virtual mashg‘ulotlar va sport diagnostikasi texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirmoqda [6].

Bugungi kunda xorijiy tajribada ham bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning kompetensiyaviy modellari keng qo‘llanmoqda. AQSHda PETE (Physical Education Teacher Education) modeli asosida pedagoglarning sog‘lom turmush madaniyati, refleksiya va innovatsion faoliyat kompetensiyalari rivojlantiriladi [7]. Finlandiyada esa jismoniy tarbiya pedagoglari tayyorlashda amaliy faoliyat va tadqiqotchilik kompetensiyalariga ustuvorlik beriladi [8].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalasi pedagogik nazariya va amaliyotda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya pedagogiga qo‘yilayotgan talablar faqat sport mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan cheklanmay, balki sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, pedagogik jarayonni boshqarish hamda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishni ham qamrab olmoqda. Shu sababli bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta’lim transformatsiyasining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Transformatsion jarayonlar natijasida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy faoliyati mazmuni sezilarli darajada kengayib bormoqda. An’anaviy ta’lim tizimida asosiy e’tibor sport texnikalari va jismoniy mashqlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda pedagogning faoliyati metodik, diagnostik, kommunikativ, raqamli va refleksiv kompetensiyalar bilan boyimoqda. Mazkur holat bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlikning tarkibiy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Bundan tashqari, refleksiv komponentning ahamiyati ham ortib bormoqda. Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi hamda kelgusidagi rivojlanish strategiyalarini belgilash imkonini beradi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining refleksiv tayyorgarligi pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, kasbiy moslashuvchanlikni ham ta’minlaydi.

Shuningdek, aksiologik komponent ta’lim transformatsiyasining ma’naviy asosini tashkil qiladi. Chunki jismoniy tarbiya pedagogi yosh avlodda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantiruvchi asosiy subyektlardan biri hisoblanadi. Shu bois sport etikasi, pedagogik qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi va insonparvarlik tamoyillari kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ta’lim transformatsiyasi bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini integrativ tizim sifatida rivojlantirishni talab etmoqda. Bu esa pedagogik ta’lim mazmunini yangilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ta’lim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish jarayoni faqat alohida kompetensiyalarni rivojlantirish bilan chegaralanmaydi. Mazkur jarayon bo‘lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishini yaxlit tizim sifatida tashkil etishni, ta’lim mazmuni, metodlari va pedagogik texnologiyalarni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, jismoniy tarbiya pedagoglarini tayyorlashda nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat va shaxsiy rivojlanishning integrallashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari ustuvorlik kasb etmoqda. Chunki an’anaviy o‘qitish modeli asosan bilimlarni uzatishga qaratilgan bo‘lsa, transformatsion ta’lim modeli real pedagogik faoliyatni modellashtirish, muammoli vaziyatlarni yechish hamda kasbiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shu sababli bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlar, pedagogik vaziyatlar tahlili, loyihaviy faoliyat va refleksiv monitoring tizimlarini keng joriy etish zarur hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik amaliyot alohida o‘rin tutadi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash, sport mashg‘ulotlarini loyihalash, jamoa bilan ishlash hamda ta’lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini egallaydilar. Ayniqsa, maktab amaliyoti davomida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari o‘z kasbiy faoliyatining real sharoitlari bilan tanishib, pedagogik vaziyatlarni hal qilish tajribasini shakllantiradilar.

Ta’lim transformatsiyasi jarayonida pedagogik amaliyotning mazmuni ham yangilanib bormoqda. Avvallari amaliyot asosan kuzatuv xarakteriga ega bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi bosqichda u diagnostik, analitik va refleksiv faoliyat bilan boyitilmoqda. Talabalarning sport mashg‘ulotlarini videoyozuv asosida tahlil qi-

lishi, biometrik monitoring natijalarini o‘rganishi hamda o‘z faoliyatini baholash mexanizmlarini qo‘llashi refleksiv kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

[1]. Сластенин В.А. Педагогика. Москва, “Академия”, 2008, с. 114–118.

[2]. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London, H.K. Lewis, 1984, 251 p.

[3]. Маркова А.К. Психология профессионализма. Москва, “Знание”, 1996, с. 34–39.

[4]. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования. “Народное образование”, Москва, 2003. № 2, с. 58–64.

[5]. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение. Москва, “Педагогика’, 1996, с. 71–74.

[6]. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. Москва, “Физкультура и спорт”, 1988, с. 96–102.

[7]. Kirk D. Physical Education Futures. London, Routledge, 2010, p. 56–62.

[8]. Niemi H. The Finnish Teacher Education System. Helsinki, University of Helsinki Press, 2015, p. 44–49.

Qurbanov Botir Qo‘ziyevich (Urganch davlat Tibbiyot instituti tyutori;
e-mail: qurbanovbotir.81@gmail.com),
Xamidov Vohid Sobirovich (O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi “Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
e-mail: vkhamidov@gmail.com)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FIZIKANING OPTIKA BO‘LIMIDAN LABORATORIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fizika fanining optika bo‘limini o‘qitishda laboratoriya ishlarini tashkil etishning zamonaviy metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar asosida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning pedagogik va metodik jihatlari yoritilgan. Optika bo‘limi bo‘yicha o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishda virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv dasturlarning didaktik imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, optik hodisalarni o‘rganishda raqamli platformalardan foydalanish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan laboratoriya ishlari o‘quvchilarning fizik jarayonlarni chuqurroq tushunishiga, tajriba natijalarini tahlil qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga hamda o‘qitish jarayonining interaktivligini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, fizika ta’limi, optika, virtual laboratoriya, interaktiv simulatsiya, tajriba metodikasi, ta’lim innovatsiyasi, maktab fizikasi.*

Курбанов Ботир Козиевич (Ургенчский государственный медицинский институт, преподаватель;
e-mail: qurbanovbotir.81@gmail.com),
Хамидов Вахид Собирович (Международная исламская академия Узбекистана, Доцент кафедры современных информационных и коммуникационных технологий, Доктор философии (PhD) в области физики и математики; e-mail: vkhamidov@gmail.com)

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ЛАБОРАТОРНЫХ РАБОТ ПО РАЗДЕЛУ «ОПТИКА» НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В статье рассматриваются методические основы организации лабораторных работ по разделу «Оптика» в школьном курсе физики на основе цифровых технологий. Особое внимание уделяется применению виртуальных лабораторий, компьютерных симуляций и интерактивных образовательных ресурсов. Показано, что использование цифровых технологий способствует повышению эффективности учебного процесса, развитию исследовательских навыков учащихся и формированию научного мышления. Предложены методические рекомендации по организации лабораторных занятий по оптике в условиях общеобразовательной школы. Результаты исследования подтверждают, что применение цифровых технологий в лабораторных работах способствует более глубокому пониманию физических явлений и активизации познавательной деятельности учащихся.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, физическое образование, оптика, виртуальная лаборатория, симуляция, методика обучения.*

Kurbanov Botir Kozievich (Urgench State Medical Institute, tutor; e-mail: qurbanovbotir.81@gmail.com), Khamidov Vahid Sobirovich (International Islamic Academy of Uzbekistan Associate Professor of the Department of Modern Information and Communication Technologies Doctor of Philosophy (PhD) in Physics and Mathematics; e-mail: vkhamidov@gmail.com)

METHODOLOGY FOR ORGANIZING LABORATORY WORK IN THE OPTICS SECTION OF PHYSICS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation. *This article examines the methodological foundations for organizing laboratory work in the optics section of the school physics course based on digital technologies. Particular attention is paid to the use of virtual laboratories, computer simulations, and interactive educational resources. The study highlights the didactic potential of digital tools in developing students' experimental skills and scientific thinking. The use of digital technologies in teaching optics allows students to visualize complex physical phenomena, conduct virtual experiments, and analyze experimental results more effectively. The research results show that digital laboratory activities improve students' understanding of optical processes, increase learning motivation, and enhance the overall effectiveness of physics education in secondary schools.*

Keywords: *digital technologies, physics education, optics, virtual laboratory, simulation, teaching methodology, experimental learning.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o'quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovasiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta'lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko'rsatmoqda [2].

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Fizika fanini o'qitishda laboratoriya ishlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajribalar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, fizikaning optika bo'limida yorug'likning tarqalishi, akslanishi, sinishi kabi hodisalarni o'rganishda tajribalar asosiy o'rin tutadi.

Biroq ko'plab umumiy o'rta ta'lim maktablarida laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, tajribalarni o'tkazish uchun zarur sharoitlarning cheklanganligi laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli raqamli texnologiyalar asosida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida o'quv jarayonida virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar va simulyatsiyalarni qo'llash orqali murakkab fizik jarayonlarni vizual tarzda namoyish etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Asosiy qism. Fizikani zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan o'qitishda laboratoriya va namoyish tajribalarining o'rni juda muhimdir. Laboratoriya va namoyish tajribalarini bajarish orqali o'quvchida asosiy fizik tushunchalar, qonunlarning amaliy va nazariy talqini shakllanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri bu o'quvchilar fizik bilimlarini yaqin kelajakda amaliyotda qo'llashga e'tiborni qaratish bilan o'lchanadi. Jumladan, bu yo'nalishdagi tadqiqot ishlarida umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika o'qitishning zamonaviy texnologiyalari bo'yicha tadqiqotida o'rta maktabda fizika o'qitish jarayonini tashkil etish xususiyatlari, elektron ta'lim muassasalari majmuasidan foydalanishning afzalliklari va fizika o'qitishning raqamli o'quv texnologiyalariga misollar keltirib o'tilgan [4].

Virtual laboratoriya–bu kompyuterda kimyo, biologiya ekologiya va fizikaviy jarayonni simulyatsiya qilish, uni amalga oshirish shartlari va parametrlarini o'zgartirish imkonini beruvchi kompyuter dasturi. Ta'lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o'quv xonalaridan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Virtual laboratoriya mashg'ulotlarning o'quvchi va talabalarga o'quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshirishda, o'quv materialining multimedia ko'rinishida kuzatish, materialni o'zlashtirishi bo'yicha to'liq nazorat qilishni va takrorlash va trening jarayonini osonlashtirishga yordam bermoqda [5].

Raqamli ta'lim resurslarida keltirilgan matnlarga qo'yiladigan talablar sarlavhalar va qisqa izohlar uchun qirqim shrift, asosiy qism matni uchun belgili shrift, zarurat bo'lganda shu shriftning turli ko'rinishlaridan (qiyshaytirilgan, yarim qalin, oraliqli) foydalanish maqsadga muvofiq. Shrift o'lchami qancha kichik bo'lsa, harflar oralig'i shuncha keng bo'lishi kerak. Harflar o'lchami matn ko'zni zo'riqtirmasdan oson o'qiladigan bo'lishi kerak. Shuningdek, "Teskari" matn (oq harflar qora yoki rangli fonda) faqat kam miq-

dordagi matnda qo‘llanishi mumkin, uzoq o‘qish uchun mo‘ljallangan matnda esa bularni qo‘llab bo‘lmaydi [6].

Raqamli laboratoriyalarning ta’lim va tarbiya nazariyasidagi roli. Raqamli laboratoriyalar konstruktivistik ta’lim nazariyasiga asoslanadi, bunda o‘quvchilar tajriba orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Ular simulyatsiya va virtual muhitlar orqali fizika hodisalarini o‘rganish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, PhET kabi interaktiv simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar yorug’lik sinishi yoki elektr zanjirlari kabi tushunchalarni oson tushunadilar. Tarbiya nuqtai nazaridan, raqamli laboratoriyalar o‘quvchilarning ilmiy qiziqishini uyg’otadi va ularni tadqiqotchi sifatida rivojlantiradi, bu esa mas’uliyat va ijodkorlikni oshiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli laboratoriyalar ta’limni raqamlashtirish strategiyasining bir qismi sifatida ko‘riladi, bu esa sifatli va inklyuziv ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamli laboratoriyalarning fizika o‘qitish metodikasidagi roli. Raqamli laboratoriyalar fizika ta’limida metodik jihatdan quyidagi afzalliklarni taqdim etadi.

Interaktiv va vizual tajribalar. Raqamli laboratoriyalar, masalan, virtual optika tajribalari (yorug‘-lik sinishi yoki linzalar tizimi) orqali o‘quvchilar hodisalarni real vaqtda kuzatishi mumkin. Bu murakkab tushunchalarni soddalashtiradi. O‘zbekiston oliy ta’limida bunday vositalar fizika kurslarida qo‘llaniladi, bu esa o‘quv natijalarini yaxshilaydi.

Masofaviy ta’lim imkoniyatlari. Raqamli laboratoriyalar masofaviy ta’limda ayniqsa muhim bo‘-lib, pandemiya davrida fizika tajribalarini onlayn o‘tkazish imkonini berdi. Masalan, Labster kabi platformalar o‘quvchilarga virtual muhitda tajriba o‘tkazishga yordam beradi.

Fanlararo integratsiya. Raqamli laboratoriyalar fizikani boshqa fanlar, masalan, matematika yoki informatika bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, dasturiy ta’minot yordamida fizik jarayonlarni modellashtirish orqali fanlararo yondashuvni rivojlantirish mumkin.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Raqamli vositalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan tajribalarni taklif qiladi, bu esa farqlangan ta’limni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda fizika ta’limida raqamli laboratoriyalarni joriy etish, masalan, umumiy fizika kurslarida virtual tajribalar orqali o‘quv jarayonini boyitishga yo‘naltirilgan.

Afzalliklari va qiyinchiliklari. Afzalliklari:

- O‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va motivatsiyasini oshirish, chunki raqamli laboratoriyalar interaktiv va qiziqarli.
- Resurslarga kirishdagi cheklovlarni bartaraf etish, masalan, qimmatbaho jismoniy asboblar o‘rniga virtual muhitlardan foydalanish.
- Xavfli tajribalarni xavfsiz o‘tkazish imkoniyati, masalan, yuqori voltli elektr tajribalari.

Qiyinchiliklari:

- Raqamli bo‘linish (digital divide), ya’ni, internet va zamonaviy qurilmalarga kirishdagi tengsizlik.
- O‘qituvchilarning raqamli vositalarni samarali ishlatish uchun yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.

O‘zbekistonda raqamli laboratoriyalarni joriy etishda infratuzilma va moliyaviy cheklovlar.

Optika bo‘limini o‘qitishda laboratoriya ishlarining ahamiyati. Optika fizikaning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda yorug‘likning tabiati va xossalari o‘rganiladi. Maktab fizika kursida quyidagi laboratoriya ishlari keng qo‘llaniladi:

- yorug‘likning akslanish qonunini o‘rganish;
- yorug‘likning sinish qonunini aniqlash;
- linzalarning fokus masofasini aniqlash;
- optik asboblarning ishlash prinsipini o‘rganish.

Mazkur tajribalar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning eksperimental ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar asosida laboratoriya ishlarini tashkil etish. Raqamli texnologiyalar yordamida laboratoriya mashg‘ulotlarini quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

1. Virtual laboratoriyalar.
2. Kompyuter simulyatsiyalari.
3. Interaktiv ta’lim platformalari.
4. Multimedia tajribalar.

Virtual laboratoriyalar yordamida o‘quvchilar real tajribaga yaqin sharoitda turli optik jarayonlarni kuzatishlari mumkin. Masalan, yorug‘likning sinish jarayonini modellashtirish orqali Snellius qonunini vizual ravishda tushuntirish mumkin.

Optika bo‘limi uchun raqamli laboratoriya mashg‘ulotlari metodikasi. Raqamli laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi – mavzu bo‘yicha nazariy bilimlarni shakllantirish.
2. Eksperiment bosqichi – virtual muhitda tajriba o‘tkazish.
3. Natijalarni tahlil qilish – olingan ma’lumotlarni tahlil qilish.
4. Xulosa chiqarish – fizik qonuniyatlarni umumlashtirish.

Bu metodika o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Optika bo‘limi uchun raqamli laboratoriya ishlarini tashkil etish metodikasi. Optika bo‘limi bo‘yicha laboratoriya ishlarini tashkil etishda quyidagi metodik bosqichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1. Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda o‘quvchilarga nazariy bilimlar beriladi. O‘qituvchi optik hodisalar haqida qisqacha tushuntirish beradi va laboratoriya ishining maqsadini belgilaydi.

2. Tajriba bosqichi. O‘quvchilar virtual laboratoriya muhitida tajriba o‘tkazadilar. Masalan:

- yorug‘likning akslanish qonunini tekshirish
- sinish burchagini aniqlash
- linzaning fokus masofasini topish

3. Natijalarni qayd etish. O‘quvchilar tajriba natijalarini jadval shaklida yozib boradilar.

Tajriba	**O‘lchov natijasi**	**Xulosa**
Akslanish	burchaklar teng	qonun tasdiqlandi

4. Tahlil bosqichi. O‘quvchilar tajriba natijalarini tahlil qilib, fizik qonuniyatlarni aniqlaydilar.

Pedagogik eksperiment. Tadqiqot jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari ishtirokida pedagogik tajriba o‘tkazildi.

Tajriba ikki guruhda olib borildi:

1) nazorat guruhi – an’anaviy usul;

2) tajriba guruhi – raqamli laboratoriya asosida.

Natijalar quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash orqali baholandi:

- o‘zlashtirish darajasi;
- tajriba ko‘nikmalari;
- o‘quvchilarning qiziqishi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli laboratoriyalar qo‘llangan guruhda o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘lgan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar qilindi:

- raqamli laboratoriyalar optik hodisalarni tushunishni osonlashtiradi.
- o‘quvchilarning ilmiy tafakkuri rivojlanadi.
- tajriba o‘tkazishga qiziqish ortadi.

Shuningdek, o‘quvchilar virtual tajribalar orqali murakkab optik jarayonlarni chuqurroq tushunishga erishdilar.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fizika fanining optika bo‘limida laboratoriya ishlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Virtual laboratoriyalar va kompyuter simulyatsiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning murakkab fizik hodisalarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi. Shu sababli maktab fizika kursida optika bo‘limini o‘qitishda raqamli laboratoriya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2019.

(2). Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-qarori.

(3). “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-farmoni.

(4). Fizikadan laboratoriya va namoyish tajribalarini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi Olimov B.A. O‘zPFITI professori v.b., f.-m.f.n https://doi.org/10.5281/zenodo.11518594

(5). Zoirov S.X., Bahreyeva M.F. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi. “Science and Education”, 2024, т. 5, №.1, с. 276 – 280.

(6). Raqamli ta’lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo‘yiladigan umumiy talablar. Toshkent, 2024.
(7). To‘xtasinov X. Fizika o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2020.
(8). Abduqodirov A. Ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent, 2018.
(9). PhET Interactive Simulations Project. University of Colorado Boulder.

Bozorova Muslima (Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent)

TA’LIM KLASTERIDA ETNOPEDAGOGIK MILLIY TA’LIMNING UZLUKSIZLIGINI BAHOLASH UCHUN DIAGNOSTIKA VOSITALARI

Annotatsiya. *Maqolada ta’lim klasterida etnopedagogik milliy ta’limning uzluksizligini baholash uchun diagnostika vositalari tizimi ishlab chiqilib, ilmiy asoslanadi. 2024–2025-yillardagi tadqiqotlar tahlili asosida muallif uzluksizlikning asosiy parametrlarini (shakli, darajasi va amalga oshirish tabiati) va ta’limning klasterli tashkil etilishi uchun moslashtirilgan diagnostika usullarini aniqlaydi. Uzluksizlikning me’yoriy-maqsadli, mazmuniy-jarayonli komponent va natijaviy-refleksiv komponentlarini baholashni o‘z ichiga olgan uch darajali diagnostika modeli taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *etnopedagogika, diagnostika vositalari, uzluksizlik, ta’lim klasteri, milliy ta’lim, diagnostika modeli, baholash mezonlari.*

ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ДЛЯ ОЦЕНКИ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ ЭТНОПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ КЛАСТЕРЕ

Аннотация. *В статье разработана и обоснована система диагностических инструментов для оценки преемственности этнопедагогического национального образования в образовательном кластере. На основе анализа исследований, проведенных в 2024–2025 годах, автор определяет основные параметры преемственности (форма, уровень и характер реализации) и диагностические методы, адаптированные для кластерной организации образования. Предложена трехуровневая диагностическая модель, включающая оценку нормативно–целевого, содержательно–процедурного и результативно–рефлексивного компонентов преемственности.*

Ключевые слова: *этнопедагогика, диагностические инструменты, преемственность, образовательный кластер, национальное образование, диагностическая модель, критерии оценки.*

DIAGNOSTIC TOOLS FOR ASSESSING THE CONTINUITY OF ETHNOPEDAGOGICAL NATIONAL EDUCATION IN THE EDUCATIONAL CLUSTER

Annotation. *The article develops and substantiates a system of diagnostic tools for assessing the continuity of ethnopedagogical national education in an educational cluster. Based on the analysis of research conducted in 2024–2025, the author identifies the main parameters of continuity (form, level and nature of implementation) and diagnostic methods adapted for the cluster organization of education. A three–level diagnostic model is proposed, which includes assessing the normative–targeted, substantive–procedural and result–reflective components of continuity.*

Keywords: *ethnopedagogy, diagnostic tools, continuity, educational cluster, national education, diagnostic model, assessment criteria.*

Kirish. Ta’lim klasteri turli turdagi va bosqichdagi ta’lim muassasalari, madaniyat tashkilotlari hamda jamoat institutlarining o‘zaro hamkorligiga asoslangan integrativ pedagogik tizim sifatida qaraladi [1]. S.V.Nikiforova ta’kidlaganidek, shahar muassasalari ta’lim ishida klaster yondashuvi ota–onalar, bola-lar va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir orqali o‘quvchilarning etnik–madaniy kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkonini beradi [2].

Madaniyatlararo kompetensiya yoki ta’limda uzluksizlikni baholashga bag‘ishlangan individual tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda ta’lim klasteri kontekstida etnopedagogik milliy ta’limning uzluksizligini baholash uchun maxsus moslashtirilgan diagnostika vositalarining keng qamrovli tizimi mavjud emas. Mavjud usullar, odatda, ta’limning bitta darajasiga yoki bitta jihatga (bilim, qadriyatlar yoki faoliyat) qaratilgan. Ular bir nechta ishtirokchilar, turli xil o‘zaro ta’sir shakllari va ta’lim traektoriyasining turli bosqichlarida bosqichlararo uzluksiz monitoring zaruratini o‘z ichiga olgan klaster tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Diagnostika vositalarini ishlab chiqishga E.V.Kulesh va Y.Y. Strelova tomonidan “Madaniyatlararo kompetensiya diagnostikasi” usulini) sinab ko‘rishga bag‘ishlangan

tadqiqot muhim hissa qo‘shdi [1]. Turli etnik guruhlar tarixan birga yashab kelgan ko‘p millatli va ko‘p dinli mintaqa sifatida tavsiflanadi.

Tadqiqot mualliflari o‘qituvchilarda rivojlangan madaniyatlararo kompetensiya ko‘p millatli guruh bilan samarali o‘zaro ta’sir o‘tkazishga yordam berishini asoslaydilar [3;4]. O‘qituvchining madaniyatlararo kompetensiyasining mazmuni boshqa fuqarolarnikidan kengroq bo‘lishi, bu soha mutaxassislari nafaqat turli millat vakillari bilan o‘zaro aloqada bo‘la olishlari, balki madaniy plyuralizm g‘oyalari uchun faol “vositachilar” bo‘lishlari, o‘quvchilar uchun ko‘p madaniyatli ta’limni amalga oshirishlari kerak.

Metodologiyani sinovdan o‘tkazish jarayonida o‘qituvchilarning quyidagi kamchiliklari aniqlandi:

•madaniy tizimlarning universal va noyob elementlari haqida umumiy va kontekstual bilimlarning yetarli emasligi;

•mahalliy aholining madaniyati madaniyati haqida bilimlarning yetarli emasligi;

•madaniyatlararo muloqotni qurish qobiliyatining yetarli emasligi;

•turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun cheklangan ko‘nikmalar.

S.V.Nikiforova tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlat uchun hayotiy maqsadlar bolalarni inson qadr-qimmatiga, milliy an’analarga va umuminsoniy yutuqlarga hurmat ruhida tarbiyalash ekanligini ta’kidlaydi [2].

A.V.Portnyagina va E.I.Sartayeva tomonidan taklif qilingan "ota–onalar–bolalar–jamiyat" modelining samaradorligini ko‘rsatuvchi materiallar[2], shuningdek, A.V.Ivanova va N.I.Filippova tomonidan ishlab chiqilgan uzluksiz etnik-madaniy va ko‘p madaniyatli ta’limni tashkil etish yondashuvlari qo‘llaniladi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiyani baholash, etnomadaniy ta’limni klaster asosida tashkil etish va ta’lim tizimlarini integratsiyalash bo‘yicha muayan ilmiy natijalar mavjud. Biroq etnopedagogik milliy ta’lim uzluksizligini aynan klaster muhitida kompleks baholashga qaratilgan diagnostik model hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi tizim tahlili tamoyillarini, kvalimetrik yondashuvni va kompetensiyaga asoslangan paradigmani birlashtirgan integrativ yondashuvga asoslangan. Tizim tahlili bizga ta’lim klasterini bir nechta ichki aloqalarga ega yaxlit tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi, uzluksizlik esa tizimni shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Kvalimetrik yondashuv o‘lchanishi va talqin qilinishi mumkin bo‘lgan mezonlar va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil qilingan manbalardan olingan ma’lumotlar xulosasi asosida ta’lim klasteridagi uzluksizlikni baholash uchun uchta asosiy parametr (uzluksizlik shakli, darajasi va uni amalga oshirishning tabiati) aniqlandi.

Uchta o‘zaro bog‘liq komponentni o‘z ichiga olgan uch darajali diagnostika modeli ishlab chiqilgan.

1-jadval

Uzluksizlikni diagnostika qilish modelining tarkibiy qismlari

Komponent	Mundarija	Asosiy ko‘rsatkichlar	Diagnostika usullari
Me’yoriy-maqsadli	Ta’lim jarayonining maqsadlari, vazifalari va me’yoriy-huquqiy asoslarining izchilligi	Yaxlit ta’lim dasturlarining mavjudligi; konseptual yondashuvlarning birligi	Me’yoriy va dasturiy hujjatlarni tahlil qilish; ekspert suhbatlari
Mazmuniy-jarayonli	Ta’lim faoliyatini tashkil etish mazmuni, usullari va shakllarining birligi	Ta’lim muhitining etnik–madaniy boyligi; bosqichlararo uzviy texnologiyalardan foydalanish	Pedagogik kuzatuv xaritalari; o‘qituvchilar uchun so‘rovnomalar va intervyular
Natija-refleksiv	Ta’lim jarayoni ishtirokchilarining etnik-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish	Rivojlanish ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi; ishtirokchilarning qoniqish darajasi	Madaniyatlararo kompetensiyani diagnostika qilish usullari; refleksiv so‘rovnomalar

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqot ko‘p millatli ta’lim muhitida ishlaydigan o‘qituvchilarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, diagnostika natijalari quyidagi kamchiliklarni aniqladi:

1. Kognitiv komponent: tub xalqlarning madaniy tizimlarining universal va noyob elementlarini yetarlicha bilmaslik. O‘qituvchilar mintaqada tarixan yashab kelgan etnik guruhlarning an’analari, marosimlari va lingvistik xususiyatlarini tushunmaganlar.

2. Metakognitiv komponent: o‘zlarining madaniy qarashlari va stereotiplarini yetarlicha aks ettirmaslik. O‘qituvchilar har doim ham o‘zlarining madaniy afzalliklarining boshqa etnik guruhlarga mansub o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarga ta’sirini bilishmagan.

3. Xulq-atvor komponenti: madaniyatlararo muloqotni qurishda cheklangan ko‘nikmalar. Etnomadaniy muammolardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda, shuningdek, turli etnik guruhlarga mansub o‘quvchilar uchun qo‘shma tadbirlarni tashkil qilishda qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Surxondaryo viloyatidagi ta’lim muassasalarida klaster yondashuvidan foydalanish natijalari:

1. Klaster o‘zaro ta’siri bolalarning etnik–madaniy kompetensiyasini rivojlantirish uchun oila, ta’lim muassasasi va jamoat resurslarini birlashtirish imkonini berdi. Ota–onalar ta’lim jarayonida faol ishtirokchilarga aylanishdi, oilaviy va muassasaviy ta’limning uzluksizligini ta’minlashdi.

2. A.V.Ivanova va N.I.Filippovaning (5) yondashuvlari asosida ta’lim tizimining turli darajalari o‘rtasida uzluksizlikni ta’minlaydigan uzluksiz etnik-madaniy ta’lim tizimi ishlab chiqildi.

3. Klaster yondashuvini joriy etish bolalarda milliy an’analarga hurmatni rivojlantirishga va o‘z madaniyatiga va respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqishni uyg‘otishga yordam berdi.

Tajriba ishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarni klasterli o‘zaro ta’sirlarga jalb qilish etnik–madaniy ta’lim samaradorligini oshiradi, oila va muassasa ta’limi o‘rtasidagi uzluksizlikni ta’minlaydi.

Muhokama. E.V.Kulesh va Y.Y.Strelova tadqiqotida o‘qituvchilarning madaniy tizimlarning universal va noyob elementlari, jumladan, mahalliy xalqlarning bilimlaridagi kamchilikni aniqladilar[1]. Bizning diagnostika modelimiz ushbu kamchilikni mazmun-jarayon komponentini baholash bosqichida aniqlash va o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlanish tizimi orqali uni bartaraf etish choralarini taklif qilish imkonini beradi.

Surxondaryo viloyatida ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajriba etnik-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda klaster yondashuvining samaradorligini ko‘rsatadi. Bizning modelimiz ushbu tajribani klasterdagi turli bo‘g‘inlar orasidagi uzluksizlik darajasini baholash imkonini beruvchi diagnostika vositalari bilan to‘ldiradi.

Tahlil natijasida belgilangan yo‘nalishlar ta’lim klasterlarida etnopedagogik milliy ta’limning uzluksizligi holati haqida quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

•klasterning barcha darajalarida etnik-madaniy ta’limning umumiy maqsadlari, mazmuni va rejalashtirilgan natijalarini mustahkamlovchi o‘zaro bog‘liq dasturlarning yo‘qligi o‘quvchilarning ta’lim yo‘nalishlarida parchalanish va uzilishlarga olib keladi;

•o‘tkazilgan tadqiqotda o‘qituvchilar uning ahamiyatini nisbatan yuqori darajada anglashlariga qaramay, madaniyatlararo o‘zaro ta’sirda amaliy ko‘nikmalarning yetarli emasligini namoyish etadilar;

•klasterdagi qo‘shma tadbirlarning muntazamligi shuni ko‘rsatadiki, uzluksizlik ko‘pincha darsdan tashqari mashg‘ulotlar orqali ta’minlanadi.

Surxondaryo viloyati tajribasi shuni ko‘rsatadiki, klasterni tashkil etish etnik–madaniy ta’limning umumiy maqsadlariga erishish uchun oilalar, ta’lim muassasalari va jamiyat resurslarini birlashtirish imkonini beradi.

Xulosalar. O‘tkazilgan tadqiqot va tajriba ishlarimiz bizga quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Ta’lim klasterida etnopedagogik milliy ta’limning uzluksizligi ko‘p o‘lchovli hodisa bo‘lib, uni uchta parametr yordamida baholash mumkin: uzluksizlik shakli (rasmiy, norasmiy), uzluksizlik darajasi (yuqori, o‘rta, past) va amalga oshirish tabiati (o‘z-o‘zidan yuzaga keluvchi, maqsadli, tizimli). Bu parametrlar bizga uzluksizlikning mavhum tushunchasini operatsion jihatdan aniqlangan mezonlarga aylantirish imkonini beradi.

2. Manbalarni tahlil qilish asosida “Madaniyatlararo kompetensiya diagnostikasi” metodologiyasi, ta’lim muhitining etnik-madaniy boyligi xaritalari, o‘qituvchilar va ota–onalarning so‘rovnomalari, hujjatlarni tahlil qilish va ekspert intervyulari kabi samarali diagnostika usullarning har biri cheklovlarga ega, ammo ular birgalikda keng qamrovli diagnostika manzarasini taqdim etadi.

3. Ishlab chiqilgan uch darajali diagnostika modeli me’yoriy-maqsadli, mazmunli–jarayonli va natija-refleksiv komponentlarni o‘z ichiga oladi. Modelni sinab ko‘rish uning samaradorligini ko‘rsatdi va komponentlarning notekis rivojlanishini aniqlash imkonini berdi.

4. Tadqiqot davomida etnopedagogik ta’lim uzluksizligini izchil ta’minlashga monelik qiluvchi muhim muammolar aniqlashtirildi. Xususan, pedagoglarning mahalliy madaniy tizimlarga mansub o‘ziga xos qadriyatlar, an’analar va tarbiyaviy tajribalar haqidagi bilimlarining yetarli darajada shakllanmagani, madaniyatlararo muloqotni pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarining cheklangani, uzluksizlikni me’yoriy-dasturiy asosda kafolatlaydigan ko‘p tarmoqli dasturlarning yetishmasligi hamda kompetensiyaning kognitiv va amaliy-faoliyat komponentlari o‘rtasidagi nomutanosiblik mazkur jarayonning asosiy zaif jihatlari sifatida baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Кулеш Е.В., Стрелова Ю.Ю. Педагог в условиях полиэтнической образовательной среды: результаты апробации методики «Диагностика межкультурной компетенции». “Вестник педагогических наук”, М., 2025, № 3.

(2). Никифорова С.В. К проблемам технологии формирования этнокультурной компетентности. Этнокультурная деятельность в современных образовательных организациях и учреждениях культуры: опыт, проблемы, перспективы. Чебоксары, ЦНС «Интерактив плюс», 2017.

(3). Turdiyeva N.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro, 2025.

(4). Pulatova Z.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda etnopedagogik bilim va tajribalarni takomillashtirish metodikasi (falsafiy fanlar misolida). 13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi, falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Chirchiq, 2024.

(5). Иванова А.В., Филиппова Н.И. Модели организации непрерывного этнокультурного и поликультурного образования. “Педагогическое образование в России”, М., 2016, № 3, с. 206–212.

(6). Портнягина А.В., Сартаева Е.И. Развитие этнокультурной компетенции детей посредством взаимодействия кластерной системы «родители – дети – социум». “Народное образование Якутии”, 2016, № 4 (100), с. 93–94.

Saidova Zebo Yuldash qizi (Osiyo Xalqaro universiteti magistranti; szebo72222@gmail.com),
Amanbaeva Malohat Alisher qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti; amanbaevamalohat@gmail.com),
Saidov Sherzod Yuldash o‘g‘li (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti; Saidovsherzod936@gmail.com)

MATEMATIKA TO‘GARAKLARIDA FUNKSIYANING QAVARIQLIGI VA BOTIQLIGIDAN KELIB CHIQADIGAN BA’ZI NATIJALARNI O‘QUVCHILARGA O‘RGATISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada funksiyaning qavariqligi va botiqligidan kelib chiqadigan natijalar, xususan, Yensen tengsizligi va uning tatbiqlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro matematik olimpiadalarda berilgan masalalarga Yensen tengsizligi va undan olinadigan xulosalar tatbiq etilgan. Maqola matematik olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rayotgan talabalar va matematik oliy ta’lim muassalarida matematik to‘garaklar uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *qavariq funksiya, botiq funksiya, Yensen tengsizligi.*

Саидова Зебо Юлдаш кызы (Магистрант Азиатского международного университета; szebo72222@gmail.com),
Аманбаева Малохат Алишер кызы (Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни; amanbaevamalohat@gmail.com),
Саидов Шерзод Юлдаш угли (Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни; Saidovsherzod936@gmail.com)

ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НЕКОТОРЫМ РЕЗУЛЬТАТАМ, ВЫТЕКАЮЩИМ ИЗ ВЫПУКЛОСТИ И ВОГНУТОСТИ ФУНКЦИИ В МАТЕМАТИЧЕСКИХ КРУЖКАХ

Аннотация. *В данной статье освещаются результаты, вытекающие из выпуклости и вогнутости функции, в частности, неравенство Йенсена и его приложения. Кроме того, неравенство Йенсена и следствия из него применяются к задачам, предлагаемым на международных математических олимпиадах. Статья предназначена для студентов, готовящихся к математическим олимпиадам, а также для математических кружков в высших учебных заведениях.*

Ключевые слова: *Выпуклая функция, вогнутая функция, неравенство Йенсена.*

Saidova Zebo Yuldash qizi (Master’s student at the Asian International University; szebo72222@gmail.com),
Amanbaeva Malohat Alisher qizi (Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni; amanbaevamalohat@gmail.com),
Saidov Sherzod Yuldash o‘g‘li (Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni; Saidovsherzod936@gmail.com)

TEACHING STUDENTS SOME RESULTS ARISING FROM THE CONVEXITY AND CONCAVITY OF A FUNCTION IN MATHEMATICS CLUBS

Annotation. *This article highlights the results arising from the convexity and concavity of a function, particularly Jensen’s inequality and its applications. Furthermore, Jensen’s inequality and its corollaries are applied to problems proposed in international mathematical olympiads. The article is intended for students preparing for mathematical olympiads and for mathematics clubs in higher educational institutions.*

Key word: *Convex function, concave function, Jensen's inequality.*

Kirish (Introduction). So‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar o‘quvchi va talabalar uchun zamon talabiga mos to‘garaklar o‘tish ustuvor vazifalardan hisoblanadi va ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining asosiy vazifasi o‘qitish sifatini yangi pog‘onaga ko‘tarishdan iboratdir. Shunga ko‘ra, o‘quvchi va talabaga munosabat, ularga yondashish tamoyillari o‘zgardi. Dars jarayonida har bir o‘quvchi va talabaga uning o‘ziga xos xususiyatlari va shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida ishtirok etishi uchun sharoit va imkoniyat yaratildi.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения информационной безопасности в современных организациях и предприятиях, а также роль системы Kerio Control как интегрированного решения в области сетевой безопасности. В исследовании анализируются возможности защиты корпоративной инфраструктуры посредством основных функций, таких как сетевая безопасность, межсетевой экран (firewall), VPN, аутентификация пользователей, мониторинг трафика и фильтрация контента.*

Ключевые слова: *Kerio Control, информационная безопасность, кибербезопасность, интегрированное управление, сетевая безопасность, межсетевой экран (firewall), VPN, аутентификация, мониторинг трафика, фильтрация контента.*

THE IMPORTANCE AND FUNCTIONS OF KERIO CONTROL IN ENSURING INFORMATION SECURITY IN ORGANIZATIONS AND ENTERPRISES

Annotation. *This article examines issues of information security in modern organizations and enterprises, as well as the role of Kerio Control as an integrated network security solution. The study analyzes the capabilities of protecting corporate infrastructure through key functions such as network security, firewall, VPN, user authentication, traffic monitoring, and content filtering.*

Keywords: *Kerio Control, information security, cybersecurity, integrated management, network security, firewall, VPN, authentication, traffic monitoring, content filtering.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar va korporativ infratuzilmaning kengayishi zamonaviy tashkilotlar faoliyatida axborot resurslarini boshqarish va himoya qilishni muhim vazifa sifatida belgilaydi. Axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta’minlash nafaqat tashkilotning ichki jarayonlarini barqaror ishlashini kafolatlaydi, balki biznes ma’lumotlarining noqonuniy tarqalishi, kiberhujumlar va boshqa tahdidlardan himoya qilishni ham ta’minlaydi.

Zamonaviy korxonalar turli xavfsizlik vositalarini mustaqil ishlatadi: antivirus dasturlari, firewall, foydalanuvchi autentifikatsiyasi tizimlari, trafik monitoringi va kontent filtrlash. Biroq alohida ishlovchi vositalar xavfsizlik siyosatini markazlashmagan holda ta’minlaydi, natijada tahdidlarni aniqlash tezligi pasayadi va tarmoq faoliyati bo‘yicha nazorat yetarli darajada amalga oshmaydi. Shu sababli axborot xavfsizligini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etish zarurati ortmoqda [1].

Kerio Control tizimi kichik va o‘rta tashkilotlar uchun mo‘ljallangan kompleks tarmoq xavfsizligi yechimidir. U firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash funksiyalarini yagona boshqaruv panelida birlashtiradi. Bu esa tashkilotlarda markazlashgan xavfsizlik boshqaruvini amalga oshirish, tahdidlarni tezkor aniqlash va axborot resurslarini samarali boshqarishni ta’minlaydi [2].

Ushbu maqolada Kerio Controlning tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati, tizim vazifalari va amaliy qo‘llanilishi batafsil yoritilgan. Mazkur tadqiqot xavfsizlik boshqaruvi, tarmoq himoyasi, foydalanuvchi nazorati va masofaviy ulanishlarni himoyalash orqali tashkilot infratuzilmasining barqarorligini oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari ilmiy va amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur sohada olib borilgan ishlarda korporativ

tarmoqlarni himoyalash, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash hamda foydalanuvchi faoliyatini nazorat qilish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, tarmoq xavfsizligini ta’minlashda firewall texnologiyalari, virtual xususiy tarmoqlar (VPN), kirishni boshqarish tizimlari va trafikni monitoring qilish vositalarining samaradorligi turli yondashuvlar asosida keng tahlil qilingan [3].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot xavfsizligini ta’minlashda alohida funksional vositalardan foydalanish ma’lum darajada samarali bo‘lsada, ularning mustaqil ishlashi tizimli yondashuvni cheklaydi [4]. Natijada xavfsizlik siyosatini yagona muhitda boshqarish imkoniyati pasayadi, tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish jarayonlari esa murakkablashadi. Shu sababli ko‘plab tadqiqotlarda xavfsizlik vositalarini integratsiyalashgan platforma asosida birlashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida yirik korporativ infratuzilmalar uchun mo‘ljallangan murakkab va resurs talab qiluvchi xavfsizlik yechimlari ustuvor o‘rganilgan. Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun moslashuvchan, iqtisodiy jihatdan samarali hamda boshqaruvi soddalashtirilgan kompleks tizimlar yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Xususan, Kerio Control kabi integratsiyalashgan xavfsizlik platformalarining funksional imkoniyatlari, amaliy qo‘llanishi va samaradorligi ilmiy nuqtai nazardan yetarlicha yoritilmagan.

Masalaning qo‘yilishi. Zamonaviy tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta’minlash bugungi kunda strategik vazifa hisoblanadi. Korporativ tarmoqlarda katta hajmdagi ma’lumotlar almashinuvi, internetga doimiy ulanish va masofaviy ishlash tizimlarining joriy etilishi kiberxavflarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, alohida ishlovchi xavfsizlik vositalari (firewall, antivirus, autentifikatsiya tizimlari, monitoring vositalari) tashkilot xavfsizligini markazlashmagan tarzda ta’minlaydi. Natijada quyidagi muammolar yuzaga keladi:

Tahdidlarni aniqlash kechikishi – tarmoqdagi xavfli harakatlar yagona tizim orqali kuzatilmagani sababli xavf darajasi oshadi.

Resurslardan samarali foydalanmaslik – turli vositalar mustaqil ishlagani uchun adminstratorlar ortiqcha yuklanadi.

Xavfsizlik siyosatining uyg‘un emasligi – alohida xavfsizlik komponentlari bir-biri bilan integratsiyalashmagan, shuning uchun siyosat markazlashmagan.

Insidentlarga tezkor javob berish imkoniyati cheklangan – tahdid aniqlanganda yagona boshqaruv muhitining yo‘qligi tufayli javob va choralar kechikadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va tashkilot infratuzilmasini barqaror himoyalash uchun integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruv tizimini joriy etish zarurati mavjud. Shu nuqtai nazardan masala shunday qo‘yiladi:

Masala. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini samarali ta’minlash, tahdidlarni real vaqt rejimida aniqlash va xavfsizlik boshqaruvini markazlashgan tarzda amalga oshirish. Kerio Control tizimi misolida integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvining ahamiyati va amaliy vazifalarini aniqlash.

Ushbu masala doirasida maqolada quyidagi savollarga javob qidiriladi:

- Kerio Control orqali xavfsizlik boshqaruvi qanday markazlashadi?
- Tarmoq, foydalanuvchi va masofaviy ulanishlar xavfsizligini ta’minlashda tizimning asosiy vazifalari qanday?
- Integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvi tashkilot infratuzilmasining barqarorligini qanday oshiradi?

Masalani yechish usuli. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini samarali ta’minlash masalasini hal qilish uchun integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruv tizimi – Kerio Control tizimi asosida yondashuv ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv bir nechta bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Tarmoq xavfsizligini tashkil etish: Kerio Control firewall funksiyasi orqali ichki tarmoqni tashqi tahdidlardan himoya qiladi. Kiruvchi va chiquvchi trafik xavfsizlik qoidalari asosida tekshiriladi, port va protokollarga ruxsat darajalari belgilanadi. Bu tarmoq chegarasini himoya qilish va ruxsatsiz ulanishlarning oldini olish imkonini beradi.

Foydalanuvchilarni identifikatsiya va autentifikatsiya qilish. Kerio Control foydalanuvchilarni Active Directory yoki lokal foydalanuvchi bazasi orqali boshqaradi. Har bir xodim yoki qurilma aniq identifikatsiya qilinadi va rolga asoslangan ruxsatlar belgilanadi. Shu orqali ichki xavfsizlikni kuchaytirish va kirish jarayonini nazorat qilish ta’minlanadi.


Masofaviy ulanishlar xavfsizligini ta’minlash (VPN). Tashkilot filiallari yoki masofaviy ishchilar xavfsiz VPN ulanish orqali korporativ resurslarga bog‘lanadi. VPN tunnel shifrlangan kanalni ta’minlaydi

va tashqi tahdidlardan himoya qiladi. Bu yondashuv geografik jihatdan tarqalgan infratuzilmani xavfsiz boshqarish imkonini beradi.

Tarmoq monitoringi va trafik tahlili. Kerio Control administratorga markazlashgan boshqaruv paneli orqali tarmoq faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Shubhali harakatlar va xatoliklar aniqlanadi, trafik yuklanishi tahlil qilinadi va avtomatik hisobotlar shakllantiriladi.

Kontent filtrlash va zararli saytlarni bloklash: Internetdan foydalanish monitoringi va kontent filtrlash yordamida nomaqbul saytlar bloklanadi. Bu korxona ma'lumotlarini himoya qilish bilan birga, xodimlarning ish unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Xavfsizlik siyosatini markazlashgan boshqaruv: Kerio Control orqali tashkilot uchun yagona xavfsizlik siyosati joriy qilinadi. Bunda internetdan ilovalar nazorati va tarmoq kirish qoidalari avtomatik tarzda barcha foydalanuvchilarga qo'llanadi. Markazlashgan boshqaruv inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytiradi.



1-rasm. Integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvining asosiy komponentlari.

Masalani yechishda yondashuv riskga asoslangan boshqaruv printsipiga tayanilgan. Har bir xavf va tahdid oldindan baholanishi, zaifliklar aniqlanishi va xavfsizlik choralarini tanlash orqali samarali himoya tashkil qilinadi. Shuningdek, markazlashgan boshqaruv tizimi yordamida administrator yuklamasi kamayadi va tahdidlarga tezkor javob berish imkoniyati ortadi.

Kerio control tizimining axborot xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati va vazifalari: Zamonaviy tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligi tizimlarini samarali tashkil etish tarmoq infratuzilmasining barqarorligi, ma'lumotlar maxfiyligi hamda xizmatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Axborot resurslarining internet orqali keng almashinuvi kiberhujumlar, zararli dasturlar, ruxsatsiz kirish va ma'lumotlar sizib chiqishi xavfini oshirmoqda. Shu sababli integratsiyalashgan xavfsizlik boshqaruvi tizimlaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Kerio Control tizimi tashkilotlarda tarmoq xavfsizligini kompleks tarzda boshqarish imkonini beruvchi dasturiy yechim hisoblanadi. Ushbu tizim bir nechta xavfsizlik mexanizmlarini yagona platformada birlashtirib, administratorga markazlashgan nazoratni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Firewall orqali tarmoq himoyasi. Kerio Controlning asosiy vazifalaridan biri — tarmoq chegarasini himoya qilishdir. Firewall mexanizmi orqali kiruvchi va chiquvchi trafik nazorat qilinadi, ruxsat etilgan va taqiqlangan ulanishlar aniqlanadi.

Xulosa. Tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini ta'minlash zamonaviy raqamli infratuzilmaning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Axborot resurslarining ortishi va tarmoq texnologiyalarining ri-

vojlanishi bilan bir qatorda kiberxavflar ham ortib bormoqda. Shu sababli xavfsizlikni alohida vositalar orqali emas, balki integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etish zarur hisoblanadi. Kerio Control tizimi firewall, VPN, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, trafik monitoringi va kontent filtrlash funksiyalarini yagona platformada birlashtirib, tashkilotlarda markazlashgan axborot xavfsizligi boshqaruvini ta'minlaydi. Ushbu tizim tarmoq infratuzilmasini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, ruxsatsiz kirishlarni cheklash hamda xavfsizlik siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Natijada Kerio Controldan foydalanish tashkilotlarda axborot xavfsizligi darajasini oshiradi, administrator ishini soddalashtiradi va korporativ ma'lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi hamda himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). G.A.Kukharev Biometric systems. Methods and tools for identifying a person's personality. SPb.: Polytechnic, 2001, p. 240.

(2). Burge M. and Burger W. (1998). Ear Biometrics. Biometrics: Personal Identification in a Networked Society, p. 273–286.

(3). Fazilov Sh.Kh., Mirzaev N.M., Djumaev T.S. Formation of a set of representative features of images of a face and ears in problems of personality identification. Proceedings. Russian Scientific and Technical Society of Radio Engineering, Electronics and Communications named after A.S.Popova//12th International Conference and Exhibition. Reports. Series: Digital Signal Processing and Its Application Issue: XII-2, p. 62–65. DSPA-2010. Moscow, Russia.

(4). Fazilov S.X., Mahkamov A., Jumayev T.S. (2018). Algorithm for extraction of identification features in ear recognition. In Informatics: problems, methodology, technologies, p. 3–7.

Musaxanova Gulnora Mavlyanovna (TDIU "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi dotsenti (PhD); gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shaxrizoda Muzaffar qizi (TDIU tayanch doktoranti; shakhrizoda2223@gmail.com)

BO'LAJAK RAHBARLARDA IQTISODIY KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo'lajak rahbarlarning iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, kommunikativlik kompetensiyasining rahbar kasbiy faoliyatidagi o'rni, malakali boshqaruvchi bo'lishda ingliz tili kommunikatsiyasining afzalliklari va tahlil qilingan ilmiy manbalarga asoslanib iqtisodiy kommunikativ ko'nikmalarning integrativ modeli taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetensiya, kommunikativ, iqtisodiy, boshqaruv, integratsiya, model,rahbarlik, ingliz tili, komponent.*

Мусаханова Гулнора Мавляновна (доцент кафедры «Экономическая теория» ТГЭУ, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Султанмуротова Шахризода Музаффар кизи (докторант ТГЭУ; shakhrizoda2223@gmail.com)

ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития экономико-коммуникативных навыков у будущих руководителей, роль коммуникативной компетентности в профессиональной деятельности руководителя, а также преимущества владения английским языком в процессе становления квалифицированного менеджера. На основе анализа научных источников предлагается интегративная модель экономико-коммуникативных навыков.*

Ключевые слова: *компетенция, коммуникативный, экономический, управление, интеграция, модель, руководство, английский язык, компонент.*

Musakhanova Gulnora Mavlyanovna (Associate professor of the department of Economic theory, TSUE, PhD; gulnaramusahanova02@gmail.com),

Sultonmurotova Shakhrizoda (Doctoral student, TSUE; shakhrizoda2223@gmail.com)

AN INTEGRATIVE MODEL FOR DEVELOPING ECONOMIC COMMUNICATIVE SKILLS IN FUTURE LEADERS

Annotation. *This article examines the development of economic communicative skills in future leaders, the role of communicative competence in a leader's professional activity, and the advantages of English-language communication in becoming an effective manager. Based on the analysis of scientific sources, an integrative model of economic communicative skills is proposed.*

Keywords: *competence, communicative, economic, management, integration, model, leadership, English language, component.*

Kirish. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida yuqori malakali mutaxassislarga katta talab qo‘yilgan. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi va raqamli iqtisodiyotning shakllanishi zamonaviy boshqaruv tizimlariga tubdan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Xususan, rahbar shaxsiga qo‘yiladigan talablar an’anaviy doiradan chiqib, ko‘p komponentli va kompleks xarakter kasb etmoqda. Endilikda samarali rahbar faqatgina boshqaruv mexanizmlarini biluvchi yoki iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila oluvchi mutaxassis emas, balki u yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lgan, turli madaniyatlararo muhitda erkin faoliyat yurita oladigan va global axborot oqimida samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida professional darajada kommunikatsiya qilish qobiliyati zamonaviy liderlikning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda rahbarlik tushunchasi ko‘p qirrali fenomen sifatida talqin qilinadi. Jumladan, liderlik va boshqaruv psixologiyasi sohasidagi yirik amerikalik olimlardan biri Gari Yukl tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, rahbarlik bu tashkilot a’zolariga ta’sir ko‘rsatish orqali umumiy maqsadlarga erishishni ta’minlaydigan ijtimoiy-psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning markazida esa aynan kommunikatsiya turadi, chunki har qanday boshqaruv qarori, topshiriq yoki strategiya muloqot orqali uzatiladi va amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, kommunikatsiya rahbarlik faoliyatining nafaqat vositasi, balki uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi [5].

Bugungi global biznes muhitida ushbu talablar yanada kuchaymoqda. Birinchidan, xalqaro hamkorlikning kengayishi natijasida turli mamlakatlar vakillari o‘rtasidagi professional muloqot zarurati ortib bormoqda. Ikkinchidan, ingliz tili xalqaro biznes, ilm-fan va texnologiya sohalarida asosiy ishchi til sifatida mustahkam o‘rin egallagan. Bu esa rahbarlardan ingliz tilida erkin va samarali muloqot qila olishni talab etadi. Uchinchidan, iqtisodiy qarorlar tobora global kontekstda, ya’ni, xalqaro bozorlar, transmilliy kompaniyalar va global tendensiyalarni hisobga olgan holda qabul qilinmoqda. Bunday sharoitda kommunikatsiya nafaqat axborot almashinuvi vositasi, balki strategik boshqaruv instrumentiga aylanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda ingliz tilidagi kommunikativ ko‘nikmalarni ham uyg‘un va integrativ tarzda rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki aynan shu ikki komponentning o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy rahbarning raqobatbardoshligi, moslashuvchanligi va global maydonda samarali faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak rahbar kadrlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan qator qaror va farmonlar mavjud bo‘lib“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi 606-qarori oliy malakali kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularni zamonaviy kompetensiyalar, xususan, iqtisodiy va kommunikativ ko‘nikmalar bilan qurollantirish zarurligini asoslaydi [1], [2]. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ularning strategik fikrlashi, iqtisodiy qaror qabul qilish qobiliyati hamda samarali kommunikatsiya olib borish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, ushbu maqolada taklif etilayotgan integrativ model rahbar kadrlarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish va ularni global mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlashga muayyan darajada hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak rahbar kadrlarning iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan oliy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va tizimda professional rahbar kadrlar tayyorlash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan bo‘lib, ular amalda tadbiq etib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli iqtisodiyotga o‘tish va boshqaruv tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Mzkur farmon bo‘lajak rahbarlarda raqamli va kommunikativ ko‘nikmalarni integrativ rivojlantirish zaruratini asoslaydi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yildagi PF–73-farmoni pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ularning zamonaviy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Bu farmon ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirib, iqtisodiy tafakkur, strategik fikrlash va kommunikativ ko‘nikmalarni, ayniqsa, ingliz tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Shu sababli farmon bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy-kommunikativ kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish modelini shakllantirish uchun muhim normativ asos bo‘lib xizmat qiladi [4].

2020–2022-yillarda ilgari surilgan Prezident tashabbuslari doirasida oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar sezilarli darajada kuchaytirildi. Jumladan, magistratura va doktoranturaga qabul jarayonida xorijiy til bo‘yicha xalqaro sertifikatning majburiy etib belgilanishi hamda oliy ta’lim muassasalarida fanlarni ingliz tilida o‘qitishni bosqichma-bosqich joriy etish bu boradagi muhim islohotlar sifatida namoyon bo‘ldi.

Rahbar kommunikatsiyasi bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Liu, Chambers va Moore tomonidan 2023-yilda *The Leadership Quarterly* jurnalida chop etilgan maqolada so‘nggi ellik yil davomida rahbar kommunikatsiyasiga oid tadqiqotlar umumlashtirilgan. Mazkur ishda rahbarlar matn, nutq va video orqali qanday muloqot qilishi, kommunikatsiyaning xodimlar, tashkilot va manfaatdor tomonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan. Demak, kommunikatsiya rahbarlikning yordamchi elementi emas, balki boshqaruv samaradorligini belgilovchi markaziy omildir [6].

Rahbar kompetensiyalariga oid tadqiqotlarda esa lider shaxsi ko‘p komponentli tizim sifatida o‘rganiladi. Xususan, inson resurslarini boshqarish va liderlik kompetensiyalari bo‘yicha tadqiqotchilar Paula Kristina Nunes Figeyredo, Mariya Joze Sousa tomonidan ishlab chiqilgan integrativ kompetensiya modeli rahbar salohiyatini to‘rt asosiy o‘lcham – intellektual, boshqaruv, ijtimoiy va emotsional kompetensiyalar orqali izohlaydi. Ushbu yondashuv bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda iqtisodiy tafakkur, strategik qaror qabul qilish, jamoa bilan ishlash, muzokara olib borish va emotsional barqarorlikni bir butun tizimda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro biznes muhitida yetakchi aloqa vositasiga aylanib, liderlik faoliyatining muhim elementi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chen va Wu Fortune 500 kompaniyalari misolida olib borgan tadqiqotlarida ingliz tilining liderlik samaradorligiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Ularning ta’kidlashicha, ingliz tilini yaxshi egallagan rahbarlar turli madaniy muhitlarda jamoalar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borish va global biznes sharoitida hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarni muvaffaqiyatli ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, ingliz tilini bilish rahbarlarga yangi bozorlar bilan aloqalarni kengaytirish va tashkilotning ta’sir doirasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [8].


Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, jumladan, ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish maqsadida ilmiy adabiyotlar tahlili amalga oshirilib, ScienceDirect bazasidagi liderlik, kommunikatsiya va global biznes muhitida ingliz tilining o‘rni bilan bog‘liq zamonaviy tadqiqotlar o‘rganildi. Bu orqali mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida rahbarlik jarayoni o‘zaro bog‘liq iqtisodiy, kommunikativ va shaxsiy kompetensiyalar majmui sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv ingliz tilida samarali kommunikatsiya qilishning rahbar faoliyatidagi o‘rnini aniqlashga imkon berdi.

Bundan tashqari, integrativ modellashtirish usuli yordamida turli liderlik va kompetensiya nazariyalari uyg‘unlashtirilib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va ingliz tilidagi kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yagona model ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarni, xususan, ingliz tilida muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy tadqiqotlar o‘rganildi. Jumladan, liderlik, kommunikatsiya va kompetensiyaviy yondashuv masalalariga bag‘ishlangan pedagogik, psixologik va sotsiologik yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur mavzu doirasida olimlar va soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari, yozma va og‘zaki fikr-mulohazalari umumlashtirilib, ularning amaliy faoliyatdagi ifodasi kuzatildi.

Mazkur tadqiqot natijasida bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, ayniqsa ingliz tilida professional muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ model ishlab chiqildi. Ushbu model zamonaviy global va raqamli muhitda rahbar shaxsini shakllantirishning kompleks mexanizmini ifodalaydi hamda bir-biri bilan uzviy bog‘liq komponentlar tizimidan iborat.

1-rasmda iqtisodiy-kommunikativ boshqaruv rahbarlarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan integrativ model va unga ta’sir etuvchi omillar aks ettiriladi. Modelning asosini globallashuv, iqtisodiyot hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji tashkil etib, ular rahbar faoliyatiga yangi talablarni qo‘yadi. Bu sharoitda rahbarlardan nafaqat iqtisodiy bilim va boshqaruv ko‘nikmalari, balki ingliz tilida samarali muloqot qilish qobiliyati ham talab etiladi. Tashqi muhit omillari modelda rag‘batlantiruvchi va cheklovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.



1-rasm. Bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning integrativ modeli.

Model markazida integrativ tizim bo‘lib, u tuzilma, jarayon va ishtirokchilar komponentlari orqali ifodalanadi. Tuzilma ta’lim dasturlari, zamonaviy metodlar va resurslar asosida rahbarlarni tayyorlashning institutsional poydevorini yaratadi. Jarayon komponenti qaror qabul qilish, hamkorlik va ayniqsa ingliz tilidagi professional muloqot orqali samaradorlikni oshiradi. Ishtirokchilar esa talaba, o‘qituvchi va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlab, amaliy tajriba shakllanishiga xizmat qiladi.

Modelning muhim qismi – kompetensiyalar bloki bo‘lib, u uch yo‘nalishni qamrab oladi: iqtisodiy-strategik (tahlil, resurslarni boshqarish, qaror qabul qilish), kommunikativ (muzokara, axborot almashinuvi, ingliz tilida muloqot) va shaxsiy (liderlik, emotsional intellekt, o‘zini boshqarish). Ushbu komponentlarning uyg‘unligi samarali, raqobatbardosh rahbarlarni shakllantiradi.

Umuman olganda, integrativ model bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, jumladan, ingliz tilidagi kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, ularning global mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbar kadrlar samaradorligi alohida bilimlardan ko‘ra, iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarning integratsiyalashgan ri-

vojiga bog‘liq. Xususan, ingliz tilida professional muloqot qila olish rahbar uchun global muhitda muhim strategik ustunlik yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarni shakllantirish tizimli yondashuv asosida – tashqi muhit, ta’-lim tizimi va boshqaruv jarayonlari o‘zaro bog‘liqligida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda iqtisodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya va shaxsiy rivojlanish uyg‘unligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa qilib, bo‘lajak rahbarlarda iqtisodiy va kommunikativ, ayniqsa ingliz tilidagi kompetensiya-larni integrativ rivojlantirish ularning kasbiy muvaffaqiyati va global raqobatbardoshligini ta’minlaydi

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak rahbar kadrlarning iqtisodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, ushbu yo‘-nalishda quyidagi tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bo‘lajak rahbarlarni tayyorlashda iqtisodiyot, menejment, kommunikatsiya va ingliz ti-lini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish Shu maqsadda integrativ o‘quv dasturlarini joriy etish taklif etiladi. Bu yondashuv talabalarda iqtisodiy fikrlash va professional muloqotni birgalikda rivojlantirib, ularni real boshqaruv faoliyatiga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, rahbarlar uchun kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim bo‘lib, buning uchun debat, taqdimot, role-play va muzokara mashg‘ulotlaridan ko‘proq foydalanish lozim. Ayniqsa, in-gliz tilida muloqot qilishni rivojlantirish talab etiladi. Bu talabalarda fikrni aniq yetkazish, jamoani bosh-qarish va global muhitda samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsi-yasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoni. https://lex.uz/

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 606-qarori https://lex.uz/

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2020) “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF–6079-farmoni. https://lex.uz

(4). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF–73-farmon. https://lex.uz

(5). Yukl G.A. (2013). *Leadership in organizations* (8th ed.). Pearson Education.

(6). Liu E.H., Chambers C.R., & Moore C. (2023). Fifty years of research on leader communication: What we know and where we need to go. The Leadership Quarterly. https://doi.org/10.1016/j.leaqua.2023.101678

(7). Figueiredo P.C.N., Sousa M.J., & Tomé E. (2022). Integrative model of the leader competences. European Journal of Training and Development, 47(5/6), p. 533–564. https://doi.org/10.1108/EJTD-04-2021-0055

(8). Chen L., & Wu J. (2023). English language proficiency as a determinant of global leadership effectiveness. Leadership & Organization Development Journal, 44(3), p. 245–260.

(9). Musaxanova, G.M. (2023). Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiya-larini rivojlantirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies), 11(2), 408–414.

(10). Sultonmurotova S.M. (2025). Effectiveness and development prospects of digital-pedagogical integration in English language education. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(5), p. 16–20.

(11). Dr. Shirisha Deshpande, Dr.A.Vijayalakshmi, Dr.Ajatashatru Samal, Poornima U., Kotehal Dr. Chethan kumar K,&Dr.B.Muthukrishnan. (2024). The Role of Effective Communication in Leadership: A Comparative Analysis of English Language Skills and Management Strategies. Evolutionary studies in imaginative culture, 1434–1441. https://doi.org/10.70082/esiculture.vi.1513.

Otajonova Mexriban Shanazarovna (Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Urganch, O‘zbekiston; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

“ISHONCH” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK LINGVOMADANIYATIDAGI MAZMUNIY-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada “ishonch” konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mazmuniy-struktur xususiyatlari qiyosiy aspektda tahlil qilinadi. Konseptning yadroviy va periferik semalari, lingvo-madaniy komponentlari, leksik-frazeologik ifodalanish vositalari hamda baholovchi-pragmatik xususiyat-lari yoritiladi. Tadqiqot natijasida “ishonch” konsepti har ikki tilda umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, uning mazmuniy ko‘lami, madaniy assotsiatsiyalari va nutqiy voqelanishida milliy o‘ziga xosliklar mav-judligi asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *ishonch, konsept, lingvokulturologiya, semantika, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Отажонова Мехрибан Шаназаровна (Независимый исследователь Каракалпакского государственного университета, Ургенч, Узбекистан; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «ДОВЕРИЕ» В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ семантико-структурных особенностей концепта «доверие» в английской и узбекской лингвокультурах. Рассматриваются ядровые и периферийные семы концепта, его лингвокультурные компоненты, лексико-фразеологические средства выражения, а также оценочно-прагматические характеристики. В результате исследования установлено, что, несмотря на наличие общего когнитивного основания концепта «доверие» в обоих языках, он характеризуется национально-культурной спецификой в плане семантического объёма, культурных ассоциаций и особенностей речевой реализации.*

Ключевые слова: *доверие, концепт, лингвокультурология, семантика, прагматика, английский язык, узбекский язык.*

Otajonova Mekhriban Shanazarovna (Independent Researcher of Karakalpak State University, Urgench, Uzbekistan; E-mail: atajanovam1972@gmail.com)

SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF THE CONCEPT OF "TRUST" IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURES

Annotation. *This article provides a comparative analysis of the semantic and structural features of the concept of "trust" in English and Uzbek linguocultures. The study examines the core and peripheral semantic components of the concept, its linguocultural dimensions, lexical and phraseological means of expression, as well as its evaluative and pragmatic characteristics. The findings demonstrate that, although the concept of "trust" in both languages is based on a shared cognitive foundation, it exhibits distinct national and cultural specificities in terms of its semantic scope, cultural associations, and patterns of discursive realization.*

Keywords: *trust, concept, linguoculturology, semantics, pragmatics, English language, Uzbek language.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda konseptlar muammosi til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yoritishda markaziy nazariy kategoriyalardan biri sifatida qaralmoqda [1], [2]. Konsept inson ongida shakllanadigan, til vositasida verballashadigan va milliy-madaniy tajribani aks ettiradigan murakkab mental tuzilmadir [3], [4]. Shu ma’noda emotsional-aksiologik mazmunga ega bo‘lgan konseptlar, xususan “ishonch” konsepti, insonning borliqni qabul qilishida, shaxslararo munosabatlarni tashkil etishida, axborotga baho berishida va ijtimoiy xulqini belgilashida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Ishonch” konsepti insoniyat tafakkurida universal xarakterga ega bo‘lgan tushunchalardan biridir. U nafaqat ruhiy holat yoki hissiy munosabat, balki shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va kommunikativ amaliyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qatlamli mental birlikdir. Mazkur konsept bir tomondan haqiqatga ichki moyillik, tayanch va barqarorlikni bildirsa, ikkinchi tomondan sadoqat, yaqinlik, e’tiqod, ishonchlilik, mas’uliyat va istiqbolga ijobiy qarash kabi semantik-pragmatik belgilarni o‘zida mujassam etadi [5], [6].

“Ishonch” konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi voqelanishi mazmuniy va struktur jihatdan qiziqarli ilmiy kuzatishlarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilidagi *trust, confidence, belief, faith, reliance* kabi birliklar “ishonch”ning turli semantik qirralarini ifodalasa, o‘zbek tilidagi *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch, umid* kabi birliklar ushbu konseptning milliy-madaniy ko‘lamini aks ettiradi [7], [8]. Shu bois bu konseptni ikki til materiali asosida qiyosiy-lingvokulturologik tahlil qilish har ikki xalqning dunyoni idrok etish usuli, baholash mezonlari va kommunikativ odatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ishonch hodisasi psixologiya, falsafa, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvomadaniy mazmuni hamda struktur tashkil topishi hali ham chuqur qiyosiy tadqiqni talab qiladi. Ayniqsa, konseptning yadrosi, periferiyasi, leksik-semantik ifodalanishi, metaforik va frazeologik tasviri, nutqiy va baholovchi funksiyalari milliy dunyoqarash bilan bog‘liq holda o‘rganilishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi “ishonch” konseptining ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatidagi mazmuniy-struktur xususiyatlarini aniqlash, uning konseptual yadrosi va periferik qatlamlarini tavsiflash, leksik-frazeologik ifodalanish vositalari hamda baholovchi-pragmatik funksiyalarini qiyosiy asosda yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilarni qamrab oladi:

1) “ishonch” konseptining konseptologik va lingvokulturologik mohiyatini yoritish;

2) mazkur konseptning ingliz va o‘zbek tillaridagi semantik yadrosi va struktur qatlamlarini aniqlash;

3) “ishonch”ni ifodalovchi leksik, frazeologik va metaforik vositalarni qiyosiy tavsiflash;

4) konseptning baholovchi, aksiologik va pragmatik xususiyatlarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan izohlash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot konseptologiya, lingvokulturologiya, kognitiv semantika va pragmatika yo‘nalishlaridagi nazariy qarashlar asosida olib borildi. Konseptning milliy-madaniy mazmunini aniqlashda S.A.Askoldov, Y.S.Stepanov, S.G.Vorkachev, V.A.Maslova, N.D.Arutyunova, E.S. Kubryakova kabi olimlarning nazariy qarashlari metodologik asos bo‘lib xizmat qildi [1], [3], [4], [5], [9]. Shuningdek, til va madaniyat munosabati, nutqiy ma’no hamda pragmatik talqin masalalarida G.Leech, G. Yule, A.Wierzbicka, G.Lakoff, M.Johnson va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy xulosalariga tayanildi [10], [11], [12], [13].

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Konseptual tahlil metodi orqali “ishonch” konseptining mazmuniy yadrosi, periferik zonasi, baholovchi va obrazli qatlamlari aniqlandi. Ushbu metod konseptning faqat lug‘aviy emas, balki mental va madaniy mazmunini ochish imkonini berdi [3], [4].

Qiyosiy-chog‘ishtirma metod ingliz va o‘zbek tillarida “ishonch”ni ifodalovchi til birliklarining mazmuniy va funksional xususiyatlarini taqqoslashda qo‘llandi. Bu metod universal va milliy xususiyatlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qildi [8], [14].

Semantik tahlil metodi *trust, confidence, belief, faith, reliance* hamda *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch* kabi birliklarning semantik komponentlarini ajratish va ularning o‘zaro munosabatini aniqlashda qo‘llanildi [7], [15].

Lingvokulturologik tahlil yordamida “ishonch” konseptining frazeologik, paremiologik, metaforik va madaniy ifodalanish modellari o‘rganildi. Bu yondashuv konseptning milliy ongda qanday shakllanganini tushuntirishga imkon berdi [5], [16].

Pragmatik tahlil orqali “ishonch”ning nutqiy aktlardagi ishtiroki, adresatga ta’siri, ijtimoiy munosabatlarni boshqarishdagi o‘rni va baholovchi funksiyasi ochib berildi [10], [11].

Material sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi izohli lug‘atlar, lingvistik tadqiqotlar, maqol-matal, frazeologik birliklar hamda badiiy va publitsistik matnlardagi tipik ifodalar umumlashtirildi.

Natijalar. “Ishonch” konseptining konseptual mohiyati. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “ishonch” konsepti har ikki lingvomadaniyatda insonning bilish faoliyati, shaxslararo munosabatlari va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan aksiologik konsept sifatida namoyon bo‘ladi. U epistemik, emotsional va ijtimoiy komponentlarni o‘zida birlashtiradi. Epistemik jihatdan “ishonch” ma’lumot yoki hodisaning haqqoniyligini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, emotsional jihatdan ruhiy xotirjamlik, ichki barqarorlik va ijobiy tayanchni ifodalaydi. Ijtimoiy jihatdan esa u sadoqat, yaqinlik, ishonchlilik va mas’uliyat bilan chambarchas aloqadordir [6], [9].

Konseptologik nuqtayi nazardan “ishonch” konsepti quyidagi uch qatlamli strukturaga ega ekani aniqlandi:

1) yadroviy qatlam – ishonish, tayanch, qabul, haqiqatga moyillik;

2) yaqin periferik qatlam – sadoqat, vafodorlik, e’tiqod, xotirjamlik, umid;

3) uzoq periferik qatlam – ijtimoiy nufuz, obro‘, kafolat, mas’uliyat, suyanch, ma’naviy yaqinlik.

Mazkur qatlamlar har ikki tilda mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuniy to‘ldirilishi va madaniy salmog‘i bir xil emas.

Ingliz tilida “ishonch” konseptining mazmuniy-struktur xususiyatlari. Ingliz tilida “ishonch” konsepti bir necha leksik birliklar orqali differensial tarzda ifodalanadi. Ulardan eng asosiylari *trust, confidence, belief, faith, reliance* birliklaridir [7], [15].

Trust birligi asosan shaxslararo ishonch, ishonchlilik va muayyan shaxs yoki institutga tayana olish ma’nolarini bildiradi. Bu birlikda ijtimoiy va etik komponent kuchli seziladi. *Trust* ko‘pincha halollik, mas’uliyat va barqarorlik bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Demak, ingliz lingvomadaniyatida ishonch ko‘p hollarda ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

Confidence birligi esa o‘ziga ishonch, vaziyatni nazorat qila olish, qat’iyat va ichki ishonchni ifodalaydi. Shu sababli ingliz tilida ishonch konsepti tashqi ijtimoiy tayanch bilan bir qatorda ichki psixologik tayanchni ham faol qamrab oladi. Bu holat individualizmga moyil madaniy kod bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin [12].

Belief va **faith** birliklari esa ishonchning e’tiqodiy, falsafiy yoki diniy qirralarini ifodalaydi. *Belief* ko‘proq bir fikr, g‘oya yoki qarashga ishonishni anglatsa, *faith* chuqur, barqaror, ko‘pincha diniy yoki axlo-

qiy tayanchga ega bo‘lgan ishonchni bildiradi. Demak, ingliz tilida “ishonch” konsepti semantik jihatdan ancha differensiallashgan va uning alohida qirralari maxsus birliklar bilan ifodalanadi.

Mazmuniy-struktur jihatdan ingliz tilidagi “ishonch” konseptida quyidagi komponentlar ustuvor ekani kuzatildi:

- reliability – ishonchlilik;
- certainty – ichki ishonch va qat’iyat;
- self-assurance – o‘ziga ishonch;
- faithfulness – sadoqat;
- institutional trust – tizim va institutlarga ishonch.

Bu esa “ishonch” konseptining ingliz lingvomadaniyatida shaxsiy, ijtimoiy va institutsional qatlamlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida “ishonch” konseptining mazmuniy-struktur xususiyatlari. O‘zbek tilida “ishonch” konsepti asosan *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch, umid* kabi birliklar orqali voqelanadi [8], [17]. Bu birliklar orasida *ishonch* konsept yadrosini tashkil etsa, boshqa birliklar uning yaqin va uzoq periferik qatlamlarini boyitadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida “ishonch” tushunchasi ko‘pincha faqat epistemik qabul yoki ichki psixologik tayanch sifatida emas, balki axloqiy-me’yoriy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ya’ni ishonch berish va ishonchni oqlash o‘zbek madaniyatida shaxsning odob-axloqi, vijdoni, or-nomusi va sadoqati bilan bog‘lanadi. “Ishonchni oqlamoq”, “ishonch bildirmoq”, “ko‘ngli to‘q bo‘lmoq”, “suyanadigan odami bor” kabi ifodalar bunga dalildir. Bu birliklarda ijtimoiy yaqinlik, ma’naviy tayanch va insoniy fazilatlar markaziy o‘rin tutadi.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi “e’tiqod” birligi “ishonch”ning diniy-ma’naviy qatlamini ifodalaydi. “Ko‘ngil to‘qligi” esa ishonchning ruhiy xotirjamlik va ichki osoyishtalik bilan bog‘liq qirrasini ko‘rsatadi. “Suyanch” birliklari esa insonning boshqa bir shaxsga yoki qadriyatga tayana olishini anglatib, konseptning munosabat va tayanch semasini kuchaytiradi.

Mazmuniy-struktur tahlil o‘zbek tilidagi “ishonch” konseptida quyidagi komponentlar ustuvor ekanini ko‘rsatdi:

- sadoqat va vafodorlik;
- ma’naviy yaqinlik;
- axloqiy poklik;
- ko‘ngil xotirjamligi;
- tayanch va suyanch;
- e’tiqodiy mustahkamlik.

Demak, o‘zbek lingvomadaniyatida “ishonch” konsepti ijtimoiy-axloqiy va emotsional-ma’naviy mazmun bilan ancha kuchli to‘ldiriladi.

“Ishonch” konseptining leksik-frazeologik ifodasi. Tahlillar har ikki tilda “ishonch” konsepti nafaqat alohida leksik birliklar, balki frazeologik va metaforik vositalar orqali ham faol verballashishini ko‘rsatdi. Ingliz tilida *to place trust in someone, to gain confidence, to keep faith, in safe hands, build trust* kabi birikmalar ishonchning quriluvchi, mustahkamlanadigan va saqlanadigan hodisa sifatida tasavvur qilinishini ko‘rsatadi. Bu yerda “ishonch” ko‘pincha moddiy qurilma yoki ijtimoiy kapital metaforalari bilan bog‘lanadi [13].

O‘zbek tilida esa “ishonch bildirmoq”, “ishonchni oqlamoq”, “ko‘ngil qo‘ymoq”, “ko‘ngli to‘q bo‘lmoq”, “suyanadigan odam”, “ishonchli tayanch” kabi birikmalar keng qo‘llanadi. Bu ifodalarda “ishonch” ko‘proq ko‘ngil, tayanch, yaqinlik va ma’naviy bog‘liqlik bilan aloqador holda metaforalashadi. Shunday qilib, ingliz tilida ishonch “barpo qilinadigan” va “boshqariladigan” resurs sifatida, o‘zbek tilida esa ko‘proq “ko‘ngilga yaqin”, “suyanib bo‘ladigan” va “oqlanishi kerak bo‘lgan” axloqiy-ruhiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologik sathda ham muhim farqlar kuzatildi. Ingliz tilida ishonch ko‘pincha professional va institutsional munosabatlar bilan bog‘liq tarzda turg‘unlashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida shaxslararo yaqinlik, oila, jamoadagi munosabat va insoniy fazilatlar bilan bog‘liq ifodalar ustunlik qiladi. Bu holat milliy dunyoqarash va kommunikativ madaniyatdagi tafovutlarni aks ettiradi.

“Ishonch” konseptining baholovchi-pragmatik xususiyatlari. “Ishonch” konsepti har ikki tilda ijobiy aksiologik qiymatga ega konseptlardan biri ekani aniqlandi. U, odatda, ijtimoiy jihatdan ma’qullanadigan, axloqiy va kommunikativ jihatdan konstruktiv hodisa sifatida baholanadi. Shu bilan birga, uning pragmatik vazifalari ham rang-barangdir.

Nutqiy jarayonda “ishonch” quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- adresat bilan yaqinlik yaratish;
- axborotning haqqoniyligini mustahkamlash;
- ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish;
- ta’sirchanlik va ishontirish strategiyasini amalga oshirish;
- muallif yoki gapiruvchining ijobiy pozitsiyasini ko‘rsatish [10], [11].

Ingliz tilida ishonch ifodasi ko‘pincha aniqroq verbal markerlar orqali beriladi: *I trust you, I am confident, I believe, you can rely on me*. O‘zbek tilida esa bunday ifodalar ko‘proq emotsional va munosabatga yo‘naltirilgan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: “sizga ishonaman”, “ko‘nglim to‘q”, “sizga suyanaman”, “ishonchingizni oqlayman”. O‘zbek tilidagi variantlarda ijtimoiy yaqinlik va ma’naviy javobgarlik semalari kuchliroq seziladi.

Pragmatik jihatdan qaraganda, “ishonch” konsepti ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U ayniqsa rasmiy, oilaviy, do‘stona va tarbiyaviy diskurslarda yuqori faoliyat ko‘rsatadi. Bu holat mazkur konseptning nafaqat semantik, balki ijtimoiy-pragmatik kategoriyaga aylanganini tasdiqlaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari “ishonch” konsepti ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida umumiy kognitiv asosga ega bo‘lsa-da, uning mazmuniy to‘ldirilishi va struktur tashkil topishi milliy-madaniy omillar bilan sezilarli darajada shartlanganini ko‘rsatdi. Har ikki tilda ham ishonch haqiqatni qabul qilish, tayanch topish va ijobiy baholash bilan bog‘liq. Biroq bu umumiylik konseptning voqelanish shakllaridagi farqlarni inkor etmaydi.

Ingliz tilida “ishonch” konsepti semantik jihatdan differensiallashgan holda, bir necha alohida birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa konseptning ichki tarkibi ancha tarmoqlashganini bildiradi. Shaxslararo ishonch, o‘ziga ishonch, e’tiqodiy ishonch va tizimlarga ishonch alohida leksik shakllar bilan ifodalanishi ingliz lingvomadaniyatining analitik va ijtimoiy-funksional xarakterini namoyon qiladi.

O‘zbek tilida esa “ishonch” konsepti ko‘proq integrallashgan holda, bitta asosiy yadroviy birlik atrofida turli ma’naviy, axloqiy va emotsional qirralarni birlashtiradi. Bu holat o‘zbek lingvomadaniyatida ishonchning shaxslararo yaqinlik, insoniy fazilat, sadoqat va ma’naviy poklik bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ya’ni ,o‘zbek tilidagi “ishonch”, ko‘pincha, epistemik hodisadan ko‘ra kengroq ijtimoiyaxloqiy kategoriya sifatida yashaydi.

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaraganda, ingliz tilida “ishonch”ning institutsional qatlami ancha faol, o‘zbek tilida esa interpersonal va ma’naviy qatlami ustun. Bu tafovut frazeologik birliklarda, baholovchi ifodalarda, nutq strategiyalarida va metaforik modellashtirishda yaqqol ko‘rinadi.

Mazkur natijalar til o‘qitish, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya va diskurs tahlili uchun muhim xulosalar beradi. Xususan, “ishonch”ning ingliz va o‘zbek tillarida teng qiymatli leksik muqobilini topish har doim ham oson emas, chunki har bir birlik ortida ma’lum lingvomadaniy model turadi. Demak, mazkur konseptni qiyosiy tadqiq etishda faqat lug‘aviy muqobillik emas, balki uning mazmuniy-struktur va pragmatik ko‘lamini ham hisobga olish zarur.

Xulosa. Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, “ishonch” konsepti ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatida murakkab mazmuniy-struktur tuzilishga ega bo‘lgan aksiologik konsept hisoblanadi. U epistemik, emotsional, axloqiy va ijtimoiy komponentlarni o‘zida birlashtiradi.

Ikkinchidan, mazkur konseptning yadroviy qatlamini har ikki tilda ishonish, tayanch, qabul va ijobiy baholash semalari tashkil etsa, periferik qatlamlarda milliy-madaniy tafovutlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, ingliz tilida “ishonch” konsepti *trust, confidence, belief, faith, reliance* kabi differensial birliklar orqali ko‘proq tarmoqlashgan holda ifodalanadi va unda institutsional hamda individual komponentlar kuchliroq namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, o‘zbek tilida “ishonch” konsepti *ishonch, ishonmoq, e’tiqod, ko‘ngil to‘qligi, suyanch* kabi birliklar orqali verballashadi va unda sadoqat, ma’naviy yaqinlik, axloqiy poklik hamda ko‘ngil xotirjamligi semalari ustunlik qiladi.

Beshinchidan, “ishonch” konseptining frazeologik va metaforik ifodalanishi har ikki lingvomadaniyatda ushbu konseptning milliy qiyofasini belgilaydi: ingliz tilida u ko‘proq boshqariladigan ijtimoiy resurs, o‘zbek tilida esa oqlanishi va asralishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Oltinchidan, “ishonch” konseptini qiyosiy-lingvokulturologik o‘rganish ingliz va o‘zbek tillari egalarining dunyoqarashi, baholash mezonlari va kommunikativ strategiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. Москва, 1997, с. 267–279.

(2). Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. Москва, Языки славянской культуры, 2004, 560 с.

(3). Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Москва, “Академический проект”, 2004, 992 с.

(4). Воркачев С.Г. Концепт как “зонтиковый термин”. Язык, сознание, коммуникация. 2002, №24, с. 5–12.

(5). Маслова В.А. Лингвокультурология. Москва, “Академия”, 2001, 208 с.

(6). Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. Москва, “Языки русской культуры”, 1999, 896 с.

(7). Longman Dictionary of Contemporary English. Harlow: Pearson Education, 2009, 2082 p.

(8). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Университет”, 2006, 476-бет.

(9). Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва, “Языки русской культуры”, 1996, 288 с.

(10). Leech G. Principles of Pragmatics. London, “Longman”, 1983, 250 p.

(11). Yule G. Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, 1996, 138 p.

(12). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York, Oxford University Press, 1997, 317 p.

(13). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, 242 p.

(14). Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд. Лингвистик тадқиқот методологияси. Тошкент, “Akademnashr”, 2012, 312-бет.

(15). Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford, Oxford University Press, 2015, 1820 p.

(16). Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008, 300-бет.

(17). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab. Toshkent, “Fan”, 2012, 180-bet.

Mamatov Ravshanbek Rustamovich (Qo‘qon universiteti Andijon filiali “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); ravshanbek-mamatov@mail.ru)

NEMIS YOZUVCHISI HERTA MYULLER ASARLARIDA METAFORIK TASVIRLAR TALQINI

Annotatsiya. *Herta Myuller o‘z asarlarida badiiy tasvirni xalqchil va ommabop bo‘lishi uchun metaforik tasvirlardan samarali va o‘rinli foydalangan. Herta Myuller romanlarida, asosan, ob-havo, tabiat manzalari, mevalar, hayvon va buyum nomlari bilan bog‘liq metaforalar qo‘llanilgan.*

Kalit so‘zlar: *metafora, Herztier, metaforik tasvir, leksik ma’no*.

Маматов Равшанбек Рустамович (Исполняющий обязанности доцента кафедры иностранных языков, д.ф.ф.н (PhD) Андижанского филиала Кокандского университета; ravshanbek-mamatov@mail.ru)

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НЕМЕЦКОЙ ПИСАТЕЛЬНИЦЫ ГЕРТЫ МЮЛЛЕР

Аннотация. *Герта Мюллер эффективно и уместно использовала метафорические образы в своих работах, чтобы сделать художественный образ народным и популярным. В романах Герты Мюллер в основном использовались метафоры, связанные с погодой, природными пейзажами, фруктами, названиями животных и предметов.*

Ключевые слова: *метафора, Herztier, метафорический образ, лексическое значение.*

Mamatov Ravshanbek Rustamovich (Acting Associate Docent, (PhD) of the Department of Foreign Languages at Andijan Branch of Kokand University; ravshanbek-mamatov@mail.ru)

INTERPRETATION OF METAPHORICAL IMAGERY IN THE WORKS OF THE GERMAN WRITER HERTA MÜLLER

Annotation. *Herta Muller effectively and appropriately used metaphorical images in her works to make the artistic image popular and popular. Herta Muller’s novels mainly used metaphors related to the weather, natural landscapes, fruits, names of animals and objects.*

Key words: *metaphor, Herztier, metaphorical image, lexical meaning.*

Kirish. Herta Myuller romanlarida qo‘llanilgan metaforalarning tahliliga o‘tishdan oldin mazkur badiiy tasvir vositasi haqida to‘xtalib, bu boradagi tilshunos hamda adabiyotshunos olimlarning fikrlari va ta’riflarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Metafora atamasi antik davr faylasufi Aristotel nomi bilan bog‘liq. Aristotelning “Poetika” asarida, dastlab, metafora – biror narsaga boshqasiga tegishli bo‘lgan nomni qo‘llash” deb ta’riflaydi. [1;96-b.].

Metaforalarni kundalik hayotimizda hamda badiiy asarlarda ko‘plab uchratamiz va nutqimizda doim qo‘llaymiz. Odatda metaforalar tilimizni va matnlarni bezash yoki nimanidir tushuntirish uchun ishlatiladi yoki shunchaki gapirganimizda biz unga o‘rganib qolganmiz va bu metaforalar orqali biz boshqalarga qanday munosabatda bo‘lishimiz mumkinligini tushunamiz. Metaforalarning mohiyati bir narsani butunlay boshqacha ifodalar orqali tushunish va boshdan kechirishdir. Yorqin tasvirlar metafora yordamida yaratiladi va metafora aslida yozilgan narsalarni mazmunli va tushunarli qilishga yordam beradi [2;71-b.].

Adabiyotlar tahlili. Ingliz olimi Gerard Stin metaforalarni anglash uchun to‘rt xil jihatga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Bular – tilning tuzilishi, bilimlar haqida tassavurlarga ega bo‘lish, jarayonning tuzilishi va nutq kontekstiga.

Adabiy nutqda subyektivlik, xayolparastlik, polivalensiya va orientatsiya o‘qilgan narsalarni o‘zlashtira olish uchun ishlatilishi mumkin. Bu jihatlar metaforalarni tushunish jarayoniga ham ta’sir qiladi. Metaforalarni qanday tushunishimiz bevosita adabiy matnlarni o‘qish uslubimizga ham bog‘liqdir [3;241-b.].

Amerikalik olima Gloria Harrisonning ta’rifga ko‘ra, metafora – bu majoziy ma’noda ishlatiladigan so‘z yoki ibora. Metafora yordami bilan ko‘p insonlar u yoki bu hodisani nima deb atashni bilmaslik natijasida, his qilish, xohish yoki fikr, boshqalarga tushunarli bo‘lgan narsalarni ifoda etishdir. Agar his qilsangiz, lekin tushuntira olmasangiz nima bo‘ladi? Shunda odam metafora bilan murojaat qiladi [4;1–b.].

Rus olimi N.D.Arutyunovaning fikricha, metafora boshqa sinfga kiruvchi hodisani tavsiflash yoki nomlash uchun tushunchalar, hodisalar va hokazolarning ma’lum bir ma’nosini bildiruvchi so‘zlarni ishlatishdan iborat bo‘lgan nutq vositasidir [5;296-b.].

Yana bir rus tadqiqotchisi O.Anatolyevna ta’kidlashicha, metafora – bu bir tasvirning ikkinchi bir tasvirga o‘tkazuvchi hodisa bo‘lib, ular harakatning o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, ramzlar va metaforalar orqali gavdalanadi. Metafora bilan ta’kidlangan voqelik belgilar orqali ko‘chiriladi, barcha elementlarga yetkaziladi va bu belgilarga muvofiq har bir element o‘z o‘rnini topadii. Metafora lingvistik shaklda, harakatlar, narsalar yoki o‘ziga xos shaxslar shaklida gavdalanishi mumkin [6;60-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Herta Myullerning “Herztier” romanida to‘liq ko‘chirilgan holda bir tomonlama ma’no kasb etuvchi metaforalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, roman davomida kapitan Pjeliga nisbatan ham bir necha bor ochko‘z it metaforasi qo‘llaniladi. Jumladan,“Er trug in den Augen die Dunkelheit der Stadt. Und die Gier eines mageren Hundes” (Uning nigohlarida shaharning zulmati bor edi. Shuningdek, itning ochko‘zligini ko‘rish ham mumkin) [7;20-b.].

Mazkur romanning nomi ham metaforik ma’no kasb etadi. “Herztier” so‘zini o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilsak “Hayvonyurak” hamda rus tiliga “Сердце-зверь” (Hayvonyurak) deb tarjima qilingan va shu nomda nashr etilgan.

“Das Herztier” leksemasi ikki tomonlama metaforaga xos so‘z bo‘lib, to‘liq metaforik ko‘chishdir. Metaforada potensial leksik ma’no doirasida integral semantik (Lebewesen, Anim, im Organismus eines Lebewesens) va differensial (gierig, lebhaft, lebendig, instinktiv) xususiyatlar mavjud. Ushbu transferning natijasi yashashga instinktiv xohish haqidagi bilimlarning ifodasidir. Bu istak, assotsiativ o‘xshashlik bilan, asosan, instinktlarga asoslangan hayvonning istaklari bilan ham bog‘liq. “Instinktiv” arxisemasi o‘z ma’nosida “gefühlsmäßig”, "unwillkürlich" semelarini o‘z ichiga olganligini hisobga olsak, insonning xohish-istaklari haqidagi tushunchalar ko‘rsatilgan: ular instinktiv (instinktiv), ixtiyorsiz (unwillkürlich) bo‘lib, bu odamning hayvoniy nafslarga o‘xshatilganligini ko‘rsatadi [8;50-b].

Tahlil va natijalar. Biz ham mazkur roman nomini o‘zbekcha „Hayvonyurak“ metaforasi orqali berishga harakat qildik, chunki romanda Ruminiyadagi insonlarning doimiy qo‘rquv va zo‘ravonlikka to‘la hayoti, ularning hadik ostida yashashlari haqida hikoya qilinadi.

Ushbu parchada oddiy xalqning jamiyatdagi roli lavhalarini kuzatamiz:

“Wenn das Lied zu Ende ist, glaubt sie, das Kind liegt tief im Schlaf. Sie sagt: „Ruh dein Herztier aus, … .”(Qo‘shiq tugagach, u bolasini uxlab qoldi deb o‘ylaydi va shunday deydi:“Orom olsin Quyonyuragim,…) [9;40-b.].

Roman davomida nemis adibi “Herztier” so‘zini ko‘p marotaba qo‘llaydi. Ushbu so‘zni turli xil ma’noda tushunishimiz mumkin. Ijodkor zulmat tufayli o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida ham qo’rqoqlik va hadikni o‘sib borayotganini, bundan ota-onalar qattiq qayg‘uga tushayotganini tasvirlashga harakat qiladi.

Muhokama. Unsere Herztiere *flohen wie Mäuse* – ushbu berilgan parchadagi metafora bilishimiz mumkinki, qo‘rqoqlik belgisi nemis tilida *sichqon* so‘zi orqali berilyapti.

Asl metaforalar das Tier, das Geweih, die Flügel metaforalari bo‘lib, so‘zlarning formatlarini turli semantik sohalardagi ikkita referent bilan bog‘laydi – hayvonlar dunyosi, bir tomondan, inson dunyosi. Hikoyani yuqorisida qayd etilgan nominal metaforalarning sintaktik va semantik valentligining namoyon bo‘lishi tufayli rivojlanadi. Ularning joylashishi sintaktik-semantik darajada sodir bo‘ladi, natijada sxema bo‘yicha ketma-ket aloqa bog‘lash orqali o‘zaro bog‘langan metaforik jumlalar hosil bo‘ladi.

“Hayvonyurak (Herztier)” romanida umumiy 22 ta metaforik jumlalar turlicha tuzilgan, ammo “hayvon tanasining qismlari” ikkita metaforik qatori bilan bog‘liq: das fremde Tier – der Hund – die Flügel va “hayvon tanasining qismlari bilan harakatlar”: schnell laufen, stehen bleiben, verlassen, wieder kommen, sitzen, zu Fuß kommen, gehen, fahren, schlagen, fliehen, wegfliegen, zurückkommen, sich setzen, wiederschlagen, zurücksetzen, zurückkehren, langsam gehen, leuchten, weg aus der Stadtsein, yagona semantik makonni tashkil qiladi. Butun matn lingvistik belgilarning chiziqli ketma-ketligi ko‘rinishidagi murakkab format bo‘lib, bu format bir denotativ vaziyatdan ikkinchisiga o‘tkaziladi. Hayvonlarning harakatlanish holati xayoliy denotativ vaziyat vazifasini bajaradi [10;51-b.].

Xulosa. Metaforaning asosiy mexanizmi bu dunyoning yaxlit qiyofasini qurishda ishtirok etish imkonini beruvchi ko‘chirishdir. Agar metafora bo‘lmasa, bizning dunyomiz bir-biridan ajratilgan eshiksiz xonalari bo‘lgan uyga o‘xshaydi. Ammo metaforik uzatish tufayli alohida elementlar ma’no oladi va bir butun bo‘ladi.

Davr dunyoning shakli va shakli haqidagi savolga javob berish uchun ichki ehtiyojga bo‘ysunib, metaforalarni yaratadi. Metaforalar matnning ikki sathi – obrazli va real tasvirlar o‘rtasidagi bog‘lovchi rishtalar bo‘lib, turli hodisalar o‘rtasida parallellik o‘tkazish imkonini beradi. Aynan metaforalar bir-biridan uzoq bo‘lgan tushunchalarni bog‘laydi, kutilmagan va esda qolarli ichki shaklga ega tasvirlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Аристотель. Поэтика. Пер. М.Л.Гаспарова. Собр. соч. в 4 томах, Т.4, “Мысль”, Москва, 1983 с. 96.

(2). Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. „Akademnashr“, Toshkent, 201. 71-bet.

(3). Gerard S. Understanding Metaphor in Literature. Harlow Essex: Longman Group Limited. 1994. – S. 241.

(4). Harrison G. https://uz.scienceforming.com/10785-what-is-a-metaphor. 2024.

(5). Arutyunova A. Metafora. Tilshunoslik. Katta ensiklopedik lug‘at. N.katta Rossiya, ensiklopediyasi. Moskva, 1998, 296-bet.

(6). Анатольевна О. Метафора как код культуры диссертации автореферата. Москва, 2002, с. 60.

(7). Müller H. Herztier. Fischer Verlag, der 8. Auflage. Frankfurt, 2021, c. 20.

(8). Хайрулина А. Концептуальная метафора как механизм осмысления диктаторского режима в немецком художественном дискурсе. Дис., Иркутск, 2013, с. 50.

(9). Müller H. Herztier. Fischer Verlag, der 8. Auflage. Frankfurt, 2021, p. 40.

(10). Хайрулина А. Концептуальная метафора как механизм осмысления диктаторского режима в немецком художественном дискурсе. Дис., Иркутск, 2013, с. 51.

Fayzullayev Azamat (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti;
E-mail: azamat.fayzullayev.2000@gmail.com)

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA O‘SMIRLAR RUHIYATI TASVIRI VA MADANIY KONTEKST

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalar nasrida tasvirlangan o‘smir qahramonlarda milliy qadriyatlar qanday aks ettirilishi va madaniy kontekstning shakllanishi tahlil etiladi. Ikkala tildagi badiiy asarlardan, jumladan Charlz Dikkensning “Buyuk umidlar”, shuningdek, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asaridan misollarni o‘z ichiga olgan holda, maqola o‘smir qahramonning o‘z an’ana va milliy qadriyatlarini qanday yetkazishini o‘rganadi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy o‘ziga xoslik, milliy qadriyatlar, bolalar nasri, ingliz adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, qiyosiy adabiyot, o‘smirlar obrazi, madaniyatlararo tahlil.*

ПСИХОЛОГИЯ ПОДРОСТКОВ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация*. В данной статье анализируется, как национальные ценности отражаются в образах подростков-героев, изображенных в английской и узбекской детской прозе, а также как формируется культурный контекст. Используя примеры из произведений на обоих языках, «Боль-*

шие надежды» Чарльза Диккенса и «Звездная ночь» Пиримкула Кадырова, статья исследует, как подростки-герои передают свои традиции и национальные ценности.

Ключевые слова: *культурная идентичность, национальные ценности, детская проза, английская литература, узбекская литература, сравнительное литература, образ подростков, межкультурный анализ.*

ADOLESCENT PSYCHOLOGY AND CULTURAL CONTEXT IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE

Annotation. *This article analyzes how national values are reflected in teenage heroes depicted in English and Uzbek children's prose and the formation of cultural context. Using examples from works of fiction in both languages, as Charles Dickens' Great Expectations and Pirimqul Kadyrov's "Yulduzli tunlar", the article examines how teenage heroes convey their traditions and national values.*

Keywords: *cultural identity, national values, children's prose, English literature, Uzbek literature, comparative literature, image of teenagers, cross-cultural analysis.*

Kirish. Adabiyot azaldan xalqlarning o‘z qadriyat va an’analarini keyingi avlodga uzatishida muhim vosita sifatida xizmat qilib keladi. Ayniqsa, bolalar adabiyotida bu jarayon aniq ko‘zga tashlanadi. Bunday asarlarda yosh qahramonlarning jamiyatda yashash va o‘z o‘rnini topish, ijtimoiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni tasvirlanadi; shu orqali o‘quvchi ham muayyan madaniyat, millat yoki mentalitetning asl mazmun-mohiyatini anglaydi.

O‘smirlik davri, bolalik va yetuklik oralig‘idagi muhim bosqich sifatida, badiiy talqinda alohida o‘rin tutadi. Chunki aynan shu davrda shaxsning milliy va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi, ularni ongiga singdirishi hamda amaliy xulq-atvorida namoyon etishi jarayoni eng faol va yaqqol shaklda kechadi.

O‘smirlar obrazi orqali madaniy identitetning ochib berilishi esa adabiyotning muhim nuqtalarini namoyon etadi. Ayniqsa, buni o‘zbek va ingliz adabiyoti misolida qiyosan o‘rganish foydali akademik qarashlarni shakllantiradi. O‘zbek va ingliz tarixi, madaniyati va ijtimoiy tuzilishi bir-biridan tubdan farq qilsa ham, har ikkala til birdek bolalar nasri va undagi o‘smirlar obrazlariga boy adabiy an’analarga ega. Zero madaniy o‘ziga xoslik qotib qolgan, o‘zgarmas narsa emas, balki doimo rivojlanib boruvchi va hech qachon to‘liq tugallanmaydigan jarayondir.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Madaniy identitet deyilganda shaxsning ma’lum bir millat, irq, jins va din kabi turli madaniy kategoriyalar asosida muayyan ijtimoiy guruhga mansublikni anglash yoki unga tegishlilik hissini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa tushinaladi. Madaniy identitet an’analar, tarixiy meros, til, estetik qarashlar, ijtimoiy me’yorlar va urf-odat kabi tushunchalarni o‘zida mujassamlaydi. Madaniy indentitet ko‘plab psixologlar va tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan tushunchadir. Ular orasida Styuart Hollning madaniy identitet haqidagi nazariyalari bir joyga jamlangan “Cultural Identity and Diaspora” (Madaniy identitet va diaspora.1990) esseyi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Madaniy o‘ziga xoslik va uni asarlarda o‘smirlar hayoti asosida ko‘rsatib berish haqida ham bir qancha nazariyalar yig‘ilgan shular orasida Erik Eriksonning “Shaxsiyat: yoshlik va inqiroz” asari o‘smirlik shaxsiyatni shakllantirish uchun eng muhim davr ekanligini tushuntiradi. Ushbu davrda yoshlar qaysidir ma’noda “inqiroz”ga duch kelishadi, ular o‘z madaniyatining qadriyatlari, rollari va umidlarini uyg‘unlashtirib, kimligini tushunishga harakat qilishadi. Eriksonning ta’rifiga ko‘ra, o‘smirlar “o‘ziga xoslik va rol chalkashliklari” deb nomlangan bosqichni muvaffaqiyatli bosib o‘tishlari kerak. Shuningdek, u ushbu jarayonni shakllantirishda madaniyat katta rol o‘ynashini ta’kidlaydi.[2] Adabiyotda o‘smir qahramonlari, ko‘pincha, bu kurashni ochib beradi. Ularning tajribalari yoshlar o‘z jamiyatining madaniy qadriyatlari doirasida o‘zlikni qanday izlashlarini aks ettiradi.

Bolalar adabiyoti tadqiqotlari doirasida Maria Nikolayeva shuni ta’kidlaydiki, badiiy asarlardagi o‘smir qahramon har doim bevosita yoki bilvosita uni shakllantiruvchi madaniy muhit fonida tasvirlanadi.[3] Mazkur madaniy kontekst qahramon shaxsiyati shakllanishining qanday yo‘llari badiiy jihatdan mumkin va ahamiyatli deb hisoblanishini belgilab beradi. Nikolayevaning qiyosiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, turli milliy adabiy an’analar o‘smir shaxs va madaniy jamoa o‘rtasidagi munosabatning mutlaqo turlicha modellarini yaratadi. Bu modellar esa o‘z navbatida jamiyatning kengroq madaniy qadriyatlarini aks ettiradi hamda mustahkamlaydi.

---

[1] Hall S. Cultural identity and diaspora. Lawrence & Wishart. London, 1990, 222 p.

[2] Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. New York, W.W.Norton, 1968, 128 p.

[3] Nikolayeva M. The Rhetoric of Character in Children’s Literature. Lanham, Scarecrow Press, 2008, 8 p.

Kler Bredford bolalar badiiy adabiyotida madaniy qadriyatlar qanday ifodalanishini tahlil qilishda aniq matniy strategiyalarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi.[1] Bunga so'zlarni tanlash, hikoya qilish uslubi, obrazlar yaratish hamda ijtimoiy-madaniy voqealarning tasviri kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola ingliz va o'zbek adabiyotida o'smir psixologiyasi hamda uning madaniy kontekstdagi ifodasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda fanlararo, tizimli va qiyosiy yondashuvlar uyg'unligi asos qilib olindi. O'smir shaxsining psixologik rivojlanishi masalalarida Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, ayniqsa "identiklik inqirozi" konsepsiyasi atroflicha o'rganiladi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunosligida o'smir obrazining milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishda Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov hamda Ibrohim G'afurovning ilmiy ishlari muhim nazariy manba sifatida qo'llaniladi. Shu bilan bir qatorda, quyidagi yondashuvlar asosida o'smirlar obrazi orqali ikki millat madaniyat va an'analari ko'rsatib beriladi.

•Tizimli yondashuv asosida o'smir psixologiyasi va uning badiiy ifodasi o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida o'rganiladi.

•Qiyosiy-tipologik yondashuv asosida turli madaniy muhitlarda yaratilgan asarlardagi o'smir obrazlari tipologik jihatdan solishtiriladi.

Antropotsentrik yondashuv asosida badiiy matnda inson omili, xususan o'smirning ichki dunyosi markaziy o'ringa qo'yiladi.

Madaniy yondashuv asosida asarlar muayyan ijtimoiy-madaniy kontekst mahsuli sifatida talqin qilinadi**.**

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz tilidagi asarlarda o'smirlar nutqi, o'y-hayollari yoki fikr qilayotganlari tasvirlangan nuqtalardan o'sha xalqlarning milliyligi, madaniyati, mentaliteti juda soda va aniq bayon qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" asarida quyidagi jumlalarga diqqat qaratsak, undagi madaniy kontekst yaqqol ko'zga tashlanadi.

(1) "It is a most miserable thing to feel ashamed of home. There may be black ingratitude in the thing, and the punishment may be retributive and well deserved; but that it is a miserable thing, I can testify."

(2) "I was ashamed of the place as a mean place, ashamed of Joe as a common labouring man, and ashamed of myself."

(3) "I want to be a gentleman."

Charlz Dikkensning "Buyuk umidlar" asari, avvalambor, Viktoriya davrida, Angliya davrida sinf, intilish va madaniy identifikatsiya o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qiluvchi asardir. Bosh qahramon Pipning temirchi ustaxonasidan London jamiyatiga bo'lgan sayohati bayon etilgan ushbu asarda o'sha davrga xos madaniyat va qadriyatlar juda batafsil yoritilgan. Ushbu gaplarda yuqori tabaqa vakili bo'lishga intilayotgan o'smirning ichki kurashi, o'z kelib chiqishidan uyalgan holati va madaniy ziddiyatga uchrayotgani berilgan. Qisqa qilib aytganda, tabaqlanish ta'sirida shakllangan qadriyatlar tasviri o'smir nutqi, o'y-hayollarida aks etgan.

O'zbek adabiyotida o'smirlar obrazi haqida gap ketganda, ko'plab yozuvchilarning yaratgan obrazlari ko'z oldimizga keladi. Shular orasida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli Tunlar" asarini eslab o'tsak. Bu asarda shox va shoir deya tilga olinadigan buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning o'smirlik davri juda mohirona tasvirlanganki, uning ruhiyati tasvirida milliy g'urur, qadriyatlarga sodiqlik va insoniylik xislatlari juda mukammal ochib berilgan. Unda Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini, tog'a-jiyanlarning fojiaviy qismati aks ettirilgan. Roman voqealari orqali o'quvchi tarixda Temuriylar o'rtasidagi nizolar, fitna, fisq-u fasod tufayli yuzaga kelgan qonli urushlar, ayovsiz xunrezliklar oqibatida behad qonxo'r beklar zulmidan sillasi butkul qurigan xalqning g'oyat nochor ahvoli va uyushqoqlikdan bexabar Temuriylarni Shayboniyxon qanchalar oson mahv etgani bilan tanishadi. Asarning bosh qahramoni Mirzo Bobur odamlardagi bemehrlik, bir-birini ko'rolmaslik, xudbinlik, xiyonat singari jirkanch illatlar bilan g'oyat erta, o'n ikki yoshida taxtga o'tirganida ro'baro' bo'ldi. Taqdirning ayanchli zarbalaridan zada bo'lgan shohning kuygan yuragi – shoir qalbi qalandarlikni ixtiyor etgani ajab emas. Asar mutolaasi davomida butun umr Vatan ishqida yonib, sog'inch bilan o'rtanib, "Jonimdin o'zga yori vafodor

[1] Bradford C. Unsettling Narratives: Postcolonial Theory and the Children's Literature of Australia and New Zealand. Waterloo: Wilfrid Laurier University Press, 2007, 19 p.

topmadim…", deya iztirob chekkan bobokalonimiz dardi kitobxon qalbini larzaga soladi.[1] Ushbu gaplarga e'tibor qaratsak, o'smirning hayot haqiqatlarini tan olish yo'lida chekkan iztiroblari bilan bir qatorda, undagi milliy g'ururni ham ko'ramiz.

(4) «Lekin barcha turkigo'y shoirlar xuddi shu tilda she'r yozganlar-ku! Agar bu o'zbek tilida bo'lsa, demak, Navoiy ham o'zbek tilida yozgan. Demak, kamina ham hozir sizlar bilan o'zbek tilida So'zlashmoqdamen. Demak, Movarounnahrning turkiy tili-yu o'zbek tili, aslida bir til. Janoblar, endi dilimiz ham bir bo'lmog'i kerak. Temuriylar turk-u o'zbek deb ulusni ulusdan ajratib, xalqni parokanda qildilar, mamlakat parchalanib, xarob bo'ldi.»[2]

Bu jumla milliy g'ururning romandagi eng kuchli ifodasidir. Bobur yosh yigit sifatida o'zbek tilining qadimiyligini va Navoiy bilan umumiyligini isbotlamoqda, xalqni til va etnik farqlarga qarab bo'lishni qoralaydi.

(5) "Bu saltanat-u podsholardan ne qolur? Hammasi nom-nishonsiz ketgay! Bizdan yodgorlik bo'lib qolsa Ulug'bek madrasasidek, Navoiy Unsiyasidek san'at asarlari qolur!"

O'smir Bobur bu so'zlari bilan moddiy boylik va taxt emas, ilm va san'at asarlari va milliy qadriyatlar abadiy ekanini tushunib yetganini ko'rsatadi. Bu uning madaniy ulg'ayganligini bildiradi.

Xulosa va takliflar. Ingliz va ozbek tilidagi badiiy adabiyotlarda o'smirlar ruhiyatini madaniy kontekst orqali qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, G'arb o'smir qahramonlari o'z jamiyatidan begonalashish orqali shaxs erkinligini izlasa, sharq yosh qahramonlari o'z xalqiga mansublik va vatanparvarlik tuyg'usi orqali kamol topadi, bu ikki model qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan individual o'z-o'zini anglash va kollektiv milliy identifikatsiya o'rtasidagi asosiy madaniy ziddiyatni yaqqol namoyon etadi. Ingliz va o'zbek tilidagi asarlardagi o'smir obrazlarining madaniy-qiyosiy tahlili kelgusida yanada keng tarqalishi lozim bo'lgan ilmiy yo'nalishlardan biridir, bunday tadqiqotlar nafaqat ikki til adabiyotidagi o'zaro boyituvchi xususiyatlarini ochib beradi, balki madaniyatlararo muloqotning asosiy ko'prigiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Hall S. Cultural identity and diaspora. Lawrence & Wishart. London, 1990, 222 p.
(2). Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. New York, W.W.Norton.1968, 128 p.
(3). Nikolayeva M. The Rhetoric of Character in Children's Literature. Lanham: Scarecrow Press, 2008, 8 p.
(4). Bradford C. Unsettling Narratives: Postcolonial Theory and the Children's Literature of Australia and New Zealand. Waterloo: Wilfrid Laurier University Press, 2007, 19 p.
(5). https://jadid.uz/pirimqul-qodirovning-yulduzli-tunlar-asaridan-iqtiboslar.
(6). https://jadid.uz/pirimqul-qodirovning-yulduzli-tunlar-asaridan-iqtiboslar.

Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o'g'li (Andijon davlat Chet tillari instituti "Ingliz tili nazariy aspektlari" kafedrasi dotsenti; mattiyev1@gmail.com)

SEMANTIK TARMOQ MODELLARI VA TARJIMA SEMANTIKASIDA MADANIYATLARARO METAFORIK EKVIVALENTLIK MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslikning kesishmasida semantik tarmoq modellarining o'rni va ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida ma'nolarning grafik struktura sifatida tasvirlanishi, Collins va Quillian ierarxik modellari, WordNet leksik-semantik bazasi hamda Fillmor freym semantikasi tamoyillari tahlil qilingan. Maqolada metaforik ma'nolarning "faollashtirish tarqalishi" (spreading activation) mexanizmi orqali shakllanishi o'zbek tili misollari (masalan, "yurak", "ko'ngil") yordamida asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy hisoblash semantikasidagi taqsimot semantikasi va vektorli embeddinglarning metafora tarjimasidagi metodologik imkoniyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *semantik tarmoq, kognitiv metafora, freym semantikasi, WordNet, faollashtirish tarqalishi, taqsimot semantikasi, konseptual graf, leksik ierarxiya, tarjima ekvivalentligi, bilimlar grafi.*

МОДЕЛИ СЕМАНТИЧЕСКИХ СЕТЕЙ И ПРОБЛЕМЫ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ МЕТАФОРИЧЕСКОЙ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В СЕМАНТИКЕ ПЕРЕВОДА

Аннотация. *В данной статье исследуется роль и значение моделей семантических сетей на стыке когнитивной лингвистики и переводоведения. В ходе исследования анализируются графическое представление языковых значений, иерархические модели Коллинза и Куиллиана, лексико-семантическая база WordNet и принципы фреймовой семантики Филлмора. В статье на примерах из*

[1] https://jadid.uz/pirimqul-qodirovning-yulduzli-tunlar-asaridan-iqtiboslar/
[2] https://jadid.uz/pirimqul-qodirovning-yulduzli-tunlar-asaridan-iqtiboslar/

узбекского языка (например, «yurak», «ko‘ngil») обосновывается формирование метафорических смыслов через механизм «распространения активации» (spreading activation). Также освещаются методологические возможности дистрибутивной семантики и векторных эмбеддингов в переводе метафор в современной вычислительной семантике.

Ключевые слова: *семантическая сеть, когнитивная метафора, фреймовая семантика, WordNet, распространение активации, дистрибутивная семантика, концептуальный граф, лексическая иерархия, переводческая эквивалентность, граф знаний.*

SEMANTIC NETWORK MODELS AND ISSUES OF CROSS-CULTURAL METAPHORICAL EQUIVALENCE IN TRANSLATION SEMANTICS

Annotation. *This article explores the role and significance of semantic network models at the intersection of cognitive linguistics and translation studies. The study analyzes the graphical representation of linguistic meanings, Collins and Quillian’s hierarchical models, the WordNet lexical-semantic database, and Fillmore’s principles of frame semantics. Using examples from the Uzbek language (e.g., "yurak", "ko‘ngil"), the article demonstrates how metaphorical meanings are formed through the "spreading activation" mechanism. Furthermore, it highlights the methodological potential of distributional semantics and vector embeddings in metaphor translation within the framework of modern computational semantics.*

Keywords: *Semantic network, cognitive metaphor, frame semantics, WordNet, spreading activation, distributional semantics, conceptual graph, lexical hierarchy, translation equivalence, knowledge graph.*

Kirish. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik va tarjimashunoslik kesishmasida semantik tarmoq modellari (semantic network models) muhim metodologik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu modellar til ma’nolarini grafik struktura sifatida tasvirlash imkonini beradi va metaforik ma’noning tuzilishi hamda tarqalishini tushuntirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, kognitiv metafora nazariyasi tafakkur va til o‘rtasidagi munosabatni konseptual kartalar orqali izohlaydi. Ushbu faslda esa semantik tarmoqlar ana shu kartalarning rasmiy modellashtirilgan shakli sifatida o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Semantik tarmoq deb tilning leksik va konseptual birliklarini tugunlar (nodes) va ularni birlashtiruvchi bog‘lanishlar (links, edges) tizimi sifatida ifodalovchi tuzilmaga aytiladi. Ushbu tushuncha birinchi marta M.Ross Quillian tomonidan 1966-yilda kompyuter dasturlash doirasida ishlab chiqilgan va keyinchalik Allan Collins hamda Ross Quillian tomonidan psixolingvistik eksperimentlar asosida rivojlantirilgan.[1] Ularning modelida har bir tushuncha (concept) tarmoqda alohida tugun sifatida ifodalanib, superordinat va subordinat kategoriyalar bilan iyerarxik tarzda bog‘lanadi. Masalan, «qush» tugunidan «ko‘ra oladi, uchadi» xususiyatlari «kafolatlanadi» va «chumchuq», «burgut» kabi tugunlar superordinat «qush» tuguniga bog‘lanadi.

Semantik tarmoq modellarida metaforik ma’no ikki asosiy hodisa orqali ifodalanadi: birinchisi, bog‘lanish turi (link type) va ikkinchisi, faollashtirish tarqalishi (spreading activation). Har bir tugun o‘zining prototipik ma’nosi (literal meaning) bilan birga metaforik proyeksiya imkoniyatlarini ham saqlaydi. Collins va Loftus ishlab chiqqan tarqaluvchi faollashtirish modelida bir tugunning faollashishi qo‘shni tugunlarga semantik masofaga teskari proporsional ravishda tarqaladi: masofa qancha uzoq bo‘lsa, faollashtirish shuncha zaifroq kechadi.[2]

Tahlil va natijalar. O‘zbek tiliga oid misol keltirilsa, «yurak» tugunining faollashishi semantik tarmoqda «sevgi», «his-tuyg‘u», «jasorat», «markaziy organ» kabi bog‘liq tugunlarni ham faollashtiradi. «Yurak» so‘zining «Uning yuragi toshdan» iborasi kontekstida ishlatilishi «tosh» tugunini ham jalb etadi va «qattiqlik», «sovuqqonlik», «his-tuyg‘usizlik» kabi xossalar «tosh» tugunidan «yurak» tuguniga metaforik proyeksiya orqali ko‘chadi. Bu holda tarmoqda yangi bog‘lanish – metaforik link – vujudga keladi va semantik tarmoq dinamik tarzda kengayadi.

O‘zbek tilidagi yana bir misol, «*ko‘ngli to‘ldi*» (qorni to‘ydi emas, ko‘ngli to‘ydi – ma’nosi: ezgulikni ko‘rib yaxshi his qildi) iborasida «ko‘ngil» tuguniga «to‘yish» va «ovqatlanish» freymidan metaforik element ko‘chib keladi. Bu jarayon Fillmore freym semantikasi nuqtai nazaridan «ovqatlanish» freymining «to‘yish» elementini «ko‘ngil» tuguniga proyeksiyalash sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu misol semantik tarmoqda metaforik boylanishning qanday amalga oshishini ko‘rsatadi.

---

[1] Collins A.M., Quillian M.R. Retrieval Time from Semantic Memory. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior. 1969, vol. 8, № 2, p. 240–247.

[2] Collins A.M., Loftus E.F. A Spreading Activation Theory of Semantic Processing. Psychological Review. 1975, vol. 82, № 6, p. 407–428

Tarjimashunoslik amaliyoti nuqtayi nazaridan, uchta asosiy semantik tarmoq modeli alohida ahamiyat kasb etadi.

Collins&Quillian modeli iyerarxik tarmoq tuzilmasiga asoslanadi va ma'lumotlarning kognitiv iqtisod (cognitive economy) tamoyiliga ko'ra saqlanishi g'oyasini ilgari suradi: umumiy xususiyatlar superordinat tugunlarda, maxsus xususiyatlar esa pastki tugunlarda saqlanadi. Ushbu model tarjimashunos uchun quyidagi amaliy savolni ko'taradi: metaforik ma'no ierarxiyaning qaysi darajasida joylashgan? Agar metafora pastki darajada (subordinat tugun) hosil bo'lsa, maqsad tildagi til sistemasida xuddi shu darajada ekvivalent tugun mavjud bo'lmasligi mumkin – aynan shu holat ekvivalensizlikning kognitiv mexanizmini tushuntirib beradi.

WordNet modeli sinsetlar (synsets) – sinonimik so'zlar to'plami va ular o'rtasidagi munosabatlar (giperonimiya, giponimiya, meronimiya, antonimiya) asosida qurilgan. WordNet ingliz tili uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, keyinchalik, ko'plab tillar uchun analoglar yaratilgan. UzNet – o'zbek tilining WordNet loyihasi – hali rivojlanish bosqichida bo'lib, metaforik ma'no ifodalanishida muhim bo'shliqlar qayd etilgan. Tarjimashunoslik uchun WordNet o'zaro bog'liq sinsetlar o'rtasida mavjud metaforik ko'chish yo'llarini kuzatish imkonini beradi.

FrameNet modeli freym semantikasi (frame semantics) nazariyasiga asoslanadi. Freym (frame) – ma'lum bir vaziyatning konseptual sxemasi bo'lib, unda ishtirokchilar (participants), voqealar (events) va munosabatlar (relations) belgilanadi. Masalan, «*savdo*» freymi sotuvchi, xaridor, tovar, narx kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Metaforik ko'chish, ko'pincha, bir freymning boshqasiga proyeksiyalanishi orqali amalga oshadi. FrameNet modelining tarjimashunoslikdagi asosiy afzalligi shundaki, u madaniy kontekstni qo'shimcha freym elementlari orqali aks ettira oladi.

Semantik tarmoq tushunchasi bir tomondan kognitiv arxitektura sifatida, ikkinchi tomondan, bilimlar bazasi dizayni sifatida qaraladi. Bugungi hisoblash semantikasida bu atama, ko'pincha, leksik resurslar, ontologiyalar va bilim graflarini qamrab oladigan keng doirada ishlatiladi. Klassik tarmoq g'oyalarni formal mantiq bilan yaqinlashtirishda konseptual graf yondashuv aslida alohida o'rin tutadi. Konseptual graf tushunchasi tugunlar va munosabat tugunlarini mantiqiy semantika bilan bog'lab, tabiiy til va formal ifoda o'rtasida beositda moslashtirish maqsadini ko'zlaydi. U semantik tarmoqlar, shuningdek, mavjudlik graflari an'anasiga tayangan holda ishlab chiqilgan.[1] Ushbu model metaforik xaritalashlarni tasvirlashda foydali bo'lishi mumkin, chunki metafora ko'pincha bir sahna elementlarini boshqa sahna munosabat tarmog'iga ko'chiradi. Konseptual graf esa aynan munosabatlar tuzilishini aniq ko'rsatishga imkon beradi. Biroq konseptual grafning kuchli tomoni formalizatsiya bo'lsa, uning amaliy qo'llanilishi ko'pincha resurs va annotatsiya ishining murakkabligi bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun konseptual graf yondashuvi Wordnet va FrameNet kabi resurslar bilan birga ishlatiladi.

Ushbu uch model shuni ko'rsatadiki, tarjima semantikasi uchun FrameNet madaniy kontekstni eng to'liq aks ettirishga imkon beradi, ammo uning bazasi hali barcha tillar, jumladan o'zbek tili uchun ham to'liq rivojlanmagan. Collins & Quillian modeli nazariy asoslar uchun muhim bo'lsa-da, amaliy tarjima muammolarini hal etishda cheklangan. WordNet esa amaliy ekvivalentlikni qidirish uchun qimmatli vosita bo'lsa-da, metaforik ma'no ifodalanishida kamchiliklar seziladi.

Freym semantikasi va freym asosli resurslar sematik tarmoqlarning yana bir muhim yo'nalishini tashkil etadi. S.Fillmor freym semantikasida so'z ma'nosi freym deb ataluvchi tajriba ssenariysi bilan bog'lanadi, ya'ni ma'no alohida belgi sifatida emas, balki rol, ishtirokchi va tipik vaziyatlar tizimi sifatida talqin qilinadi.[2] FrameNet loyihasi freym semantikasi tamoyillarini korpus asosida qabul qilib, leksik birliklar uyg'otadigan freymlarni va ularning argument rollarini annotatsiya qilishni maqsad qilgan. Bu resursning korpus bilan bog'langanligini metafora tahlilida ham katta ahamiyatga ega, chunki metaforik ifoda ko'pincha bir freymni boshqasiga majburiy uyg'otish orqali ishlaydi. Freym yondashuvi tarjimada madaniy transferni tahlil qilish uchun ham tabiiy platforma beradi, chunki *scenes and frames* fikri tarjimonning ma'no sahnasini qayta qurish faoliyatini tushuntirishga yaqin turadi, bunda manba matndagi sahna elementlari nishon matnda boshqa freym konfiguratsiyasi orqali berilishi mumkin.

Leksik tarmoqlar ichida WordNet tipidagi resurslar semantik munosabatlarni sinonimiya to'plamlari va iyerarxik yo'nalishlar orqali beradi. WordNet ingliz tilidagi ot, fe'l, sifat, ravishlarni "synset" to'plamla-

[1] Sowa J.F. Conceptual Graphs as a Universal Knowledge Representation. Computers&Mathematics with Applications. 1992, vol. 23, № 2–5, p. 75–93.

[2] Fillmore C.J. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. Ed. by The Linguistic Society of Korea. Seoul: Hanshin Publishing Co., 1982, p. 111–137.

riga ajratib, ular orasida hiperonimiya, hiponimiya, meronimiya kabi munosabatlarni ko‘rsatadi; bu munosabatlar ma’no farqlarini tarmoq strukturasida ko‘rishga imkon beradi.[1] Metafora tarjimasida WordNet ikki tomondan foyda beradi: birinchi tomondan, metaforik birlikning “asosiy ma’nosi”ni aniqlashda leksik iyerarxiya yordam beradi, ikkinchi tomondan, tarjima variantlarining semantik yaqinligini taxminiy baholashga xizmat qiladi. Biroq WordNet, asosan, ingliz tili uchun yuqori qamrovga ega; o‘zbek tilida shunga teng resurslar har doim ham tayyor bo‘lmaydi. Shu holatda BabelNet kabi ko‘p tilli semantik tarmoqlar WordNet va ensiklopedik bilimni integratsiya qilib, ko‘p tilga yoyilgan konsept identifikatorlarini taklif etadi[2]. Bundan tashqari, ConceptNet kabi umumiy bilim graflari so‘z va iboralarni belgilangan munosabatlar orqali bog‘lab, taqsimot semantikasi bilan birga ishlatilganda ko‘plab semantik vazifalarda foyda berishi ko‘rsatilgan.[3]

Xulosa. Taqsimot semantikasi semantik tarmoq va leksik resurslardan farqli ravishda ma’noni statistik qo‘shnilik va kontekst taqsimoti orqali o‘lchaydi. Harris taqsimot strukturasi g‘oyasini ilgari surib, til birliklarining muhitlari tizimli ekanini ko‘rsatadi; keyingi an’anada “so‘zni u bilan birga keladigan so‘zlar orqali bilish” prinsipi taqsimot semantikasining poydevori sifatida qaraladi.[4] Landauer va Dumais latent se-mantik tahlil orqali katta matn korpusidan yashirin o‘lchamlar chiqarib, semantik yaqinlikni vector fazoda ifodalash mumkinligini ko‘rsatadi; bu yondashuv keyingi embedding modellariga yo‘l ochgan.[5] Mikolov esa katta ma’lumotlarda so‘z vektorlarini samarali o‘rganish usullarini taqdim etib, analogiya va o‘xshash-lik vazifalarida kuchli natijalarni ko‘rsatadi.[6] Metafora tarjimasida taqsimot semantikasi ayniqsa shunday holatlarda foydali bo‘ladiki, manba va nishon tilida metafora bir xil domen xaritasiga tayansa ham, leksik realizatsiya turlicha bo‘ladi; vektor yaqinlik tarjimon tanlagan variantning umumiy semantik “muhit”ga mosligini tekshirishga yordam beradi. Biroq taqsimot semantikasi, ko‘pincha, tushunutirolmaslik muam-mosiga duch keladi, shu sabab bobda u bilim graflari va freym tarmoqlari bilan birlashtirilgan ko‘rinishda taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Navigli R., Ponzetto S.P. BabelNet: The Automatic Construction, Evaluation and Application of a Wide Coverage Multilingual Semantic Network. Artificial Intelligence. 2012, vol. 193, p. 217–250.

(2). Speer R., Havasi C. Representing General Relational Knowledge in ConceptNet 5. Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation. Istanbul, European Language Resources Association, 2012, p. 3679–3686.

(3). Harris Z.S. Distributional Structure. Word. 1998, vol. 10, № 2–3, p. 146–162.

(4). Landauer T.K., Dumais S.T. A Solution to Plato‘s Problem: The Latent Semantic Analysis Theory of Acquisition, Induction, and Representation of Knowledge. Psychological Review. 1997, vol. 104, № 2, p. 211–240.

(5). Mikolov T., Yih W.T., Zweig G. Linguistic Regularities in Continuous Space Word Representation. Proceedings of the 2013 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies. Atlanta, Association for Computational Linguistics, 2013, p. 746–751.

Nusratilloyeva Dilnoza (f.f.f.d., Navoiy davlat universiteti; E-mail: nusratilloyevadilnoza2@gmail.com)

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA TABIATNI ASRASH VA EKOLOGIYA MUAMMOLARINING POETIK TALQINI

Annotatsiya. *Maqolada Matnazar Abdulhakim she’riyatida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini tahlil qilingan. Shoir asarlaridagi ekologik muammolar, atrof-muhit musaffoligini saqlash, va tabiatga bo‘lgan mas’uliyatning falsafiy-poetik asoslari yoritilgan. Maqolada badiiy san’atlar va ramziy obrazlar orqali ekologik inqirozning ma’naviy-axloqiy yechimlari ochib beriladi.*

[1] Fellbaum C., ed. WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1998, 423 p.

[2] Navigli R., Ponzetto S.P. BabelNet: The Automatic Construction, Evaluation and Application of a Wide Coverage Multilingual Semantic Network // Artificial Intelligence. 2012, vol. 193, p. 217–250.

[3] Speer R., Havasi C. Representing General Relational Knowledge in ConceptNet 5. Proceedings of the Eighth International Conference on Language Resources and Evaluation. Istanbul, European Language Resources Association, 2012, p. 3679–3686.

[4] Harris Z.S. Distributional Structure. Word. 1998, vol. 10, № 2–3, p. 146–162.

[5] Landauer T.K., Dumais S.T. A Solution to Plato’s Problem: The Latent Semantic Analysis Theory of Acquisition, Induction, and Representation of Knowledge. Psychological Review. 1997, vol. 104, № 2, p. 211–240.

[6] Mikolov T., Yih W.T., Zweig G. Linguistic Regularities in Continuous Space Word Representations. Proceedings of the 2013 Conference of the North American Chapter of the Association for Computational Linguistics: Human Language Technologies. Atlanta, Association for Computational Linguistics, 2013, p. 746–751.

Kalit so‘zlar: *Matnazar Abdulhakim, ekologiya, tabiat, poetik talqin, lirik qahramon, inson va tabiat, ma’naviyat, ekologik muammo, orol muammosi, ramz, o‘zbek she’riyati.*

ПОЭТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ ОХРАНЫ ПРИРОДЫ И ЭКОЛОГИИ В ТВОРЧЕСТВЕ МАТНАЗАРА АБДУЛХАКИМА

Аннотация. *В статье анализируется художственная интерпретация, взаимоотношений природы и человека в поэзии Матназар Абдулхакима. Рассматриваются философско- поэтические основы экологических проблем и ответственности за сохранение окружающей среды. В исследовании через художественные средства и символические образы раскрываются духовно – нравственные пути решения экологического кризиса.*

Ключевые слова: *Матназар Абдулхаким, экология, природа, поэтическая интерпретация, лирический герой, человек и природа, духовность, экологическая проблема, символ, узбекская поэзия.*

POETIC INTERPRETATION OF NATURE CONSERVATION AND ECOLOGY PROBLEMS IN THE WORK OF MATNAZAR ABDULHAKIM

Annotation. *The article analyzes the artistic interpretation of the relationship between nature and humanity in the poetry of Matnazar Abdulhakim. It explores the philosophical and poetic foundations of environmental issues, the preservation of nature, and ecological responsibility. The research highlights the spiritual and ethical solutions to the ecological crisis through artistic techniques and symbolic imagery in the poet’s works.*

Keys words: *Matnazar Abdulhakim, ecology, nature, poetic interpretation, lyrical hero, man and nature, spirituality, ecological problem, island problem, symbol, uzbek poetry.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asar bahosini belgilovchi bir qancha tamoyillar, nazariyalar, mezonlar mavjud bo‘lsa-da, hech shubhasiz, ularning umrboqiyligini mavzu va g‘oyasi hal etadi. Darhaqiqat, dunyoning turli xalqlariga mansub mashhur yozuvchi va shoirlarning ijodiga nazar tashlansa, ko‘pincha ular asarlaridagi mavzular insoniyatga daxldor global muammolarga bag‘ishlanganligi bilan e’tiborni tortadi. Ammo teranroq tahlillar mazkur asarlardagi ushbu jihatdan qamrovdorlik, avvalo, ijodkor subyekti, oilasi va millati, umuman, vatanidan boshlanganligini ko‘rsatadi. Zero, “Barkamol va sog‘lom qalbda Vatan taqdiri mumtoz o‘rinni ishg‘ol etadi, har qanday olijanob shaxs vatan bilan qon-qarindoshligini u bilan o‘zi orasidagi muqaddas bog‘lanishni teran anglaydi” [1].

